

SH. SODIQOVA

MAKTABGACHA PEDAGOGOKA



Toshkent – 2013

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SH.SODIQOVA

MAKTABGACHA PEDAGOGIKA

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan 5111800 – «Maktabgacha ta'lim» yo'nalishida ta'lim
olayotgan talabalar uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*

«TAFAKKUR BO'STONI»
TOSHKENT – 2013

UO'K: 373.2(075)

74.1

C-73

Mas'ul muharrir:

Inoyatov Ulug'bek Ilyosovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Shukrullo Mardonov – pedagogika fanlari doktori;

Shoira Shodmonova – pedagogika fanlari doktori

Sodiqova Sh.

Maktabgacha pedagogika: darslik/Sh. Sodiqova: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – Toshkent: «Tafakkur Bo'stoni», 2013 – 288-b.

KBK 74.1ya73

ISBN 978-9943-362-96-3

Mazkur darslik "Maktabgacha pedagogika" o'quv fan dasturi asosida yozilgan bo'lib, Maktabgacha pedagogikaning umumiy asoslari, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish mazmuni va uslubikasiga doir masalalarni o'z ichiga qamrab olgan. Shuningdek, darslikdan maktabgacha ta'lim muassasasi menejmenti, mudira va uslubchi faoliyati, maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab va oila hamkorligi masalalariga ham to'xtalgan.

Darslikdan pedagogika oliy ta'lim muassasalarining maktabgacha ta'lim va pedagogika-psixologiya bakalavriyat ta'lim yo'nalishlarida asosiy o'quv adabiyoti sifatida foydalanish tavsiya etiladi.

UO'K: 373.2(075)

KBK 74.1ya73

ISBN 978-9943-362-96-3



© Sodiqova Sh., 2013

© «Tafakkur Bo'stoni», 2013

SO‘ZBOSHI

O‘zbekiston Respublikasi huquqiy demokratik jamiyat qurish yo‘lidan borar ekan, o‘z fuqarolarining, ayniqsa, yangi jamiyat barpo etishga bel bog‘lagan, o‘zib kelayotgan yosh avlodning barkamol bo‘lib voyaga yetishiga alohida e‘tibor qaratmoqda. Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo‘lib kelgan. Tabiiyki, hozirgi ta‘lim islohotlari sharoitida ham barkamol shaxs tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yurtboshimiz I.A.Karimov ham barkamol avlod tarbiyasi haqida gapirar ekanlar: “Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘ - e‘tibori avvalambor farzandlarimizning unib - o‘zib, ulg‘ayib, qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir.”¹ - deb alohida ta‘kidlaganlar.

Jamiyat rivojining hozirgi bosqichida yuz berayotgan ijtimoiy - iqtisodiy, ma‘naviy - ma‘rifiy o‘zgarishlar ta‘lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma‘naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash hamda ta‘lim - tarbiya jarayonini takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirishni taqozo etmoqda.

Ta‘lim tizimi oldidagi davlat buyurtmasi O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning asosiy g‘oyalari o‘z aksini topgan.

“Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da uzluksiz ta‘lim tizimida bolalarni o‘quv fanlari bo‘yicha muayyan bilimlarni egallashlari barobarida, ularning bilim olishga bo‘lgan ehtiyoji, mustaqil va ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyatlari, amaliy tajriba va mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma‘naviy-axloqiy fazilatlarini, atrof-muhitga ongli munosabatni tarkib toptirishi lozimligi qayd etilgan. Shuningdek, bolalarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash va ta‘lim-tarbiya ishlarining samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish, ularni amaliyotga joriy etish ko‘rsatilgan. Bu vazifalarni amalga oshirish uzluksiz ta‘lim tizimida pedagogik faoliyat ko‘rsatadigan tarbiyachilar zimmasiga yuklanadi.

1. I.A. Karimov «Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch» Toshkent, «Ma‘naviyat», 2008-yil.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” yuksak umumiy madaniyatga va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, siyosiy hamda ijtimoiy hayotda to‘g‘ri yo‘l topa bilish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish, shuningdek, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda, davlat va oila oldida o‘z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutgan pedagogik g‘oyani ilgari suradi.

Ushbu pedagogik g‘oya ta‘lim tizimi oldiga:

– ta‘lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan huquqiy-demokratik davlat qurilishi jarayonlariga moslash;

– kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

– ta‘lim oluvchilarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va uslublarini ishlab chiqish hamda joriy etish vazifalarini ko‘ndalang qilib qo‘ydi.

“Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunning 30-moddasi orqali farzandlar tarbiyasi va ta‘lim olishlari, ularning qonuniy huquqlari va manfaatlari himoyasi borasida ota-onalarning o‘rni va javobgarligi oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasida “Maktabgacha ta‘lim to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta‘limni oilada, maktabgacha ta‘lim muassasalarida oladi.

Maktabgacha ta‘lim muassasalarida ta‘lim-tarbiyani tarbiyachi pedagoglar amalga oshiradi. Har bir ota-ona o‘z farzandining bilimdon, yuksak mahoratli, odobli pedagog-tarbiyachi qo‘lida ta‘lim-tarbiya olishini xohlaydi.

Jamiyat talabi darajasidagi tarbiyachi-pedagoglarni yetishtirish pedagogika oliy ta‘lim muassasalarining “Maktabgacha ta‘lim” yo‘nalishi zimmasiga tushadi. Mutaxassislik fani bo‘lgan Maktabgacha pedagogika fanining nazariy asoslari, ta‘lim-tarbiya berishning tartib-qoidalari O‘rta Osiyo va jahon ma‘rifatparvar, mutafakkir olimlarning asarlariga suyan-gan holda komil insonni tarbiyalashga asoslanadi.

“Maktabgacha pedagogika” fani orqali talabalar ilk yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni oilada va maktabgacha ta‘lim muassasalarida ta‘lim-tarbiya ishlari mazmuni, uslublari, uni tashkil etish shakllari va bolalarni maktabga tayyorlashning samarali usullarini bilib oladilar.

So‘nggi yillarda respublikamizda maktabgacha ta‘lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilib, Maktabgacha ta‘lim konsepsiyasi, “Bolajon” tayanch dasturi kabi qator me‘yoriy-huquqiy asoslar yaratildi. Bularning barchasi “Maktabgacha pedagogika” fani bo‘yicha yaxlit darslik yaratish talabini shart qilib qo‘ydi. Ana shu asosdan kelib chiqqan holda oliy ta‘lim sohasida faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilar oldiga yangi o‘quv adabiyotlar, darsliklar yaratish dolzarb vazifa sifatida belgilab berildi. “Maktabgacha pedagogika” darsligi ana shunday ijtimoiy zaruriyat natijasida yaratilgan o‘quv adabiyotidir.

“Maktabgacha pedagogika” darsligi beshta bo‘limni o‘z ichiga olgan bo‘lib, unda maktabgacha pedagogikaning umumiy asoslari, maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash mazmuni va uslubikasi, maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarni o‘qitish mazmuni va uslubikasi hamda maktabgacha ta‘lim muassasasi menejmenti, mudira va uslubchi faoliyati, maktabgacha ta‘lim muassasalari, maktab va oila hamkorligiga doir masalalar tizimli, izchil va ketma-ketlikda yoritib berilgan.

**I BO'LIM. MAKTABGACHA PEDAGOGIKANING
UMUMIY ASOSLARI**
**I bob. KADRLAR TAYYORLASH MILLIY MODELII.
MAKTABGACHA TA'LIMGA KIRISH**

**Kadrlar tayyorlash
milliy modeli va uning
mazmun-mohiyati**

O'zbekiston Respublikasi mustaqil-likni qo'lga kiritgach, ijtimoiy hayoti-mizning barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirila boshlandi.

Totalitar boshqaruv usuli asosida ish yuritilayotgan xalq ta'limi tizimida yuzaga kelgan muammolarni hal etish vazifasi Respublika hukumati hamda mutasaddi tashkilotlarni ta'lim tizimida ham jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishga undadi. Bu boradagi sa'i-harakatlarning samarasi sifatida 1992-yil iyul oyida mustaqil O'zbekistonning ilk "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun mazmunida Respublika ta'lim tizimi, uning asosiy yo'nalishlari, maqsad-vazifalari, ta'lim bosqichlari va ularning mohiyati kabi masalalar o'z ifodasini topdi. Biroq, 1997-yilga kelib, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va uning mazmunida ilgari surilgan g'oyalarning amaliyotga tatbiqi tahlil etilganda, bu borada muayyan kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi aniqlandi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ta'lim tizimida olib borilayotgan islohot aksariyat o'rinlarda chuqur ilmiy asoslarga ega bo'lmaganligi ma'lum bo'ldi hamda kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish zarurligi belgilandi. Shu bois O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining qoidalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi, jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir².

2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. - T.: «Sharq». 1997 - .20-b.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning maqsadi – taʼlim sohasini tubdan isloh qilish, uni oʻtmishdan qolgan mafkuraviy qarash va sarqitlardan toʻla xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak maʼnaviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdan iboratdir³.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ilgari surilgan maqsadlarni toʻlaqonli roʻyobga chiqarish bir qator vazifalarning ijobiy hal qilinishini nazarda tutadi. Dasturda bu boradagi vazifalarning quyidagilardan iboratligi koʻrsatiladi:

– “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq taʼlim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat taʼlim muassasalari hamda taʼlim va kadrlar tayyorlash sohasida, raqobat muhitini shakllantirish negizida taʼlim tizimini yagona oʻquv, ilmiy-ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni taʼminlash;

– taʼlim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslashtirish;

– kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan taʼminlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini koʻtarish;

– kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

– taʼlim oluvchilarni maʼnaviy axloqiy tarbiyalashning va maʼrifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

– taʼlim va kadrlar tayyorlash, taʼlim muassasalarini attestatsiyadan oʻtkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy qilish;

– yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda taʼlimning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat koʻrsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini taʼminlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

– taʼlim, fan, ishlab chiqarishning samarali integratsiyalashuvini taʼminlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan

3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. - T.: «Sharq». 1997. - 25-b.

davlatning talablarini, shuningdek, nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish:

- uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mablag'lar, shu jumladan, chet el investitsiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- kadrlar tayyorlash sohasida o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish⁴.

Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Har bir bosqichda muayyan vazifalarning hal etilishi nazarda tutiladi. Ushbu vazifalar quyidagilardan iboratdir:

Birinchi bosqich (1997–2001-yillar) – mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan – ilmiy-uslubiy, moliyaviy shart-sharoitlarni yaratish;

Ikkinchi bosqich (2001–2005-yillar) – Milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish;

Bu bosqichda, shuningdek, ta'lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to'ldirish ta'minlanadi, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi.

Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar) – to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

Bu bosqichda, yana shuningdek,

– ta'lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash;

– o'quv-tarbiya jarayoni yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlanishi;

– milliy (elita) oliy ta'lim muassasalarini qaror toptirish va rivojlantirish;


– ta'lim jarayonini axborotlashtirish, uzluksiz ta'lim tizimi jahon axborot tarmog'iga ulanadigan kompyuter axborot tarmog'i bilan to'liq qamrab olinishiga erishish kabi vazifalarning ham ijobiy yechimi ta'minlanadi.

4. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. - T.: «Sharq», 1997. - .27–29-b.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlari

Kadrlar tayyorlash milliy modeli faqat ta'lim-tarbiya jarayoninigina qamrab olmay, ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlarni ham o'z ichiga oladi.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish kabi tarkibiy qismlarning o'zaro hamkorligi, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik asosida "yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash Milliy tizimi" mohiyatini aks ettiruvchi andoza, loyiha hisoblanadi (1-rasm):



1-rasm: Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:

1. *Shaxs* kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekt, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchisidir;

2. *Davlat va jamiyat* ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi hamda kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillaridir;

3. *Uzluksiz ta'lim* malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlari, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi;

4. *Fan* yuqori malakali mutaxassisni tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi bo'lib, Kadrlar tayyorlash milliy tizimida tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari to'g'risidagi yangi fundamental va amaliy bilimlardan foydalanishni, yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tarkibini shakllantirishni, ulardan ta'lim tizimida unumli foydalanishni, shuningdek, kadrlar tayyorlash jarayonining ilmiy tadqiqotlar infrastrukturasi yaratish, ta'limning axborot tarmoqlarida foydalanish uchun bilimning turli sohalari bo'yicha axborot bazasini shakllantirishni hamda ilmiy tadqiqotlar darajasiga yangicha qarashlar zahirida yosh olimlarning, ilmiy-pedagogik xodimlarning ijtimoiy mavqeyi va obro'sini oshirishni va shu kabilarni qamrab oladi»;

5. *Ishlab chiqarish* – kadrlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnika jihatdan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

Globalashuv va jamiyatni isloh etish sharoitida yangicha fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash ta'lim tizimida ham jiddiy o'zgarishlar kiritishni

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning alohida turi sifatida

talab etadi. Dunyo davlatlari orasida O'zbekiston Respublikasida birinchilardan bo'lib umum-bashariy tavsifga ega mazkur muammoni hal etishga doir konseptual-nazariy asoslar yara-

tildi va tizimli tarzda amaliyotga tatbiq etib borilmoqda. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, "Mamlakatimizning istiqbol yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq, buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish. milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda"⁵. Mazkur ezgu maqsadni hayotda o'z isbotini topishida O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda belgilab berilganidek, maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk maktabda o'qishga tayyorgarlik darajasida shakllantirish maqsadida tashkil etiladi. Ushbu ta'lim bolaning 6–7 yoshga to'lgunga qadar oilada maktabgacha ta'lim muassasalari

5. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: «Sharq», 1997. – 14-15-b.

(yaslilar uch yoshgacha bo'lgan bolalar uchun; bolalar bog'chalari 3 yoshdan 6–7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun) va mulk shaklidan qat'iy nazar ta'lim muassasalarida olib boriladi⁶.

O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi"da ko'rsatib o'tilganidek, maktabgacha ta'lim – bu ko'p tomonlamali, maqsadga yo'naltirilgan, bolani ta'limning keyingi bosqichi – maktab ta'limiga tayyorlovchi, jismoniy, ruhiy, individual va yoshga doir rivojlaniшинi ta'minlovchi ta'lim va tarbiya jarayonidir⁷.

Maktabgacha ta'limning vazifalariga esa quyidagilar kiradi:

1) bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va umum-bashariy qadriyatlar asosida aqliy va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash;

2) bolalarda milliy g'urur, vatanparvarlik hislarini shakllantirish;

3) maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish mayllarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash;

4) bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish;

5) bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini ta'minlash.

Maktabgacha ta'lim muassasalari hududlarning demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil etish va tugatish Qonunga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim muassalari yo'nalishiga qarab quyidagi *turlarga* bo'linadi:

- bolalar yaslisi, bolalar bog'chasi, bolalar yasli bog'chasi, xonadon bolalar bog'chasi;

- bog'cha-maktab majmuasi;

- tarbiyalanuvchilarni bir yoki bir necha ustuvor yo'nalishlarda rivojlantiradigan maktabgacha ta'lim muassasasi (til o'rgatuvchi, musiqa, sport yo'nalishlari bo'yicha);

- tarbiyalanuvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi kamchiliklarini bartaraf etishni ustuvor ravishda amalga oshiruvchi maxsus maktabgacha ta'lim muassasalari;

6. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni// "Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" kitobida. – T.: «Sharq». 1997.

7. Kadirova F.R., Kadirova R.M., Vaxobova F.N. Konsepsiya doshkolnogo obrazovaniya Respubliki Uzbekistan. – T.: "Fan va texnologiyalar", 2011. – 4-b.

- sanitariya-gigiena, profilaktika va sog'lomlashtirish tadbirlarini muolajalari ustuvor ravishda amalga oshiriladigan sog'lomlashtiruvchi bolalar bog'chasi;

- aralash turdagi maktabgacha ta'lim muassasalari.

Mazkur maktabgacha ta'lim turlari ota-onalar tomonidan tanlanadi.

O'zbekiston Respublikasida *maktabgacha ta'limni rivojlantirish maqsadi* quyidagilarda aks etadi:

1) maktabgacha ta'lim muassasalarining maqomini oshirish;

2) ota-onalarning talab va takliflarini inobatga olgan holda. maktabgacha ta'lim muassasalarining xilma-xil turlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish.

Qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni muvafaqqiyatli hal etish zaruriyati mavjud:

1) maktabgacha ta'lim muassasalarining davlat tizimini saqlab qolish;

2) maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablarini aniqlashtirish;

3) maktabgacha ta'limning yangi mazmun va texnologiyasini ishlab chiqish;

4) variativlik, ochiqlik, oila, maktab va mahalla hamda nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikni tashkil etish tamoyiliga muvofiq maktabgacha ta'lim muassasalarining tashkiliy tuzilishiga o'zgartirishlar kiritish;

5) jamiyat rivojlanishi bilan bog'liqlikda qo'yiladigan talablar va shart-sharoitlardan kelib chiqib maktabgacha ta'limning o'z vaqtida va muvafaqqiyatli moslashuviga erishish;

6) maktabgacha ta'limdagi o'zgarishlarga tezda moslasha oladigan maktabgacha ta'lim muassasasi uchun kadrlar tayyorlashning tizimini takomil-lashtirish.

Maktabgacha ta'lim Konsepsiyasi

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining birinchi – maktabgacha ta'lim rivojining zamonaviy bosqichi qator o'zgarishlar bilan

tavsiflanadi: maktabgacha ta'lim ochiq turdagi ta'lim muassasasi sifatida shakllandi; maktabgacha ta'lim muassasalarining eng muhim funksiyasi bolalarning hayotiy faoliyatini muhofaza qilish va salomatligini mustahkamlash; tarbiyalanuvchilarni maktab ta'limiga muvafaqqiyatli tayyorlash va boshqalar. Shuningdek, bugungi kunda respublikamizda xilma-xil (yasli, bolalar bog'chasi, bolalar bog'chasi-boshlang'ich maktab, davlatga qarashli va xususiy) turdagi maktabgacha ta'lim muassasalari ham faoliyat yuritmoqda.

1997-yilda YuNESKO qaroriga ko'ra, maktabgacha ta'limning nazariy asoslarini qayta ko'rib chiqish zaruriyati bilan asoslangan "maktabgacha ta'lim" atamasi qabul qilindi. Ana shunday asosdan kelib chiqqan holda 2011-yilda respublikamizda maktabgacha ta'lim rivojining asosiy yo'nalishlari, maqsad va vazifalari, tamoyillarini o'z ichiga olgan "Maktabgacha ta'lim Konsepsiyasi" ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim Konsepsiyasi" uch bosqichda amalga oshiriladi:

I bosqich – qonunchilik faoliyatiga doir – 2012–2014-yillar.

II bosqich – tashkiliy-amaliy – 2015–2017-yillar.

III bosqich – yakuniy – 2018–2020-yillar.

"Maktabgacha ta'lim Konsepsiyasi" maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha alohida yoritib o'tilgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, unda respublikamizda maktabgacha ta'limni rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari o'z aksini topgan.

Mazkur konsepsiya *beshta bo'limni* o'z ichiga olgan bo'lib, kirish (preambula), asosiy qism (konsepsiyaning asosiy mazmuni), maktabgacha ta'lim tizimining tuzilishi, maktabgacha ta'lim muassasalarining dasturiy-uslubik ta'minoti, maktabgacha ta'limda pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish masalalari yoritib berilgan.

"Maktabgacha ta'lim Konsepsiyasi"ning bosh g'oyasini shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish tashkil etgan. Ana shu asosdan kelib chiqqan holda maktabgacha ta'limda ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etishga doir zamonaviy yondashuvlar sifatida ijtimoiy-pedagogik, gnoseologik (bilishga doir), psixologik, akmeologik kabilarga alohida e'tibor qaratish, ulardan yaxlit tarzda foydalanish bayon etilgan.

Shuningdek, Konsepsiyada maktabgacha ta'limning asosiy ikkita–didaktik va uslubik modellarining mohiyati ham chuqur va etarlicha yoritib berilgan. Har ikkala model ham shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari nuqtayi nazaridan asoslab berilgan bo'lib, ularning asosiy tamoyillari, ta'lim vositalari, bosqichlari hamda pedagog va bolalarning o'zaro harakati turlari aniq ko'rsatib berilgan.

Konsepsiyaning uchinchi – "Maktabgacha ta'limning tuzilishi" bo'limida maktabgacha ta'lim muassasalarining turlari, tabaqalashtirilgan yondashuv asosida maktabgacha ta'lim muassasalarida guruhlarini shakl-

lantirish, ularni zarur jihozlar bilan ta'minlash, mazkur ta'lim muassasalarida ijtimoiy va psixologik xizmatni yo'lga qo'yish, maktabgacha ta'lim muassasalari uchun tarbiyachilar tayyorlash tizimi, maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Konsepsiyada maktabgacha ta'lim muassasalarida asosiy e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan guruhlarini tashkil etishning tabaqalashtirilgan yondashuvga asoslangan quyidagi maqbul varianti taqdim etilgan:

- ilk yosh guruhida – 8–10 bola
- ilk yoshdan uch yoshgacha – 10–14 bola
- uch yoshdan besh yoshgacha – 14–20 bola
- besh yoshdan yetti yoshgacha guruhda – 20–25 bola
- turli yoshdagi tarbiyalanuvchilardan tashkil topgan guruhda: 10-12 ta bolaning qamrab olinishi maqsadga muvofiq.

Shuningdek, Konsepsiyada ta'kidlab o'tilganidek, maktabgacha ta'lim muassasalarini narsa-buyumlar bilan jihozlashda milliy-etnik, moddiy va ma'naviy qadriyatlar uyg'unligiga erishish lozim. Chunki aynan maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab bolada ma'naviy-axloqiy qiyofa shakllana borib, uning har tomonlama uyg'un rivojlanishiga tamal toshi qo'yiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida psixologik va ijtimoiy xizmatning birga olib borilishi tarbiya samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Psixologik xizmat bolaning har tomonlama, psixik va shaxsiy rivojlanishiga imkon bersa, ijtimoiy xizmat esa bolaning sotsium (ta'lim muassasasi, oila va mahalla)dagi tarbiyasi, rivojlanishi va to'liq ijtimoiylashuvini ta'minlashga doir shart-sharoitlar yaratadi.

“Maktabgacha ta'lim Konsepsiyasi”da belgilab berilgan yana bir muhim vazifa maktabgacha ta'lim muassasalarining dasturiy-uslubik ta'minotini takomillashtirishdir. Yaratilishi lozim bo'lgan dasturiy-uslubik majmua maktabgacha ta'limga qo'yilayotgan talablar, bolalar bilan ishlash, ularni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini amalga oshirishni ta'minlashi zarur. Mazkur majmuada tarbiyachilar va maktabgacha ta'lim sohasida faoliyat yurituvchi boshqa mutaxassislar uchun yangi avlod darslik va o'quv qo'llanmalari o'rin egallashi kerak.

“Bolajon” tayanch dasturi maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni rivijlantirishning muhim manbai

Bolajon tayanch dasturi maktabgacha ta’lim tizimidagi barcha muassasalar uchun bajarilishi zarur bo’lgan, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni rivijlantirishga qo’yiladigan minimal talablarni o’zida ifoda etuvchi muhim me’yoriy hujjatdir. 2008-yil 28-sentabrda XTV hay’at yig’ilishining 10/4 qarori bilan takomillashtirilgan maktabgacha yoshdagi bolalar rivijlanishiga qo’yiladigan Davlat talablari tasdiqlandi. Bu Davlat talablarini amaliyotga joriy etish zarurati “Bolajon” tayanch dasturini ishlab chiqishga sabab bo’ldi.

Tayanch dasturning maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarni jismonan sog’lom, aqlan va ma’nan yetuk, jamiyatning turli a’zolari bilan faol muloqotda bo’la olishlari, borliqni aniq idrok etish, ijtimoiy moslashuvchan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini o’zlashtirishlariga qo’yiladigan davlat talablarining to’liq bajarilishiga erishishdir.

Dasturning vazifasi bolalarni jismoniy, aqliy hamda ijtimoiy-hissiy jihatdan kamol toptirish; ularning salomatligini muhofaza qilish; bolalarning erkin fikrlashlari va ijodiy qobiliyatlarini rivijlantirish; axloqiy va ma’naviy jihatdan har tomonlama barkamol bo’lib voyaga yetishlari uchun shart-sharoit yaratishdan iborat.

“Bolajon” tayanch dasturining tuzilmasi:

Kirish

1. Bolalarning rivijlanish xususiyatlari
2. Jismoniy rivijlanish
3. Mashg’ulotlar jadvali (haftalik, oylik, 1-yarim, 2-yarim yillik va jami)
4. Ijtimoiy-hissiy rivijlanish
5. Nutq, o’qish va savodga tayyorgarlik
6. Bilish jarayoni: atrof olam to’g’risidagi bilimga ega bo’lish va uni anglash
7. Foydalanilgan adabiyotlar (139–140-betlarda)
8. Mashg’ulotlar mavzuli-taqvim rejasi yoshlar bo’yicha berilgan:
 - Ilk yosh guruh (2–3 yosh),
 - Kichik guruh (3–4 yosh),
 - O’rta guruh (4–5 yosh),
 - Katta guruh (5–6 yosh),
 - Maktabga tayyorlov guruh (6–7 yosh)).

«Bolajon» tayanch dasturi maktabgacha yoshdagi bolalarga 4 yoʻnalishda taʼlim-tarbiya berish maqsadini koʻzda tutgan:

1. Jismoniy rivojlantirish;
2. Ijtimoiy-hissiy rivojlantirish;
3. Nutq, oʻqish, savodga tayyorgarlik;
4. Bilish jarayoni, atrofalam toʻgʻrisidagi bilimlarga ega boʻlish va uni anglash.

Dasturda jismoniy rivojlanish yoʻnalishi boʻyicha asosiy harakatlar alohida yoritildi va ular quyidagicha tartiblandi:

- Asosiy harakatlarga doir mashqlar;
- Umumrivojlantiruvchi mashqlar;
- Chiniqtirish va sogʻlomlashtirish;
- Gigiena va oʻz-oʻziga xizmat.

Ijtimoiy-hissiy rivojlanish vazifasi mustaqil yoʻnalish sifatida dasturga kiritildi. Uning maqsadi bolada milliy oʻzlikni anglash, oʻzi va oʻzgalar shaxsini hurmat qilish, his-tuygʻularni ifodalash, kattalar va tengdoshlari bilan muloqotda milliy qadriyatlarimizga xos muomala odo biga tayanishni tarbiyalashdir. Bu bolaning ijtimoiy hayotga moslashuvi bilan bogʻliq boʻlib, boʻlgʻusi barkamol shaxs ega boʻlishi zarur boʻlgan fazilatlarni tarbiyalashda poydevor boʻlib xizmat qiladi.

Ijtimoiy-hissiy rivojlanish yoʻnalishi:

- **ijtimoiy rivojlanish:** Kattalar va tengdoshlari bilan muloqot;
- **hissiy rivojlanish:** “Men” konsepsiyasi va his-tuygʻularini ifodalashini oʻz ichiga olgan.

Dasturda nutq, oʻqish va savodga tayyorlash yoʻnalishi alohida, keng ochib berilgan. Ular quyidagicha tartiblangan:

- nutqning tovush madaniyatini shakllantirish;
- lugʻat ishi, lugʻatni faollashtirish;
- nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish;
- bogʻlanishli nutqni shakllantirish;
- ijodiy hikoya qilish;
- badiiy adabiyot bilan tanishtirish;
- oʻqish va savodga tayyorgarlik.

Bu yoʻnalishga ilk bora bolani harflar bilan tanishtirish, boʻgʻinlab oʻqish va oʻz ismini bosma harflarda yozish vazifasi kiritilgan.

Bilish jarayoni, atrofalam toʻgʻrisidagi bilimga ega boʻlish va uni anglash yoʻnalishiga quyidagilar kiradi:

- elementar matematik tasavvurlar;
- atrofolar to'g'risidagi bilimga ega bo'lish va uni anglash;
- tasviriy faoliyat;
- musiqa;
- o'yin faoliyati.

Dastur mazmun-mohiyati bilan bolalarning psixofiziologik kamol topish tamoyilidan kelib chiqib, ularning tevarak-atrofdagi narsa-buyum va voqea-hodisalarga munosabati hamda turli faoliyat sohalari bilan o'zaro birgalikda harakat qilishlarini nazarda tutadi.

Dasturda o'zbek xalq og'zaki ijodi, xalq o'yinlari, musiqasi, raqslari, amaliy san'at asarlari va tabiatiga katta ahamiyat berilgan. Shuningdek, dasturda boshqa xalqlarga hurmat hissini tarbiyalash, chidamlilik, sabr-toqatlilikni tarkib toptirish nazarda tutilgan hamda bolalarni mehr-shafqat, intizomlilik, go'zallikka xayrixohlikka o'rgatishga alohida e'tibor qaratilgan.

Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisining asosiy vazifalari va uning shaxsiga qo'yiladigan talablar “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” g'oyalari amaliyotga tatbiq etish Respublika ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan tarbiyachilarining ma'naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ham bog'liqdir.

Hozirgi kunga qadar maktabgacha ta'lim muassasasi pedagogining kasbiy faoliyati pedagog va psixologlarning tadqiqot predmeti bo'lib qolmoqda. Tadqiqotlar natijalari maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi pedagogik faoliyatining o'ziga xosliklari yaratuvchanlik, insonparvarlik, ijodiylik, jamoada ishlay olish kabilarda yorqin namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Mazkur o'ziga xosliklar ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalovchi pedagog faoliyatida o'z aksini topishi lozim. Go'daklik chog'idananoq rivojlanishi uchun maqbul shart-sharoit yaratish eng avvalo, tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olishni talab etadi. Tug'ilganidan boshlab to maktab ta'limiga tayyorlashga qadar bo'lgan bosqich shaxs rivojlanishining boshqa yosh davrlaridan farqli ravishda keyinchalik bola istalgan sohaga doir maxsus bilim va ko'nikmalarni egallashi hamda faoliyatning xilma-xil turlarini o'zlashtirishi uchun asos bo'ladigan uyg'un tarzda amalga oshuvining ta'minlashini talab etadi. Chunki maktabgacha yoshda bola jamiyatning har bir a'zosi uchun zarur bo'lgan jismoniy va psixologik sifatlarga ega bo'lib,

inson sifatida shakllanadi. Bola rivojlanishi uchun zarur bo'lgan jismoniy va psixologik sifatlar esa ongli ravishda dunyoni anglash, fikr yuritish, boshqa kishilar bilan muloqot qilish, o'z xatti-harakatlarini boshqara olish orqali qo'lga kiritiladi.

Maktabgacha yoshdagi bola shaxsining rivojlanishida tayanch vazifani tarbiyachining qo'yilgan talablarga qanchalik muvofiq ekanligi belgilab beradi. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi eng avvalo, bolaning kelajagi, taqdiri uchun yuksak mas'uliyatni to'la anglab yetishi zarur. Faqatgina maktabgacha yoshdagi bola rivojining muhim qadriyat ekanligini tushunishgina emas, balki bola rivojlanishi qonuniyatlariga doir bilimlarni ham egallashi juda muhimdir. Ana shunday qonuniyatlardan biri bolaning jismoniy va psixik rivojining uni o'rab turgan atrof-muhit bilan bog'liqligidir. Mazkur qonuniyat o'z navbatida maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisining quyidagi ikkita muhim funksiyasini belgilab beradi:

1) bolalarni muvafaqqiyatli tarbiyalash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar yaratish;

2) ularning hayotiy faoliyati xavfsizligini ta'minlash va salomatligini mustahkamlash.

Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisining bolalarni muvafaqqiyatli tarbiyalash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar yaratish funksiyasi bolani faollikka undash, uni rivojlantiruvchi tavsifdagi faoliyatga jalb etishni talab etadi. Bolaning jismoniy va psixologik salomatligini mustahkamlash haqida g'amxo'rlik qilish maktabgacha yoshdagi tarbiyani oqilona tashkil etishning garovi bo'lib, mazkur yosh davri rivoji bolaning ijtimoiy holati, kayfiyati, emotsional ko'rinishlariga bevosita bog'liqdir. Ana shu sababli tarbiyachi bolani o'rab turgan atrof-muhitga e'tiborli bo'lishi, bola hayoti va salomatligiga xavf soluvchi eng oddiy holatlarning ham oldini olishi lozim. Ya'ni, tarbiyachi bolalar bog'chasi maydonchasi, o'yinchoqlar, mebel jihozlarining bola bo'yiga mos kelish holatini muntazam nazorat qilib borishi; havo va suv temperaturasini o'lchashi; bolalarni tayyorlash uchun mashg'ulotlar vaqtini oldindan aniqlashi lozim. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, tarbiyachining e'tibor-sizligi, befarqligi uning kasbiy layoqatsizligining muhim belgisidir.

Bolalar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini olib borish – maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisining asosiy vazifasi. U ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirishni axboriy-uslubik hujjatlar bilan ishlash, bevosita tarbiyaviy ishlarni o'tkazish va uning natijalarini tahlil etish asosida amalga oshiradi.

Zamonaviy tarbiyachi psixologik-pedagogik, sotsiologik tadqiqotlarga tayangan holda bola shaxsi rivojlanishi uchun uning ta'sirini hech narsa, hatto yuqori toifali ta'lim muassasasi ham bosa olmaydigan oila ekanligini anglab yetadi. Tarbiyachi ota-onalarning pedagogik madaniyatini muntazam oshirib borishi, bolalar tarbiyasida faol hamkorlikni yo'lga qo'yishi, mazkur jarayonda ijtimoiy yordamga muhtojlik sezuvchi oilalar bilan alohida ish olib borishi maqsadga muvofiqdir. Tarbiyachining oilalarga ko'rsatadigan ijtimoiy-pedagogik yordami uch asosiy xususiyatga ega bo'ladi. Ya'ni: 1) ta'limiy – ta'lim berish va tarbiyalash; 2) psixologik ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ruhiy zo'riqishlarni bartaraf etish va qayta tiklash; 3) vositachilik – tashkil etish, ta'lim va tarbiyada yuzaga keluvchi muammolarning oldini olish, mavjud muammolarni bartaraf etish orqali bola xulq-atvoridagi og'ishlarni yoki fiziologik nuqsonlarni bartaraf etish hamda zarur axborotlar bilan ta'minlash.

Ana shu asosdan kelib chiqqan holda zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisining quyidagi kasbiy funksiyalarini ham ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) ota-onalarning ma'rifiy bilimlarini oshirishda ishtirok etish;
- 2) oila va maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyaviy ta'sirini boshqarish hamda uyg'unlashtirish.

Zamonaviy demokratik jamiyatda maktabgacha ta'lim ishiga qo'yilayotgan talablar tarbiyachidan muntazam ravishda o'zining umumdunyo va kasbiy tayyorgarligini boyitib borishni talab qiladi. Bu esa o'z navbatida maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi kasbiy faoliyatining yana bir yo'nalishi – mustaqil ta'lim olishni shart qilib qo'yadi. Mustaqil ta'limning xilma-xil shakllariga adabiyotlar (kasbga doir, badiiy) o'qish, muzeylarga tashrif buyurishdan konferensiya, ko'rgazma va konkursdarga ishtirok etish kabilarni kiritish mumkin. Mustaqil ta'limning maqsadi – tarbiyachi shaxsini bosqichma-bosqich rivojlantirish, kasbiy mahoratini oshirib borishdir.

Pedagogik faoliyatning ijodiy tavsifga egaligi tarbiyachidan ilg'or ish tajribalarini o'rganish, innovatsiyalarni o'zlashtirish va amaliyotga tatbiq etishni talab etadi. Innovatsiyalarning jadal kirib kelishi tarbiyachilarni ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etishga jalb etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Tarbiyachilarning bunday tadqiqot ishlariga jalb etilishi keyinchalik erishilgan natijalardan o'z faoliyatida muvaffaqiyatli foydalanishga imkon beradi.

Shuningdek, tarbiyachi o'z kasbining mohir ustasi bo'lishi uchun maxsus tayyorgarlik ko'rishi kerak. U quyidagi shartlarga amal qilishi lozim:

1. Tarbiyachi yosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori ma'lumotli, kasbiy bilimlarni puxta egallab, zarur uslubik adabiyotlarni tanlay oladigan, ilmiy adabiyotlar bilan ishlay oladigan, ilg'or tajribali pedagoglarning tajribasini o'rganib, o'z ishiga tatbiq eta oladigan shaxs bo'lishi lozim.

2. Tarbiyachi kuzatuvchanlik qobiliyatini yaxshi egallagan, ularning xulq-atvori, hatti-harakatlarini tahlil etib, bolaga ijobiy ta'sir etuvchi vositalarni topa oladigan bo'lishi kerak.

3. Tarbiyalanuvchilarning bilishga qiziqishlarini oshirish, ularning bog'lanishli nutqini rivojlantirish uchun tarbiyachining nutqi ravon, aniq, mantiqiy ixcham va tushunarli bo'lishi kerak. Ta'lim-tarbiya berishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalana olishi lozim. Tarbiya jarayonida ta'limning interfaol o'yin uslublaridan samarali foydalana olishi zarur.

4. Tarbiyachi bolalarning har tomonlama uyg'un rivojlanishlari uchun ularni faoliyatning xilma-xil turlariga faol jalb eta olishi, ularda qiziquvchanlik, izlanuvchanlikni oshirib borishi, bolalarning xulq-atvori, xatti-harakatlarini muntazam tashxis etib, korreksion chora-tadbirlarni amalga oshirib borishi kerak.

5. Har bir mashg'ulot uchun zarur materiallarni oldindan tayyorlab qo'yishi, tarbiyalanuvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarni bosqichma-bosqich o'zlashtirib borilishiga erishishi, o'rganilayotgan materiallarni tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishini ta'minlashi lozim.

6. Kun tartibini to'g'ri tashkil eta bilishi, bolalar jamoasiga undagi har bir a'zoni e'tiborga olgan holda rahbarlik qila bilishi, ularning faoliyati (o'quv, o'yin, mehnat) mazmunli bo'lishi uchun kerakli materiallar bilan ta'minlashi zarur.

7. Bolalarning jismoniy va psixologik holatini to'g'ri baholay olishi va buni bolalar bilan amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishlarida e'tiborga olishi kerak.

8. Kun davomida olib borgan ta'lim-tarbiya ishini muntazam tahlil qila olishi va uni yanada takomillashtirish yo'llarini izlab topishi zarur.

9. Tarbiyachi muntazam ravishda ota-onalar bilan individual va jamoaviy suhbatlar, uchrashuvlar o'tkazishi, ularni bolalarni tarbiyalashga doir zamonaviy uslubikalar bilan tanishtirib borishi, oilalarda qo'llanilib

kelayotgan ijobiy shakl, uslub va vositalardan o'zining tarbiyaviy faoliyatida foydalanishi lozim.

10. Tarbiyachi bolalarga xayrihoh munosabatda bo'lishi, har bir bola uchun maqbul psixologik muhitni yuzaga keltirishi, bolaning qalbi va yuragiga joy topa olishi, qunt-sabrli bo'lishi, bag'rikeng va yuksak ishonchga ega bo'lishi lozim.

Yuqorida bayon etilgan maktabgacha ta'lim muassasasi pedagoglarining kasbiy faoliyatga doir funksiyalari va "Maktabgacha ta'lim Konsepsiyasi"ga asoslangan holda zamonaviy tarbiyachilar kasbiy kompetentligining uch aspektini ajratib ko'rsatish mumkin: shaxsiy, kasbiy va reflektiv.

Shaxsiy tayyorgarlik – tarbiyachi shaxsida qaror topishi lozim bo'lgan sifatlarni o'zida aks ettirib, ularga gnostik (bilishga doir) qobiliyatlar (ilmiy ma'lumotlar bilan ishlay olish, ilmiy bilimlardan amaliyotda oqilona foydalana olish, pedagogik vazifalarni yuksak mahorat bilan hal eta olish); tashkilotchilik qobiliyatlari (ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish va amalga oshirish uchun qulay shart-sharoit yaratish, mashg'ulot shakl, uslub va vositalarini tanlay olish, vaqtni to'g'ri taqsimlash, o'quv jarayonini zaruriy jihozlar bilan ta'minlash, ommaviy tadbirlarni rejalashtirish va o'tkaza olish); kommunikativ qobiliyatlar (axborotni maktabgacha yosh davrlari bilan bog'liqlikda tushunarli taqdim eta olish, vaziyat bilan bog'liqlikda axborotlarni uzatish uslub va usullarini o'zgartira olish, kasbiy faoliyat jarayonida muloqotni oqilona amalga oshira olish va boshqalar)ni kiritish mumkin.

Kasbiy tayyorgarlik – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ – 1875-son qaroriga muvofiq pedagoglar chet tilini, xususan ingliz tilini bilishlari kasbiy talab qilib belgilandi. Shuningdek, tarbiyachining kasbiy faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan ko'nikma va malakalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Pedagogik taktga doir sifatlarga quyidagilarni kiritish mumkin: ta'lim-tarbiya berishning yangi, nostandart shakl, uslub va vositalarini izlash; tarbiyaviy ish jarayonida yuzaga keluvchi muammolarni hal etishning samarali yo'llarini tanlay olish; o'z faoliyati, o'quv jarayonida bolalarning individual rivojlanishi, innovatsion o'quv reja va dasturlarni loyihalay olish va boshqalar.

Refleksiv tayyorgarlik – tarbiyaviy jarayon natijalariga asoslangan holda tarbiyachining kelgusi faoliyatini reja-lashtirish imkoniyatini berib. uning uch turdagi refleksiv qobiliyatini o‘z ichiga qamrab oladi: obyektни his qilish, o‘lchovni bilish va dahldorlik hissi.

? NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Kadrlar tayyorlash Milliy modelining tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?
3. Uzluksiz ta’lim tizimida shaxs qanday vazifalarni bajaradi?
4. Davlat va jamiyatning kadrlar tayyorlash jarayonidagi asosiy vazifalari nimalardan iborat?
5. Uzluksiz ta’limning asosiy vazifalarini sanang.
6. Fan va ishlab chiqarishning uzluksiz ta’lim tizimidagi vazifalarini sharhlang.
7. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda maktabgacha ta’limga qanday ta’rif berilgan?
8. Maktabgacha ta’limning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
9. Maktabgacha ta’lim muassasalarining qanday turlari mavjud?
10. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Maktabgacha ta’lim konsepsiyasi qachon qabul qilingan?
11. Maktabgacha ta’lim konsepsiyasi qanday bo‘limlarni o‘z ichiga oladi?
12. “Bolajon” tayanch dasturining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
13. “Bolajon” tayanch dasturining mazmunini bayon eting.
14. Maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachisining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

? MAVZU YUZASIDAN TEST TOPSHIRIQLARI

1. Davlatimiz tarixida ilk marotaba “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonun nechanchi yil qabul qilingan?

- | | |
|-------------|-------------|
| A) 1991-yil | B) 1999-yil |
| Ç) 1992-yil | D) 1993-yil |

2. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” necha bosqichda amaliyotga tadbiriq etilmoqda?

- A) 4 bosqichda
- B) 3 bosqichda
- C) 2 bosqichda
- D) bitta va umumiy tarzda

3. Shaxs, Davlat va jamiyat, uzluksiz ta’lim, fan va ishlab chiqarish qaysi qonuniy hujjatning tarkibiy qismlari hisoblanadi?

- A) Kadrlar tayyorlash milliy dasturi
- B) Ta’lim to’g’risidagi qonun
- C) Kadrlar tayyorlash milliy modeli
- D) Maktabgacha ta’lim to’g’risidagi Nizom

4. “Maktabgacha ta’lim” atamasi qachon va qaysi tashkilot tomonidan qabul qilingan?

- A) 1998-yil Xalq Ta’limi Vazirligi
- B) 1997-yil YuNESKO
- C) 1999-yil YuNESEF
- D) 1997-yil Xalq Ta’limi bo’limlari

5. Qaysi davlat hujjatining uchinchi yakuniy bosqichi 2018 –2020-yillarga mo’ljallangan?

- A) Maktabgacha ta’lim to’g’risidagi Nizom
- B) Kadrlar tayyorlash milliy dasturi
- C) Ta’lim to’g’risidagi qonun
- D) Maktabgacha ta’lim Konsepsiyasi

6. “Bolajon” tayanch dasturida maktabgacha ta’lim muassasalarida olib boriladigan nechta ta’lim yo’nalishlari yoritilgan?

- A) 4
- B) 3
- C) 2
- D) 5

7. Maktabgacha ta’lim muassasalarida kim oilalarga ko’rsatiladigan ijtimoiy-pedagogik yordamning uch asosiy xususiyati (ta’limiy, psixologik, vositachilik)ga ega bo’ladi?

- A) Mudira
- B) Uslubchi
- C) Tarbiyachi
- D) Enaga

II bob. MAKTABGACHA PEDAGOGIKA O'QUV FANI SIFATIDA

O'zbekistonda maktabgacha ta'limning vujudga kelishi va taraqqiyoti

mahalliy ziyolilar mehnatkash ayollarning og'ir ahvolini va bolalar nazoratsizligini ko'rib, ularning qismatini yengillashtirishga intila boshladilar. Bu ziyolilar vakillari 1872-yilda Turkistonda tuzilgan "Jamiyati xayriya" tarkibiga kirgan edilar. "Jamiyati xayriya" tashkiloti tomonidan miskinlar uylari, tunash joylari, tug'ruq joylari bilan bir qatorda ota-onasi bo'lmagan bolalar uchun yetimxonlarni tashkil etdi.

Bu yetimxonalar oz sonli bolalarni – butun Turkistonda taxminan 150-200 kishini o'z ichiga oldi. Ushbu yetimxonalar yasli yoshli bolalardan tortib, maktab yoshidagi bolalarni ham qamrab olgan.

1896-yilda Turkistonda vositalar kengashi kambag'allarning bolalari uchun "yasla"lar deb ataladigan muassasalarni tuza boshladi. Yaslilarga atak-chechak qila boshlagan bolalar qabul qilingan va maktabga ketgunga qadar tarbiyalangan bolalar kun bo'yi yaslada bo'lishar va uch marta ovqatlantirililar edi. Yasla ishlarini nazoratchi ayol boshqargan, xizmat qiluvchi xodimlar ham bo'lgan. Bu muassasada bolalarni duolar o'qishga (duogo'ylikka) qat'iyat bilan o'rgatilgan. Shuningdek bolalarni oddiy o'qishga, yozishga, sanashga, to'qishga, to'r to'qishga, tikishga va boshqa hunarlarga o'rgatilgan. Butun o'lka bo'ylab shunday yasalardagi bolalar soni 50–60 boladan oshmas edi.

Turkistonda kambag'allarning bolalari uchun Toshkentda, Samarqand, Sirdaryo, Namanganda yetimxonalar tashkil etilgan.

Imtiyozli sinflarning bolalari uchun 1891-yilda "Bog'dorchilik" jamiyati tomonidan Toshkent istirohat bog'ida maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar uchun "Bolalar maydonchasi xilida" birinchi bolalar bog'chalari ochildi. Bolalar bog'chasi uchun istirohat bog'i maydonidan ser-soya joy ajratib berildi. Maydonchada arg'imchoq, qayiqlar, katta arg'imchoq (ustunga osilgan) o'rnatildi va xilma-xil o'yinchoqlar tayyorlandi. Maydonchada gulzor katta o'rinni egallab, bolalar o'zlari o'simliklarni parvarish qilishardi.

1891–1903-yillar davomida mablag‘ yo‘qligi sababli bog‘cha bir necha marta yopilgan. Ta‘lim-tarbiyaga oid ilg‘or g‘oyalarning ta‘siri ostida Toshkentda 1903-yil fevral oyida “Oilaviy ta‘lim-tarbiya to‘garagi” tashkil qilindi. To‘garak harbiy Ministr va Xalq maorifi tomonidan tasdiqlangan Ustav asosida ish boshladi. U o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

1. Bolalarga ta‘lim-tarbiya berish usullarini rivojlan tirish va takomillashtirishda yordam berish;

2. Pedagoglar bilan ota-onalarni va bolalar tarbiyasi ishini boshqaradigan kishilarni(oila, maktab va bolalar bog‘chasining yagona tarbiyaviy ta‘sir etishini belgilash maqsadida) bir-birlariga yaqinlashtirish.

Bu to‘garakning maktabgacha seksiyasi ham fao liyat ko‘rsatgan. Ta‘lim-tarbiya to‘garagi yuzaga kelgunga qadar bolalar bog‘chasining tarbiyaviy ishida muayyan pedagogik tizim yo‘q edi, shu sababli to‘garak a‘zolari bolalar tarbiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni muhokama qilishar edi.

Bolalar birinchi marta 4 yoshdan 6 yoshgacha va 6–10 yoshgacha bo‘lgan ikki xil yosh guruhlariga bo‘lindi. Mashg‘u lotlar, o‘yin va ko‘ngil ochishlar programmasi belgilab qo‘yildi. Harakatli o‘yinlar, xor bo‘lib aytiladigan ashula, o‘qish, rasm chizish, loy va plastilindan narsalar yasash, gimnastika mashqlarini reglamentga soladigan jadval tuzildi. Ota-onalarning talabi bilan fransuz va nemis tillari o‘rgatilgan, bu ishlar mutaxassislar tomonidan tekin amalga oshirilgan.

Ta‘lim-tarbiya to‘garagi bolalar bog‘chasida tarbiyaviy ish saviyasini oshirishga yordam berdi. Tarbiyaviy ish mazmuniga muayyan tizimining, xilma-xil ish shakllari kiritildi. Lekin maxsus tayyor garlikka ega bo‘lgan tarbiyachilar bo‘lmaganligi sababli ko‘pincha bog‘cha tarbiyaviy ishining mazmuni betartib amalga oshirilar edi. 1903–1914-yillar davri maktabgacha tarbiya sohasidagi ta‘lim-tarbiya g‘oyalari ning jadal sur‘atda o‘sishi bilan xarakterlanadi.

Sirdaryo, Samarqand, Toshkent shahrida bolalar bog‘chalari kabi ayrim bog‘chalar yuzaga keldi. 1909-1910 yillarda va keyinchalik xususiy bog‘chalar paydo bo‘ldi: bu bog‘chalarda 6 yoshdan boshlab bolalarni asosan gimnaziyaga o‘qishga tayyorlashar edi. Bunday bolalar bog‘chalari xususiy uylarda ochilar va tamomila ota-onalar ta‘minotida bo‘lgan. Ma‘lumotga ega bo‘lgan va chet tillarini biladigan o‘qimishli xonimlar tarbiyachi edilar. Ammo mazkur bolalar bog‘chalari faqat badavlat ota-

onalarning ehtiyojini qondirgan edi. Davlat tomonidan ijtimoiy bolalar bog'chalari faqat 1917-yildan keyingina yalpi tarzda tashkil etildi.

1917-yil 20-noyabrda Xalq Komissarlari tomonidan "Maktabgacha tarbiya yuzasidan Dekloratsiya" e'lon qilindi. Bunda: "Bolalarni ijtimoiy tekin tarbiyalash bolaning birinchi tug'ilgan kunidan boshlanadi" – deyilgan edi.

Maktabgacha tarbiya butun xalq maorifi tizimining birinchi bo'g'ini va tarkibiy qismi bo'lib qoldi. 1919-yilda qabul qilingan Davlat dasturlarida xalq maorifi sohasida: Ijtimoiy tarbiyani yaxshilash va xotin-qizlarni ozod qilish maqsadida maktabgacha tarbiya muassasalari tarmoqlarini vujudga keltirish haqida fikr yuritildi.

Turkistonda dastlabki davlat bolalar bog'chalari 1918-yilning ikkinchi yarmida tashkil etila boshlandi. 1918-yil 20-oktyabrda Turkiston Maorifi Xalq Komissarligi qoshida Respublikadagi maktabgacha tarbiya sohasida barcha tadbirlarni amalga oshirish uchun ma'muriy organ sifatida maktabgacha tarbiya bo'limi tashkil qilindi. Xuddi shu yilda viloyat xalq maorifi bo'limlarining qoshida maktabgacha tarbiya kichik bo'limlari tashkil qilingan. Bu tadbir Respublikada maktabgacha tarbiyaning rivijlanishiga yordam berdi. Maktabgacha tarbiya bo'limlarining faoliyati uch asosiy yo'nalishdan:

1. Bolalar bog'chalarini ochish, ularni binolar, mebel va jihozlar bilan ta'minlash;

2. Maktabgacha tarbiya xodimlari, shu jumladan mahalliy, milliy va-killaridan kadrlar tayyorlash;

3. Ota-onalar o'rtasida tashviqot-tushuntirish ishlarini olib borishdan iborat edi.

"Maktabgacha tarbiya bo'limi to'g'risi"da Nizom qabul qilindi va unda bo'lim 3 yoshdan 8 yoshgacha bo'lgan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tarbiya muassasalariga boshchilik qiladi, mavjud muassasalar ishining borishini kuzatadi, yangi bolalar bog'chalari, yaslilar, bolalar uylari, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun umumiy yotoqxonalar, bolalar yozgi koloniyalari ochildi, bolalar bog'chalari rahbarlari, enagalar va kadrlar tayyorlash maqsadli kurslari tashkil qilindi, deyiladi.

O'zbekistonning tub joy aholisi bolalarini maktabgacha tarbiya muassasalariga jalb etish uchun kurash juda murakkab va qiyin sharoitda olib borildi. 1918-yilda Toshkentning sobiq eski shahar qismida o'zbek bolalari uchun 4 ta bog'cha ochishga muvaffaq bo'lindi.

Birinchi bog'cha – Shayxontohur dahasida Hasanova mudiri: Mahsuma Qorieva va Robiya Abdurashidova (tarbiyachi) faoliyat ko'rsatgan.

Ikkinchi bog'cha – Xo'ja ko'chasida Anvar Yausheva mudiri bo'lgan.

Uchinchi bog'cha – Ko'kcha dahasidagi Langar ko'chada ochilgan.

To'rtinchi bog'cha – Beshyog'och dahasida ochilgan bo'lib, bunda tarbiyachi Qodirxonov mudirlik qilar edi.

1920 yilda Turkiston Respublikasida 71 ta bolalar bog'chasi, shu jumladan, mahalliy aholi bolalari uchun 16 ta bog'cha va 12 ta bolalar maydonlari tashkil etilib, bulardan 4 tasida o'zbek va boshqa mahalliy millatlarning bolalari tarbiyalana boshlandi. O'sha davrda maktabgacha tarbiya muassasalarida hammasi bo'lib 6394 bola tarbiyalanar edi. 1921-yilga kelib bolalar bog'chalarining soni 105 taga, shu jumladan, mahalliy millatlarning bolalari uchun bog'chalar 32 taga yetdi. Bolalar bog'chalarida tarbiyalanuvchilarning soni qariyb 8000 kishiga yetdi, ulardan 2000 dan ko'prog'i millatlarning farzandlari edi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda bolalar bog'chalari va bolalar maydonchalarining tarmog'i deyarli ikki barobar kengaydi. 1994-yil 1-yanvariga kelib 54 ming bola tarbiyalandi, davlat tamonidan 77 million so'm ajratildi. Bu yillarda O'zbekistonning bolalar bog'chalarida ko'chirib keltirilgan 16000 dan ko'prog'i bolalar tarbiyalandi. Shuningdek, ota-onasiz qolgan qariyb 400 bola vasiylikka olish prinsipiga muvofiq boqib, tarbiyalab katta qilindi.

Jahon mamlakatlari ta'lim tizimida maktab- gacha ta'limning tutgan o'rni

Mamlakat hayotining barcha jabhalarida, shu jumladan uning taraqqiyotida uzluksiz ustuvor soha – mustaqillik ruhi singdirilgan keng qamrovli islohotlar xalq ta'limiga ham tobora chuqurroq kirib bormoqda. Bu islohotlardan ko'zda tutilgan maqsad – ta'lim samaradorligini oshirish, mazmunini yaxshilash, pirovard natijada uni jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-ma'rifiy rivojlanishiga xizmat qildirishdan iborat.

Ta'lim samaradorlik mezoni uning xalqaro standartlar talablariga javob berishi bilan belgilanadi. Ta'limning ilk va shaxs rivojlanishidagi muhim bosqichi bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimini ham zamon talablari darajasida tashkil etish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Buni amalga oshirish uchun esa jahon mamlakatlari, ayniqsa, rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi va ulardagi muaffaqiyat va kamchiliklarni tahlil etish samarali natija beradi. Jahon mamlakatlari maktabgacha ta'lim tizimining boy taj-

ribalarini o'rganish orqali o'zimizning maktabgacha ta'lim tizimimiz yuklashi uchun kerakli bo'lgan tajribalarni ham egallab boramiz.

Amerika boy mamlakat. Lekin bu mamlakatda bolalar uch yoshga to'lgunlaricha onalarga turli moddiy imtiyozlar berish ko'zda tutilmagan. Farzandlarni qarab uyda o'tiradimi yoki enaga yollab ishga tushadilar, bu – onalarning ishi. Enaga yollash oila uchun haftasiga 200 dollardan kamga tushmaydi. Bu mamlakatda 30 – 40 bolaga mo'ljallangan, davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim muassasalari mavjud. Ular enaga yollashdan biroz arzonroqqa tushadi. Bu maktabgacha ta'lim muassasalarida ham bolalar yoshlariga qarab turli guruhlarda tarbiyalanadilar, ularga tarbiyachi mutaxassis qaraydi, ular ovqatni tayyorlab beradi, turli qo'shiqlar, she'rlar o'rgatadi, quvnoq o'yinlar uyushtiradi. Ammo har kim o'z uslubiga muvofiq ishlaydi, umumiy qoidalar, o'quv dasturlari joriy qilinmagan. Amerikada maktabgacha ta'lim muassasalarining xususiyatlari ham bor. Lekin Yaponiyadagidek rivojlangan emas. Amerikada xususiy maktabgacha ta'lim muassasalari endigina davlat tasarrufiga kiritilib borilmoqda.

Iqtisodiy qudrati jihatidan Yaponiya jahonda Amerika Qo'shma Shtatlaridan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Jahonning ko'zga ko'ringan ruhshunoslari va iqtisodchilari Yaponiya rivojlanishidagi bu ulkan parvozni mamlakatda ta'lim tizimlari taraqqiyotiga berilgan yuqori darajadagi e'tibor samarasi, deya qayd etadilar. Yaponiyada ta'limning maktabgacha ta'lim muassasasida olib boriladigan bosqichiga 3–5 yoshli bolalar qabul qilinadi. Bolalar yosh xususiyatiga muvofiq ravishda 3,2,1 yillik ta'lim kurslariga jalb qilinadilar. Yaponiyada maktabgacha ta'lim muassasalarining 59,9 foizi xususiydir. 40,1 foizi esa munitsipial(tuman) kengashlari tasarrufida, qolgan 0,3 foizi davlat tasarrufida.

Fransiya ta'lim tizimining dastlabki bosqichini maktabgacha tarbiya tashkil etadi. Bu bosqichni "Onalar maktabi" deb ham yuritiladi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad bolalarning maktabdagi sharoitini uy sharoiti bilan yaqinlashtirish, ularda oiladagidekiliq munosabatni shakllantirishdan iborat. Ularni mustaqil holda ham, maktablarning boshlang'ich sinflari bazasida ham tashkil etilgan. Fransiya ta'limida bolalarning go'daklik chog'idanoq maktabda o'qitish uchun tayyor holda olib kelish g'oyat muhim masala hisoblanadi. Bu bosqichda tarbiyalanuvchilar quyidagicha tabaqalashtirilgan:

- Kichik guruh 2 yoshdan 4 yoshgacha
- O'rtta guruh 4 yoshdan 5 yoshgacha
- Katta guruh 5 yoshdan 6 yoshgacha

5–6 yoshlilar maktabga tayyorlov guruhi bo'lib, ularni maktabga tayyorlash uchun alohida dastur va darsliklar mavjud.

Maktabgacha ta'lim tizimi Germaniya ta'lim tizimida muhim bosqich hisoblanadi. Uning 100 yildan ortiq tarixi bor. Bu mamlakat maktabgacha ta'lim tizimi barcha Germaniya elatiga kiruvchi xalqlar uchun ham umumiydir. Ta'kidlash kerakki, garchi maktabgacha ta'lim muassasalari ta'limning quyi bosqichi hisoblansada, lekin u davlat ta'lim tizimi tarkibiga kiritilmagan. Germaniya maktabgacha ta'lim muassasalarida odatda bolalar tushgacha tarbiyalanadilar. Kunning ikkinchi yarmida esa uyda, oilada bo'ladilar. Lekin ota-onalar sharoitidan kelib chiqib kuni uzaytirilgan maktabgacha ta'lim muassasalari ham tashkil etilgan.

Maktabgacha ta'lim qaysi davlatda olib borilishidan qat'iy nazar barchasi bolalar kamoloti uchun yo'naltirilgan bo'lib, bizning kelajagimiz bo'lgan bolalarni to'g'ri tarbiyalash yo'lida qilingan ulkan ishdur.

Maktabgacha pedagogikaning obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari

Maktabgacha pedagogika maktabgacha ta'lim-tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan. Maktabgacha pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy va ruhiy kamolotini tarbiyalash, ularga ta'lim berish muammolarini o'rganadi.

Maktabgacha pedagogika tug'ilgandan to yetti yoshgacha bo'lgan bolalarga har tomonlama tarbiya berish qonuniyatlarini o'rganadi va maktabgacha ta'lim muassasasi sharoitida ta'lim-tarbiya ishini tashkil etishning mazmuni, shakl, uslub va vositalar hamda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning har tomonlama uyg'un rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan shart-sharoitlarni ishlab chiqadi. U maktabgacha ta'lim muassasalari, oila va maktab ishidagi izchillikni ta'minlaydi hamda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlaydi⁸.

Maktabgacha pedagogika umumiy pedagogikaning alohida sohasi bo'lib, uning umumiy qonuniyatlari, tamoyillari, uslubologik asosi,

8. Yusupova F. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. – T.: O'qituvchi, 1993. – 11-b.

tashkiliy shakl, uslub va vositalariga tayanadi. Maktabgacha pedagogikaning nazariyasi va amaliyoti maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga yaxlit tarbiya berishning maqsadi. bolaning yosh imkoniyatlari va uni ilk yoshdan boshlab tarbiyalashning roli, maktabgacha ta'limni hayot, amaliyot va zamonaviylik bilan bog'liqlikda olib borishning zarurligi, bola shaxsining shakllanishida muhitning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligiga asoslaniladi.

Maktabgacha pedagogika fani bola shaxsini rivojlantirishning ikki muhim jihati – uni o'qitish va tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratganligi bois didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Didaktika (ta'lim nazariyasi, yunoncha didaktikos – “o'rgatuvchi”, didasko – “o'rganuvchi”) ta'limning nazariy jihatlari, ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, tarbiyachi va tarbiyachi faoliyatlari, ta'limning maqsadi, mazmuni, shakl, uslub, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari kabi muammolarni tadqiq etadi. Tarbiya nazariyasi – pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, tarbiya jarayoni mazmuni, shakl, uslub, vosita va usullari, uni tashkil etish muammolarini o'rganadi.

Maktabgacha pedagogika fanining *obyekti* – yaxlit maktabgacha pedagogik jarayon.

Maktabgacha pedagogika fanining *predmeti* – maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, shakl, uslub va vositalari.

Maktabgacha pedagogikaning vazifalari Maktabgacha pedagogika fani bola shaxsini shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga alohida hissa qo'shadi. Maktabgacha pedagogika fani maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat qurilishi, uning hayotida yetakchi o'rin tutuvchi g'oyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama uyg'un rivojlantirish, ularni maktab ta'limiga tayyorlash vazifasini muvaffaqiyatli hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi *vazifalarni* bajarishga e'tibor qaratiladi:

1. Har tomonlama uyg'un rivojlangan bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mohiyatini o'rganish.

2. Bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish qonuniyatlarini aniqlash. .

3. Ijtimoiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda, rivojlangan xorijiy mamlakatlar maktabgacha ta'lim tizimi tajribasini o'rganish asosida ta'lim tizimini takomillashtirish.

4. Maktabgacha ta'lim muassasalari hamda ularda faoliyat olib borayotgan tarbiyachilar faoliyati mazmunini asoslash.

5. Ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga joriy etish.

6. Tarbiyachilarni maktabgacha ta'lim pedagogikagasiga oid bilimlar hamda ta'lim-tarbiya usullari bilan qurollantirish.

7. Ta'lim-tarbiya birligi hamda ijtimoiy tarbiya yo'nalish-lari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlashning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish.

8. O'qitish hamda tarbiyalash jarayonining samarali texnologiyalarini yaratish.

9. Oila tarbiasini muvaffaqiyatli tashkil etish yuzasidan ota-onalar uchun ilmiy-uslubik tavsiyalarni ishlab chiqish.

Maktabgacha pedagogika-ning asosiy kategoriyalari


Bizga yaxshi ma'lumki, har bir fan o'zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega.

Aynan mana shu holat uning fan sifatida e'tirof etilishini kafolatlaydi. Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha kategoriya deb ataladi. Maktabgacha pedagogika fanining asosiy kategoriyalari maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchisi shaxsi kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritadi. Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi: ta'lim (o'qitish, o'qish), tarbiya, ma'lumot, shakllanish va rivojlanish.

Ta'lim – tarbiyalanuvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon. Ta'lim o'zida uch asosiy elementni aks ettiradi: bilim, ko'nikma va malaka.

Bilim – tarbiyalanuvchining ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmuyi.

Ko'nikma – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.



2-rasm. Maktabgacha pedagogika fanining asosiy vazifalari.

Malaka – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

Ta'lim ikki tomonlama tavsifga ega bo'lib, o'qitish va o'qishni o'z ichiga oladi.

O'qitish – pedagogik faoliyat bo'lib, u bilim, ko'nikma va malakalarni bolalarga singdirish, ularning bilish va amaliy faoliyatiga rahbarlik qilishdir.

O'qish – ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalarni egallashdagi amaliy faoliyatidir.

Tarbiya pedagogikadagi asosiy tushunchalardan biri sanaladi. Jamiyat va pedagogikaning tarixiy rivoji davomida mazkur kategoriyani tushuntirishga turlicha yondashuvlar yuzaga keldi. Eng avvalo, keng va tor ma'nodagi tarbiya farqlanadi. Keng ma'noda tarbiya shaxsga jamiyatning ta'sir etishi, ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Mazkur holatda tarbiya ijtimoiylashtirish bilan uyg'unlashadi.

Tor ma'nodagi tarbiya deganda, pedagogik jarayon sharoitida ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi. Ushbu holatda pedagoglarning tarbiyaviy faoliyati tarbiyaviy ish deb ataladi.

Tarbiya – muayyan aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o‘stirish. uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Ma'lumot – ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmuyi.

Shakllanish – pedagogikaning asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, ko'pincha “shaxsning shakllanishi” tarzida ishlatiladi. Jumladan, pedagog olim Yu.K.Babanskiy shaxsning shakllanishi pedagogikaning asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, muhit, irsiyat, tarbiya ta'sirida uning rivojlanishi jarayoni va natijasidir⁹. degan ta'rifni beradi. V.A.Slastenin, I.F.Isaev, E.N.Shiyanovlarning fikricha. shakllanish – hayotiy faoliyat jarayoni va maxsus tarbiyaviy xatti-harakatlar ta'sirida inson rivojlanishining muhim shakli. Shaxsning shakllanishi – bu ijtimoiylashuv, tarbiya va o'zini-o'zi rivojlantirish jarayoni va natijasi. *Shakllantirish* – “aniq shaklga kiritish, tugallanganlik”ni bildiradi¹⁰.

Bizningcha, shakllanish pedagogik tushuncha sifatida zamonaviy yondashuv asosida I.P. Podlasiy tomonidan to'liqroq ochib berilgan: “Shakllanish – hech qanday istisnosiz omillar – ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy, pedagogik va boshqalarning ta'sirida insonning rivojlanish jarayoni. Shakllanish – undan keng foydalanilayotganligiga qaramay, hali to'liq o'zlashtirilmagan pedagogik kategoriya. Shakllanishning mazmuni ba'zi holatlarda juda qisqarib ketadi, ba'zan esa, haddan tashqari kengaytirib yuboriladi. Avval nashr etilgan pedagogik adabiyotlarda shakllanish atamasi ba'zan boshqarilmaydigan, shaxsga ta'sir ko'rsatuvchi tasodiflarni aniqlash uchun qo'llanilgan. Masalan, pedagogika qo'llanmasining taniqli muallifi P.N. Gruzdev shakllanishni stixiyali tarbiya – “ongli faoliyatdan mustaqil tarzda odamlarga ta'sir etuvchi turli shart-sharoitlar” deb nomlashni taklif etgan”¹¹.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon. Boshqacha aytganda, rivojlanish deganda tarbiyalanuvchining

9. Babanskiy Yu.K., Slastenin V.A., Sorokin N.A., Malkovskaya T.N., Belozertsev E.P., Polyakov V.A., Grishin D.M. Pedagogika / Pod. ped. Yu.K. Babanskogo. – M.: «Prosveshenie», 1991. – 10-b.

10. Slastenin V.A., Isaev I.F., Shiyanov E.N. Obshaya pedagogika. / Pod. ped. V.A. Slastenina: V 2 ch. – M.: «VLADOS», 2003. – Ch.1. – 91-b.

11. Podlasiy I.P. Pedagogika. – M.: Visshee obrazovanie. 2008. – 60–61-b.

psixikasi va jismoniy taraqqiyotida bosqichma-bosqich va qonuniy o'zgarishlarning sodir bo'lishiga aytiladi. Rivojlanish – bu yangi sifat holatiga o'tish, harakat va o'zgarishlar jarayoni. Maktabgacha pedagogikada rivojlanish haqida gap ketganda yoshga doir (maktabgacha yosh davrlari bilan bog'liqlikda rivojlanishning o'ziga xosliklari va qonuniyatlari), individual (rivojlanishning individual o'ziga xosliklari), shaxsiy (bolada shaxsiy sifatlarning yuzaga kelishi va ularning o'ziga xosliklari) rivojlanishni alohida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq.

Maktabgacha pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi

Ijtimoiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash ma'lum pedagogik hodisaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo'lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi.

Bizga ma'lumki, pedagogik hodisa murakkab tuzilmaga ega bo'lib, uning umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun bir qator fanlarning imkoniyatlariga tayaniladi. Ana shu nuqtayi nazardan Maktabgacha pedagogika fani bilan quyidagi fanlar o'rtasida yaqin aloqadorlik mavjud:

1. *Falsafa* – shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g'oya, qarash hamda ta'limotlarning falsafiy jihatlari kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi.

2. *Iqtisod* – maktabgacha ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, o'quv binolarini qurish, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash kabi masalalarning iqtisodiy jihatlari anglashga xizmat qiladi.

3. *Sotsiologiya* – ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma'lumotlarga ega bo'lish asosida ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.

4. *Etika* – bola shaxsi ma'naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma'naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o'rin tutuvchi nazariy g'oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o'rin tutadi.

5. *Estetika* – shaxs tomonidan go'zallikning his etilishi, unga intilishi, shuningdek, unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo'nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

6. *Fiziologiya* – o'quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anatomik xususiyatlarining inobatga olinishi uchun boshlang'ich asoslarni beradi.

7. *Gigiena* – bolalarning salomatligini muhofazalash, ularning jinsiy jihatdan to'g'ri shakllantirishda nazariy va amaliy g'oyalari bilan yordam beradi.

8. *Psixologiya* – shaxsda ma'naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarni tarkib toptirish uchun zamin yaratadi.

9. *Tarix* – maktabgacha pedagogika fani taraqqiyoti. ta'lim-tarbiya jarayonlarining dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, xalq maktabgacha pedagogika g'oyalarini kelgusi avlodga uzatish uchun yo'naltiriladi.

10. *Madaniyatshunoslik* – bolalarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

11. *Tibbiy fanlar* – shaxsning fiziologik-anatomik jihatdan to'g'ri rivojlanishini ta'minlash, uning organizmida namoyon bo'layotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o'qitish hamda tarbiyalash muammolarini o'rganishda ko'maklashadi.

Maktabgacha pedagogika-ning ilmiy tadqiqot uslublari Maktabgacha pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g'oyasi, mazmuni hamda natijalari hisobiga ta'minlanadi. Ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonining keskin rivojlanishi shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omil hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, jamiyat va shaxs ma'naviyatiga ziyon etkazuvchi holatlarni bartaraf etishni taqozo qiladi. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o'rganish, mavjud ko'rsatkichlar vositasida ularning sodir bo'lish sabablarini o'rganish, zarur chora-tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Pedagogik izlanishlarning samarali kechishi bir qator obyektiv va subyektiv omillarga bog'liq. Mazkur jarayonda maqsadga muvofiq keluvchi, maqbul, ayni vaqtda samarali bo'lgan uslublarni tanlay olish ham muhimdir.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot uslublari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, obyektiv va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir.

Ayni vaqtda, O'zbekiston Respublikasida pedagogik yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar tizimli-uslubologik yondashuvga asoslanadi. Pedagogik hodisa, voqelik va ularning qonuniyatlarini aniqlashga bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayonlarning umumiy aloqasi, ularning izchil, uzluksiz rivojlanishi, bolaning fiziologik rivoji uning psixologik, intellektual jihatdan takomillastirib borishini ta'minlashi, qarama-qarshiliklarning shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni va roli, shuningdek, dialektika kategoriyalarining ahamiyatini e'tirof etadi.

Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo'lgan jarayon bo'lib, uning samarali bo'lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur. Ular quyidagilardir:

- 1) muammoning dolzarbligi va mavzuning aniq belgilanganligi;
- 2) ilmiy farazlarning to'g'ri shakllantirilganligi;
- 3) vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida to'g'ri belgilanganligi;
- 4) tadqiqot uslublar tizimiga nisbatan obyektiv yondashuv;
- 5) tajriba-sinov ishlari jarayoniga jalb etiluvchi respondentlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to'g'ri hisobga olinganligi;
- 6) tadqiqot natijalarini oldindan tashhishlash va uning natijalarini aytib o'tish;
- 7) tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi.

Zamonaviy sharoitda, maktabgacha pedagogika yo'nalishida, tadqiqotlarni olib borishda quyidagi uslublardan foydalanilmoqda:

1. Pedagogik kuzatish uslubi.
2. Suhbat uslubi.
3. Anketa uslubi.
4. Intervyu uslubi.
5. Ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish uslubi.
6. Test uslubi.
7. Pedagogik tahlil uslubi.
8. Bolalar ijodini o'rganish uslubi.
9. Pedagogik tajriba uslubi.
10. Matematik-statistik uslub.

Pedagogik kuzatish uslubi. Uni qo'llash jarayonida, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holat aniqlanadi, tajriba-avvali va yakunida qo'lga

kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, bola shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur uslubning ahamiyati yanada oshadi.

Pedagogik kuzatuvni tashkil etishda xatoga yo'l qo'ymaslik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:

- 1) kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;
- 2) kuzatishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish;
- 3) kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;
- 4) har bir holatning mohiyatini sinchiklab o'rganish;
- 5) xulosa chiqarishga shoshilmaslik.

Suhbat uslubi. Bu uslub pedagogik kuzatish jarayonida ega bo'lingan ma'lumotlarni boyitish, mavjud holatga to'g'ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari subyektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi. Suhbat maqsadga muvofiq holda individual, guruhli hamda ommaviy shaklda o'tkaziladi. Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatlari to'la-to'kis namoyon bilishga erishish muhimdir. Uning samarali bo'lishi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq:

1) maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmunini aniqlash hamda savollar o'rtasidagi mantiqiylik va izchillikni ta'minlash;

- 2) suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;
- 3) suhbat ishtirokchilarining soni xususida ma'lum to'xtamga kelish;
- 4) suhbatdosh to'g'risida avvaldan muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish;
- 5) suhbatdosh bilan samimiy munosabatda bo'lish;
- 6) suhbatdoshning o'z fikrlarini erkin va batafsil ayta olishi uchun sharoit yaratish;
- 7) savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish;
- 8) olingan ma'lumotlarni o'z vaqtida tahlil qilish.

Intervyu uslubi respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta'minlaydi. Intervyu respondent e'tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o'tkaziladi. Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi.

Ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish uslubi. Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta'lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi ma'lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur uslub O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablarining ta'lim muassasalari amaliyotidagi bajarilish holatini o'rganish, bu boradagi faollik darajasi, erishilgan yutuq hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg'or tajribalarni ommalashtirish va maktabgacha ta'lim muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo'llaniladi.

Ta'lim muassasasi faoliyati mohiyatini yorituvchi hujjatlar quyidagilardan iborat: o'quv mashg'ulotlarining jadvali, o'quv dasturi, guruh jurnallari, bolalarning shaxsiy varaqalari, buyruqlar, Pedagogik Kengash yig'ilishi bayonnomalari yozilgan daftar, Pedagogik Kengash qarorlari, ta'lim muassasasi smetasi hamda pasporti, tarbiyaviy ishlar rejası, o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish borasidagi hisobotlar, ta'lim muassasasi jihozlari (o'quv partalari, stol-stullar, yumshoq mebellar va hokazolar) qayd etilgan daftar va hokazolar.

Mazkur uslub muayyan yo'nalishlarda o'quv-tarbiya ishlari samaradorligi darajasi, bolalarda hosil bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi, ilg'or pedagogik tajribalar mazmunini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Bolalar ijodini o'rganish uslubi. Mazkur uslub bolalarning muayyan yo'nalishlardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, ma'lum fan sohalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Uni qo'llashda bolalarning ijodiy ishlari – rasmlar, konstruksiya ishlari, qo'l mehnati asosida yaratilgan buyumlar muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Uslubning afzalligi shundaki, u ma'lum bolaga xos bo'lgan individual imkoniyatni ko'ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Pedagogik tajriba (eksperiment – lotincha "sinab ko'rish", "tajriba qilib ko'rish") *uslubı.* Pedagogik tajriba uslubidan muammo echimini topish imkoniyatlarini o'rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, ilgari surilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o'z in'ikosiga ega bo'la olishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Muayyan muammo yechimini topishga yo'naltirilgan pedagogik tajriba ma'lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar ishtirokida amalga oshiriladi. Mazkur uslubdan foydalanish

tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus uslubikaning samadorligini aniqlashi hamda unga baho bera olishi zarur.

? NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. "Maktabgacha pedagogika" tushunchasi qanday mazmunni anglatadi?
2. Maktabgacha pedagogika fani nimani o'rganadi?
3. Maktabgacha pedagogika fanining obykti va predmetini izohlang.
4. Maktabgacha pedagogika fanining asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
5. Maktabgacha pedagogikaning asosiy kategoriyalarini sanang va mohiyatini yoritng.
6. Qanday uslublar pedagogik ilmiy-tadqiqot uslublari hisoblanadi?

? MAVZU YUZASIDAN TESTLAR

1. Maktabgacha ta'lim qayerda amalga oshiriladi?

- A) Davlat maktabgacha tarbiya muassasalarida
- B) Nodavlat maktabgacha tarbiya muassasalarida
- C) Oilalarda, maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida
- D) Barcha javoblar to'g'ri

2. Maktabgacha ta'limning asosiy maqsadi nima?

- A) Maktab ta'limiga tayyorlash, o'qishga qiziqishini uyg'otish
- B) Bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topishini ta'minlash
- C) Bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash
- D) Barcha javoblar to'g'ri

3. Maktabgacha ta'lim mazmuni qanday belgilanadi?

- A) Maktabgacha ta'lim mazmunini belgilashda jamiyatning ustuvor yo'nalishiga asoslaniladi
- B) Ta'lim sohasidagi islohotlarga asoslaniladi
- C) Maktab ta'lim mazmunidan kelib chiqib belgilanadi
- D) Jamiyatning ma'naviy mafkurasi, ilg'or g'oyalari, uning asosiy maqsadi va ustuvor yo'nalishdan kelib chiqib belgilanadi.

4. “Maktabgacha ta’lim muassasalari” davlatning qanday ta’minotida?

- A) Qisman
- B) To’liq
- C) Sharoitga qarab
- D) Muassasaning imkoniyatiga ko’ra

5. Maktabgacha ta’lim olib boriladigan bolalar yosh chegarasi qaysi javobda to’g’ri berilgan?

- A) 2 yoshdan 6–7 yoshgacha
- B) tug’ilgandan to 7 yoshgacha
- C) 3 yoshdan 7 yoshgacha
- D) 3 oylikdan 6–7 yoshgacha

6. Maktabgacha pedagogika fani bola shaxsini rivojlantirishning ikki muhim jihati asosiy e’tiborni qaratgan.

- A) jismoniy etukligi va estetik rivojlanganligiga
- B) tarbiyalashga va rivojlantirishga
- C) o’qitishga va tarbiyalashga
- D) shaxsini shakllantirish va o’qitishga

7. Maktabgacha pedagogika fani obyekti to’g’ri berilgan javobni aniqlang:

- A) Maktabgacha ta’lim – tarbiya qonuniyatlari
- B) Maktabgacha ta’lim – tarbiya shakl va uslublari
- C) Maktabgacha ta’lim – tarbiya mazmuni
- D) yaxlit maktabgacha pedagogika jarayoni

III bob. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLA SHAXSINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Maktabgacha yoshdagi bola shaxsining rivojlanishi

Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida his etishi, o'z xususiyatlari va sifatleri bilan boshqalardan farq qilmog'i kerak.

Kadrlar tayyorlash milliy modelida shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekt, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida ta'riflanadi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axlohiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilish huquqini kafolatlaydi.

Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular ta'sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddidan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi, eskining yo'qolib borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ifodalaydi. Rivojlanishining manbayi qarama-qarshiliklarning o'rtasidagi kurashdan iboratdir.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir, degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlari birgalikda ta'sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi.

Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi. Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur.

Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish hamda hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

Maktabgacha yoshdagi bola shaxsi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar

Fanda, odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko'pdan buyon davom etmoqda: insonning shaxs sifatida rivojlanishida ijtimoiy hodisalarning ta'siri kuchli bo'ladimi, yoki tabiiy omillar yetakchi o'rin tutadimi? Balki tarbiyaning ta'siri yuqoridir? Ular o'rtasidagi o'zaro munosabat qanday?

Fanda *biologik yo'nalish* deb nomlangan nuqtayi nazar yetakchi o'rinlardan birini egallab, uning vakillari Arastu, Aflotunlar tabiiy-biologik omillarni yuqori qo'yadilar. Ular tug'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'rnini belgilab bergan, degan g'oyani ilgari suradilar.

XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyondalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning roliga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi. Xorij psixologiyasidagi yana bir oqim – bixeviorizm XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lib, uning namoyondalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o'tib, insonga u tabiatan berilgan, deyishadi. Mazkur ta'limot vakili amerikalik olim E.Torndaykdir. Preformizm oqimi va uning vakillari D.Dyul, A.Kombe ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtayi nazardan asoslaydilar. Ular rivojlanishni faqat miqdoriy o'zgarishdan iborat, deb qaraydilar. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar. Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog'laydilar.

Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishini ijtimoiy omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog'liq deb ko'rsatadilar. *Muhit*

deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta'sir tushuniladi. Shu nuqtayi nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi. Ular ijtimoiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo'lib kamolga yetishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta'sirini aniqlashda ilg'or pedagog olimlar, psixolog va faylasuflar ta'limotiga suyaniladi.

Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqelik deb qaraladi. Ular individning ma'naviy boyligi uning munosabatlariga bog'liq, deb hisoblaydilar.

Haqiqatdan ham, shaxs mehnat faoliyati zaminida rivojlanadi, kamolga etadi. Inson sharoitni, sharoit esa odamni yaratadi. Bu esa o'z navbatida inson faolligini namoyon etadi. Zero, shaxs ma'lum ijtimoiy hayot mahsulidir. Jamiyat shaxs kamolotining muayyan imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin.

Shaxsga *ijtimoiy muhit*ning ta'siri ham muhim. Bu tarbiya orqali amalga oshiriladi. Ya'ni, birinchidan, tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi.

Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxs kamolga yetadi.

Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish mumkin.

To'rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta'sir etadi, bunday tarbiya doimiy va uzluksizdir.

Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

Zamonaviy pedagogikada shaxs shakllanishiga doir *to'rt yondashuv* qaror topgan:

1. *Biologik yondashuv* – inson tabiiy mavjudot bo'lib, uning butun xatti-harakatlari tug'ma instinkt va ehtiyojlar natijasidir. Inson jamiyat talablariga bo'ysunishga majbur, shu bilan birga tabiiy ehtiyojlarini ham namoyon qilib boradi.

2. *Ijtimoiy yondashuv* – inson biologik mavjudot sifatida tug‘iladi, faqat hayotiy faoliyati davomida boshqalar bilan doimiy muloqot va ijtimoiy guruhlarning ta’siri ostida ijtimoiylashadi.

3. *Psixologik yondashuv* – insondagi psixik jarayonlar (sezgi, idrok, fikrlash kabilar) tabiiy tavsifga ega, insonning yo‘nalganligi–qiziqishlari, qobiliyatlari ijtimoiy hodisa sanaladi.

4. *Yaxlit yondashuv* – shaxs yaxlit tavsifga ega bo‘lib, uning rivojiga nafaqat uning faoliyatidagi o‘ziga xosliklar, balki turmush tarzi ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga ijtimoiy hayot natijalari – motiv, maqsad, qiziqish kabilar ham uning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Rivojlanishning yosh va o‘ziga xos xususiyatlari

Muayyan bir yosh davriga xos bo‘lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta’siri kuchli bo‘ladi.

Bolalarning tarbiysiga ga to‘g‘ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o‘qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola organizmining o‘sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida xilma-xil bo‘ladi. Abu Ali ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniy ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o‘tganlar.

Bolaning o‘ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo‘lishi mumkin.

Masalan, ko‘rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg‘ayrat yoki g‘ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, yig‘inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimining ta’siri bo‘lib, tarbiyachi ularni bilishi zarur.

Bolaning individual – o‘ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o‘ziga xos xususiyatini o‘rganish uslubikasini bilish muhim. Temperament – lotincha “temperamentum”, ya’ni “qismlarning bir-biriga munosabati” ma’nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuyidir.

Shuningdek, turli yosh davrlarining o‘ziga xos rivojlanish qonuniyatlari ham mavjud. Maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy va psixik kamoloti shartli ravishda quyidagi davrlarga bo‘linadi:

- go‘daklik (1 yoshgacha);
- ilk yosh (1–2 yosh);
- ilk yosh guruhi (2-3 yosh);
- kichik yosh (3–4 yosh);
- o‘rta yosh (4–5 yosh);
- katta yosh (5–6 yosh);
- maktabga tayyorlov davri (6–7 yosh)¹².

Ilk yosh davri bolalarining rivojlanishidagi o‘ziga xosliklar. Insonning rivojlanish davri ona qornidan boshlanadi. Bola ona qornida to‘qqiz oy mobaynida juda tez rivojlanish jarayonini va murakkab taraqqiyot davrini o‘taydi. Bu davrda ham bola ma‘lum darajada tashqi muhit ta‘sirida bo‘ladi. Shuning uchun ham bu ta‘sirning ijobiy bo‘lishini ta‘minlash lozim.

Go‘dakning vazni tug‘ilgan paytda 3,5 kg, bo‘yi 50 sm bo‘lgan bo‘lsa, uch oylik davrida uning vazni taxminan 5 kg, bo‘yi 60 sm, 6 oylik bo‘lganda esa taxminan 7 kg, bo‘yi 64 sm bo‘ladi.

Bir yoshgacha bo‘lgan davrda bolaning rivojlanishi asosan oila muhiti ta‘sirida bo‘lib, u ona suti bilan oziqlanishi lozim. Bola bu davrda nutqqa ega bo‘lmasa ham nutqni tushunish, anglash, harakatlarni idrok etish, oila a‘zolarini tanish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Shuning uchun ham go‘daklik davridan boshlab uch yoshgacha bo‘lgan davrda bolaning nutqi va tafakkuri jadal rivojlanadi. Bola bir yoshgacha bo‘lgan davrda dastlabki so‘zlarni ayta boshlaydi. Bu davrda kattalar, asosan, oila a‘zolari go‘dakni to‘g‘ri parvarish qilishni yo‘lga qo‘yishlari lozim. “Bola tushunmas ekan” deb, unga befarq bo‘lmasliklari, atrof-muhitdagi buyumlarning nomini to‘g‘ri talaffuz qilib, ularning nutqini to‘g‘ri rivojlantirish uchun keng yo‘l ochishlari kerak.

Oilada bolani tarbiyalashda ota-ona bilan bola o‘rtasida qalban yaqinlikka erishish lozim. Ota-onalar hech qachon tarbiyani o‘z holiga tashlab qo‘ymasligi, ya‘ni bolaning ilk yoshligidan bu jarayonga kirishish talab etiladi. Chunki, bola oilada birinchi hayotiy tajribani o‘rganadi. kuzatadi va o‘zini turli xil vaziyatlarda qanday tutish kerakligini o‘rganadi. Biz bolani nimaga o‘rgatsak uni aniq, hayotiy misollar bilan mustahkamlashimiz zarur, ya‘ni kattalar aytgan gaplariga amal qilishlari shaxsan tarbiyaning samaradorligini ta‘minlaydi.

Ilk yosh guruh (2–3 yoshli bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Bu davr o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bir yoshdan ikki yoshgacha bo‘lgan

12. Bolajon tayanch dasturi – T., 2010. – 5-b.

davr mobaynida bolaning nutqi va o'zgaralar tomonidan aytilgan so'zlarni tushunish qobiliyatlari jadal rivojlangan bo'lsa, 2–3 yoshga kelib, o'zgaralar nutqiga taqlid qilish jarayoni boshlanadi, bola musiqa, badiiy so'z ta'siriga tez beriladi.

Shuning uchun ham unga xuddi shu davrdan boshlab she'rlar aytish hamda raqsga tushishni o'rgatish lozim. Ularda kattalarga jo'r bo'lib qo'shiq aytish, musiqaga muvofiq harakat qilish, ohangni his etish ko'nikmasi shakllanadi.

Bu yoshdagi bolalarni bir joyga jamlaganda ular orasida o'zaro muloqotga kirishish ko'nikmalari shakllana boshlaydi. Ta'lim-tarbiyaviy ishlar bolalarda shakllana boshlagan xuddi ana shu ko'nikmalarni rivojlantirishga va ularni malakalarga aylantirishga yo'naltirilmog'i lozim.

Kichik guruh (3–4 yoshli bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Bola 3 yoshga qadam qo'yganda jismoniy o'sishi bir qadar sekinlashadi. Bu davrda uning og'irligi 14–15 kg., bo'yi 90–95 smga yetadi. Bola jismonan ancha chiniqib, asab tizimi taraqqiy etadi. Tayanch harakat organlari takomillashib boradi. 3 yoshli bolalar qisqa muddat davomida o'z xatti-harakatlarini idora qilish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Ulardagi mustaqillik ortib boradi, hissiyot hamda sensor idroki rivojlanib boradi. Jamoa bo'lib o'ynash ko'nikmalari shakllanadi. O'yin asosida amalga oshiriladigan mehnat faoliyatini farqlash imkoniyati kengayadi. Tasviriy faoliyat hamda qurish-yasash faoliyatining dastlabki ko'rinishlari namoyon bo'ladi. Uch yoshli bolalarning diqqati qisman markazlashadi, xotirasi mustahkamlanib boradi, moddiy borliqni idrok etish jarayoni boshlanadi, faraz qilish imkoniyatlari vujudga keladi. Bunda o'yin faoliyati etakchi rol o'ynaydi. Mazkur dastur xuddi mana shu faoliyatni kengaytirishga va rivojlantirishga keng yo'l ochadigan ta'limiy mashg'ulotlar tizimini belgilab berishga yo'naltirilgan.

O'rta guruh (4–5 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Bola to'rt yoshga yetgach, uning jismoniy o'sishi birmuncha jadallashadi, bu davr mobaynida bo'yi 105–108 sm gacha o'sadi, og'irligi esa 18–19 kg bo'ladi. Bu davrda bolaning miyasi tez rivojlanadi. Katta yarim sharlar po'stlog'ining faoliyati takomillashib boradi. Boladagi asosiy harakatlarning rivojlanishida jiddiy-sifat o'zgarishlar sodir bo'ladi, ularni bajarishda tabiiylik ortib boradi, bolalarda qiyoslash ko'nikmasi shakllanadi. Bu yoshdagi bolalarning nutqi ravon, xotirasi ancha teran, mustaqil fikrlash darajasi bir qadar rivojlangan bo'ladi. Barcha harakat va

faoliyatlarni o'zi mustaqil bajarishga intiladi. Bu yoshda bola nihoyatda serharakat, o'yinqaroq, o'ta qiziquvchan bo'ladi. U har qanday tadbirga bajonidil qatnashadi. Shuning uchun ham ularni to'g'ri ovqatlantirish, o'z vaqtida uxlatish, salomatligini muhofaza qilish, ruhiy holatini nazorat qilib borish, quvnoq kayfiyatda bo'lishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Ular bilan olib boriladigan mashg'ulotlarning mazmunini xuddi mana shunga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

Katta guruh (5–6 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Bu davrda bolaning bo'yi 7–8 sm ga o'sadi. Uning oyoqlari gavdasiga nisbatan tezroq rivojlanadi, og'irligi 20–22 kg ni tashkil etadi. Bolalarning umurtqa suyaklari qotnaganligi tufayli tez qiyshayib qolishi mumkin. Shuning uchun ham suyaklarning to'g'ri o'sishini ta'minlashga alohida e'tibor berish kerak. Ularning yuragi chaqaloq yuragiga nisbatan 4–5 barobar kattalashgan, biroq muskullari hali yetarli darajada mustahkamlanmagan bo'ladi. Olti yoshga etganda miya po'stlog'ining asab katakchalari rivojlanib, og'irligi va tashqi ko'rinishidan kattalarnikiga yaqinlashadi. Shuning uchun ham bolaning asablariga juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish talab etiladi. Uning talaffuzi aniq, nutqi ravon bo'lishini ta'minlash kerak. Bolaning bu faoliyatida nuqson bo'lgan taqdirda uning oldini olish choralari ko'rish lozim. Bu yoshdagi bolalarning so'z boyligining rivojlanishiga alohida e'tibor berish lozim. Ularning nutqidagi so'zlar bolaning fikr ifodalash ehtiyojlarini to'la qondirishi kerak. Bu davrda bolalarning matematik tafakkuri, hisoblash ko'nikmalari rivojlanishi lozim. Dastlabki iqtisodiy tushunchalarga ehtiyoj seziladi. Bolaning faraz qilish qobiliyatini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Maktabga tayyorlov guruhi (6–7 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Bola hayotining ettinchi yilida undagi harakatlar ko'lami kengayadi va aniqlashadi, uning jismida harakatlarning o'zaro moslashuvi boshlanadi. 6–7 yoshli bolalar o'zini idora qilish va o'z harakatlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'la boshlaydi. Bu yoshdagi o'g'il bolalarda mustaqil faoliyat ko'rsatish, tashabbuskorlik rivojlanadi hamda kattalar fikrini tinglash ishtiyoqi shakllanadi. Bu davrda bolaning bo'yi 120 sm ga yetadi, og'irligi 22–24 kg bo'ladi. Bu yoshda bola chiniqadi, qiziquvchan bo'ladi, o'z salomatligini nazorat qila oladi. Uning idrok kuchi va tafakkuri jadal rivojlanadi, moddiy borliqni bilishga intila boshlaydi. Bolalarda gigienik malakalar shakllana boradi.

Bolani maktabga tayyorlash jarayonida ularda faoliyatning yangi turi bo'lgan ta'lim olishga, o'qishga ishtiyoq uyg'otish lozim. Bu o'rinda bolalarni ruhan ta'lim jarayoniga kirishishga tayyorlash maqsadida dastlabki o'quv elementlarini o'rgatish lozim.

Har qanday olti yoshli bola maktabga qabul qilinishi mumkin. Buning uchun u jismonan, ruhan hamda aqliy jihatdan ta'lim olishga tayyor bo'lishi kerak. Bolalarni maktabga tayyorgarlik darajasini aniqlashda tashxis markazlarining xulosalariga tayanish lozim. Shu bilan bir qatorda maktabning moddiy-texnik bazasi olti yoshli bolalarga ta'lim berish imkoniyatiga ega bo'lishi shart. Tarbiyachining pedagogik-psixologik bilim darajasi, axloq-odobi va shaxsiy sifatleri olti yoshli bolalarga ta'lim va tarbiya berish uchun loyiq bo'lganda. u olti yoshli bolalarni o'qitish huquqiga ega bo'ladi. Shuning uchun ham 6–7 yoshli bolalar, ularni qabul qiladigan maktablar hamda bu bolalarni o'qitadigan tarbiyachilar pedagogik-psixologik nuqtayi nazardan alohida-alohida diagnostika qilinishi va shundan keyingina ta'lim jarayoniga kiritilishi kerak.

? NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. “Individ”, “shaxs”, “individuallik” tushunchalarini sharhlang.

2. Hech o'ylab ko'rganmisiz, nega qarg'a o'rtacha 200-300 yil yashaydi. Lekin uning bolaligi uzog'i bilan besh-olti oy davom etadi. Inson o'rtacha 60-70 yil umr ko'radi. Biroq u 20-25 yoshlarida mustaqil hayot boshlaydi. Mazkur holatni qanday izohlash mumkin?

3. Quyida keltirilgan jummalarni o'qing va jumлага mos keladigan bir so'z bilan ifodalanadigan javobni toping.

1) o'zi istamagan holda birovga yomonlik qilib qo'ysa ham, mazkur ishidan afsuslanadi, vijdon azobida qiynaladi – ...

1) individlar ichida bir tur – ...

2) jamiyatda o'z o'rniga ega, ijtimoiy ahamiyatga ega maqsad yo'lida bir yoki bir nechta kishini o'z orqasidan ergashtira oladi – ...

4. Quyida keltirilgan atamalar ierarxiyasiga e'tibor qarating va ularning joylashish tartibiga o'z munosabatingizni bildiring.

1) rivojlanish;

2) shakllanish;

3) tarbiya;

• 4) o'z-o'zini tarbiyalash;

- 5) o'z-o'zini takomillashtirish;
4. Rivojlanish va shaxs rivojlanishini ta'riflang.
5. Quyidagi fikrlarga qo'shilasizmi?
- “Agar bolalar muntazam tanqid qilinsa, aldashga o'rganadi”;
 - “Agar bolalar qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilinsa, dunyoni go'zal ko'rishga o'rganadi”;
 - “Agar bolalarga hurmat bilan munosabatda bo'linsa, ular olijanob va saxiy bo'lishni o'rganishadi”.
6. Shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar haqida nimalarni bilasiz?
7. Shaxs faoliyati haqida so'zlab bering.
8. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlarini tavsiflang.
9. Shaxsning ijtimoiylashuvini qanday tushunasiz?

?

MAVZU YUZASIDAN TESTLAR

1. Kadrlar tayyorlash milliy modelida shaxs tushunchasiga qanday ta'rif beriladi?

- A) Kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekt va obyekt, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi
- B) Kadrlar tayyorlash tizimining asoschisi
- C) Tarbiyaning iste'molchisi va amalga oshiruvchisi
- D) Kadrlar tayyorlash tizimining hal qiluvchi kuchi

2. Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ta'sir etuvchi omillar qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- A) Irsiyat va ta'lim-tarbiya
- B) Ta'lim-tarbiya va muhit
- C) Rivojlanish jarayonidagi tarbiya
- D) Irsiyat, ijtimoiy muhit va ta'lim-tarbiya

3. Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan nimalarning o'zgarishiga bog'liq?

- A) Sifat va harakat tezligi B) Miqdor va sifat
- C) Miqdor va psixika
- D) Psixika va harakat

4. Odamning shaxs sifatida rivojlanishida qaysi yoʻnalishni Arastu va Aflotun ustun qoʻyadilar?

- A) Ijtimoiy yondashuv
- B) Psixologik yondashuv
- C) Yaxlit yondashuv
- D) Biologik yondashuv

5. Zamonaviy pedagogikada shaxs shakllanishiga doir yondashuvlar tarkibi necha turga boʻlinadi?

- A) 4
- B) 3
- C) 2
- D) 5

6. Muayyan bir yosh davriga xos boʻlgan anatomik, fiziologik va psixologik xususiyatlar fanda qanday atama bilan ishlatiladi?

- A) Yosh bosqichlari
- B) Davlashtirish
- C) Yosh xususiyatlari
- D) Yosh bosqichlarining oʻziga xosligi

7. Ilmiy tildagi “temperament” atamasi qaysi tildan olingan va qanday maʼnoni anglatadi?

- A) Grek tilidan olingan: “Butunning qismi”
- B) Lotin tilidan olingan: “qismlarni bir-biriga taqqoslash”
- C) Lotin tilidan olingan: “qismlarning bir-biriga munosabati”
- D) Ingliz tilidan olingan: “Qismlarni butunlash”

8. Maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy va psixik kamolotining oʻrta yosh davri necha yoshli bolalarni oʻz oladi?

- A) 3 – 4 yosh
- B) 4 – 5 yosh
- C) 5 – 6 yosh
- D) 2 – 3 yosh

II BO'LIM. MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNI TARBIYALASH MAZMUNI VA USLUBIKASI

IV bob. TARBIYA JARAYONI: MAZMUNI VA MOHIYATI. TARBIYA QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI

Tarbiya jarayonining mazmun-mohiyati

Tarbiya pedagogikadagi asosiy tushunchalardan biri sanaladi. Jamiyat va pedagogikaning tarixiy rivoji davomida mazkur kategoriyani tushuntirishga turlicha yondashuvlar yuzaga keldi. Eng avvalo, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, keng va tor ma'nodagi tarbiya farqlanadi. Keng ma'noda tarbiya shaxsga jamiyatning ta'sir etishi, ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Mazkur holatda tarbiya ijtimoiylashtirish bilan uyg'unlashadi. Tor ma'nodagi tarbiya deganda, pedagogik jarayon sharoitida ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi. Ushbu holatda pedagoglarning tarbiyaviy faoliyati tarbiyaviy ish deb ataladi.

Tarbiya jarayoni tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir.

Tarbiyaning maqsadi – har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish.

Tarbiya mazmuni deganda, qo'yilgan maqsad va vazifalar bilan bog'liqlikda tarbiyalanuvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, e'tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi.

Tarbiyaning *umumiy vazifalariga* quyidagilar kiradi:

- tarbiyalanuvchilarning maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish;
- jamiyat rivoji uchun zarur bo'lgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarli-chahajmdagi "inson kapitali"ni tayyorlash;
- madaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta'minlash;
- ma'lum jins yoshi va ijtimoiy-kasbiy guruhlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a'zolarining harakatini tartibga solish.

Tarbiya jarayoni – tarbiyaviy ishlar, tadbirlarning doimiy harakatdagi zanjiridan iborat. Tarbiyaviy tadbirlar – turli xil moddiy va ma'naviy ehtiyojlarga javob beruvchi, tarbiyaviy maqsadlarni yagona majmuasiga bo'ysundirilgan, bir-biri bilan o'zaro hamkorlik qiluvchi, o'zida bir butun

ta'limni ko'zda tutgan tarbiyaviy ta'sir majmuidir. Ta'lim jarayoni alohida mashg'ulotlardan tashkil topgani kabi tarbiyaviy tadbirlardan tarbiya jarayoni vujudga keladi. Tadbirlar, tarbiyaviy ishlar tarbiya jarayonining bir bo'lagidir.

Tarbiyaviy ish – bu tarbiyaning tizimliliği, to'raligi, uzviyligi va uzluksizligidir. Tarbiyaviy ish tarbiyalanuvchi-larning muayyan faoliyatini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi shakldir. Tarbiyaviy ishning asosiy xususiyati – zaruriylik, foydalilik va tatbiq etish imkoniyatidan iborat.

Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda yorqin namoyon bo'ladi:

- *maqsadga yo'naltirilganlik.* Tarbiya jarayoni – bu natijasi jamiyat uchun foydali shaxsni shakllantirishga qaratilgan maxsus tashkil etiluvchi, boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning birgalikdagi faoliyati. Boshqacha aytganda, mazkur jarayon qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan tarbiyachi va tarbilanuvchilarning o'zaro hamkorligidir;

- *ko'p qirrali jarayon.* Tarbiya jarayoni ko'plab obyektiv va subyektiv omillarga bog'liq. Subyektiv omillar bolaning ichki ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lsa, obyektiv omillar tarbiyaviy vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradigan bola yashaydigan muhit sharoitlari bilan tavsiflanadi;

- *uzoq muddat davom etishi.* Pedagogikada tarkib topgan qonuniyatga ko'ra tarbiya jarayoni inson tug'ilganidan boshlab umrining oxirigacha davom etadi;

- *uzluksizligi.* Tarbiya-tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning izchil, tizimli o'zaro harakati jarayoni. Qo'yilgan maqsadga erishish uchun tarbiyaviy ishlar tizimli yo'lga qo'yilishi lozim;

- *yaxlitligi.* Ya'ni tarbiya jarayoni maqsad, vazifa, mazmuni, shakl, uslub va vositalarining birligi. Bolani tarbiyalash jarayoni yaxlit tavsifga ega bo'lganligi bois tarbiyaviy ta'sirning ham to'laqonli bo'lishiga erishish lozim;

- *variativligi.* Tarbiya jarayoni xilma-xil ko'rinishda amalga oshirilib, mazkur holatda tarbiyalanuvchilarning individual rivojlanishidagi o'ziga xosliklar, tarbiyaviy jarayonga munosabati, ijtimoiy tajribalari alohida ahamiyat kasb etadi;

- *natijalarning oldindan aniqlanmasligi.* Tarbiya jarayonining murakkabligi shundaki, mazkur jarayon o'z mahsulini yillar davomida ko'rsatadi.

Kutilgan natijaga erishish ham tarbiyachining kasbiy mahoratiga, ham tarbiyalanuvchining shaxsiy faolligiga bevosita bog'liqdir;

• *ikki tomonlamalilik*. Tarbiya jarayonining borishi ikki yo'nalishda amalga oshadi: tarbiyachi – tarbiyalanuvchi (to'g'ridan-to'g'ri aloqa) va tarbiyalanuvchi – tarbiyachi (qayta aloqa).

Tarbiya qonuniyatlari

Tarbiya qonuniyatlari – bu bir tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan barqaror aloqalardir.

Tarbiya jarayonining quyidagi *umumiy qonuniyatlari* mavjud:

• *ijtimoiy muhitning obyektiv va subyektiv omillariga bog'liqligi*. Obyektiv omillar tarbiyani tashkil etish shart-sharoitlari (moddiy-texnik, ijtimoiy, madaniy, sanitar-gigienik) orqali yuzaga chiqsa, subyektiv omillarga tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar, ularning o'zaro birgalikdagi harakati, murakkab aloqalar, psixologik muhit va boshqalarni kiritish mumkin;

• *tarbiyaning shaxsning rivojlanishi bilan birligi va o'zaro bog'liqligi*. Tarbiya jarayoni bolalarning yosh davri rivojlanishi xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi; qo'yilgan maqsad va vazifalar bolalarning yosh xususiyatlariga to'liq mos kelishi lozim;

• *faoliyat va munosabatni e'tirof etish shaxsning ijtimoiy qimmatli fazilatlarini shakllantirishning negizi va asosiy manbasi*. Tarbiyalanuvchilarning faoliyatga jalb etish orqali ularda mavjud jarayonga nisbatan munosabatni aniq baholay olish mumkin. O'z navbatida munosabat bildirish olish tarbiyalanuvchining faoliyatga tayyorligini ko'rsatadi;

• *tarbiyalanuvchilarning o'zaro tarbiyaviy ta'siri, o'zaro munosabatlari hamda faol faoliyati o'rtasidagi bog'lanish*. Tarbiyalanuvchilar bir-birlariga o'zaro ta'sir etishlari va mazkur imkoniyatdan oqilona foydalana olish tarbiya jarayonining ta'sirini kuchaytiradi. Ularning o'zaro munosabatlarining barqarorligi, shuningdek, birgalikdagi faoliyati ularda jamoaviylik, o'zaro ishonch, mehribonlik, bir-birlari uchun qayg'ura olish, hamdardlik, bag'rikenglik kabi fazilatlarining qaror topishiga ko'maklashadi;

• *tarbiya va o'zini-o'zi tarbiyalashning intensivligi*. O'z-o'zini tarbiyalash – bu shaxsning o'zini, shaxsiy sifatlarini takomillashtirishidir, zamon talabiga javob beradigan darajada ongli intilishidir. O'z-o'zini tarbiyalash yaxshi tarbiya natijasida yuzaga kelib, shaxsning o'z-o'zini

kamolga yetkazishiga olib keladi. O‘z-o‘zini tarbiyalash bevosita tarbiyalanuvchilar hayot mazmuni, ularning qiziqishlari, u yoki bu yosh davridagi xarakterga bog‘liqdir. O‘z-o‘zini tarbiyalash muhim ahamiyatga ega bo‘lib, tarbiyalanuvchiga o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay olish, o‘zidagi ijobiy va salbiy jihatlarni aniqlay olish imkonini beradi;

• *tarbiyalanuvchining “ichki olami”ga ta’sir etishning intensivligi* (G.I. O‘ukina). “Tarbiyalanuvchining ichki olami” deganda motiv, ehtiyoj, emotsiya, intellekt kabilarning birligi tushuniladi. Tajriba, bolaning ehtiyojlari orqali sinaladigan tashqi muhit ta’siri uning yutug‘i sifatida yuzaga keladi. Aynan tarbiyaviy jarayonda tashqi ta’sir bolaning ichki muvaffaqiyatini kuchaytiradi;

• *tarbiyalanuvchilarda verbal va sensomotor jarayonlarning rivojlanish darajasi va pedagogik ta’sirni hisobga olish* (G.I. O‘ukina). Amaliyot ko‘rsatadiki, hamma vaqt ham bolaning aqliy rivojlanishi uning verbal nutqi va harakatga doir sensomotor ko‘rsatkichlariga mos kelavermaydi. Nazariy bilimlarga oson va erkin tayanuvchi bolalar uchun ba’zan elementar amaliy harakatlar, sohada mehnat faoliyatiga doir operatsiyalarni, jismoniy mashqlarni bajarish qiyin va murakkablik qiladi. Shuning uchun tarbiyalanuvchilarda verbal va sensomotor jarayonlarning rivojlanish dinamikasi bilan pedagogik ta’sirning uyg‘unligiga erishish lozim.

Tarbiya tamoyillari

Tarbiya tamoyillari – bu tarbiyaviy ishning yo‘nalishiga, mazmuniga, uslublari

va tashkil etilishiga, tarbiya jarayonining ishtirokchilari orasidagi munosabatlarga qo‘yiladigan asosiy talablar ifodalanadigan dastlabki qoidalardir.

Tarbiya jarayoni quyidagi tamoyillar asosida boshqariladi:

Maqsadga qaratilganligi va g‘oyaviy yo‘nalganligi. Tarbiya jarayonida maqsadning aniq belgilanishi kutiladigan natijaga erishishni kafolatlaydi. Shuningdek, tarbiya jarayoni jamiyatni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari, milliy g‘oya va mafkura asosiga qurilishi lozim. Respublikamizda tarbiya jarayonining asosiy maqsadi sifatida yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirish belgilab olingan. Yuksak ma’naviyatli inson bilimli, ma’lum kasb-hunar sohibi, o‘z Vatanining sodiq fuqarosidir. O‘z davlati qonunlarini biladigan va ularga amal qiladigan, yurti bilan g‘ururlana oladigan inson. O‘z Vatani boyliklarini saqlaydigan, uni yanada boyitadigan, go‘zalliklaridan bahramand bo‘ladigan shaxs. U har qanday zararli illatlarga qarshi kurashadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni avaylab asraydigan insondir.

Tarbiyaning insonparvarlashuvi. “Insonparvarlik” tushunchasi mohiyatini, uning turlari va ilmiy pedagogika bilan munosabatlarini qanday talqin qilish kerak? “Falsafa: qomusiy lug‘at”da insonparvarlik “Odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni hurmat qilish, insonning moddiy farovonligini yuksaltirish va kishilarda yuksak ma’naviy fazilatlarini rivojlantirishga g‘amxo‘rlik qilish g‘oyalari bilan sug‘orilgan dunyoqarash”¹³ sifatida qaraladi. “Pedagogik ensiklopedik lug‘at”da esa, insonparvarlik shaxs sifatida inson, uning erkin rivojlanishi va o‘z qobiliyatlarini namoyon eta olishini qadriyat sifatida qabul qilish ekanligi uqtiladi¹⁴.

Keng ma’noda insonparvarlik – insonni shaxs sifatida qadriyat deb belgilaydigan, uning erkinlik, baxtga bo‘lgan huquqi, o‘zining qobiliyatlarini namoyon etishi va rivojlantirishi, ijtimoiy institutlarning baholash mezonlarida inson ravnaqini hisobga oladigan qarashlarning tarixiy o‘zgaruvchan tizimi, insoniylik – odamlar orasida kutiladigan me’yoriy munosabat. Insonparvarlik asosida yana insonning cheksiz imkoniyatlari va uning komillikka doir intilishlari, o‘z qobiliyatlari, qarashlarini erkin namoyon etishga doir shaxs huquqini e’tirof etib turadigan, inson ravnaqini ijtimoiy munosabatlar darajasini baholash mezoni sifatida tasdiqlaydigan dunyoqarash tamoyili tarzida ham qaraladi. Hozirgi vaqtda mazkur tamoyil pedagogikaning asosiy tamoyillaridan biri sifatida shakllantirildi.

Tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish eng umumiy ma’noda, tarbiya jarayoni ishtirokchilarining munosabatlarini avtoritar pedagogik muloqot uslubidan demokratik muloqot uslubiga almashtirish asosiga tashkil etilishi bilan tavsiflanadi. Bunda asosiysi – tarbiyalanuvchi shaxsiga hurmat va ta’lim mazmunida ijtimoiy tajriba tarzida olingan insoniyat madaniyati bilan tanishtirish yo‘lida uning ma’naviy imkoniyatini hisobga olish. Tarbiya jarayonining mohiyati ijtimoiy tajribani maqsadga yo‘naltirilgan tarzda shaxsiy tajribaga almashtirish yoki shaxsiy va ijtimoiy tajribaning qo‘shilishida namoyon bo‘ladi. Tarbiyani insonparvarlashtirish uning yetakchi tendensiyasi sifatida tarbiyani insonga qaratish, uning individualligining namoyon bo‘lishi va rivojlanishi uchun sharoit yaratishni ifodalaydi. U insonni yuqori ehtiyojlari: o‘z-o‘zini namoyon etish, o‘z-o‘zini realizatsiyalash, ma’naviy, ijtimoiy va kasbiy shakllanishida maksimal darajada qoniqishga yo‘naltirilgan o‘z

13. Falsafa: qomusiy lug‘at (Tuzuvchi va mas’ul muharrir Q.Nazarov). – T.: «Sharq», 2004. – B.166.

14. Pedagogika. Bolshaya sovremennaya entsiklopediya. – Minsk: «sovremennoe slovo», 2005. – S.58.

noyobligini yo'qotish, hayot, tabiat dunyosi va madaniyatdan begonashib ketish xavfidan himoyalanişga chaqiradi.

Tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog'liqligi. Maktabgacha ta'lim muassasasi bola uchun boshlang'ich va asosiy tarbiya maskani hisoblanib, aynan tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog'liqligi tarbiya tizimida katta o'rin tutadi. U tarbiyachidan ikkita asosiy yo'nalishda faoliyatni amalga oshirishni talab etadi: 1) tarbiyalanuvchilarni kishilarning mehnat faoliyati bilan keng tanishtirish; 2) tarbiyalanuvchilarni real hayotiy munosabatlarga, ijtimoiy foydali faoliyatning xilma-xil turlariga jalb etish.

Tarbiyaning mehnat bilan bog'liqligini oqilona amalga oshirish tarbiyachidan tarbiyalanuvchilarning quyidagi ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlariga erishishni talab etadi:

1) tarbiyalanuvchilarning mehnatning jamiyat va uning har bir a'zosi uchun ahamiyatini tushunib yetishlari;

2) moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchilar mehnatini hurmat qilish;

3) tarbiyalanuvchilarning o'z ustida ishlashlari, muntazam ravishda mehnat qilishga odatlanish;

4) tarbiyalanuvchilarning kasb-hunarga oid tushunchalarni o'zlashtirib borishlari va ular haqida ma'lumotga ega bo'lishlari;

5) moddiy va ma'naviy boyliklarga mas'uliyatli munosabatda bo'lish.

Tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog'liqligi tamoyili mazkur tamoyilning alohida tomonlarini ochib beruvchi quyidagi qoidalar asosida ish yuritishni talab etadi:

1. Tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy va mehnat tarbiyasida mavhumlik va yuzakilikdan voz kechib, ularni aniq va mahsuldor faoliyatga jalb etish. Mashg'ulotlar jarayonida izchillik va ketma-ketlikka rioya etish zarur.

2. Tarbiyachi oila bilan o'z faoliyatini muvofiqlashtirgan holda, har bir tarbiyalanuvchiga ularning jamiyatga qo'shadigan munosib hissasi uyda va maktabgacha ta'lim muassasasida kattalarga yordam berish ekanligini tushuntirish.

3. Bolalar odatda doimiy ravishda faoliyatning biror turi bilan shug'ullanishga intiladi, ularning tabiati uchun sustlik, bekor o'tirish kabilar xos emas. Agar tarbiyachi mazkur jihatni hisobga olmasa, bolalarning ijtimoiylashuviga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

4. Mazkur tamoyilni amalga oshirish tarbiyaviy ishlar jarayonida o'l-kashuqoslik materiallaridan keng foydalanishni talab etadi.

5. Tarbiyalanuvchilar bilan birgalikda hayotiy masalalarni muhokama qilish. ularni o'z xulosalarini aytishga o'rgatish ularda insonparvarlik va fuqarolik hissini uyg'otishga xizmat qiladi.

6. Tarbiyaning hayot bilan bog'liqligi tamoyilini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi islohotlari bilan bog'liqlikda tarbiya mazmuni va uslubikasini qayta ko'rib chiqish va yangilab borish lozim.

7. Tarbiyaviy jarayon shunday tashkil etilishi lozimki, tarbiyalanuvchilar to'la qoniqish hosil qilishlari uchun ularning mehnati kishilar va jamiyatga zarur ekanligini his eta olishlari zarur.

Tarbiya jarayonini tashkil etishga doir zamonaviy yondashuvlar va ularning o'ziga xosliklari

Bugungi kunda tarbiya jarayoniga xilma-xil yondashuvlar mavjud bo'lib, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda mazkur yondashuvlarni hisobga olish juda muhimdir.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv. Mazkur yondashuvning mohiyati – bixevioristik yo'nalganlik, tarbiyani shaxsning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy pedagogik ta'sir sifatida qarash; har bir pedagogik ta'sir tarbiyalanuvchida uning so'zlari, xatti-harakati yoki amallarida namoyon bo'ladigan ma'lum javobni yuzaga keltiradi.

Madaniyatshunoslik yondashuvi. Maxsus tashkil qilingan pedagogik jarayon sifatida tarbiyadan voz kechish. Madaniyatni, dunyo manzarasini egallash jarayonida atrofda gilarining xatti-harakatlari va xulqiga tabiiy tarzda moslashish.

Aksiologik yondashuv. Mohiyati – insonning jamiyatdagi hayotining o'zini qadriyat sifatida qaraydigan asosiy falsafiy qadriyatlar nazariyasi; tarbiya hayotga tayyorlashga, shaxsiy qadriyatli yo'nalganlik va shaxsning munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan. Tarbiya qadriyatlarini o'zlashtirish va interiorizatsiyalash jarayoni sifatida tashkil etiladi.

Ijtimoiylashtirishga doir yondashuv: tarbiyaga "hayot maktabi" sifatida qarash; ijtimoiy ahamiyatli sifatlarni shakllantirish; hayotiy tajribani sotsiumda egallash; sotsiumda ijodiy o'z-o'zini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash.

Germenevtik yondashuv: insonparvarlikka doir hodisalarni tushunish va talqin qilishning G-nazariyasi; subyektning psixologik tajribasiga, kechinmaga murojaat; tarbiyachi va bola dialogi sifatida tashkil qilinadigan pedagogik o'zaro hamkorlik vaziyatida kechinmalarni yuzaga

keltirish; tarbiyalanuvchi hayot mazmuni va uning hayot qadriyatlariga nisbatan munosabatini tushunish.

Sinergetik yondashuv: shaxsni o'zgartirish yo'llarining variativligi; bifurkatsiya (tanlov) nuqtasidan foydalanish; shaxsning ichki imkoniyatlari.

Antropologik yondashuv: insonparvarlik pedagogikasi, reflektiv pedagogika; individual qobiliyatlarni rivojlantirish; o'z-o'ziga tarbiya ehtiyojini rivojlantirish; insonparvar maqsadlarni axloqiy fazilatlar (insoniylik, ishonch, minnatdorlik, chidamlilik) sifatida qo'yish; tashhislash; shaxsning o'z-o'zini belgilashini ta'minlash.

Tarbiya turlarining umumiy tasnifi

Tarbiya turlari xilma-xil tasnif etilish tavsifiga ega. Ko'proq *umumlashgan tasnif* o'zida aqliy, mehnat, jismoniy tarbiyani

qamrab oladi.

Ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy ishlar turli yo'nalishlar bilan bog'liqlikda fuqarolik, siyosiy, baynalmilal, axloqiy, estetik, mehnat, jismoniy, huquqiy, ekologik, iqtisodiy tarbiyaga bo'linadi. *Institutsional belgilari bo'yicha* oila, ta'lim muassasasi, ta'lim muassasasidan tashqari, diniy, bolalar, yoshlar tashkilotlaridagi tarbiya. maxsus ta'lim muassasalaridagi tarbiyaga bo'linadi.

Tarbiya va tarbiyalanuvchilar orasidagi munosabatlar uslubiga ko'ra avtoritar, demokratik, liberal, erkin tarbiya; *turli falsafiy konsepsiyalar bilan bog'liqlikda* pragmatik, aksiologik, jamoaviy, individual tarbiya farqlanadi.

Aqliy tarbiya ta'lim oluvchining intellekti, bilish imkoniyatlarini, iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Uning asosiy vazifasi – ta'lim oluvchilarni fan asoslari bo'yicha bilimlar tizimi bilan qurollantirish. Ularni o'zlashtirish natijasida tarbiyalanuvchda dunyoqarash asoslari shakllanishi zarur.

Aqliy tarbiyaning *vazifalari* quyidagilar:

- ✓ belgilangan hajmdagi ilmiy bilimlarni egallash;
- ✓ dunyoqarashni shakllantirish;
- ✓ aql kuchi, iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirish;
- ✓ bilishga oid qiziqishlarini rivojlantirish;
- ✓ shaxs salohiyati imkoniyatlarini rivojlantirish;
- ✓ bilish faoliyatini shakllantirish;
- ✓ doimiy ravishda o'z bilimlarini to'ldirish. umumta'limiy tayyorgarlik darajasini oshirish ehtiyojlarini rivojlantirish;

- ✓ ta'lim oluvchilarni bilish faoliyati uslublari bilan qurollantirish;
- ✓ fikrlash qobiliyati, ijodiy faoliyat tajribalarini shakllantirish.

Jismoniy tarbiya – deyarli barcha tarbiyaviy tizimlarning ajralmas tarkibiy qismi.

Jismoniy tarbiyaning vazifalari:

- ✓ salomatlikni, to'g'ri jismoniy rivojlanishni mustahkamlash;
- ✓ aqliy va jismoniy ishchanlik qobiliyatini oshirish;
- ✓ tabiiy harakatlantiruvchi sifatlarni rivojlantirish va takomillash-tirish;
- ✓ yangi harakat turlarini o'rgatish;
- ✓ gigienik malakalarni rivojlantirish;
- ✓ axloqiy sifatlarni tarbiyalash;
- ✓ doimiy va tizimli tarzda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish ehtiyojlarini shakllantirish;
- ✓ sog'lom, tetik bo'lishga, o'ziga va atrofdagilarga quvonch ulashi-shga ishtiyoqni rivojlantirish.

Mehnat tarbiyasi – har tomonlama barkamol shaxsni shakllan-tirishi-ning muhim tamoyili.

Mehnat tarbiya jarayonida shaxs rivojining bosh omili, dunyoni ijodiy o'zlashtirish, turli sohalaridagi mehnat tajribalarini egallash usuli umumiy ta'limning ajralmas qismi sifatida yuzaga chiqadi.

Mehnat tarbiyasining asosiy vazifasi – bolalarni mehnat jarayonlari, vositalari, predmetlari haqidagi bilimlar, ishlab chiqarish mehnatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan umummehnat va maxsus ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish.

Bundan tashqari mehnat tarbiyasi quyidagi *vazifalarni* hal qiladi:

- ✓ mehnatga samimiy munosabatni;
- ✓ mehnatga qiziqishni, chin dildan bajarilgan vazifadan zavqlanish hissini va mehnatga oid bilimlarni amaliyotda qo'llashni;
- ✓ mehnatdagi intizomlilikni tarbiyalash.

Axloqiy tarbiya – shaxsni har tomonlama rivojlantirishning muhim tarkibiy qismlaridan biri. *Axloqiy tarbiyaning vazifalari* jamiyatning shaxsga axloqiy talablarida aks etadi. Bu vazifalar o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- ✓ axloqiy ongini, mustahkam axloqiy e'tiqodni;
- ✓ axloqiy his-tuyg'uni;
- ✓ axloqiy xulq-atvor malaka va odatlarini;

- ✓ axloqiy sifatlarni tarbiyalash.

Estetik tarbiya – tarbiyalanuvchilarda estetik ideallar, ehtiyoj va qiziqishni rivojlantiruvchi tarbiya zanjiri va tarbiyaviy tizimlarning tayanch tarkibiy qismlaridan biri.

Estetik tarbiyaning vazifalari:

- ✓ estetik bilimlarni shakllantirish;
- ✓ estetik madaniyatni shakllantirish;
- ✓ oʻtmishdan qolgan estetik va madaniy merosni egallash;
- ✓ borliqqa estetik munosabatni shakllantirish;
- ✓ estetik his-tuygʻuni rivojlantirish;
- ✓ taʼlim oluvchilarni hayotda, tabiatda, mehnatda goʻzalliklarni yaratishga ishtirok ettirish;
- ✓ hayotiy faoliyatni goʻzallik qonuniyatlari asosiga qurishga boʻlgan ehtiyojni rivojlantirish;
- ✓ hamma narsada: fikrda, ishda, tashqi koʻrinishda goʻzal boʻlishni shakllantirish.

Iqtisodiy tarbiyaning asosiy maqsadi – shaxsda bozor iqtisodiyoti sharoitlariga hamda maqsadga muvofiq iqtisodiy faoliyatni amalga oshira olish qobiliyatini shakllantirish. Bu maqsad yaxlit *vazifalarni* hal qilish yoʻllarini izlab topishga imkon beradi:

- ✓ taʼlim oluvchilarda iqtisodiy bilimlarni egallash va iqtisodiy faoliyatga ehtiyojni shakllantirish;
- ✓ ularning asosiy iqtisodiy tushunchalar, kategoriyalar, qonunlar va jarayonlarni oʻzlashtirishi;
- ✓ uddaburonlik, masʼuliyatlilik, mustaqillik, tadbirkorlikni rivojlantirish;
- ✓ ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur boʻlgan malakalarni egallash;
- ✓ bozor iqtisodiyoti sharoitida insonning tasodifiy qiyinchiliklarga imkon qadar psixologik tayyorgarligini shakllantirish.

Ekologik tarbiya taʼlim oluvchilarning tabiat va insonning oʻzaro harakatining ilmiy asoslarini egallaganliklari bilan bogʻliq. Uning *maqsadi* – atrof-muhit holati uchun shaxsning axloqiy masʼuliyatini tarbiyalash, barcha faoliyat turlarida ular haqida domiy gʻamxoʻrlik zaruriyatini anglashga yoʻnaltirilgan ilmiy bilimlar, qarashlar, eʼtiqodlar tizimini shakllantirish.

Ekologik tarbiyaning vazifalari quyidagilarda aks etadi:

- ✓ tabiat haqidagi asosiy tushunchalar va ilmiy dalillarni oʻzlashtirish;

- ✓ jamiyat va har bir insonning moddiy va ma'naviy quvvati manbaya sifatida tabiatning ko'p qirrali ahamiyatini tushunib yetish;
- ✓ amaliy bilimlar hamda atrof-muhitning holatini o'rganish va baholash ko'nikmalarini egallash;
- ✓ tabiat bilan muloqot ehtiyojlarini, tabiatdagi xulq-atvor me'yorlariga ongli amal qilishni rivojlantirish;
- ✓ tabiiy va o'zlashtirilgan atrof-muhitni yaxshilash bo'yicha faoliyatni faollashtirish.

Huquqiy tarbiyaning maqsadi – huquqiy ongini va yosh fuqaroning xulq-atvorini shakllantirish.

Huquqiy tarbiyaning asosiy vazifalari:

- ✓ ta'lim oluvchilarning zarur huquqiy bilimlarni egallashi;
- ✓ ta'lim oluvchilarni asosiy fuqarolik huquqi va majburiyatlariga amal qilishga o'rgatish;
- ✓ imkon qadar huquqbuzarliklarning oldini olish.

? NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Tarbiya jarayoni deganda nima tushuniladi?
2. "Tarbiya mazmuni" tushunchasini izohlang.
3. Tarbiyaning umumiy vazifalariga nimalar kiradi?
4. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Tarbiya qonuniyatlari deganda nima tushuniladi?
6. Tarbiya qonuniyatlarini sanang va ularga izoh bering.
7. Tarbiya tamoyillari deganda nimani tushunchasiz?
8. Tarbiya tamoyillarini sanang va ularga izoh bering.
9. Tarbiyaga doir zamonaviy yondashuvlarga nimalar kiradi?
10. Tarbiya turlarining umumiy tasnifini bayon eting.

? MAVZU YUZASIDAN TESTLAR

1. Tarbiya-pedagogikaning asosiy ...

- A) tushunchasi B) yo'nalishi C) bo'limi D) uslubi

2. Pedagogikada tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayoni nima deb ataladi?

- A) Tarbiyaning mazmuni
- B) Tarbiyaning maqsadi
- C) Tarbiyaning vazifalari
- D) Tarbiya jarayoni

3. Tarbiyaning maqsadi ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- A) Tarbiyaviy ishlar, tadbirlarning doimiy harakatdagi zanjiri.
- B) Tarbiyaning tizimliliigi, to'raligi, uzviyligi va uzluksizligidir
- C) Har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash
- D) Tarbiyalanuvchilarning muayyan faoliyatini tashkil etish

4. Qaysi asosiy xususiyatlar tarbiyaviy ishning samarasi uchun ko'maklashadi?

- A) Foydalilik va izlanuvchanlik
- B) Zaruriylik, foydalilik va tadbir etish imkoniyati
- C) Harakatchanlik, izlanuvchanlik, zaruriylik
- D) zaruriylik va tadbir etish imkoniyati

5. Tarbiya umumiy qonuniyatlari noto'g'ri ko'rsatilgan javobni ainqlang.

- A) Har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash
- B) Ijtimoiy muhitning obyektiv va subyektivligi
- C) Tarbiya va o'zini o'zi tarbiyalashning intensivligi
- D) Tarbiyalanuvchilarning o'zaro tarbiyaviy ta'siri, o'zaro munosabatlari hamda faol faoliyati o'rtasidagi bog'lanish

6. Tarbiyaning dastlabki qoidalari ... deb yuritiladi.

- A) tarbiya qonuniyatlari
- B) tarbiya yo'nalishlari
- C) tarbiyaning mohiyati
- D) tarbiya tamoyillari

7. Tarbiyaning qaysi tamoyili bixevioristik yo'nalganlik, tarbiyani shaxsning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy pedagogik ta'sir sifatida qarashni o'rganadi?

- A) Tarbiyaning insonparvarlashuvi
- B) Faoliyatga yo'naltirilganligi
- C) Tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog'liqligi
- D) Tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog'liqligi

Jismoniy tarbiyaning mohiyati

Tarbiya turlari xilma-xil tasnif etilish tavsifiga ega. Ko'proq *umumlashtirilgan tasnif* o'zida aqliy, mehnat, jismoniy tarbiyani

Jismoniy tarbiya deganda organizmning morfologik va funksional rivojlanishini jamiyat talablari darajasida amalga oshirish, jismoniy sifatlarni, qobiliyatlarni rivojlantirish, jismoniy madaniyat va sport sohasiga taalluqli maxsus bilimlarni o'zlashtirib olish tushuniladi.

Jismoniy tarbiya – tarbiyalanuvchilarning jismoniy va sportga oid faoliyatlarini maqsadga yo'naltirilgan, aniq tashkil etiladigan va rejali tarzda amalga oshirish tizimi.

Maktabgacha ta'lim davrida bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalashning asosiy maqsadi bolalardagi turli ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ulardagi kuchlilik, tetiklik, chaqqonlik, ziyraklik kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirishdan iboratdir. Muntazam ravishda o'tkaziladigan jismoniy mashg'ulotlar bolalarning o'sish va rivojlanish jarayoniga ijobiy ta'sir qilib, ijodiy imkoniyatlarini oshiradi.

Bolalarning jismoniy madaniyatini shakllantirish ko'pgina vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishni talab etadi. Jismoniy tarbiyaning vazifalari xilma-xil bo'lib, pedagogikada qator tasniflar yaratilgan. Jumladan, V.A.Slastenin, I.F.Isayev, E.N.Shiyanovlar jismoniy tarbiyaning quyidagi vazifalarini ajratib ko'rsatishadi:

1) bolalarning jismoniy to'g'ri rivojlanishiga yordam berish – organizmning morfologik va funksional rivojlanishini ta'minlovchi ishchanlik qobiliyatini oshirish, uning tashqi muhitning noqulay vaziyatlariga barqaror qarshi tura olishini mustahkamlash;

2) asosiy harakatlantiruvchi sifatlarni rivojlantirish – bolaning xilma-xil harakatga doir faoliyatga qobiliyatlilik uning barcha jismoniy sifatlari – kuchlilik, chidamlilik, chaqqonlik va epchillikning yuksak uyg'unlikda rivojlanishini ta'minlaydi;

3) hayotiy muhim harakatga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirish – bolada maxsus harakatga doir bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish. Harakatga doir tasavvurlarga tayangan holda bola turli sharoitlarda o'z xatti-harakatlarini boshqara olish imkoniyatiga ega bo'ladi;

4) jismoniy madaniyatning tizimli mashg'ulotlariga barqaror qiziqish va ehtiyojlarni tarbiyalash. Sog'lom turmush tarzi asosida bolaning doimiy ravishda o'z-o'zini jismonan rivojlantirishga ichki tayyorligi yotadi. U muntazam jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish va bolalarning jismoniy mashg'ulotlarga faol munosabati natijasida yuzaga keladi;

5) jismoniy madaniyat va sport, tibbiy va gigiena sohaslariga oid minimum nazariy bilimlarni egallash zarurligi. Bolalar kun tartibi va shaxsiy gigiena haqida, jismoniy madaniyat va sportning salomatlikni mustahkamlashdagi ahamiyati haqida aniq tasavvurlarga ega bo'lishi zarur¹⁵.

B.T.Lixachev jismoniy tarbiyaning quyidagi vazifalarini ajratib ko'rsatadi:

1) rivojlantiruvchi – bolalarning jismoniy kuchini va nerv tizimini takomillashtirish, o'zgaruvchan vaziyatlarga moslashuvini ta'minlash;

2) tarbiyaviy – bolalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarning tarkibiy topishiga erishish. Boshqacha aytganda, "Sog'lom tanda – sog'aql";

3) ta'limiy – bolalarni jismoniy madaniyatning nazariy asoslari bilan tanishtirish, uning inson hayotidagi ahamiyatini tushunib yetish;

4) sog'lomlashtiruvchi – bolalarda harakatga doir sifatlarni tarkib topirish, ularning baquvvat va tetiklashuviga ko'maklashish;

5) umummadaniy – bo'sh vaqtni mazmunli va foydali o'tkazish¹⁶.

I.P.Podlasiy tomonidan taklif etilgan jismoniy tarbiyaning vazifalari V.A.Slastenin, I.F.Isayev, E.N.Shiyanovlar tasnifiga mos kelib, shu bilan birga jismoniy tarbiyaning yana ikkita funksiyasi alohida ajratib ko'rsatilgan: 1) tarbiyalanuvchilarda estetik sifatlarni tarbiyalash; 2) tarbiyalanuvchilarda axloqiy sifatlarni tarbiyalash.

Pedagog olimi P. Yusupovanning fikricha, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar organizmining o'ziga xos tomoni shundaki, u juda tez o'sadi va rivojlanadi. Shu bilan birga organizm funksiyalari va sistemalarining shakllanishi hali tugallanmagan bo'ladi, shunga ko'ra u tez jarohatlanadi. Shuning uchun bolalarni jismoniy tarbiyalashda quyidagilar birinchi darajali vazifalar hisoblanadi:

1. *Sog'lomlashtiruvchi vazifalar.* Bolalar sog'lig'ini mustahkamlash, organizmning shakl va funksiyalarini uyg'un rivojlantirish, ish qobiliyatini oshirish, har xil tashqi ta'sirlarga chidamlilikni kuchaytirish, uzoq umr ko'rishini ta'minlash.

15. Общая педагогика. // Под. пед. В.А. Сластинина. – М.: «ВЛАДОС», 2003. – С.70-71.

16 * Лихачев Б.Т. педагогика. – М.: «ЮРАЙТ», 2003. – С.408-409.

2. *Ta'limiy vazifalar*: Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga xos bo'lgan o'ta qabul qiluvchanlik, sharoitning o'zgarishiga engil moslashish qobiliyati bir qator ta'limiy vazifalarni ham amalga oshirish imkoniyatini yaratadi, chunonchi: kerakli ko'nikma va malakalarni shakllantirish, jismoniy sifatlar (chaqqonlik, kuchlilik, chidamlilik, tezkorlik, egiluvchanlik, muvozanat, ko'z bilan chamalash)ni o'stirish, qad-qomat, gigiena ko'nikmalarini tarbiyalash, jismoniy tarbiya haqidagi bilimlarni o'zlashtirish.

Boladagi harakat ko'nikmalari (emaklash, yurish, yugurish, velosipedda uchish va boshqalar) nisbatan yengil shakllanadi va ular bolaning muhit bilan aloqasini osonlashtiradi. Bola chanada uchayotib qor va shamolning, suvda suzayotib suvning xossalari bilan tanishadi. Ana shu asosda jismoniy mashqlar, gigiena malakalarini egallash bilan bog'liq bo'lgan dastlabki bilimlar tarkib toptiriladi.

Bolalar gavda qismlarining nomini, harakat yo'nalishi (yuqoriga, pastga, oldinga, orqaga, o'ngga, chapga, to'la aylanish), jismoniy tarbiya asboblarning nomi va qay maqsadda ishlatilishi, ularni asrash va tutish, kiyim-kechak va poyabzalga qarash qoidasini bilashlari kerak.

3. *Tarbiyaviy vazifalar*: Bolalarda sport mashg'ulotlariga muhabbatni, mashg'ulot natijalari, sportchilarning yutuqlariga qiziqishni tarbiyalash lozim.

Jismoniy mashqlarni bajarishda xarakterning ijobiy xususiyatlari (uyushqoqlik, intizomlilik, kamtarlik, ko'ngilchanlik, va hokazo) va axloqiy fazilatlar (halollik, haqqoniylik, o'rtoqlik hissi, o'zaro yordam), jamoada shug'ullanish malakasi, jismoniy tarbiya asboblari ehtiyot qilish, topshiriqni mas'uliyat bilan bajarishlarini tarbiyalash, shuningdek, irodaviy fazilatlar (botirlik, qat'iylik, o'z kuchiga ishonch, qiyinchiliklarni yengishda sabotlilik, chidamlilik va boshqalar)ni namoyish qilish uchun qulay sharoit yaratiladi¹⁷.

“Bolajon” tayanch dasturida maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalashning vazifalari sifatida quyidagilar belgilab berilgan:

- bolalarning salomatligini mustahkamlash va chiniqtirish;
- ularni jismoniy jihatdan baquvvat qilish;
- bolaning axloqiy tomondan ijodiy sifatlarini tarbiyalash;
- bolalarda maqsadga to'g'ri yo'naltirilgan harakatlarni faollashtirish uchun sharoit yaratish;

17. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. – T.: «O'qituvchi», 1993. – 40-41-b.

– harakatlarning muhim hayotiy turlarini shakllantirish, yurish, yugurish, sakrash, emaklash, oʻrmlash, otish, ilib olish, suzish, velosipedda uchish, oyoq, qoʻl tana, bosh harakatlarini rivojlantirish, saflanish va qayta saflanish;

– oʻyin harakatlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, jismoniy sifatlarni rivojlantirish: chaqqonlik, epchillik, zyraklik, irodalilik, sabr-qanoat, kuchlilik va boshqalarga tenglashib tik tutish malakasini oshirish;

– bola qomatini toʻgʻri shakllantirishga taʼsir koʻrsatish va yassi oyoqlilik kasalligining oldini olishga yordam berish;

– jismoniy mashq va oʻyinlarning foydasi, asosiy gigienik talablar va qoidalar haqida yetarli darajada tasavvur va bilimlar berish;

– faol harakatga qiziqishni tarbiyalash¹⁸.

Jismoniy tarbiyaning asosiy omillari

Jismoniy tarbiyani amalga oshirish vositalari xilma-xil boʻlib, ularni umumlashgan tarzda uch guruhga ajratish mumkin: tabiiy omillar, gigienik shart-sharoitlar va jismoniy mashqlar.

Tabiiy omillar tabiat inʼomlari (suv, havo, quyosh)ning sogʻliqni mustahkamlash, bolaning morfologik va jismoniy toʻgʻri rivojlanishiga koʻmaklashish imkoniyatlarini oʻzida aks ettiradi. Ilmiy adabiyotlarda mazkur holat “bola organizmini chiniqtirish” atamasi bilan tavsiflanadi. Bola organizmini chiniqtirish deganda, organizmni mustahkamlash, chidamlilik, zararli taʼsirlarga qarshilik koʻrsatish, hayotiy sharoitlarning oʻzgarishiga tez moslashish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar tizimi tushuniladi.

Havo orqali chiniqtirishda sovuq havo bilan jismoniy mashqlar majmuasi birgalikda taʼsir ettiriladi. Havo vannasidan uyqu vaqtida yoki havo bulut boʻlgan vaqtlarda foydalaniladi. Uyqu vaqtida bolalar salqin yerga qoʻyilgan karavotga yotqiziladi. Havo vannasidan foydalanishda quruq, shamoldan holi tekis maydon tanlanadi. Tarbiyachi bu maydonchada yengil kiyingan bolalar bilan 10–15 daqiqa engil harakatli oʻyinlar yoki mashqlar bajaradi. Havo vannasi asta-sekin 10–15 daqiqadan 25 daqiqagacha olib boriladi.

Suv bilan chiniqtirish barcha yosh guruhlarida yilning hamma fasllarida oʻtkazilishi mumkin. Suv bilan chiniqtirishda bolalarning tibbiy-fiziologik oʻziga xosliklari hisobga olinishi lozim. Suv, havo temperatura-sining oʻzgarib borishi bola organizmining termoregulyatsion apparatini mashq qildiradi, tashqi sharoitga, ob-havoning oʻzgarishiga odatlanish

18. “Bolajon” tayanch dasturi. – T.: «Sano-Standart», 2010. – 11–12-b.

reaksiyasini shakllantiradi. Bola organizmining chiniqishi bilan bir qatorda, uning irodasi ham chiniqib boradi.

Quyosh nurida chiniqtirish orqali organizmda "D" vitamini paydo bo'lishiga yordam beradi. Ammo undan ortiqcha foydalanish bolada bosh og'rig'i, uyqusizlik, ishtaha bo'g'ilishi, kamqonlik, lanjlik bo'lishiga olib keladi. Sil, bezgak kasalligi bilan og'rikan bolalarga quyosh vannasi mutlaqo ma'n etiladi.

Quyosh vannasi dastlab to'rt daqiqadan qabul qilinadi, tananing har bir tomoni bir daqiqadan toblanadi. Quyosh vannasi qabul qiladigan maydoncha quruq, tekis, havo yaxshi aylanadigan, kuchli shamollardan pana bo'lishi lozim. Yaqinroqda dush, bolalar kiyinadigan, yechinadigan joy bo'lishi kerak.

O'zbekiston sharoitida quyosh vannasini ertalab soat to'qqiz-o'n bir oralig'ida olgan ma'qul. Bolalar fanerdan yoki taxtalardan yasalgan so'rilariga oyoqlarini quyosh tomonga, boshlarini esa soya tomonga qarab yotqiziladi. Quyosh vannasi qabul qilingandan so'ng ularning ustidan suv quyish yoki cho'miltirish lozim. Bunda bolaning ruhi yengillashadi, terlari yuviladi, qizigan tana va sovuq o'rtasidagi farq organizmni chiniqtiradi.

Bola organizmini chiniqtirishda ham maktabgacha yosh davrlarining o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan yondashuvni tatbiq etish lozim. Jumladan:

ilk yosh guruhida:

– har kuni ertalab badantarbiya qilish, harakatlarni namunaga muvofiq bajarish;

– badantarbiyani ochiq havoda, yengil kiyimda bajarish;

– ertalabki badantarbiya mashqlarini suv muolajalari bilan tugallash (kattalar ko'magida);

– yozda ochiq havoda iloji boricha ko'proq bo'lish;

– kattalar nazorati ostida kichik ochiq suv havzasida (basseynda) cho'milish (gigiena talablariga amal qilgan holda).

Kichik guruhda:

– har kuni ertalab badantarbiya qilish;

– harakatlarni namunaga muvofiq bajarish;

– badantarbiyani ochiq havoda, yengil kiyimda bajarish;

– ertalabki badantarbiya mashqlarini suv muolajalari bilan tugallash (kattalar ko'magida);

– ertalabki badantarbiya mashqlarini aniq va izchil bajarish;

– bolalarni yuz-qo‘llarini mustaqil yuvishga odatlantirish, suvni sachratmaslik, sovundan to‘g‘ri foydalanish, badanini ho‘l sochiqda artish, yoz oylarida ochiq havoda iloji boricha ko‘proq bo‘lish, cho‘milish, dushdan foydalanish;

– ochiq suv havzasida (basseynida) cho‘milish (gigiena talablariga amal qilgan holda).

O‘rta guruhda:

– har kuni kattalar nazoratida badantarbiya mashqlarini xonada, darchalarni ochib qo‘ygan holda bajarish; ochiq havoda esa sport kiyimida bajarish;

– qo‘l, oyoq, gavda uchun mashqlarni aniq va izchillik bilan bajarish, qomatni to‘g‘ri tutish;

– har kuni ertalab badantarbiya mashqlarini bajarish, har qanday ob-havoda ham harakatli o‘yinlar o‘ynash;

– har kuni oyoqlarni yuvish, sekin-asta suv haroratini pasaytirib borish;

– xona haroratidagi suvda ho‘llangan gubka yoki pahmoq qo‘lqop bilan dastlab qo‘llarni, keyin oyoqlarni, ko‘krakni, qorin va orqani teskari yo‘nalishda teri qizarguncha artish.

Katta guruhda:

– har kuni kattalar nazoratida ertalabki badantarbiya mashqlarini bajarish;

– badantarbiya mashqlarini ochiq havoda gilamcha ustida, yengil kiyimda predmetlar bilan va ularsiz bajarish, mashqlarni suv muolajalari bilan tugallash;

– muayyan izchillikda, aniq, shiddat bilan muskullarni tarang holga keltirish, mashqlarni, qomatni to‘g‘ri tutgan holda bajarish;

– yuz, bo‘yin, qo‘lni tirsakkacha sovuq suv bilan yuvish;

– badantarbiyadan so‘ng darhol gubka yoki uy haroratdagi suvda ho‘llangan kichikroq pahmoq sochiq bilan tana a‘zolarini artish: avval qo‘llarni, keyin badanni quruq sochiq bilan tana qizarguncha, quruq qilib tezda artish;

– faqat kattalarning ruxsati bilan cho‘milish, kattalarning nazorati ostida cho‘milishning asosiy qoidalariga rioya qilish;

– yalangoyoq yurganda oyoqni shikastlantirish xavfi yo‘q joylarda yurish;

– chiniqtirish qoidalarini ongli ravishda bajarish.

Tayyorlov guruhida:

- har kuni ertalabki badantarbiya mashqlarini bajarish;
- badantarbiya mashqlarini ochiq havoda gilamcha ustida, yengil kiyimda buyumlar bilan va ularsiz bajarish, mashqlarni suv muolajalari bilan tugallash;
- muayyan izchillikda, aniq, shiddat bilan muskullarni tarang holga keltirish, mashqlarni qomatni to‘g‘ri tutgan holda bajarish;
- xonada yengil kiyimda bo‘lish, derazaning kichik darchasini ochib qo‘yish;
- ertalabki badantarbiya mashqlarini har kuni, har qanday havoda bajarish;
- yuz, bo‘yin, qo‘lni tirsakkacha sovuq suv bilan yuvish;
- badantarbiyadan so‘ng darhol gubka yoki uy haroratidagi suvda ho‘llangan kichikroq pahmoq sochiq bilan tana a‘zolarini artish, avval qo‘llarni, keyin badanni quruq sochiq bilan tana qizarguncha, quruq qilib tezda artish;
- faqat kattalarning ruxsati bilan cho‘milish, kattalarning nazorati ostida cho‘milishning asosiy qoidalariga rioya qilish;
- yalangoyoq yurganda oyoqni shikastlantirish xavfi yo‘q joylarda yurish.

Gigienik shart-sharoitlar. Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarning jismoniy to‘g‘ri rivojlanishi uchun gigienik shart-sharoitlar – uyqu, ovqatlanish va kiyinish, kun tartibi kabilarni hisobga olish zarur.

Bolalarni jismoniy jihatdan tarbiyalashdagi muhim vazifa nerv tizimi gigienasidir. Bu vazifani hal etishda *uyqu* katta ahamiyatga ega. Uyqu miya yarim sharlarining normal ishlashi uchun zarur bo‘lgan kuch-quvvatni tiklaydi. Chuqur va yaxshi, uzoq davom etadigan uyqu nerv tizimining, organizm charchashining oldini oluvchi asosiy vositadir. Agar bola yomon uxlasa, uyquga to‘ymasa nerv tizimining buzilganidan dalolat beradi. Nerv tizimi qo‘zg‘aluvchan bolalar aksariyat yomon uxlashadi. Bunday bolalarning uyqu tormozlanishi chuqur normal uyquni ta‘minlay olmaydi. Shunda bunday bolalar kichkiginagina, arzimagan sharpadan ham uyg‘onib ketaveradi. Bola qanchalik yomon uxlasa, uning axloq me‘yori, o‘zaro munosabati, muomalasi shuncha yomonlashadi, bunday holni biz injiqlik deb tushunamiz. Yaxshi uyqu bolaning sog‘lomligidan darak beradi.

Bola yaxshi uxlashining asosiy sharti uning yoshiga mos bo‘lgan sutkalik rejimni hayotining birinchi kunidan boshlab to‘g‘ri tashkil etishi-dir. Bola tez va yaxshi uxlashi uchun kerakli shart-sharoit yaratish, uy-

g'ozlik vaqtida faollashtiruvchi har xil harakatlarni tashkil etish kerak. Shuningdek, bolalar yaxshi uxlashlari uchun ularni kuchli qo'zg'atadigan aqliy va jismoniy ish qildirmaslik kerak. Bolalarda uyqudan oldin salbiy hislarni uyg'otmaslik kerak, bunday muomala natijasida bolaning miya yarimsharlarida yuqori qo'zg'olish o'chog'i hosil bo'ladi. Uyqudan oldin kattalarning bola bilan muomalasi nihoyatda tinch, samimiy, bolalarni uyquga tayyorlovchi bo'lishi lozim. Bolalarni uyquga tayyorlash ularda mustaqillikni tarbiyalash bilan bog'liq holda olib boriladi. Bir yoshning oxiriga kelib, bolalar o'z oyoq kiyimini, paypog'ini mustaqil yechishga o'rgatilishi mumkin. Uch yoshga kelib mustaqil yechinishga, kiyimni chiroyli taxlab qo'yishga, o'z karavoti oldiga borib, unga chiqib olishga o'rgatiladi. Avvaliga bu uyquga tayyorgarlik bo'lgan bo'lsa, keyinchalik borib bu hamma narsa bolalarda uyquni keltiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Agar mana shu jarayonlar bo'lmasa bolaning uxlashi qiyin kechadi.

Agar bola yaxshi uxlasa tetik, quvnoq bo'lib uyg'onadi va hafsala bilan kiyina boshlaydi. Bolani bevaqt uyg'otish uning nerv tizimi va xulqiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalarni birdaniga uyg'otish juda zararli, chunki ko'pchilik bolalar uyquga to'ymaydi. Bolarni har doim bir vaqtda uyg'otilsa, ularning miyasida ko'nikish paydo bo'ladi. Buning natijasida sekin "turinglar" degan tovushdan hatto eng qattiq uxlab yotgan bolalar ham uyg'onib ketishadi. Uyg'otilmasa, uyg'ongan bolalar kiyinguncha 30-45 daqiqa ichida hamma bolalar uyqusi pishib, o'zlari sekin-asta uyg'onishadi.

Kiyinish ham gigienik omil sifatida bolaning jismoniy rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Kiyim har doim bolani o'rab turgan havo temperaturasiga mos kelishi kerak. U yengil materialdan tayyorlanib, havoni, issiqlikni yaxshi o'tkazadigan bo'lishi, oson yuviladigan, yaxshi ho'llanadigan, namni shimadigan, elastik va badanni bevvovta qilmaydigan bo'lishi lozim.

Yozgi kiyim rangi ochiq, asosan oq gazlamadan, qishki kiyim – to'q rangli materialdan tikilishi lozim. Bolalarning kiyimi ularning yoshiga yarasha, yengil, qulay, qismaydigan, estetik didiga javob beradigan arzon materialdan tikilishi kerak. Shuningdek, bolalarning oyoq kiyimi ham qulay, poshnasi 1–1,5 sm bo'lishi kerak. Vaqt-vaqti bilan bolalarga qishda binoning ichida, yozda maydonchada yalangoyoq yurishga ruxsat berish kerak. Notekis joyda yalangoyoq yurish tovon yassiligini yo'qotadi, bola organizmini chiniqtiradi.

Bolalarning ovqatlanishi (nonushta, tushki ovqat, kech tushki ovqat va kechki ovqat) osoyishta vaziyatda o'tishi kerak. Bola stol atrofiga yaxshi ishtaha bilan o'tirsa, uning organizmida ovqatning yaxshi hazm bo'lishiga yordam beruvchi shart-sharoit hosil qiladi. Yaxshi ishtaha bolalarda mustaqillikni, madaniy-gigienik malakalarni, stol atrofida o'zini to'g'ri tutib o'tirish malakalarini tarbiyalashga yordam beradi. Eng muhimi -- bolalarning yoshligidan boshlab ularda yaxshi ishtaha bo'lishini ta'minlash muhim ahamiyatga egadir.

Bolalarni ilk yoshidan boshlab ovqatni mustaqil yeyishga o'rgatish ularda ovqatni ishtaha bilan yeyishga, ovqatga ijobiy munosabatni uyg'otishga yordam beradi. Ikkinchi yoshning boshidan qoshiqqa o'rgatish, to'rtinchi yoshdan sanchqidan, beshinchi yoshda pichoqdan foydalanish malakalarini tarbiyalab borish zarur. Bundan tashqari bolalarda ovqat yeyishdan oldin qo'lini yuvish, tartibli yeb-ichish, chapillatmay, tovushsiz chaynash va ichish, salfetkadan foydalanish, to'g'ri o'tirish, ovqat uchun tashakkur bildirish, ovqatdan keyin og'izni chayqash kabi maishiy-gigienik malakalar ham tarbiyalab boriladi. Mazkur jarayonda kattalarning namunasi, tushuntirish, o'rgatish, nazorat kabi tarbiya uslublarining ahamiyati katta.

Kun tartibi jismoniy tarbiyaning muhim shartidir. Kun tartibi xilma-xil faoliyat hamda dam olishning vaqt jihatdan maqsadga muvofiq taqsimlanishi, hayot tartibidir.

Kun tartibini tashkil etuvchi barcha qismlarni (ovqatlanish, uyqu, o'yin, sayr, mashg'ulotlar) bir me'yorda takrorlash natijasida bolalarda faoliyatning bir turidan ikkinchi turiga o'tishni yengillashtiruvchi mustahkam ko'nikma hosil bo'ladi. Aynan kun tartibiga rioya etish bolaning nerv faoliyati tizimi va barcha fiziologik jarayonlarning o'tib borishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Kun tartibiga qo'yiladigan asosiy talab bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olishdir. Kichik guruhlarda uyqu, ovqatlanish, yechinish, yuvinish va boshqalarga ko'p vaqt ajratiladi. Katta bo'lgan sari bolalarning mustaqilligi ortib, o'yin va faoliyatning boshqa turlariga ko'proq e'tibor beriladi. Umuman olganda, kun tartibi ham igienik, ham tarbiyaviy funksiyani bajaradi.

Kun tartibini tuzish va uni tashkil etishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish zarur:

1) kun tartibini tuzishda yil fasllarining e'tiborga olinishi. Masalan, yozda bolalarning ko'proq ochiq havoda bo'lishi, ertalab ertaroq uyg'otilib, kechqurun uxlashga kechroq yotqizilishi va boshqalar;

2) kun tartibini bajarishda bolalarning salomatligi, ularning ruhiy rivojlanish darajasining hisobga olinishi. Masalan, zaiflashgan, kasallangan bolalarning uxlash, ochiq havoda bo'lish vaqti ko'paytiriladi. ta'lim-tarbiya ishlarining mazmuniga ham o'zgartirish kiritiladi;

1-jadval

**Tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari uchun
namunaviy kun tartibi**

7.00 – 7.30	O'ryandan turish, ertalabki yuvinish-taranish (uyda)
7.30 – 8.30	Qabul, sog'lig'ini tekshirish. o'yinlar. ertalabki badantarbiya
8.30 – 8.55	Nonushtaga tayyorgarlik, nonushta
8.55 – 9.10	O'yinlar. mashg'ulotlarga tayyorgarlik
9.10 – 11.00	Mashg'ulotlar
11.00 – 11.15	Sayrga tayyorgarlik
11.15 – 13.00	Sayr (o'yinlar, mehnat, kuzatish, harakatli o'yinlar – 10 daqiqa. jismoniy mashqlar 20–30 daqiqa)
13.00 – 13.15	Sayrdan qaytish
13.15 – 13.35	Tushlik
13.35 – 15.25	Uyqu
15.25 – 15.50	Uyqudan turish. yuvinish
15.50 – 16.05	Yengil 2 tushlik
16.05 – 18.15	O'yinlar, mustaqil faoliyat. sayr
18.15 – 18.40	Kechki ovqat
18.40 – 19.30	O'yinlar. bolalarning uyga ketishi
19.30 – 20.10	Sayr (uyda)
20.10 – 20.40	Tinch o'yinlar. gigienik muolajalar (uyda)
20.40 – 6.30 (7.30)	Tungi uyquga tayyorlanish, tungi uyqu (uyda)

3) kun tartibini o'zgartirishiga alohida e'tibor qaratish. Ya'ni bolalar vaqtida ovqatlanishlari, shug'ullanishlari, o'ynashlari, uxlashlari talab etiladi. Bu bolalarda barqaror dinamik ko'nikmalarni hosil qiladi, ularni tartiblilikka, intizomlilikka o'rgatadi;

4) kun tartibini tuzishda ota-onalarning ish vaqtining boshlanishi va tugashi ham hisobga olinishi. Ayrim ota-onalar ish vaqtining biroz kech tugashini hisobga olgan holda, individuallashtirilgan va tabaqallashtirilgan kun tartiblari ishlab chiqiladi.

Jismoniy mashqlar deganda, jismoniy tarbiya qonuniyatlari va vazifalari bilan bog'liqlikda maxsus tashkil etiluvchi hamda ongli ravishda

bajarishga qaratilgan harakatlar yig'indisi tushuniladi. Jismoniy mashqlarga tasnif etishga doir xilma-xil yondashuvlar mavjud bo'lib, ko'proq umumlashgan tasnif o'zida gimnastika, o'yin, sayr kabilarni qamrab oladi.

Pedagogik nuqtayi nazardan *gimnastika* organizmga nafis ta'sir etish yoki uning alohida tizim va funksiyalarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Gimnastikaning asosiy, gigienik, sportga oid, badiiy, ishlab chiqarishga doir, tibbiy turlari mavjud. Maktabgacha ta'lim muassasalari o'quv dasturlari bilan bog'liqlikda tarbiyalanuvchilar asosiy gimnastika (narsa buyumlar va narsa buyumlarsiz bajariladigan umumiy rivojlanishga doir mashqlar, sakrash, yugurish, elementar akrobatik mashqlar) bilan shug'ullanishlari lozim.

O'yin bolaning jismoniy kuchini, qo'llarining qattiqligini, qad-qomatining tikligini, ishonchli ko'zlarni rivojlantirishga xizmat qilib, unda o'tkir zehn, topqirlik, tashabbuskorlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi. O'yinning tarbiyaviy ahamiyati katta bo'lib, bolalarda g'amxo'rlik, o'z jamoasi uchun qayg'urish, birgalikdagi harakatlanishdan quvonish, do'stlik va o'rtoqlik hissini kuchaytiradi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda asosan ochiq havoda tashkil etiluvchi harakatlantiruvchi o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Maktabgacha ta'lim yoshida keng qo'llashni talab etadigan jismoniy mashqlardan yana biri *sayr*dir. Sayr piyoda, qayiqda, chanada va velosipedda o'tkazilishi mumkin. Sayr bolalarning uzoq vaqt ochiq havoda bo'lib, ularning sog'ligi va jismoniy taraqqiyotiga har tomonlama ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolaning sayr vaqtida ochiq havoda bo'lishi natijasida qon kislorodga to'yadi, temperaturaning o'zgarib turishi, havoning namligi, shamol ta'siri termoregulyatsion apparatni mashq qildiradi, organizmni chiniqtiradi. Bolaning faolligi oshadi, harakatlari, jismoniy sifatlari takomillashadi.

Sayrni tashkil etish va o'tkazishda quyidagi pedagogik talablarga rioya etish maqsadga muvofiq:

1) sayrga yig'ilish ko'p vaqtni olmasligi, bolalarni bir tartibda kiyinish va yechinishga o'rgatish kerak;

2) sayr shunchaki tashkil etilmay, uning rejasiga atrof-muhitni kuza-tish, sport mashg'ulotlari, mehnat va o'yin faoliyati qamrab olinishi lozim;

3) sayrni tashkil etish uchun zarur jihozlar avvaldan tayyorlab qo'yilib, belgilangan talablarga javob berishi kerak;

4) sayrning davomiyligi uch-to'rt soatdan oshmasdan, havo harorati hisobga olinishi zarur;

5) sayrning davomiyligigagina emas, uning mazmunli tashkil etilishi, bolaga hissiy, jismoniy madad bera olishiga e'tibor qaratish lozim.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy rivojlanishining o'ziga xosligi

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishini ta'minlash mazkur jarayonga tabaqalashtirilgan yondashuvni tatbiq etishni taqozo etadi. Ana shu sababli tarbiyachi maktabgacha yosh

davrlari bilan bog'liqlikda jismoniy rivojlanishdagi o'ziga xosliklarni to'liq o'zlashtirib olishi lozim.

Ilk yosh tarbiyalanuvchilari (1–2 yoshli bola) jismoniy tarbiyasining asosiy maqsadi bolaning sog'ligini mustahkamlash, ularning tana a'zolarini chiniqtirish, ularda asosiy harakat turlarini rivojlantirish, bolalarni tetik tutuvchi, toliqishlarining oldini oluvchi harakatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish hamda barmoqlarining mayda muskullarini, yurish va harakat qilishning ayrim ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Ilk yoshli bolalarning jismoniy rivojlanishida quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish zarur:

1) kerakli masofaga, o'rindiq va halqaning tagiga emaklash, bir metr uzunlikdagi zinaga kattalarning yordamida chiqish va undan tushish;

2) tayanchsiz to'g'ri yo'nalishda yerdan yotgan taxtacha ustidan, yo'lkachadan, qiya (o'n-o'n besh sm yuqoriga ko'tarilgan) taxtachadan yurish, o'n sm balandlikdagi sath ustiga chiqish va undan tushish: pol, yerdagi yoki besh–o'n sm balandlikda joylashgan arqon, xoda yoki taxtacha ustidan o'ta olish;

3) to'g'ri yo'nalishda yugurish;

4) uncha katta bo'lmagan tepalikdan ko'ptokni dumalatish, uni oldinga, yuqoriga irg'itish. Qalamni yoki mo'yqalamni ushlab turish, ular bilan (aji-buji) chiziqlar chizish.

5) uch va undan ortiq qismlardan iborat minoralar qurish, qopcha va qutichaga mayda predmet va o'yinchoqlarni solish va ularning ichidan olish.

6) o'z-o'ziga xizmat qilish, qo'llarini yuvish, cho'milishga ijobiy munosabatda bo'lish, piyoladan choy ichish, mustaqil yuz-qo'llarini yuvish va artish.

Ilk yosh guruh (2–3 yoshli bolalar) tarbiyalanuvchilari bilan jismoniy tarbiya bo'yicha bajariladigan ishni to'g'ri rejalashtirish va o'tkazish

uni samarali hal etishda nihoyatda muhimdir. Kun davomida turli xildagi mashg'ulotlarning jismoniy mashq va harakatli o'yinlar bilan qo'shib olib borilishi bolaning to'g'ri harakatini ta'minlashga yordam beradi. Mashg'ulotlar to'g'ri tashkil etilsa, qiziqarli, ibratli jihatlari oshirilsa, bolalar o'z vaqtida dam olishlariga e'tibor berilsagina, jismoniy mashqlarning samaradorligi ortadi. Mashg'ulotda eng muhimi mashq va o'yinlarning to'g'ri taqsimlanishidir. Bunda mashg'ulotning asosiy vazifasini ajrata olish lozim, uning mazmuni ko'zda tutgan maqsadni hisobga olib, bola tanasining ma'lum qismlariga har tomonlama ta'sir o'tkazish zarur. Shu jumladan, mashg'ulotlar unumdorligini oshirish maqsadida turli mashqlarni bir-biri bilan bog'lash ham muhimdir.

Mashg'ulotni rejalashtirishda harakat tartibini va takroriyligini, vazifani to'g'ri taqsimlash va bolalarni uyushtirishning eng aniq va oqilona usullari ko'zda tutiladi. Bunga, avvalo, etarli harakat faolligi va mashg'ulotlarning zichligini ta'minlash orqali erishish kerak. Mashg'ulotlarni rejalashtirishda guruhning sharoiti, mashg'ulotlar uchun zarur bo'lgan jihozlarning mavjudligi hisobga olinadi. Ochiq havodagi mashg'ulotlar mazmuni yil fasllariga, ob-havoga muvofiq ravishda tanlanadi. Mashg'ulotni rejalashtirish va o'tkazish usullari turlicha bo'lib, ular asosiy harakat va o'yin mashqlari, bir qolipdagi mashg'ulotlardan tortib, turli xildagi, ya'ni harakatli o'yinlar, xalq o'yinlari, estafetalar, ochiq havoda o'tkaziladigan mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi.

Ertalabki badantarbiya, sayrdagi jismoniy mashq va o'yinlarni mashg'ulotlarning o'quv materialiga muvofiqlashtirish muhim. Kunning turli paytida bolalarning harakat faolligini hisobga olish, shunga ko'ra, harakat ko'nikma va malakalarini takomillashtirish uchun harakat sifatlarini o'stiradigan mashqlarning turli usullari tavsiya etiladi. Bolalarning mustaqil faoliyati tarbiyachining bevosita rahbarligida o'tadi. U har bir bolaning o'yin va mashqlarni erkin tanlashiga harakat qiladi.

Kichikguruh (3-4 yoshli) tarbiyalanuvchilarni jismoniy rivojlantirishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

1) bola harakatlarining shakllanishiga yordam berish, gavdasini tik tutishga o'rgatish;

2) bolalarni mustaqil o'ynayotgan paytlaridagi harakatlari faolligining barqarorlashuviga yordam berish;

3) tarbiyachi tomonidan ko'rsatilayotgan turli harakatlarga bolaning tushunib borishiga va birgalikda harakat qilishga undash;

4) bolalarni turgan joyda sakrashga, ikki oyoqni juftlab sakrashga va yengil tushishga, emaklashga, tirmashib chiqishga, to'p bilan harakat qilishga, dumalatish, uloqtirishga o'rgatish;

5) bolalarda ertalabki badantarbiyaga nisbatan qiziqish, ijobiy munosabatlarni uyg'otish o'yinlarda ishtirok etishga o'rgatish.

Kichik yosh guruhi tarbiyalanuvchilarini asosiy harakatlarga tizimli odatlantirib borish lozim. Jumladan:

1) to'p-to'p bo'lib yurish, yo'nalishni o'zgartirib yurish, doira bo'ylab juft-juft bo'lib qo'l ushlab yurish, yurishdan yugurishga o'tishga, yon tomonga yurish, ketma-ket yurishga o'rgatish;

2) tarbiyachining orqasidan yugurish, dumalatib yuborilgan buyumni quvib etish, ikki chiziq orasidan chiqmay yugurish, 20–40 metr masofaga o'rtacha tezlikda, 70–80 metrga asta sekin yugurishga o'rgatish;

3) ikki oyoqni juftlab turgan joyda sakrash, balandlikka sakrash hamda 20–30 sm masofaga hatlashga, 10–15 sm balandlikdagi predmetdan sakrashga o'rgatish;

4) to'pni bir-biriga qaratib dumalatish, to'pni ikki qo'llab oldinga pastdan, ko'krak oldidan, boshidan oshirib otish, 50–100 sm oraliqdagi to'pni ilib olishga harakat qilish, shuningdek, to'p yoki qum xaltchasini 1 m masofaga bir qo'llab o'ng yoki chap qo'l bilan irg'itish;

5) 3–4 m masofaga emaklash, 30–40 sm, to'siq tagidan o'tish, arqonli narvoncha, tik devorchadan bola uchun qulay bo'lgan usulda yuqoriga tirmashib chiqishga o'rgatish;

6) to'g'ri yo'lak bo'ylab yurish, eni 20 sm, uzunligi 2–3 m, ilon izi yo'lakchadan. doira bo'ylab tashlab qo'yilgan arqonchadan qiya taxtachadan yurish yoki emaklash, halqadan-halqaga, doiradan-doiraga o'tishga, shuningdek, 10–15 sm balandlikdagi to'siqlardan hatlab o'tishga, balandlikda qo'llarni yonga qilib turishga, aylanishga, oyoq uchida ko'tarilishga o'rgatish.

O'rta guruh (4–5 yosh) bolalarning jismoniy rivojlanishini ta'minlashda bolalarni jismoniy harakat turlari bilan tanishtirish, ularni faol bo'lishga undash hamda turli o'yin va mashqlarga qiziqish uyg'otish nazarda tutiladi.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish zarur:

1) mashg'ulot vaqtida bolalarni qo'l va oyoq harakatlarini mashqqa muvofiq ravishda oyoqni sudramay, boshni egmay yengil yurishga odatlantirish;

2) narvonga tirmashib chiqish, to'pni panjalar yordamida ushlab olish, shuningdek, turli usullar yordamida to'p uloqtirishda boshlang'ich holatni to'g'ri egallash, velosiped uchish malakasini tarkib toptirish:

3) turli tartibda saflanib yura olish, fazoda chamalashni o'rgatish hamda muvozanat saqlashga o'rgatib borish.

Jismoniy tarbiyaga doir vazifalarni hal etish orqali tarbiyalanuvchilarda quyidagi malaka va odatlar tarkib toptiriladi:

1) badantarbiya vaqtida yurish, yugurish, sakrash qo'l-oyoq mashqlarini faol egallashga, gavda holatini tikka tutishga erishish;

2) jismoniy sifatlarni rivojlantirish;

3) o'yinlarni bolalarning o'zlari mustaqil ravishda tashkil etishlariga imkoniyat yaratish;

4) bolalarda velosiped, chanada uchish, to'p, halqa va boshqa narsalar yordamida bajariladigan harakat malakalarini takomillashtirish;

5) jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida birgalikda dam olish daqiqalaridagi o'yinlarga erkin qo'shilishlariga odatlantirish.

6) oyoq uchida, tizzalarni baland ko'tarib yurish, tovonda, oyoq kaftlarining yon tomoni bilan yurish, turli buyumlar oralab yon tomonga yurish; harakat tezligi va yo'nalishlarini o'zgartirib safda yurish;

7) oyoq uchida, tizzalarini baland ko'tarib katta qadamlar bilan yugurish, safda juft bo'lib, turli yo'nalishda doira bo'lib, qo'lini ushlab, ilon izi bo'lib, yugurish hamda yugurishni yurish bilan almashtirish, to'xtovsiz 1,5 daqiqagacha yugurishga, 30 metrga tez, 40–60 metrgacha o'rtacha tezlikda yugurishga, 200–240 metr masofaga sekin tezlikda yugurishga o'rgatish;

8) turgan joyida ikki oyoqlab aylanib sakrash, qo'llarni yuqoriga ko'tarib sakrash, oldinga qarab yurish vaqtida sakrash, bir oyoqlab turgan joyida va yurgan holda sakrash; to'siqlardan sakrab o'tish, 70 sm uzunlikka 20–30 sm balandlikdan sakrab o'tish, arqon bilan sakrashga urinish, dumalatish, uloqtirish, ilib olish; aylana orasidan to'pni dumalatish, koptokni yuqoriga otib va yerga urib ilib olish;

9) kamida 10 m masofani emaklab o'tish, turli balandlikdagi buyumlar ostidan emaklab o'tish; gimnastika kursisida qo'llarga tayangan holda, qorin bilan sudralish; to'rt oyoqlab yurish, gimnastika devoriga o'ngdan chapga o'tib tirmashib chiqish; 20–30 sm balandlikda tortilgan arqon tagidan, halqa orasidan emaklab o'tish;

10) to'pni bir-biriga irg'itib, devorga yerga urib ilib olishga, navbatmanavbat o'ng va chap qo'l bilan to'pni urishga, og'irligi 0,5 kg bo'lgan oddiy va havo to'plarini yerda dumalatib, uloqtirishga o'rgatish;

11) uch g'ildirakli velosipedda o'ngga va chapga burilib, doira bo'ylab, yerga qo'yilgan buyumlarni chetlab o'tib haydash va buyruq bo'yicha to'xtashga o'rgatish;

12) chiziq bo'ylab muvozanat saqlab yurish, biror narsani kaftga, bosh ustida qo'ygan holda yurish, gimnastika o'rindig'ida bir-biri bilan almashib o'tish, taxta ustida oyoq uchida yurish, yugurib kelgandan so'ng o'rindig'ida muvozanat saqlab turish, bir oyoqni bukib, ikkinchisida turish hamda ikkala tomonga aylanish, qo'llar belda, yon tomonlarda ko'zni yumib yurish va boshqalar.

Katta guruh (5–6 yosh) tarbiyalanuvchilari bilan tarbiyachi jismoniy tarbiya faoliyatiga oid turli usullarni bolalar bilan birgalikda ularning xohishlarini hisobga olgan holda tanlashi maqsadga muvofiqdir. Ularni jismoniy tarbiya bo'yicha mashqlarni ongli ravishda tushunib, aniq va to'g'ri bajarishga, harakatli o'yinlarning qoidalariga rioya etishga, yengil yurish va yugurish, yurish vaqtida tayanchga kuchliroq tayanib itarilib chopish, oyoqni balandroq ko'tarish, qadam oralig'ini oshirish uchun sekin, o'rtacha tezlikda, tez yugurishga, yugurish vaqtida turli to'siqlardan sakrab o'tishga o'rgatib boriladi

Mazkur yosh guruhi tarbiyalanuvchilarida quyidagi jismoniy ko'nikma va malakalar tarkib toptirilishi lozim:

1) yugurib kelib balandlik va uzunlikka sakrash, sakrashning turiga qarab yerga tushish, tushayotgan vaqtda o'zini yig'ishtirib olish ko'nikmalarini shakllantirish, bir qo'l bilan koptokni otish va ilib olishga, biror buyumni qulochkashlab otishni irg'itib tashlash bilan birga qo'shib olib borishga, tirmashib chiqish va tushishning turli xil usullarini o'rgatish, bolani o'z harakatini bajarishga, tahlil qilishga, o'zga bolalar xatti-harakati bilan qiyoslashga, qomatni to'g'ri tutishga, muskullarni mustahkamlashga yordam beruvchi mashqlarni bajara olish;

2) velosipedda uchish, suzishga oid turli usullar, har xil sport o'yinlarining qonun-qoidalari, kurash tushishning ayrim usullari, qoidalarini o'rganish;

3) jismoniy sifatlarni o'stirish, muvozanat saqlash, harakatni boshqarish hamda fazoda mo'ljalga ola bilish;

4) turli usullarda yarim o'tirgan holda tovonda barmoq uchlari bilan qadam tashlab turli tomonga oyoqni yonlama qilib, qarsak chalib yurish, oyoq uchida, qo'llarni bosh orqasiga qo'yib yurish; ko'zni yumgan holda 3–4 metr masofani o'tish, oyoqlarni chalishtirib yurish; harakatlarni bajarib yurish;

5) oyoq uchida kichik va katta qadam tashlab to'siqlarni oshib yoki aylanib o'tish. yugurish vaqtida turli buyumlar orasida ilon izi bo'lib yugurish (yugurish 1,5–2 daqiqa davom etadi) hamda 60–100 metrga o'rta tezlikda yugurish;

6) turgan joyda oyoqni juftlab sakrash, oyoqni chalishtirib to'g'irlab, galma-galdan o'ng yoki chap oyoqdan sakrash, oyoqni juftlab yonlamasiga pastroq to'siq ustidan sakrab o'tish: goh o'ng oyoqda, goh chap oyoqda sakrash, 80 sm uzunlikka sakrash, yugurib kelib balandlikka, uzunlikka sakrash, qimirlab turgan va qimirlamay turgan arg'imchoq ustidan sakrash.

Tayyorlov guruhi (6–7 yosh) tarbiyalanuvchilarini jismoniy rivojlan-tirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1) jismoniy mashqlar va o'yinlar yo'li bilan harakatlarni takomil-lashtirish jarayonida jismoniy sifatlarni o'stirish hamda kundalik harakat faolligiga bo'lgan ehtiyojini shakllantirish;

2) yugurishning mustaqil mashq qilish, unchalik murakkab bo'lmagan o'yin va musobaqalar uyushtirish; mashqlar va o'yinlarni tanlashda mash-g'ulotlar uchun joylarni tayyorlashda va jihozlarni saqlashni ta'minlashda tashabbus ko'rsatish;

3) mashg'ulotlar vaqtida barcha harakatlantiruvchi mashqlarning tabii-y holda, yengillik bilan va to'g'ri bajarilishiga erishish hamda yurishning har xil turlaridan sharoitga qarab foydalanishga o'rgatish;

4) bolalarga predmetlarni uzoqqa va nishonga irg'itishda barmoqlarni oxirgi marta kuchli harakatlantirib otishga o'rgatish hamda turli usullar bilan gimnastika narvonchasiga, arqonli narvonchaga tirmashib chiqishni mashq qildirish;

5) jismoniy sifatlarni – tezkorlik, chaqqonlikni o'stirish; mashqlarni bajarish paytida chidamlilik va kuch ko'rsatishga imkon berish; muvozanat saqlashni his etishni, harakatlarni boshqarishni va bo'shliqda chamalashni takomillashtirish;

6) ertalabki badantarbiya mashqini muntazam ravishda bajarish ish-tiyogini shakllantirish, uni o'tkazayotganda uyushqoqlikka, mashqlar kompleksini mustaqil bajarish ko'nikmasiga erishish;

7) kuchli aqliy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan mashg'ulotlarda charchashning oldini olish va ishlash qobiliyatini saqlash maqsadida bolalarni yengil jismoniy mashqlarni bajarishga odatlantirish;

8) mustaqil faoliyat jarayonida harakatlarning turli xillarini muntazam mashq qilish odatini shakllantirish. Turli xil jismoniy mashqlarni va sport o'yinlari elementlarini mustaqil bajarayotgan paytda yoki ochiq havodagi o'yinlari elementlarini mustaqil bajarayotgan paytda o'yin estafetalarida va yengil musobaqalarida borgan sari yuqoriroq natijalarga erishishga intilishlarini rag'batlantirish.

Yosh guruhlarida gigiena va o'z-o'ziga xizmat malakalarini shakllantirish

bo'lgan gigiena va o'z-o'ziga xizmat malakalari quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

- ❖ taxminiy kun tartibi;
- ❖ madaniy-gigienik ko'nikmalarni egallash va o'z-o'ziga xizmat ;
- ❖ uxlash gigienasi;
- ❖ ovqatlanish gigienasi;
- ❖ shaxsiy gigiena;
- ❖ shikastlanishning oldini olish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiyani bolalarni yosh guruhlariga ajratgan holda olib borish samarali natija berar ekan, bolalarda gigiena va o'z-o'ziga xizmat malakalari ham bolaning yosh xususiyatidan kelib chiqib tashkil etiladi.

Ilk yosh guruh. Kattalar ko'magida suvni sachratmasdan yuvinishga odatlantirib borish, og'zini chayqashga o'rgatish, shaxsiy dastro'molchani o'z vaqtida qo'llashga o'rgatiladi. Bolalarda ovqatni tartibli yeyish malakalarini (nonni uvoq qilmaslik, ovqatni to'kmaslik, og'izni yumib chaynash, qoshiqni o'ng qo'lda ushlab foydalanishlikni) tarbiyalash. Shuningdek, kiyimlarni mustaqil ravishda yechinib, kiyinish malakalarini tarbiyalash. Kattalar ko'magida kiyimlarni o'z javonlariga tartibli joylashtirishga o'rgatish. Xonada tartiblilik va ozodalikni saqlashga odatlantirish.

Kichik guruh. Tungi va kunduzgi uyqudan so'ng, suvni sachratmasdan yuvinish, sovundan to'g'ri foydalanish malaka va ko'nikmalarini hosil qilish. Shaxsiy dastro'molchani o'z o'rnida qo'llashga o'rgatish. Ovqatlanish jarayonida qoshiqni o'ng qo'lda ushlab, to'kmasdan, shosh-

masdan, ogʻzini yumib chaynashga oʻrgatib borish, shuningdek, kiyimlarni mustaqil ravishda kiyinib, yechinish malaka va koʻnikmalarini rivojlantirish.

Oʻrta guruh: Uyqudan soʻng va zarur boʻlgan hollarda suvni sachratmasdan, isrof qilmasdan, sovundan toʻgʻri foydalanib, toza yuvinishga oʻrgatib borish. Sochiq bilan quruq artinishga odatlantirish. Oyoq va qoʻl uchun qoʻllaniladigan sochiqlarni farqlay bilish. Kattalarga yuvinmasdan salom berish hurmatsizlik ekanligini singdirish. Shuningdek, kiyimlarni tez va toʻgʻri kiyinib, yechinish malakalarini rivojlantirish. Kiyimlarni maxsus ajratilgan joyga tartib bilan joylashtirishga oʻrgatish. Kiyimlardagi kamchiliklarni sezishga hamda tartibga keltirishga odatlantirish. Oʻrtoqlardagi kamchilikni sezgan holda, sekin-asta ogohlantirish malakalarini rivojlantirish. Zarur holda sochni toʻgʻri turmaklab olishga odatlantirish.

Katta guruh: Tez va toza yuvinish, tishni oʻz vaqtida kunda ikki marotaba – ertalab uyqudan soʻng va tunda uyqudan oldin shaxsiy tish tozalagichlar yordamida yuvish, zarur hollarda ogʻizni chayqashga oʻrgatish. Hojatdan soʻng qoʻlni yuvishga odatlantirish. Sovun, suvni isrof qilmasdan tejab foydalanishga oʻrgatish.

Kattalarga yuvuqsiz salom berish ularga nisbatan odobsizlik ekanligini anglatish, “savob”, “gunoh”ni farqlay bilishga oʻrgatish.

Ovqatlanish jarayonida “Bismillohir rahmonir rahim” deb, qoshiqni oʻng qoʻlda ushlab, tartibli ovqatlanishga oʻrgatish, nonni uvol qilmasdan, “non ham non – nonning uvogʻi ham non” kabi xalq naqliga amal qilishga odatlantirib borish. Ovqatlangandan soʻng minnatdorchilik bildirib, boʻsh idishlarni yuvishga olib borib qoʻyishga odatlantirish.

Tayyorlov guruh: Yuvinish, ovqatlanish, kiyinish kabi koʻnikma va malakalarni rivojlantira borib, odatga aylantirish. Ertalab ota-ona, kattalar va tengqurlar bilan yuvinib boʻlgach salomlashish kerakligini ongli ravishda idrok etishga oʻrgatish. Kundalik zaruriy holatlarda (hojat, yuvinish, kiyinib-yechinish) oʻgʻil va qiz bolalarga alohida yondashish. Bolalarda “uyat”, “ibo” kabi hislatlarni tarbiyalab borish. Sochga oroyish berish, tirnoqlarni koʻzdan kechirishga oʻrgatish. Kiyimlarni oʻz oʻrnida kiyishga, asrashga odatlantirish. Kiyimlardan foydalanish tartiblariga qarab oʻz oʻrnida qoʻllashga oʻrgatib borish(maktabgacha taʼlim muassasasida, mehmonda, kundalik faoliyatlarda), sabab-oqibat bogʻlanishlarni mustaqil seza olishga va uning oldini olishga tarbiyalash. Oilaning umumiy iqtisodiy taqsimotidan kelib chiqib, oʻziga bogʻliq nar-

salarni tejab foydalanishga o'rgatish. Sabr-qanoat qilishning oddiy ko'rishlarini singdirib borish.

Yuvinish jarayonida bir-biriga nisbatan mulozamat elementlarini (suv quyganda o'ng qo'lida obdasta, elkasida sochiq kabilar) tarbiyalash.

? NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Jismoniy tarbiya deganda nima tushuniladi?
2. Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini tushuntirib bering.
3. "Bolajon" tayanch dasturida maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalashning vazifalari sifatida nimalarga asosiy e'tibor qaratilgan?
4. Jismoniy tarbiyaning vositalariga nimalar kiradi?
5. Jismoniy tarbiyaning tabiiy omillariga nimalar kiradi?
6. Bola organizmini chiniqtirishda maktabgacha ta'lim yosh guruhi bilan bog'liqlikda qanday o'ziga xosliklarni hisobga olish lozim?
7. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning jismoniy to'g'ri rivojlanishi uchun qanday gigienik shart-sharoitlarni hisobga olish lozim?
8. Maktabgacha ta'lim yoshida kun tartibini tuzishda qanday talablarga rioya qilish lozim?
9. Jismoniy mashqlarga nimalar kiradi?
10. Gimnastikaning qanday turlari mavjud?
11. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda o'yinning qaysi turidan foydalanish maqsadga muvofiq?
12. Sayrni tashkil etish va o'tkazishda qanday talablarga rioya etish zarur?
13. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni rivojlantirishning o'ziga xosliklari nimalardan iborat?

1. Organizmning morfologik va funksional rivojlanishini jamiyat talablari darajasida amalga oshirishni qaysi tarbiya turi o'z ichiga olgan?

- A) Axloqiy tarbiya B) Jismoniy tarbiya
C) Huquqiy tarbiya D) Aqliy tarbiya

2. Qaysi olim jismoniy tarbiyaning vazifalarini rivojlantiruvchi, tarbiyaviy, ta'limiy, sog'lomlashtiruvchi va umummadaniy kabi turlarga ajratib o'rgangan?

- A) I.P. Podlasiy B) I.F. Isayev
C) P. Yusupova D) B.T. Lixachev

3. Jismoniy tarbiyani amalga oshiruvchi uch asosiy vositalar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- A) Tabiiy omillar, gigienik shart-sharoitlar va jismoniy mashqlar
B) Tabiiy omillar, gigienik shart-sharoitlar va rivojlantiruvchi mashqlar
C) Gigienik shart-sharoitlar, jismoniy va rivojlantiruvchi mashqlar
D) Rivojlantiruvchi mashqlar, ta'lim va tarbiya

4. Jismoniy tarbiyani amalga oshirishga ko'maklashuvchi tabiiy omillar o'zida nimani aks ettiradi?

- A) Havo orqali chiniqtirishda sovuq havo bilan jismoniy mashqlar majmuini
B) Suv bilan chiniqtirishda bolalarning tibbiy-fiziologik o'ziga hosliklarini
C) O'zbekiston sharoitida tabiiy omillardan unumli foydalanishni
D) Tabiat in'omlarining sog'liqni mustahkamlash, bolaning morfologik va jismoniy to'g'ri rivojlanishiga ko'maklashish imkoniyatlarini

5. Quyosh nurida chiniqtirish organizimda qaysi vitaminni paydo bo'lishiga yordam beradi?

- A) B B) D
C) E D) A

VI bob. AQLIY TARBIYA

«Aqliy rivojlanish» va «Aqliy tarbiya» tushunchasi *Aqliy rivojlanish* deganda hayotiy ta'sir etish va oqibatlarining barcha miqdoriy imkoniyatlari natijasida kelib chiqadigan aql kuchi hamda fikrlashning rivojlanish jarayonini tushunish mumkin.

Aqliy rivojlanish atamasi bilan bir qatorda “aqliy kamolot” atamasi ham qo'llaniladi. Aqliy kamolot – bu yoshning o'sib, tajribaning boyib borishi munosabati bilan bolaning aqliy faoliyatida ro'y beradigan miqdor va sifat o'zgarishlarining majmuasidir.

Maktabgacha ta'lim yoshida bilimlar tez sur'atlar bilan boyib boradi, nutq shakllanadi, bilish jarayonlari takomillashadi, bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab oladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishini ta'minlash ularning kelajakdagi butun faoliyatlari uchun katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bola ijtimoiy muhit ta'sirida aqliy tomondan rivojlanib boradi. Tevarak-atrofdagi kishilar bilan muomala qilish jarayonida u tilni va u bilan birga tarkib topgan tushunchalar tizimini o'zlashtiradi. Natijada maktabgacha ta'lim yoshidayoq bola tilni shunchalik egallab oladiki, undan muomala vositasi sifatida erkin foydalana oladigan bo'lib qoladi.

XX asrning so'ngi choragida psixologik va pedagogik adabiyotlarda ta'lim jarayonining samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik yondashuv va tamoyillarni amalga oshirish ko'plab ta'riflanganligini ko'rish mumkin. Jumladan, “aqliy rivojlanish” tushunchasi keng qo'llaniladi, lekin qanday belgilariga ko'ra inson aqli, uning aqliy rivojlanish darajasi haqida fikr yuritish mumkin degan savolga bir mazmunli javob berilmaydi. Barcha psixologlar aqliy rivojlanishda ta'lim asosiy, hal qiluvchilik rolini o'ynashini e'tirof etadi. Bu insonning ijtimoiy tabiatidan kelib chiqadi. Ma'lumki, insonning psixik rivojlanishi u yashayotgan ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlarda aniqlanadi. O'z hayotining birinchi kunidanoq bola kattalar ta'siri ostida ijtimoiy tajribani o'zlashtira boshlaydi. Bu tajribalarni o'zlashtirish jarayonida bolaning aqliy rivojlanishi, uning insoniy qobiliyatlarining shakllanishi sodir bo'ladi.

Olimlar orasidagi ba'zi xilma-xillik aqliy rivojlanishda bilimlarning roli qandayligi haqidagi masalani keltirib chiqaradi. Masalan, A.N. Leontev bilimlar bilan aqliy rivojlanish, xuddi shunday rivojlanish o'rtasida aniq teng ishorasini qo'yadi. Uning fikricha, insoniyat tajribasini

“o‘zlashtirish” butunlay bola yashayotgan va rivojlanayotgan ijtimoiy sharoitlarda qo‘lga kiritilganligi bilan xarakterlanadi. Boshqa olimlar (E.N. Kabanov-Meller, V.A. Krutetskiy) bilimlarni ahamiyatini pasaytirmaydi, biroq uni mutlaqlashtirmaydi ham. Ular bilim aqliy rivojlanish sharti sifatida aks etadi, lekin uning tuzilishiga kirmaydi, deb hisoblashadi. Mazkur mualliflarning fikricha, aqliy rivojlanish faqatgina bilimni o‘ziningina emas, insonning mazkur bilimni yangi sharoitlarda o‘zlashtirish, qo‘llay olish, uzatish imkoniyatidan kelib chiqadi.

Z.I.Kalmikov esa quyidagi ta’rifni taklif etadi: aqliy rivojlanish – inson psixikasining individual o‘ziga xosliklaridan, u yashayotgan ijtimoiy-tarixiy sharoitlar bilan bog‘liqlikda hayotiy tajribalarning oshib borishi va uning yoshi bilan aloqadorlikdagi intellektual faoliyatidan kelib chiqadigan miqdoriy va sifat o‘zgarishlarining murakkab dinamik tizimi. Insoniyat tajribasini qanchalik o‘zlashtirganlik aqliy rivojlanishda hal qiluvchi omil sifatida aks etadi. Amaliy bilimlar zaxirasi aqliy rivojlanishning tuzilishiga kiruvchi tarkibiy qismlardan biri sifatida qaralishi kerak. Amaliy bilimlar zaxirasi bilan bir qatorda aqliy rivojlanishning tuzilishida ta’lim olganlik o‘z aksini topadi. Ta’lim olganlik – bu aql sifatini shakllantiruvchi shaxs intellektual xususiyatlarining tizimi.

Aqliy rivojlanish quyidagi tushunchalar tizimini o‘z ichiga qamrab oladi: *aqlning teranligi* bola yangi materialni egallashda mavhumlashtira olishi mumkin bo‘lgan belgilarning muhimligi uni o‘zlashtirish bosqichi va ularning umumlashganlik darajasida namoyon bo‘ladi; *aqlning sustligi* qarama-qarshilikda: bir qoliplikka, fikrlashdagi odatiylikka moyillikda, bir harakatlar tizimidan boshqasiga o‘tishdagi qiyinchilikda namoyon bo‘ladi; *fikrning moslashuvchanligi* maqsadga muvofiq o‘zgaruvchanlikni talab etadi; *aqlning barqarorligi* bolaga vazifalarni fikriy hal etish, ularning butun belgilarini xotirada eslab qolishga imkon beradi. Bu sifat tasniflashga oid biror vazifani hal etishda aniq ko‘rinadi; *fikriy faoliyatning anglanganligi* – uning mahsuli sifatida so‘z orqali ifoda etish imkoniyatida aks etadigan aqlning sifati; *aqlning mustaqilligi* – yangi bilimlarni, vazifalarni hal etishning yangi yo‘llarini faol izlashda namoyon bo‘ladi; *fikrning tejamkorligi* – kam vaqt sarflab yetarlicha bilimlarni egallay olishda aks etadi.

Aqliy tarbiya deganda ta’lim oluvchining intellekti, bilish imkoniyatlarini, iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirish tizimi tushuniladi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolalarning faol fikrlash

faoliyatini rivojlantirishga kattalarning ma'lum maqsad bilan ta'sir etishidir. U bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni tizimlashtirish, bolalarda bilishga qiziqish uyg'otish, aqliy ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishni to'g'ri tashkil etish uchun ularning aqliy rivojlanish qonuniyatlari va imkoniyatlarini bilish kerak. Maktabgacha ta'lim yoshida boshqa yosh davrlariga qaraganda aqliy rivojlanishning yuqori sur'atda taraqqiy etishi kuzatiladi. Ayniqsa, ilk yosh guruhi bolalarining aqliy rivojlanishiga alohida e'tibor qaratish zarur. Zamonaviy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, ikki yoshgacha bolalarda juda katta hajmdagi bilish faolligi kuzatiladi. Bolaning ongi tez rivojlanib, u uch yoshga kelganda katta kishilarning aql kuchining sakson foiziga tenglashadi. Mazkur holat maktabgacha yoshdagi bola ongini ortiqcha zo'riqishlardan asrashni talab etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy rivojlanishida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni keyinchalik bartaraf etish qiyin kechadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida yo'l qo'yilgan kamchiliklar kelajakda bolaning har tomonlama rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, oilada, maktabgacha ta'lim muassasasida bolaning qurilish materiallari, konstruktorlar bilan o'ynashiga e'tibor qaratmaslik oqibatida maktabda geometriya, chizma-chilik kabi fanlarni o'zlashtirishda qiyinchilik tug'diruvchi fazoviy idrok etishning rivojlanmasligiga olib keladi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning aqliy rivojlanishidagi asosiy o'ziga xoslik – obrazli bilish shakllarini (idrok etish, obrazli fikrlash, tasavvur) egallashda yorqin namoyon bo'ladi. Bolada rivojlanadigan bilish jarayonlari xilma-xil faoliyat turlarida aks etadi. Bolada tasavvurning rivojlaniishi orqali u faoliyatning manzarasini ko'z oldiga keltira oladi, amalga oshirishi lozim bo'lgan ishni rejalashtiradi, undan nima talab qilina-yotganligini aniqlay oladi. Bola o'zlashtirayotgan bilimlar faqatgina uning fikrlash doirasini o'stiribgina qolmay, balki kishilarga, ularning xatti-harakatlariga, tabiat, san'at kabilarga munosabatni qaror toptiradi.

Aqliy tarbiyaning vazifalari Aqliy tarbiyaning umumiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- ✓ belgilangan hajmdagi ilmiy bilimlarni egallash;
- ✓ dunyoqarashni shakllantirish;
- ✓ aql kuchi, iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirish;

- ✓ bilishga oid qiziqishlarini rivojlantirish;
- ✓ shaxs salohiyati imkoniyatlarini rivojlantirish;
- ✓ bilish faoliyatini shakllantirish;
- ✓ doimiy ravishda o'z bilimlarini to'ldirish, umumta'limiy tayyorgarlik darajasini oshirish ehtiyojlarini rivojlantirish;
- ✓ ta'lim oluvchilarni bilish faoliyati uslublari bilan qurollantirish;
- ✓ fikrlash qobiliyati, ijodiy faoliyat tajribalarini shakllantirish.

Mazkur vazifalarni maktabgacha ta'lim bilan bog'liqlikda quyida ko'rib chiqamiz. Ilk yoshdan boshlab bolani aqliy tarbiyalashning asosiy vazifasi ularning *bilish faolligini oshirish*dir. Bilish faolligini oshirish orqali bola uni o'rab turgan tevarak-atrofni o'rganadi. Bola atrof-muhitni o'yin, mehnat, sayr, mashg'ulotlar, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilish jarayonida anglab boradi.

Bilish faoliyati idrok etish va fikrlash tarzida amalga oshadi. *Idrok etish* orqali bola narsa-buyumlarning tashqi xususiyatlarini (rang, shakl, o'lcham va boshqalar) anglaydi. Mazkur xususiyatlarini aks etishi orqali ongda narsa-buyumning timsoli yaratiladi. Bolaning *fikrlash*ida narsa-buyumlarning ichki, yashirin xususiyatlari, narsa-hodisalar orasidagi sabab-aloqadorlik aks etadi. Fikrlashning natijasi so'zlar yordamida ifoda etiladi. Bolalarning fikrlashlari natijasi fikr yoki savol ko'rinishida namoyon bo'ladi. Stol atrofida o'tirgan 5 yoshli Alisherning oyisiga bergan savoli: "Ko'zni nima harakatga keltiradi?"

Idrok etish va fikrlash orasida chambarchas aloqadorlik mavjud. Idrok etish bola hayotining ilk oylaridan shakllanadi, fikrlashning rivojlanishi esa qariyb ikki yoshdan boshlanadi. Fikrlashning asosida hissiy (sensor) tajribani chuqurroq bilib olish uchun qo'llaniladigan idrok etish yotadi. Maktabgacha ta'lim yoshida idrok etish tahlil etish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish uchun fikrlashga yordam beradi. Fikrlash esa o'z navbatida idrok etishning takomillashuvi va rivojlanishiga, uning maqsadga yo'naltirilganligi, samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bola hayotining ilk kunlaridanoq uning to'liq aqliy kamoloti uchun idrok etish jarayonini rivojlantirish haqida qayg'urish lozim. Ana shu jihat bilan bog'liqlikda maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy tarbiyasining quyidagi vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Sensor tarbiya. Tevarak atrofdagi borliqni bilish sezgi va idrokka asoslanadi. Tasavvurning asosini bevosita sezish orqali idrok etish tashkil etadi. Bunday tasavvurlarning aniqligi, to'laligi sensor jarayonlarning ri-

vojlantirish darajasi bilan belgilanadi. Sensor tarbiya sezgi va idrokni biror maqsadga qaratilgan holda rivojlantirishdir. “Sensor” soʻzi lotincha “sensus” – “tuygʻu”, “sezgi”, “idrok”, “sezish qobiliyati” maʼnolarini anglatadi.

Sensor tarbiyaning maqsadi maktabgacha taʼlim yoshidagi bolalarning sensor qobiliyatlarini oʻstirishdan iborat. Sensor tarbiya qobiliyatlarni rivojlantirish uchun bolalar buyumning faqat nimaga ishlatilishini, nominigina bilishi yetarli boʻlib qolmay, balki ular buyumlarni chuqurroq idrok etishi, ularni ushlab, ular bilan muomalada boʻlganda xilma-xil sezgilar ishtirok etishi ham juda muhim deb biladi. Tarbiyachi sensor tarbiyaning ana shu tomonlariga alohida eʼtibor berishi, bolalarga tegishli topshiriqlar berishi lozim: buyumlarni bir joydan ikkinchi joyga olib qoʻyishda ularning ogʻirligini his etish, buyumni qoʻlga olib uning sirtini sezish va sifatini – silliq yoki gʻadir-budirligini, issiq yoki sovuqligini va shunga oʻxshashlarni aniqlash kerak.

Sensor tarbiya oʻz navbatida quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishni talab etadi:

1) bolalarda perseptiv harakatlarni shakllantirish;

2) buyumlarning xususiyati, sifati, munosabati toʻgʻrisidagi umumlashgan tasavvurlar, sensor etalonlar tizimini shakllantirish. Sensor etalonlar ijtimoiy-tarixiy tajriba jarayonida hosil qilingan namunalardir. Asosiy ranglar, geometrik shakllar, notalarda ifodalangan musiqali tovushlarning turli balandligi ana shunday etalonlar jumlasiga kiradi. Agar bola etalonlar va ularning ogʻzaki ifodalanishi bilan tanish boʻlsa, uning tevarak-atrofnı bilishi oson boʻladi, u oʻzi uchratgan buyumlarni maʼlum bir etalon bilan taqqoslaydi hamda buyumning rangi, shakli, katta-kichikligi, detallarining fazoviy joylashishini aytib beradi.

Sensor etalonlarni oʻzlashtirish – uzoq davom etadigan va murakkab jarayon. Ana shu sababli mezon, etalonlarni tanlay olishni maktabgacha taʼlim yoshidan boshlash kerak. Aniq mezonlarni oʻzlashtirish orqali bolalar mazkur oʻlchovlar orqali istalgan narsa-hodisalarni tasavvur qila oladilar hamda ularga taʼrif bera olishadi. Ana shu “oʻlchov birliklari” bolaga aniq narsa-buyumlarning farqli jihatlarini chuqur va toʻliq bilish imkonini beradi.

Goʻdaklik davridayoq bolalarda sensor etalonlarga layoqatlilik shakllanadi. Bir yoshning ikkinchi yarmidan boshlab to uch yoshning boshlarigacha sensomotorli ilk etalonlar shakllanadi. Mazkur yosh davrida bola oʻzining harakatlanishi uchun ahamiyatli boʻlgan narsa-

buyumlarning alohida xususiyatlari (shakli, kattaligi, masofasi)ni idrok eta oladi.

Maktabgacha yoshda bola predmetli etalonlardan foydalanadi: narsa-buyumlarning obrazini aniq predmetlar bilan tenglashtiradi (sariq rangni sabziga, kvadratni dastro`molga o`xshatishadi). Tadqiqotlarning ko`rsatishicha, katta maktabgacha yosh guruhi bolalari narsa-buyumlarning xususiyatlariga umumtomonidan qabul qilingan etalonlar (quyosh – shar, limon va bodring – yassi shakl) bilan bog`liqlikda munosabat bildiradilar.

3) perseptiv harakatlardan, etalonlar tizimidan amaliy faoliyatda va bilish jarayonida mustaqil foydalanish malakasini shakllantirish. Sensor tarbiyaning mazmuni o`z ichiga olgan tevarak-atrofdagi hamma sensor belgilarni qamrab oladi. Bular bolalarning hamma faoliyatlari orqali amalga oshiriladi va har xil sensor asosga egadirlar. Maktabgacha yoshdagi bolalar ranglarni farq qilish va ularning nomini aytishga o`rgatiladi, ularda rang tuslarihaqida, bo`yoqlarni aralashtirish natijasida yangi rang yoki tuslar paydo bo`lishi to`g`risida tasavvur hosil bo`ladi. Shuningdek ularda musiqa tinglash uquvini rivojlantirish ham sensor tarbiya mazmuniga kiradi. Sensor tarbiya shuningdek, taktik sezgilarni, buyumlarning sifatini paypaslab ko`rib farqlash va ularni to`g`ri aytish ko`nikmalarini rivojlantirish ham sensor tarbiya vazifalaridan biridir.

Sezgi va idrok biror maqsadga qaratilgan mazmunli faoliyat jarayonida muvaffaqiyatli rivojlanadi. Samarali faoliyat sezgi va idrokning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratibgina qolmay, balki buyumning shaklini, rangini, joyini bilib olishga ham ehtiyoj paydo qiladi. Biror narsaning rasmini chizishdan oldin bolani buyumlarning rangiga qarab taqqoslashga o`rgatiladi, suratlarni ko`zdan kechirishda esa qanday qilib rang yordamida tasvirning badiiy ifodaliligiga erishilishini ko`rish qobiliyati rivojlanadi.

Sensor tarbiyani amalga oshirishda asosiy usullardan biri – tekshirishdir. Tekshirish – buyumlarni maxsus ravishda tashkil etilgan idrok qilishdan iborat bo`lib, uning natijalaridan keyinchalik ma`lum bir mazmunli faoliyatda foydalaniladi. Tekshirish jarayonida bolalar katta – kichiklikni, shaklni, fazoviy munosabatlarni, rangni, nutq tovushlari bilan musiqiy tovushlarning o`ziga xos xususiyatlarini ajratib ko`rsatish va farqlashga o`rganadilar.

2. Fikrlash faoliyatni rivojlantirish. Aqliy tarbiyaning mazkur vazifasi o`zida bolada fikrlashga doir harakatlar, bilish jarayonlari va qobiliyatlarni rivojlantirishni aks ettiradi.

Amaliy tajribamizda fikr soʻzini juda koʻp uchratamiz. Oddiy qilib aytganda, obyektiv olamdagi voqea-hodisalarni ongimizga taʼsir etishi natijasida hosil boʻlgan tuygʻu fikr deb ataladi. Uning tub mohiyati shundaki, fikrimiz orqali biz koʻzimiz bevosita ilgʻamayotgan. koʻz oʻngimizda boʻlmagan, boʻlgan taqdirda ham oʻsha narsaning ichki xususiyatiga aloqador boʻlgan “sirli” jihatlarini koʻrish imkoniga ega boʻlamiz¹⁹.

Fikrlash esa, bilish faoliyati jarayoni boʻlib. voqelikni bevosita va umumlashgan holda aks ettirish bilan xarakterlanadi. Fikrlash fanlararo tadqiqotlarni, kompleks fanlarni oʻzida mujassamlashtiradi. *Falsafa* materiya bilan bogʻliqlikda fikrlash yordamida dunyoni bilishning yoʻllari va imkoniyatlarini oʻrganadi. *Formal mantiq* fikrlashning asosiy shakllari (tushuncha, hukm, xulosa)ga eʼtibor qaratadi. Fikrlashga oid tadqiqotlarning *sotsiologik* jihati turli jamiyatlarning ijtimoiy tuzilishi bilan bogʻliqlikda fikrlashning tarixiy rivojlanish jarayonini tahlil qilish bilan tavsiflanadi. *Fiziologiya* esa, fikrlash hodisasini aniqlashtiruvchi aqliy mexanizmlarni oʻrganadi. *Kibernetika* esa, insonning fikrlashiga faoliyatda muhrlanadigan axborot jarayoni sifatida qaraydi. *Psixologiya* fikrlashni bilish faoliyati sifatida oʻrganadi hamda foydalanilayotgan vositalarning xarakteri va umumlashgan darajasiga, subyekt uchun yangiligi bilan bogʻliqlikda fikrlashning turlarini differentsiyalaydi. *Pedagogika* fikrlashni falsafiy, fiziologik, psixologik jarayon ekanligini eʼtirof etgan holda, uni shakllantirishning shakl, uslub va vositalarini oʻrganadi va amaliyotga tatbiq etadi²⁰.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlashini shakllan-tirishda narsa-buyumlar bilan tanishtirishgadoir harakatlar juda muhim. Amaliy harakatlar asosida bola obyektlarni qiyoslash, tahlil etish, taqqoslash, guruhlashga oʻrganadi. Ana shu tarzda bolada fikrlashning ilk – *koʻrgazmali-amaliy* shakli tarkib topadi. Asta-sekin bolada nafaqat bevosita narsa-buyumlarini idrok etish orqali, balki timsollar asosida fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Yaʼni *koʻrgazmali-obrazli* fikrlash shakllanadi. Maktabgacha yosh davrining ikkinchi yarmida *mantiqiy-nutqiy* fikrlash rivojlana boshlaydi. Fikrlashning mazkur shakli narsa-hodisalar oʻrtasidagi mavjud aloqalarni yoʻlga qoʻyishda namoyon boʻladi.

19. Karimova B.M., Sunnatova R.I. Mustaqil fikrlash. Oʻquv qoʻllanmasi boʻyicha mashgʻulotlarni tashkil etish uslubiyoti – T.: «Sharq», 2000. – 6-b.

20. Xodjayev V.X. Umumtaʼlim maktabi oʻquvchilarida mustaqil fikrlashni shakllantirishning didaktik asoslari: Ped. f. n. ... diss. – T., 2009. – 19-b.

Fikrlashning barcha shakllarida asosiy fikrlash jarayonlarini rivojlantirish amalga oshadi. Bolalarni fikrlashga o'rgatish kattalar tomonidan hal etilishi lozim bo'lgan vazifadir. Hatto yosh bolalarga bilimlarni asosiy yuk xotiraga tushadigan "tayyor holda" berish ham maqsadga nomuvofiqdir. Aksincha, bolalarni tahlil etish, taqqoslash, qiyoslash, umumlashtirishga o'rgatish hamda o'zining shaxsiy fikrini bildirishga undash lozim. Bolalarning oldiga ularning bilish faolligini rag'batlantiruvchi, tafakkur yuritish, taqqoslashni talab etuvchi vazifalarni qo'yish zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishida bilish jarayonlari – *xotira* va *xayol* katta ahamiyatga ega. *Xotira* inson hayotida muhim rol o'ynaydi. Bola tug'ilganida hech narsani bilmaydi va hech narsa qila olmaydi. U rivojlanishning birmuncha yuqoriroq darajasiga ko'tarilib, biron bir foydali ish qilish uchun ko'pgina bilim va malakalarni eslab qolishi hamda xotirasida saqlashi lozim.

Xotiraning rivojlanishi bolaning hayot sharoitlariga, uning ta'lim va tarbiyasiga bog'liq. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning xotirasi ko'pincha beixtiyor tarzda bo'ladi, bunda bola buyumlarni amaliy mashg'ulotlar yoki o'yin o'ynash jarayonida o'z-o'zidan esda saqlab qoladi. Maktabgacha ta'lim yoshida beixtiyor esda saqlab qolish bilan birga ixtiyoriy eslab qolish kurtaklari ham paydo bo'la boshlaydi. Bu o'zgarishlar, bolalar faoliyatining murakkablashuvi kattalar talabining ortishi natijasida ro'y beradi. Masalan, kattalar boladan biror topshiriqni hozir emas, balki bir qancha vaqtdan keyin bajarishni talab qiladilar (buning uchun topshiriqni ixtiyoriy ravishda eslab qolish kerak) yoki bir necha kun oldin (masalan, sayr vaqtida, dam olish kuni uyda) nima bo'lganligini aytib berishni taklif qiladilar, buning uchun esa o'sha narsalarni yodga tushirish lozim.

Ruhiy faoliyatning maxsus shakli – *xayol* maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Xayol ijodiy faoliyat uchun zarurdir, shuning uchun uni maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab rivojlantirib borish katta ahamiyatga ega. Xayol bolaning hayoti jarayonida, uning faoliyatida, ta'lim va tarbiya ta'sirida tarkib topadi.

Bolaning xayoli u syujetli o'yinlar o'ynay boshlaganida, ularga kattalar qiziqarli ertaklar aytib berganida, o'sha ertaklarga qiziqish orqali xayolning dastlabki alomatlari ko'rinadi. Ammo boladagi xayollar ko'proq aniq vaziyatga bog'liq bo'ladi (masalan, qo'g'irchoq ko'rinib qolsa, uni uxlatadi, mashina bo'lsa, biror narsani tashiydi, koptok turgan bo'lsa, uni ulotqirib o'ynaydi va boshqalar).

Maktabgacha ta'lim yoshining dastlabki bosqichlarida bolalarda tasavvur xayoli bo'ladi, hayotiy tajribaning ortib borishi va tafakkurning rivojlanishi bilan ijodiy xayol tarkib topadi. Kichik maktabgacha ta'lim yoshidagi bola uchun ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali obrazli tafakkur xosdir. Buning asosida so'z, mantiqiy tafakkur, tushunchali tafakkur rivojlantiriladi. Tarbiyachi bolalarda analitik-sintetik tafakkur faoliyatini tarkib toptiradi, bu esa hodisalarni, voqealarni chuqur anglab olish, ulardagi muhim va muhim bo'lmagan tomonlarni ajratishga o'rgatadi.

Katta maktabgacha ta'lim yoshiga kelganda bolaning tajribasi ortib, faoliyati murakkablashadi va buning natijasida bola xayolida sezilarli o'zgarish yuz berayotganini kuzatish mumkin. Bola ko'rganlari, eshitganlari, ishlagan rasmlari, buyumlari to'g'risida maroq bilan anchagina yaxshi hikoya qilib berishi mumkin. Bolalarning bunday hikoyalari faqat real borliqni aks ettirib qolmay, balki endi ularni ijodiy boyitib, hatto o'zgartirib ham hikoya qilib berishlari mumkin.

3. Nutqni o'stirish. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning nutqini rivojlantirish alohida rol o'ynaydi. Inson o'z fikrlarini ifodalash va boshqalarning fikrlarini tushunish uchun ona tilidan foydalanadi. Nutqni egallash bolaga bevosita va bilvosita (hikoya, badiiy asar, tarbiyachining tushuntirishi va boshqalar) yo'l bilan borliq haqida bilimlar hosil qilishga imkon beradi. Maktabgacha ta'lim muassasasida lug'at boyligini oshirish, so'zning grammatik tuzilishini shakllantirish, bog'lanishli nutqni rivojlantirish vazifalari hal etiladi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda nutq madaniyatini rivojlantirishga doir quyidagi vazifalarni muvafaqqiyatli hal etish lozim:

- 1) tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni shakllantirish (bolada avvalo, nutqni eshitish shakllanadi, keyinroq talaffuzni egallaydi);
- 2) aniq talaffuzni hosil qilish (so'z va so'z birikmalarini dona-dona va aniq talaffuz qilish);
- 3) so'zni talaffuz qilganda urg'uni to'g'ri qo'yish ustida ishlash;
- 4) nutqni orfoepik jihatdan to'g'riligi ustida ishlash;
- 5) nutq sur'atini rivojlantirish;
- 6) nutqning ifodaliligini shakllantirish;
- 7) nutqiy aloqa ko'nikmalarini shakllantirish;
- 8) nutqiy eshitish ko'nikmalarini shakllantirish;
- 9) nutqiy nafas olishni shakllantirish;
- 10) o'z fikrini erkin va izchil bayon etish ko'nikmasini shakllantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish xilma-xil faoliyat turlarida amalga oshadi:

- 1) tabiat obyektlari bilan tanishtirish mashg'ulotlarida;
- 2) badiiy asarlar bilan tanishtirish mashg'ulotlarida;
- 3) savodga o'rgatishda;
- 4) o'yin faoliyatida;
- 5) ijtimoiy foydali mehnat jarayonida turli ishlarni bajarish asosida.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning nutqini rivojlantirish quyidagi qonuniyatlarni hisobga olishni talab etadi:

- 1) ona tilida nutqni idrok etish qobiliyati bola nutq organlarining mashqiga bog'liq;
- 2) nutq ma'nosini tushunish bola tomonidan umumlashtirishning turli darajasining leksik va grammatik til belgilari o'zlashtirilishiga bog'liq;
- 3) nutq me'yorini o'zlashtirish bolada tilni his etishning rivojlanganligiga bog'liq.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqini rivojlantirishda tovush madaniyati alohida o'rin tutadi. Nutqning tovush madaniyati o'z mohiyatiga ko'ra nutq madaniyatining tarkibiy qismidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning tovush madaniyatini shakllantirish uchun quyidagi vazifalarni hal etish lozim:

- 1) bolalarning fonematik eshitishi, mazkur sur'at va ohangni idrok eta olish qobiliyatini asta-sekin rivojlantirib borish;
- 2) artikulyatsion apparatni rivojlantirish;
- 3) iboralar vositasida erkin gapira olish qobiliyatini shakllantirish;
- 4) muomala sharoitiga bog'liq ravishda ovoz balandligi yoki pastligini boshqara olishni tarbiyalash;
- 5) ona tilidagi barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish;
- 6) har bir tovush, shuningdek, so'z va iboralarni aniq va ravon talaffuz qilish;
- 7) so'zlarni adabiy til orfoepiyasi qoidalariga muvofiq talaffuz qilishga o'rgatib borish;
- 8) nutqning maromli sur'atini shakllantirish;
- 9) nutqning ohangdor va ifodali bo'lishiga erishish²¹.

4. Qiziquvchanlik va bilishga qiziqishni tarbiyalash. Maktabgacha ta'lim yoshida aqliy tarbiya bilishga doir motivlarni shakllantirishga yo'

21. Boboeva D.R. Tevarak-atrofni o'rganishda maktabgacha katta yoshdagi bolalarning bog'lanishli ntqini rivojlantirish: Pedagogika fanlari nomzodi, ... diss. – T., 2001. – 25-b.

naltirilgan bo‘lib, uning yana bir muhim vazifasi bolalarda qiziquvchanlikni, bilishga qiziqishni tarbiyalashdir. Atrof-muhitni bilishga intilish bola tabiatiga xos xususiyatdir. Bolalar tomonidan eng ko‘p beriladigan savol ham – “bu nima?” Mazkur refleks asosida bola narsa-buyumlarning xususiyatlari bilan tanishib boradi, o‘zi uchun ular orasidagi yangi aloqadorliklarni hosil qiladi. Bolalar nutqni egallaganlaridan so‘ng ularning bilish faoliyati yangi sifat bosqichiga ko‘tariladi. Nutq yordamida bolalarning bilimlari umumlashadi, narsa-buyumlarni nafaqat bevosita idrok etish asosida, balki tasavvurlar negizida ularda analitik-sintetik faoliyatga qobiliyatlilik shakllanadi.

Qiziquvchanlik va bilishga qiziqish atrof-muhitni bilishga doir munosabatning xilma-xil shakllarini o‘zida aks ettiradi. *Qiziquvchanlik* bilish faolligining muhim shakli sifatida bolaning tevarak-atrofdagi narsahodisalarini bilishga differensiallashmagan (ahamiyatli yoki ahamiyatsiz ekanligi muhim emas – *ta'kid bizniki*) yo‘nalganligidir. Qiziquvchan bola bilishni xohlaydi, uning qanchalik zarurligi ahamiyatli emas.

Bilishga qiziqish bolaning yangini bilish, narsa-buyumlarning, borliq hodisalarining sifat va xususiyatlarini aniqlash, ular orasidagi mavjud aloqadorlik va munosabatlarni izlab topishga intilishida namoyon bo‘ladi. Ana shu tariqa bilishga qiziqish qiziquvchanlikdan obyektlarning keng qamrab olinganligi, bilishning chuqurligi va to‘liqligi, izlanuvchanlik bilan farqlanadi. Bilishga qiziqishning asosi – faol fikriy faoliyat. Bolaning bilishga qiziqishi ta’sirida unda diqqatni davomiy va barqaror ushlab tura olishga qobiliyatlilik shakllanadi, intellektual va amaliy vazifalarni hal etishda mustaqillik namoyon bo‘ladi.

Bolaning bilishga qiziqishi uning o‘yinlari, rasmlari, hikoyalari va boshqa ijodiy faoliyatida aks etadi. Ana shu sababli kattalar bolaning ijodiy faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minlashlari lozim. Masalan, bola transport vositalariga qiziqadi. Uning ana shunday qiziqishiga mos o‘yinchoqlarni olib berish, u bilan birgalikda biror modellarni yasash, o‘yinchoqni bo‘laklarga taqsimlash va yig‘ishda yordam berish kerak. Qiziqishni oshirish uchun bolaning transport vositalari haqidagi hikoyalari eshitish, uni rasm chizishga jalb etish talab etiladi. Bolaning muvaffaqiyati garovi sifatida *bilishga qiziqishni rag‘batlash* turadi.

Shuningdek, bolalarning bilishga qiziqishlarini oshirishda *bilish motivlari* ham alohida o‘rin tutadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish motivlari *savollar* ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Bolalarning

savollarini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: *bilishga doir va kommunikativ*. Kommunikativ savollar bola tomonidan o'zining hayratiga kattalarni jalb etish, ular bilan aloqa o'rnatish maqsadida beriladi. Masalan, to'rt yoshli Alisher dadasidan so'raydi: "Siz kichkina bo'lganigizda qorong'i xonaga bir o'zingiz kirishga qo'rqqanmisiz?" Bolalar tomonidan berilgan bu kabi savollarga tushunarli tarzda javob berilishi ulardagi qo'rquv, hayratlanish hissini bartaraf etib, o'zini bosiq va dadil tutishiga yordam beradi.

Vaqt o'tib borishi bilan bolalarning bilish motivlari bilan bog'liq savollari ham o'zgarib boradi. Ikki-uch yoshli bolalarni ko'proq narsa-buyumlarning nomlanishi, ularning xususiyatlari qiziqtiradi. Ularning savollari ko'pincha nima? kim? qanday? qayerda? so'rog'lari tarzida beriladi. Masalan, uch yoshli Elyor so'raydi: "Bu nima? Bu durbinmi? Bu kimga, mengami?"

Katta maktabgacha yosh (4–4,5 yosh)dagi bolalar uchun tevarak-atrofdan olgan taassurotlarini faol fikriy qayta ishlash xos. Ularning savollari narsa-hodisalar orasidagi aloqa va munosabatlarni bilish, tasavvurlarini tizimlashtirish, ulardagi o'xshashlik, umumiylik va farqlarni topishga yo'naltirilgan bo'ladi. Beriladigan savollar ham murakkablashib boradi va "nega?", "nima uchun?" tarzida ifoda etiladi. Shunday tarzda to'rt yarim yashar bola so'raydi: "Nimaga quyosh qizdiradi-yu, oy esa isitmaydi? "Nima uchun odamlar uyda yashaydi, hayvonlar ko'chada ham yuraveradi-ku?" Besh-olti yoshli bolalar uchun biron narsa-hodisa haqidagi zanjirsimon savollar xos: "Bulutlar nimadan hosil bo'ladi? Nega ular osmonda suzib yuradi? Bulutlar qanaqa qilib yomg'ir bo'lib yerga yog'adi? Nima uchun bulutlar oq, qora ranglarda bo'ladi? Siz bulutni ushlab ko'rganmisiz? Bulutni idishga solib qo'ysa bo'ladimi?"

Bola tomonidan beriladigan savollarning katta hajmi to'rt-besh yoshga to'g'ri keladi. Katta maktabgacha yoshda bolaning savollari nisbatan kamayib boradi. Buning sababi bolaning savollarga o'z kuchi bilan javob topishga intilishi bilan birga, aksariyat hollarda ota-onalarning bola bergan savollarga javob bermasdan, uning savollaridan norozi bo'lishidir. Natijada bolada savol bersam, dakki eshitaman degan tasavvur hosil bo'ladi. Bu esa, bolaning qiziquvchanligini va bilishga qiziqishining pasayishiga olib keladi.

Bolalarning savollariga javob berishda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

1. Yodda tutish lozimki, bola savolni o'zi ishongan kishiga beradi. Bunday xulosaga u kattalarning o'zi tomonidan berilgan savollarga munosabatlari asosida keladi. Shuning uchun bola savollarini kim diqqat bilan tinglab, jiddiy va qiziqarli javob bersa, o'sha kishiga beradi. Ana shu sababli bola tomonidan berilgan savollarga hurmat bilan, ehtiyotkorona munosabatda bo'lib javob berish kerak.

2. Bola tomonidan berilgan savolning nima maqsadda berilayotgani, bolani nima ajablantirayotganligiga e'tibor berish zarur. Ko'pincha bola tomonidan berilayotgan bilishga oid savollar ham kattalar bilan muloqotga kirishish, o'zining emotsional holatiga jalb etish uchun xizmat qiladi.

3. Bola tomonidan beriladigan savollarga qisqa va aniq javob berish lozim. Mazkur jarayonda bolaning aqliy rivojlanish darajasini hisobga olish, uning hayotiy tajribasiga e'tibor qaratish talab etiladi.

4. Bolaning savoliga oxirigacha to'liq javob berishga shoshilmaslik kerak. Aksincha, bu bolada yangi savollarning paydo bo'lishiga olib keladi.

5. Bolalarning savollariga javob berishda uning o'zining munosabatini ham bilish maqsadga muvofiq. Shu maqsadda "Sen o'zing nima deb o'ylaysan? Sening fikringcha, qanday bo'lishi mumkin?" kabi savollardan foydalanish zarur. Bolani birgalikda o'ylashga undash, uni suhbatga jalb etish foydali.

6. Bolaning savollariga javob berishda bolalar uchun yaratilayotgan adabiyotlardan foydalanish samarali. Bu orqali bolani olam manzarasi haqida bilimlar beradigan manbalar bilan tanishish, o'qishga jalb etiladi.

Aqliy tarbiya vositalari

Shartli ravishda aqliy tarbiya vositalari ikki guruhga bo'linadi: bolalarning faoliyati hamda moddiy va ma'naviy madaniyat manbalari.

Bola rivojining ilk bosqichida shaxsiy tajriba tevarak-atrofnii bilishning muhim yo'lidir. Biroq buning o'zi bolaning aqliy kamoloti uchun yetarli emas. Bu esa o'z navbatida uni faoliyatning xilma-xil turlariga jalb etishni talab etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning faoliyati o'zining turi, mazmuni, shuningdek, aqliy rivojlanishga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ko'ra ham farq qiladi. Shubhasiz, bolaning ko'z o'ngidagi xilma-xil faoliyat turlari turli bilishga doir vazifalarni, u yoki bu faoliyat orqali hal etiladigan yechimlarni paydo qiladi.

Maktabgacha yosh davrida tashkil etiluvchi muhim faoliyat turlaridan biri – kun tartibiga amal qilish bilan bog'liq kundalik-maishiy faoliyatdir.

Mazkur faoliyat mazmuni aynan sensor rivojlanishga samarali ta'sir ko'rsatishi bilan alohida ahamiyatga ega. Yuvinish jarayonida bolalar issiq va sovuq suvni farqlashga o'rganishadi, suvning boshqa xususiyatlarini bilib olishadi. sovunning hidini, sochiqning quruq va namligini his etadilar. Ertalabki nonushta, tushlik va kechki ovqatlanish vaqtida bolalar taom, mahsulotlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning ta'mi, hidi, rangi kabilar bilan tanishishadi. Kun tartibini bajarish jarayonida bolalar fazoviy harakatlar (o'ng, chap qo'l, oyoq, yon tomon, orqa tomon)ni bajarishadi. Bolalarning kun tartibi vaqtining belgilanganligi ularga sutka qismlari (kun, tun), hafta kunlari, bugun, ertaga, hozir, keyin kabi tushunchalarni o'zlashtirishga yordam beradi. Bolalar vaqtni qadrlash, kechikmaslik, kuttirib qo'ymaslik kerakligini o'rganishadi.

Bolalar idish, mebel, kiyimlarning nomlarini bilib oladilar, ular tayyorlanadigan materiallar bilan tanishadilar, ulardan foydalanish qoidalarini o'zlashtiradilar. Malakali tarbiyachilar turmushga oid narsa-buyumlar bilan tanishtirish jarayonida qiyoslash, guruhlash mashqlari yordamida bolalarda analitik-sintetik faoliyatni rivojlantirishga harakat qiladilar.

Yuvinish, kiyinish, yechinish, ovqatlanish, stolni tuzatish uchun zarur ketma-ket harakatlarni o'zlashtirish va amalga oshira olish diqqat, xotira, fikrlash, xulq-atvorni boshqara olishga e'tibor qaratishni talab etadi. Tarbiyachi bolalarning diqqatini tartiblilik, tevarak-atrofdagi kishilar faoliyatiga jalb etadi. Bularning hammasi bolaning fikrlash doirasini kengaytiradi va aqliy rivojlanishi uchun imkoniyat yaratadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy tarbiyasi *o'yin* faoliyati orqali amalga oshadi. Kattalar tomonidan tashkil etilgan maxsus o'yinlar (harakatli, didaktik) bolalar o'zlash-tirishi lozim bo'lgan turfa xil bilim, fikrlash jarayonlari, aqliy harakatlar bilan yakunlanadi.

Ijodiy o'yinlar o'z tabiatiga ko'ra tasviriy (gavdalantira olish) tavsifga ega bo'lib, unda bolalarning tevarak-atrof haqidagi tasavvurlari, avval egallagan bilimlari aks etadi. O'yinlar jarayonida mavjud bilimlar yangi bosqichga ko'tariladi: nutq orqali ifodalanadi, shuningdek, umumlashadi, qayta o'zlashtiriladi, takomillashadi. O'yin jarayonida muloqot qilish orqali bolalarning bilimlari oshadi, o'zaro bir-birlari bilan fikr almashishadi, kattalarning maslahatlariga, qo'shimcha ma'lumotlar olish uchun boshqa manbalarga e'tibor qaratishadi.

Bolalarning aqliy rivojlanishida shuningdek, *kompyuter o'yinlari, multimediali dasturlar* ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kun-

da axborot texnologiyalari ta'lim sohasida ota-onalar, pedagoglar va boshqa mutaxassislarining imkoniyatlarini, xususan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim berish yo'llarini sezilarli darajada kengaytir-moqda. Zamonaviy kompyuterlardan umumli va samarali foydalanish yosh bolalarning iqtidorlarini to'la ochilishiga va qobiliyatlarini takomillashtirishga yordam berishi, shubhasizdir. Rivojlangan davlatlarda bolalarga mo'ljallangan kompyuter dasturlarining ko'plab turlari ishlab chiqilgan. Respublikamizda ham 2008-yildan boshlab "Bilimdon" turkumidagi kompyuter mashg'ulot-o'yinlari ishlab chiqila boshlandi. Ana shu turkum doirasida ishlab chiqilgan "Rang va shakllarni o'rganamiz" dasturi 3-5 yoshli bolalarning aqliy rivojlanishi uchun katta imkoniyatlarga ega.

Dasturdan foydalanish orqali bolalar quyidagi bilimlarga ega bo'lishadi:

1) oltita asosiy ranglarni (qizil, sariq, yashil, ko'k, oq, jigarrang) osontik bilan o'rganib oladilar;

2) ranglarni predmetlar bilan bog'liqlikda "ko'rish" hissini rivojlantiradilar;

3) har bir rang haqida qiziqarli she'rlarni bilib oladilar;

4) to'rtta asosiy shaklni (doira, uchburchak, to'rtburchak, teng tomonli to'rtburchak) bir-biridan ajrata oladilar:

5) turli predmetlarda shakllarni belgilay olish qobiliyatini rivojlantiradilar:

6) predmetlarni turli xususiyatlari orqali guruhlay oladilar;

7) berilgan predmetlar ichidan mantiqiy ortiqchasini aniqlay oladilar;

8) dastur orqali bolalarning flora (o'simlik) va fauna (hayvonot) dunyosi bilan yaqindan tanishishlari ta'minlanadi;

9) mayda bo'laklardagi o'zaro uzviy bog'liqliklarni aniqlash malakasi rivojlanadi²².

Dasturning rang va shakllarini o'rgatuvchi sahifalarida bolalarning o'rganishlari oson bo'lishi uchun avval ikkita rang (yoki shakl) birma-bir ko'rsatilib nomi aytiladi va joyi o'zgartirilib, ular birin-ketin so'raladi. So'ralgan rang (shakl) bola tarafidan to'g'ri ko'rsatilsa, u olqishlanadi va keyingi rang so'raladi. Uslubiy jihatdan bolalarning to'g'ri javoblarini olqishlanishi ularda o'rganishga rag'batni oshiradi. Bordi-yu, bola so'ralgan rangni noto'g'ri belgilasa, xatoga yo'l qo'ygani bildiriladi va qayta harakat qilib ko'rishi so'raladi.

22. Rang va shakllarni o'rganamiz. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun multimedia dasturi. – T.: "O'zbekim dasturlari". 2008. – 3-b.

Dasturda bolalar bilimining ichki – dasturiy nazorati programmalashtirilgan. Dasturdan foydalanayotgan bolaning yo‘l qo‘yayotgan xatolari tahlil qilib boriladi va bola adashayotgan yo‘nalishda xatolar soni ko‘payishi bilan uning bilimini mustahkamlaydigan o‘yin boshlanadi.

Dasturda bir qator rasmlarni kichik bo‘laklardan to‘plab, yaxlit holga keltirish o‘yini ham o‘rin olgan. Bola vazifani to‘g‘ri bajarsa rasm syujetiga mos ovoz eshittiriladi. Jami yigirmata rasmni kichik parchalardan to‘plash shart qilib beriladi. Rasmlarning avvalgilari faqat to‘rt bo‘lakka bo‘lingan bo‘lsa, keyinroq olti bo‘lakka bo‘lingan rasmlarni yaxlit holga keltirish so‘raladi. Dastur ilk o‘rnatilganda olti rasm bu o‘yin uchun faol turadi. Bolalar ranglar va shakllarni o‘rganish bo‘yicha qolgan mashqlarni bajarish asnosida qolgan rasmlar ham faollashib boradi.

Faoliyatning samarali turlari (mehnat, konstruktiv, tasviriy) fikrlashni rivojlantirishning keyingi rejalashtirilgan vazifalarini amalga oshirish uchun o‘ziga xos imkoniyatlarni yaratadi. Bola o‘zining amalga oshirgan harakatlari natijalarini ko‘ra oladi. bajarilayotgan ishning bosqichlari, uni amalga oshirish usullarini aniqlaydi.

Mehnat faoliyatiga asoslangan aqliy tarbiya bolalarning sensor tajribalarini boyitishga yo‘naltirilgan: materiallar, ularning belgilari, xususiyatlari, amalga oshirilgan faoliyat natijasida yuzaga keladigan o‘zgarishlar (qum suv sepilgach nam bo‘ladi; chopilgan yer yumshoq bo‘lib qoladi, sovun suvda ko‘piradi) bilan tanishadi. Bolalarda materiallar, mehnat qurollari va vositalari, mehnatga doir harakatlarni bajarish haqidagi bilimlar tizimi shakllanadi.

Ayniqsa, qo‘l mehnati tasavvur (shu jumladan, fazoviy), topqirlik, ijodkorlikni rivojlantirish uchun cheksiz imkoniyatlarga ega.

Tabiat qo‘ynida amalga oshiriladigan mehnat bilish faoliyatida alohida ahamiyat kasb etib, bolalarni o‘simliklar va hayvonot dunyosining o‘ziga xosliklari bilan tanishtiradi. sabab-aloqadorliklarni hosil qilishga, xulosalar chiqarishga, tafakkur yuritishga yordam beradi.

Yer uchastkasida, tabiat burchagida o‘sayotgan o‘simliklarni bolalar qiziqish bilan kuzatadilar, o‘simliklarning o‘sishi uchun ma‘lum sharoitlar (namlik, yorug‘lik, issiqlik) zarurligiga ishonch hosil qiladilar. Ana shu tarzda tabiat qo‘ynidagi mehnat bolalarning nutqiy-mantiqiy fikrlashining shakllanishiga imkon beradi.

Bola hayotining dastlabki davrlaridanoq moddiy va ma‘naviy madaniyat buyumlari aqliy tarbiyaning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘la-

di. Bunday moddiy va ma'naviy madaniyat buyunlariga xilma-xil o'yinlar, o'yinchoqlar, tasviriy san'at, arxitektura, amaliy san'at asarlari kiradi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida milliy madaniyat durdonalaridan aqliy tarbiya vositasi sifatida keng foydalanilmoqda. Milliy madaniyat durdonalariga milliy qo'shiqlar, raqs, xalq og'zaki ijodi, asbob-anjomlar, kiyimlar; milliy urf-odatlar, bayramlar, marosimlar kiradi. Milliy madaniyatning bilish faoliyatiga doir mazmuni nihoyatda boy bo'lib, tarbiyalanuvchilarda xalqning hayoti va turmush tarzi, uning milliy qiyofasi, hunarmandchiligi va boshqalar haqidagi dastlabki tarixiy tasavvurlar shakllanadi.

Aqliy tarbiyaning yana bir kompleks tavsifga ega vositalaridan biri muzeylar (tarixiy, san'at, o'lkashunoslik)dir. 2008-yil 11-avgustda respublikamizdagi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi qoshida "Bolalar muzeyi" ochilgan. Bolalar muzeyi tasviriy san'at, kulolchilik, hunarmandchilik, arxeologiyaga doir materiallar bilan jihozlangan. Aynan muzeyning o'zida bolalar tomonidan turli buyumlarni yasashga doir interfaol mashg'ulotlarni o'tkazish yo'lga qo'yilgan. Bularning hammasi bolalarning aqliy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, har bir maktabgacha ta'lim muassasalarida kichik muzeylar yaratish maqsadga muvofiqdir.

? NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Aqliy rivojlanish deganda nima tushuniladi?
2. Aqliy rivojlanishning tarkibiy qismlarini sanab bering.
3. Aqliy tarbiya tushunchasiga ta'rif bering.
4. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalashning zaruriyati nimalardan iborat?
5. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalashning asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
6. Sensor tarbiyaning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
7. Sensor etalonlarga nimalar kiradi?
8. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda fikrlashning qaysi turlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega?
9. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning aqliy tarbiyasida qaysi bilish jarayonlari muhim rol o'ynaydi?

10. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning nutqini rivojlantirish qaysi faoliyat turlari asosida amalga oshadi?

11. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda bilishga qiziqish va qiziquvchanlikni tarbiyalashda nimalarga e'tibor qaratish lozim?

12. Aqliy tarbiya vositalariga nimalar kiradi?

13. Bolalarning aqliy rivojlanishida kompyuter o'yinlari, multimedia dasturlarining ahamiyatini qanday baholaysiz?

14. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun mo'ljallangan qanday multimedia dasturlarini bilasiz?

15. O'zbekiston tarixi davlat muzeyi qoshida ochilgan "Bolalar muzeyi"ga ekskursiya uyushtiring va "Bolalar muzeyi mening nigohimda" mavzusida o'quv loyihasini tayyorlang.

?

MAVZU YUZASIDAN TESTLAR

1. Aql kuchi va fikrlashning birgalikdagi taraqqiyoti ... ning asosidir.

- A) aqliy tarbiya
- B) aqliy rivojlanish
- C) aqliy kamolot
- D) aql teranligi

2. Qaysi olim aqliy rivojlanishga intellektual faoliyatdan kelib chiqadigan miqdoriy va sifat o'zgarishlarining murakkab dinamik tizimi deb ta'rif bergan?

- A) A.N. Leontev
- B) V.A. Krutetskiy
- C) Z.I. Kalmikov
- D) P. Yusupova

3. Aqliy rivojlanish o'z ichiga qamrab olgan tushunchalar tizimi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

A) Fikrning moslashuvchanligi, fikrning tejamkorligi, intellektning taraqqiyoti

B) Aqlning sustligi, barqarorligi va teranligi, fikrning tejamokrliqi, moslashuvchanligi va anglanganligi

C) Aqlning barqarorligi, taraqqiyoti va teranligi. fikriy faoliyatning anglanganligi

D) To'g'ri javob berilmagan

4. Maktabgacha yoshdagi bolaning aqliy rivojlanishidagi o'ziga xoslik qanday jarayonda namoyon bo'ladi?

A) Obrazli bilish shakllarini egallashda

B) Iqtidor va qobiliyatni rivojlantirishda

C) Bilish faolligini oshirishda

D) Idrok etish jarayonida

5. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalashning asosiy vazifasi nimadan iborat?

A) Idrok etish qobiliyatini rivojlantirish

B) Fikrlash qobiliyatini rivojlantirish

C) Idrok etish va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish

D) Bilish faolligini oshirish

6. Aqliy tarbiya mazmuni qanday hujjatda belgilab beriladi?

A) "Bolajon" tayanch dasturida

B) Maktabgacha ta'lim muassasasida o'tiladigan mashg'ulotlar matnida

C) Tarbiya jarayonida

D) Ta'lim jarayonida

7. Sezgi va idrok qanday jarayonda muvaffaqiyatli rivojlanadi?

A) Mashg'ulot jarayonida

B) Samarali faoliyat jarayonida

C) Bir maqsadga qaratilgan mazmunli faoliyat jarayonida

D) Loy va plastilindan narsalar yasash jarayonida qurish-yasash o'yinlarini o'ynash vaqtida

Axloq-ijtimoiy ong, ta'sir etish va tarbiya sakli sifatida. Axloqiy tarbiyaning mohiyati

Axloq (arabcha – xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonun-qoidalar majmuidir.

Axloq – ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloq, axloqiy me'yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismonan yetukligining mezoni bo'lgan ma'naviy kamolotga erishib bo'lmaydi. Axloq – shaxs yoki guruh faoliyatini baholash orqali jamiyatdagi munosabatlarni boshqarish mexanizmi. Axloq shunchaki munosabatlarni tartibga keltirish uchungina emas, balki ularni uyg'unlashtirish uchun ham zarur. Munosabatlarni boshqarish ikki xil usul bilan amalga oshiriladi: xulq-atvorni rag'batlantirish va jazolash. Axloq jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soladi va ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlari ifodalanadigan maqsadlarni ilgari suradi.

Axloq tushunchalari umumiy xarakterga ega, ular alohida munosabatlarni emas, hamma sohadagi munosabatlarni qamrab oladi. Bunday tushunchalar *axloqiy kategoriya* deb ataladi.

Ezgulik, tartiblilik, haqqoniylik, rostgo'ylik, adolatlilik, mehnatsevarlik, jamoaviylik kabi sifat va xususiyatlarni o'zida birlashtirgan shaxs tavsifi *axloqiy tamoyillar* deb ataladi.

Hayotda qoida sifatida qabul qilingan talablardan kishilar o'zlariga odamlar orasidan namuna tanlaydi. Bu *axloqiy ideal* deb ataladi.

Axloqning asosiy qirralari (tamoyillari) – birdamlik (shaxsiy manfaatlarning umumiylikning yuqori ko'rinishi sifatidagi ijtimoiylikka bo'y-sundirilishi) va insonparvarlik (shaxsga o'z-o'zicha qadriyat va yakuniy maqsad sifatida munosabatda bo'lish). Axloqiy ongning o'ziga xos tushunchalari sifatida yaxshilik va yomonlik, burch, vijdon, sha'n, qadr-qimmat kabilarni keltirib o'tish mumkin. Yuqorida aytilganlarni e'tiborga olib, axloqning, jamiyat a'zolarining faoliyatiga yo'nalganligi va uni boshqarilishi ma'nosida, faoliyatli tavsifini ko'rsatib o'tish to'g'ri bo'ladi.

Axloqiy me'yorlar har bir inson va jamiyat uyg'unlikda mavjud bo'la olishiga intilgan kishilik jamiyatining ko'p asrlik tajribasi natijasidir.

Insoniyat hamisha eng muhim maqsadlardan biri sifatida kishilarning hamkorlikdagi yashashida uyg'unlikka intilib kelgan. Axloq me'yorlari

insonning yaxshilik va yomonlikni chegaralash. ezgulik nima ekanini aniqlashga intilishlari natijasida yuzaga kelgan.

Axloq-me'yor va *qadriyat*lardan iborat. Axloqning uchinchi elementi *ideallarni* esa, shaxs o'zida tarkib toptirishni xohlagan me'yor va sifatlar tarzida ajratib ko'rsatish mumkin.

Me'yor – bir turdagi xulq-atvor, takrorlanadigan vaziyat, talab, standart, taqlid uchun misol, ijtimoiy fikr, did, qoida, urf-odat shaklidagi namuna. Me'yorlar ajdodlarning katta ijobiy ahamiyatga ega tajribasini o'zida mujassamlaydi, zero ularda u yoki bu xulq-atvorning ko'plab avlodlar tajribasida sinalgan maqsadga muvofiqligi aks etadi.

Qadriyatlar – ijtimoiy munosabatlar va jamiyat a'zolarining ijtimoiy ahamiyatli fazilatlarini. Qadriyatlar xilma-xil tasnifga ega bo'lib, eng umumiy tarzda mutlaq va nisbiy qadriyatlar farqlanadi. Absolyut qadriyatlar, ya'ni umumahamiatli (obyektiv) tavsifga ega bo'lib, ular o'zida shubhasiz asoslangan, istalgan nuqtayi nazardan, turlicha munosabatlar va barcha subyekt uchun ijobiy xususiyatga ega. Ulardan tashqari, nisbiy ijobiy qadriyatlar ham mavjud bo'lib, ular faqat qandaydir munosabat bilan yoki ma'lum bir subyektlar uchungina ijobiy tavsifga ega bo'ladi.

Axloqiy tarbiya – yagona ijtimoiy tarbiya jarayonining tarkibiy qismi. Jamiyat tomonidan insonlar xulqining boshqarilishiga zarurat ikki o'zaro bog'liq vazifani shart qilib qo'yadi: birinchidan, jamiyat ongida me'yorlar, tamoyillar, ideallar, adolat, ezgulik va yovuzlik kabi tushunchalar ko'rinishida aks etadigan va asoslanadigan axloqiy talablarni ishlab chiqish; ikkinchidan, inson o'z xatti-harakatlarini yo'naltirishi va nazorat qila olishi, shuningdek, ijtimoiy xulqni boshqarishda ishtirok eta olishi, ya'ni boshqa kishilarga talab qo'ya bilishi va ularning xatti-harakatlarini baholay olishi uchun bu talablarni hamda ular bilan bog'liq tasavvurlarni har bir inson ongiga singdirish. Aynan shu ikkinchi vazifa insonda shaxsning tegishli e'tiqod, ma'naviy moyilliklar, his-tuyg'ular, odatlar, barqaror axloqiy sifatlarni shakllantirishdan iborat bo'lgan axloqiy tarbiya orqali hal qilinadi. U yoki bu jamiyatda axloqiy tarbiya jarayonining mazmuni uning maqsadlari bilan belgilanadi. Bu maqsadlar ijtimoiy munosabatlar tavsifi bilan belgilanadi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni axloqiy tarbiyalash mazmuni bolaning ma'naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatleri va xulqini tarbiyalash hamda rivojlantirishni taqozo etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashning *asosiy vazi-*

falariga quyidagilar kiradi: 1) bolalarda axloqiy his-tuyg'ular va xatti-harakatlarni tarbiyalash; 2) xulq madaniyati va ijobiy his-tuyg'ularni tarbiyalash; 3) axloqiy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida axloqiy tarbiyani tashkil etishda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish lozim:

1) kichik, o'rta, katta guruh bolalari uchun sodda elementlar axloqiy tushunchalar haqida ma'lumot berish;

2) har bir o'rgatiladigan u yoki bu fazilatlarni rasmlar, multik tasmalar, diopozitivlar va bolalarning jonli harakatlari orqali tushuntirish;

3) bola doimiy ravishda "nima yaxshi-yu, nima yomon?" so'zining ma'nosini anglab o'z fikrini sodda bayon etishi"²³.

Axloqiy tarbiyaning *asosiy tamoyillariga* quyidagilar kiradi:

1) axloqqa doir tarbiyaviy ishning ma'lum maqsadga qaratilganligi;

2) ta'lim-tarbiya ishiga bola shaxsini hurmat qilgan holda yondashish;

3) axloqiy tarbiya ishini hayot va amaliyot bilan bog'lab olib borish;

4) bolalarning faolligi;

5) jamoada tarbiyalash;

6) tarbiyaviy ishning tizimliliigi va izchilligi;

7) tarbiyaviy ishning ta'sirchanligi;

8) oila, maktabgacha ta'lim muassasasi, davlat va nodavlat tashkilotlar hamda kattalar tarbiyaviy ta'sirining birligi;

9) boladagi ijobiy sifatlarga suyanish;

10) bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishni ko'zda tutish.

Tarbiyaning zamonaviy tamoyillari – tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasida subyekt-subyekt munosabatlarining o'rnatilishi, dialog nuqtayi nazariga muvofiq tarzda shunday xulosaga kelindiki, axloqiy tarbiyaning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun psixik jarayonlarga (motivatsiya, anglash, interiorizatsiya va boshqalar) tashqi ta'sirlar ichki, individual-shaxsiyga organik va mustahkam aylanadigan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarur. Axloqiy tarbiyani amalga oshirishning *pedagogik shart-sharoitlariga* quyidagilarni kiritish mumkin:

1. O'zaro to'g'ri munosabat uslubi:

a) jamoaning katta a'zolari o'rtasida;

b) pedagogik va ota-onalar jamoasi o'rtasida;

23. Hasanboeva O. Bog'cha bolalarining axloqiy tarbiyasida ommaviy axborotlardan foydalanish pedagogik muammo sifatida. // "Pedagogik ta'limni takomillashtirish muammolari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. – T., 2006. – 13-b.

d) kattalar va bolalar o'rtasidagi munosabat, kattalarning bolalarga munosabati. Kattalar(pedagoglar)ning bolalarga nisbatan insonparvarlik tamoyilida, o'zaro hamkorlik, o'zaro yordam, hurmat munosabatida bo'lishi eng muhim shart-sharoit hisoblanadi.

2. Maktabgacha ta'lim muassasasida o'rnatilgan qat'iy kun tartibi.

3. Maktabgacha ta'lim muassasasida o'z tengdoshlariga va boshqa kishilarga nisbatan ijobiy hissiy munosabatni yuzaga keltiruvchi muhit yaratish.

4. Bolalarni axloq me'yorlari va qoidalariga o'rgatish hamda shular asosida bola shaxsida ijobiy axloqiy his-tuyg'ularni tarbiyalash.

5. Jamoada hamma bolalar uchun teng sharoit yaratish va bolalar jamoasi o'rtasida to'g'ri munosabat o'rnatish.

6. Kun davomida bolalarning xilma-xil qiziqarli faoliyatlarini tashkil etish.

7. Bolalarning ijobiy axloqiy xulqini mashq qildiradigan shart-sharoit tug'dirish.

8. Maktabgacha ta'lim muassasasi bilan oilaning hamkorligi va boshqalar²⁴.

Axloqiy tarbiyaga zamonaviy (shakllantiruvchi, madaniyatshunoslik, aksiologik, ijtimoiylashtiruvchi, germeneytik, sinergetik, antropologik) yondashuvlar tahlili axloqiy tarbiyaning quyidagi pedagogik sharoitlarini *samarali vositalar* sifatida ko'rsatish uchun asos bo'ladi:

- o'yin, muloqot, faoliyat jarayonida tabiiy ijtimoiy-axloqiy moslashuv;
- psixologik muhitni yaratish;
- dialog, hamkorlik;
- axloqiy qoidalar, hodisalarga qadriyatli munosabatni shakllantirish.
- tarbiyalanuvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil qilish;
- ijtimoiy ahamiyatli sifatlarni shakllantirish;
- axloqiy tarbiyaning harakatlantiruvchi kuchlari sifatida qarama-qarshiliklarni aniqlash va bartaraf qilish;
- emotsional kechinmalarni uyg'otish;
- tarbiyalanuvchilarning ichki potensialini ochib berish;
- axloqiy o'zgarishlarni doimiy tashhislash.

Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini axloqiy tarbiyalashda aniq *mezonlarga* asoslanish maqsadga muvofiq. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bola:

24. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi – T.: «O'qituvchi». 1993. – 106-b.

- O‘zbekiston Respublikasida yashayotganini *bilishi*;
- o‘zi haqida *qayg‘urishi*, o‘zining narsa-buyumlarini *asrab-avaylashi*, gullarni va uy hayvonlarini *parvarishlay olishi*;
- ota-onasi, aka-uka, opa-singil, bobo-buvi, o‘rtoqlari, tabiatni va butun tiriklikni *sevishi*;
- maktabgacha ta‘lim muassasasidagi qiz va o‘g‘il bolalar bilan *o‘rtoq bo‘lishi*;
- uyda, maktabgacha ta‘lim muassasasida va o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishga doir topshiriqlarni bajarishda *mehnatsevar bo‘lishi*;
- tartibsizlik, ifloslik, nohaqlik, yomonlik, qizg‘anchilikka *qarshi turishi*;
- uyda va maktabgacha ta‘lim muassasasida foydalaniladigan narsalar, non, elektr toki, suv kabilarni *asrab-avaylashi*;
- kattalar, ota-onasi, o‘rtoqlariga *yordam berishi*;
- rasm chizish, qo‘shiq va she‘r aytish, raqs tushish, yangi o‘yinchoq va o‘yinlarni *yarata olishi* lozim.

Axloqiy fazilatlarni shakllantirish texnologiyasi

Tarbiyaga texnologik yondashuv – tarbiya natijalariga asoslanib, tarbiyaning maqsad va vazifalarini oydinlashtirish, tarbiya jarayonining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, tarbiyaning shakl, uslub va vositalarini aniq belgilab olishga qaratilgan tizimli jarayon.

Texnologik yondashuv imkoniyati tarbiya jarayonining o‘zida uning ko‘p omilliligi – ko‘plab omillar ta‘siriga uchrashi, natijalarning tezda namoyon bo‘lmasligi, tarbiyachi faoliyatining (bevosita yoki bilvosita) yo‘naltirilganligi, ko‘p bosqichlilik bilan bog‘liq ravishda mujassamdir. Ko‘p bosqichlilik tarbiyalanuvchining u yoki bu sifat haqida tasavvur darajasidan tushunchaga va keyinroq o‘zlashtirilganlariga muvofiq harakat qilish ko‘nikmasini shakllantirish hamda to‘g‘ri xulq-atvor odatlarini shakllantirishga o‘tish bilan tavsiflanadi. Shunga asosan V.S.Selivanov tarbiya jarayoni, uning bosqichlari ketma-ketligi murakkab o‘ziga xoslikka ega ekanligi haqidagi xulosaga keladi. Tarbiya, shaxs sifatlarini shakllantirish emotsional yo‘nalganlik, xulqning ma‘lum shakliga ijodiy munosabat uyg‘otishdan boshlanadi. Ikkinchi bosqich harakatni to‘g‘ri bajarish malakasini, ya‘ni to‘g‘ri xatti-harakat qilishni mashq qilish sanaladi. Keyinchalik harakatni unga ijobiy munosabat bilan ko‘p marta bajarish davomida oqilona xulq-atvorga odatlantiriladi. Tushunchani o‘zlashtirish


(shakllantirish) – tarbiya jarayonining keyingi bosqichi. O‘zlashtirilgan tushunchalar asosida ijtimoiy xulq tajribasi tashkil qilinadi.

Axloqiy fazilatlarni shakllantirish jarayonining pedagogik maqsadlari uning ijtimoiy maqsadlari, ijtimoiy mohiyati va ijtimoiy funksiyalaridan kelib chiqadi. Ular, birinchidan, bolalarning axloqiy ko‘rinishlar va tegishli faoliyat usullarini amaliy tatbiq etish ko‘nikma va malakalarini egallashini ta‘minlash; ikkinchidan, shu asosda o‘rganilayotgan sifatning yuqori darajasini shakllantirishdan iborat. Bu maqsadlarga quyidagi pedagogik shartlar bajarilganidagina erishish mumkin: bolalarni zarur sifatning yo‘naltirilgan rivojlanishiga olib keladigan axloqiy mazmun bilan boyitilgan real hayotiy vaziyatlarga kiritish; bolalarni rivojlantirishga qaratilgan o‘z-o‘zini axloqiy takomillashtirish vazifalarini ongli ravishda o‘z oldiga qo‘yishlari; pedagogik ta‘sir ilgari lab borish tavsifiga ega bo‘lishi, o‘zida yangi, biroq hozirgacha shaxsiy tajribada sinovdan o‘tganlarni aks ettirishi kerak. Ma‘naviy-axloqiy tarbiya ta‘rifi, uning psixologik asoslari va mezonlariga asoslanib, loyihalangan *axloqiy fazilatlarni shakllantirish texnologiyasi* sifatida quyidagi tizimli ketma-ketlikka asoslanish maqsadga muvofiq (9- rasn).

Axloqiy fazilatlarni shakllantirish texnologiyasi o‘zaro bir-biriga bog‘langan, bir-birini to‘ldirib boruvchi quyidagi qadamlar ketma-ketligidan iborat: 1) nazariy bilimlar, fazilatlar ta‘rifini shakllantirish; 2) fazilatning rivojlanishidagi kamchiliklarni aniqlash; 3) suhbatlar, topshiriqlarga emotsional munosabatni aniqlash; 4) fazilatning rivojlanganlik darajasini mezonlar bo‘yicha aniqlash; 5) pedagogik vaziyatlarni yaratish; 6) tarbiyalanuvchilarni faazilatni namoyon qilish bo‘yicha faoliyatga jalb qilish; 7) olingan ko‘nikmalarni mustahkamlash uchun mashqlar; 8) natijalarni baholash; 8) korreksiyalash.

Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda turli uslub va usullardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Axloqiy tarbiya usublari, bolalarning axloqiy tasavvur va bilimlarni egallab olishga, ularda madaniy xulq va ijobiy munosabatlarni, shaxsning axloqiy his-tuyg‘ulari va sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan faoliyat usulidir.



9- rasm. Axloqiy fazilatlarni shakllantirish texnologiyasi.


Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni axloqiy tarbiyalash uslublari

Axloqiy tarbiya uslublarini shartli ravishda quyidagicha tasnif etish mumkin:

1. Axloqiy ongni shakllantirish uslublari: hikoya, tushuntirish, estetik suhbat, izohlash, nasihat, o'g'it, ko'rsatma, namuna va boshqalar.
2. Axloqiy xulq-atvorni shakllantirish uslublari: mashq, o'rgatish, pedagogik talab, tarbiyalovchi vaziyat, topshiriq va hokazolar.
3. Axloqiy motivatsiyani hosil qilishga doir uslublar: rag'batlantirish, tanbeh berish kabilar.

1. Axloqiy ongni shakllantirish uslublari. Axloqiy mavzudagi hikoya-axloqiy mazmundagi voqea-hodisalarni yorqin emotsional bayon etilishi-dir. Hikoya bolalarning his-tuyg'ulariga ta'sir etib, ularga axloqiy me'yor va qoidalarni tushunish hamda o'zlashtirishga yordam beradi. Yaxshi bay-

on tavsifiga ega hikoya axloqiy tushunchalarning mohiyatini ochib berish-gagina xizmat qilib qolmay, balki tarbiyalanuvchilarda madaniy xulq-atvor qoidalariga ijobiy munosabatning yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Axloqiy mazmundagi hikoya bir nechta vazifani bajaradi: bilimlar manbai bo'lib xizmat qiladi, bolaning xulq-atvor tajribasini kattalarniki asosida boyitadi.



10-rasm. Axloqiy tarbiya uslublari

Ushbu uslubning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

– bolalarda ijobiy axloqiy hislarni uyg'ota olish, hikoya qahramonlariga hamdardlik bildirish – yutug'idan quvonib, muvafaqqiyatsizligiga birgalishib achinish;

– bolalarga tushunarsiz bo'lgan ayrim axloq qoidalarining mazmunini ochib berish;

– axloqiy mavzulardagi hikoyalardan mashg'ulotlarda, sayrlarda. bolalarning o'z hayoti bilan bog'liq bo'lgan fursatlarda ham foydalanish.

Axloqiy mazmundagi hikoya samaradorligini ta'minlash uchun quyidagi shartlarga rioya qilinishi zarur:

1. Hikoya maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaning ijtimoiy tajribasiga mos kelishi lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun hikoyaning qisqa, emotsional, tushunarli bo'lishi maqsadga muvofiq.

2. Hikoyaning rasmlar bilan, musiqa jo'rligida bayon qilinishi uning yaxshi idrok qilinishini ta'minlaydi.

3. Axloqiy mavzudagi hikoyaning yaxshi idrok qilinishi uchun unga mos muhitning yaratilganligi muhim ahamiyatga ega.

4. Hikoyadan ko'zlangan maqsadga erishish uchun uni mohirona bayon etib bera olish lozim. Ishonarsiz, bir xil ohangda hikoya qilish orqali buni amalga oshirib bo'lmaydi.

Tushuntirish uslubi esa, bolalarga yangi axloqiy tushuncha, me'yor va qoidalarni bayon qilib berilayotganda ishlatiladi. Tushuntirish katalarning jonli so'zi va namunasiga asoslaniladi. Masalan, ro'paradan kelayotgan tanish kishiga xushmuomalalik bilan salom berish uchun biroz to'xtab u kishining yuziga qarab, kulimsirab "Assalomu alaykum" deyish, keyin yo'lda davom etish kerak. Tushuntirish va ko'rsatish tabiiy bo'lmog'i lozim.

Axloqiy mavzudagi *suhbat*ni maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning barcha guruhlarida qo'llash mumkin. Axloqiy mavzulardagi suhbatlar orqali bolalar axloq me'yorlari va qoidalarini, ijobiy xulq shakllarini egallabgina qolmay, shu bilan bir qatorda ularda axloq qoidalari va me'yorlariga nisbatan talab yuzaga keladi. Suhbat jarayonida bolalarning axloqiy tajribalarini kengaytirib borish, xulqning axloqiy sabablarini aniqlab berish kerak. Suhbat vaqtida bolalar o'z fikrlarini erkin aytishlariga keng imkon berish lozim. Shunda ular har bir xatti-harakatlarini ongli ravishda, axloq me'yorlari va qoidalari asosida bajarishga urindilar.

Izohlash – tarbiyalanuvchilarga og'zaki-emotsional ta'sir ko'rsatish uslubi. Milliy tarbiyamizda mazkur uslub "ta'birlamoq" tarzida ham ishlatiladi. Ta'birlamoq – bolada, bolalar guruhida uchrab turuvchi xatti-harakatlarni sifatlamoqdir. Tushuntirish va hikoyadan farqli ravishda izohlashning muhim jihati biror yosh guruhi yoki alohida bolaga ta'sir etishga yo'nalganligidadir. Mazkur uslubni qo'llashda maktabgacha yosh guruhi va bolalar guruhining shaxsiy sifatlariga asoslaniladi. Maktabgacha yosh guruhida sodda izohlash ko'rinishidan foydalaniladi: "Mana bunday qilish kerak", "hamma shunday qiladi" va boshqalar. Izohlash uslubi yangi axloqiy sifatlar yoki xulq-atvor shakllarini shakllantirish hamda tarbiyalanuvchilarda ma'lum bir xatti-harakatlarga to'g'ri munosabatni tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda *nasihat* qilish muhim o'rin tutadi. Nasihat – sokin, xayrixoh vaziyatda bolani yaxshi yo'lga solish, ta'lim berish maqsadida aytilgan gap, maslahat, pand, o'git. Aynan nasihat tinglash va unga rioya etish mazkur yosh guruhi uchun xosdir. Nasihat orqali bola psixikasiga tizimli ta'sir ko'rsatilib, unda ma'lum bir faoliyat motivlari va ustanovkalar hosil qilinadi.

Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy ongini shakllantirishda ko'rsatma berishdan ham foydalaniladi. Ko'rsatmoq – bolaga bolalarga o'rnak yoki ibrat olishlari yoki ularda yangi tushuncha, bilim hosil qilish maqsadida biror narsaga diqqat-e'tiborlarini jalb qilishdir.

Ishontirish – bolalarni axloqiy tarbiyalashda katta yordam beradi ("Kasal bo'lmaslik uchun ovqatlanishdan oldin qo'lni yuvish kerak", "O'rtog'ini urish yomon"). Ishontirish o'z navbatida namuna ko'rsatishni talab etadi. *Namuna* bolaning birinchi signal tizimiga faol ta'sir ko'rsatib, harakatlanish uchun aniq timsolni hosil qiladi va o'z navbatida bolada axloqiy ong, his-tuyg'u, ishonchni tarkib toptirib, uning faolligini oshiradi.

II. Axloqiy xulq-atvorni shakllantirish ushblari. Mashq – axloqiy xulq va odatlarni tarbiyalashning eng ta'sirli uslubidir. Unga qoidalarni mashq qildirish – foydali odatlarni qaytarish kiradi. Eslatish, o'rgatilgan tajribani yangilash, nazorat – o'rgatilgan odatning to'g'ri va samarali ekanligini tekshirish, o'z-o'zini nazorat qilish, bolani faollashtiruvchi shaxsiy gigiena qoidalari, ovqatlanish madaniyati, ko'chada, maktabgacha ta'lim muassasasida xulq madaniyatini egallashni mashq qildirish bunga misol bo'la oladi. Mashq qildirish natijasida bolada malaka va odatlar tarkib topadi.

Mashq uslubining samaradorligi quyidagi shart-sharoitlarni hisobga olishni talab qiladi: 1) mashqlar tizimi; 2) ularning mazmuni; 3) mashqning tushunarli bo'lishi; 4) hajmi; 5) takrorlash tezligi; 6) nazorat va tuzatish; 7) tarbiyalanuvchilarning individual o'ziga xosliklari; 8) mashqni bajarish joyi va vaqti; 9) individual, guruhli va jamoaviy mashq shakllarini uyg'unlashtirish; 10) motivatsiya hosil qilish va rag'batlantirish. Mazkur omillar orasida mashqning hajmi va sur'ati hamda kutiladigan natija o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqadorlik mavjud: mashq qanchalik ko'p va tez-tez bajarilsa, uning yordamida shakllantiriladigan sifatlar shunchalik tez rivojlanadi.

Talab – tarbiyalash maqsadida boladan biror narsani qat'iyat bilan so'rab turish bo'lib, tarbiyalanuvchilarning ma'lum bir faoliyatini rag'batlaydi yoki bartaraf etishga xizmat qiladi.

Taqdim etish shakliga ko'ra *bevosita va bilvosita talab* farqlanadi. *Bevosita talab* uchun qat'iylik, aniqlik, mohiyatning tushunarli bo'lishi xos bo'lib, keskin ohang, yuz harakatlari uyg'unligi aks etadi.

Bilvosita talab (maslahat berish, yalinish, ta'kidlash, qaytarish) bevosita talabdan farqli ravishda bolada qayg'urish, qiziqish, intilish kabi psixologik omillarni chaqirishga xizmat qiladi.

Maslahat berish orqali bolada ma'lum xatti-harakatning foydali ekanligiga ishonch hosil qilinadi. Bola qachonki bildirilayotgan fikrni o'zi uchun muhim ekanligiga ishonch hosil qila olgandagina maslahatni qabul qiladi.

Yalinish – agarda boshqa talab qilish ko'rinishi kor qilmasligiga ko'zi yetsa, bola qalbida mehrni yangilash, uyg'otish maqsadida uni biror narsaga ko'ndirish uchun iltimos qilish, o'tinib so'rashdir.

Ta'kidlash – bolalar bilan o'tkazilgan har bir vaziyatda, ularga malol kelmaydigan axloqiy mazmuni uqtirib, tayinlashdir.

Qaytarish – bola jahli chiqib, qizishib biror kor-hol, yomonlik qilishga qaror qilsa yoki vajohati shuni ko'rsatsa, uni bunday nomaqbul, nojo'ya ishdan, xatti-harakatdan o'zini tutishga undash, tiyish.

O'rgatish – bolaga biror ish-harakat (masalan, turli joy va vaziyatlarda o'zini tutishni, gapirishni va boshqalar) bajarish usulini, yo'l-yo'rug'ini tushuntirish, bildirish va shu ishni mustaqil bajara oladigan qilish. Mazkur uslubni to'g'ri qo'llash qoidalariga quyidagilar kiradi:

– Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar tarbiya maqsadini aniq tasavvurga ega bo'lishlari lozim. Ayniqsa, bola o'rgatilayotgan ish-harakatning nima uchun xizmat qilishini tushunib yetmasa, tarbiyachining harakati zoye ketadi.

– Ish-harakatni bajarishga o'rgatishda buyruqqa emas, tushuntirishga asoslanish lozim. Masalan: “Qo'shnilar bilan salomlashib yursang, ular seni yaxshi ko'rishadi”. “Seni chiroyli kuladi deyishlari uchun tishlaringni yuvib yurishing kerak” va boshqalar.

– Bolalarga o'rgatiladigan ish-harakat uchun maqbul vaqt va miqdor hisobga olinishi lozim. Odatlantirish uchun ma'lum muddat zarur, shoshilish kerak emas. Dastlab bolani harakatlarni to'g'ri bajarishi haqida qayg'urish, keyin uni tez amalga oshirishiga intilish zarur.

– Bolaga harakatlar qanday bajarilishini, natijasi nima bilan tugashini ko'rsatib berish lozim. Masalan, toza va iflos poyabzal, silliq va g'ijimlangan kiyimni taqqoslab ko'rsatish orqali bolani bunday holatlarni bartaraf etishga o'rgatib borish mumkin.

– O'rgatish doimiy nazoratni talab etadi. Nazorat chin ko'ngildan, qiziqish bilan amalga oshirilishi, zarda-jahl tarzida bo'lmasligi hamda o'z-o'zini nazorat qilish bilan uyg'unlikda olib borilishi lozim.

– O'rgatish o'yin orqali amalga oshirilsa, yaxshi samara beradi. O'yinda bola belgilangan qoidalarni boshqalarning majburlashisiz ham o'z xohishiga ko'ra bajaradi.

Muammoli vaziyat o'zining ahamiyati jihatidan mashqqa yaqin turadi, ammo uning o'ziga xos tomoni bolada faollik, ijodkorlik, mustaqillik namoyon bo'lishi uchun sharoit yaratadi. Dastlab hikoya-vaziyat tavsiya etiladi, masalan, birorta hikoya ma'lum bir yerida to'xtatiladi.

Tarbiyachi bolalarga hikoyadagi qahramonlar xulqini baholashni tavsiya etadi. Bolalarning javoblari muhokama etiladi va hikoyadagi ijobiy, insoniy xulq haqida bir fikrga kelinadi. Keyinchalik bolalarga real muammoli vaziyat taklif etiladi: futbol o'yini ketyapti. Bir jamoaning sardori yaxshi o'yinchi, uning jamoasi har doim yutib chiqadi. Mana shunday voqea sodir bo'ldi: u jamoadagi bir o'yinchini koptokni noto'g'ri tepgani uchun qattiq uradi. Undan o'yinchi bilan qo'pol munosabatda bo'lgani uchun o'yinchidan kechirim so'rash talab etiladi. U kechirim so'rashdan bosh tortadi, demak, uni o'yindan chetlashtirish kerak. Katta guruh bolalariga avval tarbiyachining yordamida, keyinchalik esa mustaqil ravishda bu muammoni hal etish tavsiya etiladi.

III. Axloqiy motivatsiyani hosil qiluvchi uslublar. Bu guruh uslublaridan tarbiyachi bolalarda ijobiy axloqiy sifatlarni mustahkamlash, bola xulqidagi salbiy tomonlarni yo'qotish maqsadida foydalanadi. Bunda koyish, maqtash, taqdirlash, ta'qiqlash, tahsinlash, tergash, uyaltirish, shavqlantirish kabi uslublardan foydalaniladi. *Koyish* – jazo berishning yengil turi. Bolaga tanbehlovchi so'z aytish, tanbeh berish, urishib qo'yish. *Maqtash* – bolani uning o'ziga yoki boshqalar oldida yaxshi tomonlarini ko'rsatib gapirish, yaxshi qilib ko'rsatish. *Taqdirlash* – bolani qadrlash, munosib baholash, bolaga uning qadri bor ekanligini sezdirish. *Ta'qiqlash* – tarbiyaviy maqsadda bolaga biror narsani man etish. *Tahsinlash* – bolani “ofarin”, “balli” kabi so'zlar bilan qarshi olish, maqtab yuksak baholash. *Tergash* – vaqti-vaqti bilan bolaga etarli darajada qattiqqo'llikni namoyon qilib, tekshirib, nojo'ya xatti-harakatlari uchun koyib, “yo'li” dan qaytarib turish. *Uyaltirish* – noma'qul qilig'i uchun bolaga o'ta noqulaylik tug'dirish, xijolat qildirish. *Shavqlantirish* – bolaning xulqi, muvafaqqiyatlari, kelajagiga g'oyat mamnunlik hissi bilan qiziqish, ruhiy ko'tarinkilik bilan zavqlanish, zavqlantirish, qanoatlantirish.

Bolalar jamoasini shakllantirish

Jamoa (lotincha “kollektivus” yig'ilma. omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh) bir necha a'zo (kishi) lardan iborat bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh

demakdir.

Zamonaviy talqinda “jamo” tushunchasi ikki xil ma’noda ishlatiladi. Birinchidan, jamoa deganda bir necha kishilarning muayyan maqsad yo’lida birlashuvidan iborat tashkiliy guruhi tushuniladi (masalan, ishlab chiqarish jamoasi, o’quv yurti jamoasi, xo’jalik jamoasi va hokazo). Ikkinchidan, jamoa deganda yuqori darajada uyushtirilgan guruh tushuniladi. Chunonchi, bolalar jamoasi yuqori darajada uyushtirilgan birlashma hisoblanadi.


“Jamo” tushunchasi maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda o’ziga xos xususiyatga ega. Bu yoshda jamoaga har doim kattalar rahbarlik qiladi. Bunda u bolalarning harakatlarini ma’lum tomonga yo’naltiradi, boshqaradi, faoliyatda umumiy natijalarga erishishda har bir bolaning jamoadagi roli to’g’risidagi tasavvurlarini shakllantiradi. Bolalarning birgalikdagi faoliyati va umumiy kechinmalari bolalar jamoasining tashkil topishida asosiy shart-sharoit hisoblanadi.

Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash – tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega bo’lgan tamoyillardan biridir. Bola shaxsini shakllantirishda jamoaning yetakchi rol o’ynashi to’g’risidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davrlaridayoq bildirilgan. Jamoada uning a’zolari o’rtasidagi munosabatning alohida shakli yuzaga keladi, bu esa bolaning jamoa bilan birgalikda rivojlanishini ta’minlaydi.

Bola yoshligidan boshlab o’zida boshqalar bilan, bolalar jamoasi bilan muloqotda, birgalikda bo’lishga ehtiyoj sezadi. Ammo kichkina bola jamoani o’zi tanlay olmaydi. U bir jamoaga sharoit taqozosi bilan kelib qoladi. Yashab turgan joyidagi yoki ota-onasining ishxonasi yaqinidagi maktabgacha ta’lim muassasasiga qatnay boshlaydi. *Bolalar jamoasi* – bu birgalikdagi faoliyatni tashkil etuvchi, mustahkamlik, umumiy javobgarlik bilan ajralib turuvchi, barcha a’zolarining huquq va majburiyatlarda tengligi sharoitida majburiy aloqadorlikka ega bo’lgan bolalar guruhidir.

Bolalar jamoasini shakllantirish – uzoq vaqt talab etadigan murakkab jarayondir (11- rasm). Avvaliga birgalikdagi faoliyat ko’pincha o’yin bilan bog’liq bo’lgan faoliyatga birlashadi. Bu birlashish beqaror, qisqa vaqtli bo’lib, tez buziladi. Bunday *dastlabki birlashishning* tashkilotchisi tarbiyachidir. Chunki u bolalarga birgalikda o’ynashni taklif etadi. Bolalarning bittasi mashinaga yuk yuklasa, ikkinchisi tashiydi, uchinchisi yukni tushiradi; to’rt-besh qiz uy-anjomlari bilan “Xola-xola” o’yinini o’ynaydi, tarbiyachi esa ularga rollarni taqsimlashda yordam beradi. Bolalarning jamoaga birlashtirishning dastlabki bosqichida tarbiyachi bu

birlashishning markazida turadi: kichik yosh guruhi bolalariga hikoya, ertak aytib beradi, ashula o'rgatadi, qiziq o'yinchoqlarni ko'rsatadi.



11-rasm. Bolalar jamoasini shakllantirish bosqichlari

Ikkinchi bosqich – bolalar guruhining barqaror bo'lishini ta'minlashdir. Bu davrga kelib bolalar ancha mustaqil hamda tashkilotchilik qobiliyatini egallagan bo'ladilar. Birgalikdagi faoliyatning murakkab maqsadlari oldinga suriladi – o'yin-mehnatga o'rgatiladi. Bu bosqichda tarbiyachining vazifasi bolalarda tashkilotchilik qobiliyatini shakllantirishdir. Mashg'ulot o'tkazayotganda uning o'zi hammaga ko'rinib turishi, so'zi esa hamma uchun tushunarli bo'lishi lozim. U bolalarni o'z o'rtoqlarining ishini tahlil qilishga jalb qilish orqali ularni izlanuvchanlikka, rostgo'ylikka o'rgatadi. Tarbiyachi bolalarning o'z tengdoshlariga xayrixoh bo'lishlarini tarbiyalaydi.

Bolalar jamoasining *yuqori bosqichi* ularda mustaqillikning ortishi bilan belgilanadi: ular o'zlari birlashadilar, o'zaro munosabatlarni o'zlari boshqaradilar, ayrim jamoa a'zolari xulqini o'zlari hal etadilar. Bu bosqichda o'zini jamoa a'zosi sifatida anglab olish yuzaga keladi. Bolalar vaqt-vaqti bilan hamma uchun kerak bo'lgan topshiriq va vazifa

larni bajarishadi (navbatchilik, jonivor va o'simliklarni parvarish qilish, bayramga guruh xonasini bezatish). Bu bosqichda tarbiyachining tutgan yo'li o'zgaradi. u bevosita ta'sir ko'rsatishdan bilvosita ta'sir ko'rsatishga o'tadi: u maslahatchi, katta yoshdagi o'rtoq rolini bajaradi, yaxshi tashkilotchilarning tashabbusini qo'llab-quvvatlaydi, tortinchoq bolalarning jamoa bilan birgalikda harakatlanishlariga doir tushuntirish ishlarini olib boradi.

Jamoada tarbiyalash jarayonida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda axloqiy sifat-larni tarkib toptirish

Bolalarni jamoada tarbiyalash jarayonida qator axloqiy sifatlarni tarkib toptirish imkoniyati mavjud: insonparvarlik, intizomlilik vatanparvarlik va boshqalar. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda jamoatchilik munosabatlarining boshlang'ich belgilari axloqiy sifatlarning murakkab guruhidir. Bunga bolalarning do'stlashishi, birga o'ynash va mehnat qilish xohishi, qobiliyati, boshqalarning qizishi, xohish-istaklarini hisobga olishi, bir-biriga yordam bera olishi, topshiriqni vijdonan bajarishi, umumiy ish va umumiy buyumlar uchun g'amxo'rlik qilishi kabi axloqiy sifatlarni majmuasi kiradi. Bunday his-tuyg'u, tasavvur, tushunchalar bola shaxsining ijtimoiy yo'naltirilgan holda shakllanishiga yordam beradi, bolada insonparvarlikning dastlabki namunalari shakllanadi.

Insonparvarlik hissi axloq me'yorlari va qoidalarini o'rgatish asosida rivojlanadi. Buning uchun bolalarni yaxshi ishlarni qilishga o'rgatib borish kerak. Insonparvarlik hissini tarbiyalashda maktabgacha yosh guruhini hisobga olish zarur. Mazkur jarayonda bolalarga namuna ko'rsatish, syujetli o'yinlar, videoroliklardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Bolalarni o'zaro bir-birlariga mehribon bo'lishga o'rgatib borishda esa ularning bir-birlarini yoqtirishga asoslangan aloqalarini tashkil etish, o'zaro munosabatlarini yo'lga qo'yish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash zarur.

Bolalar ayrim ishlarning uddasidan chiqib, boshqa bolalarni kamsitsalar, tarbiyachi bolaga biror narsani bilmagan o'rtog'iga o'rgatish, kerakligi, o'zini-o'zi maqtash yarashmasligini tushuntiradi ("Sen Alisherga qanday va nima qilish kerakligini o'rgat, shunda Alisher ham robotni xuddi sendek yasay oladi").

Ilk yoshda bolalar bir-biri bilan o'ynaganda xalaqit bermaslik, o'yinchoqni tortib olmaslik, kerak bo'lsa so'rab olish, o'rtog'i o'ynab

bo'lguncha kutib turish kabi xususiyatlarni o'zlariga singdirib borishadi. Natijada bolalarda ijobiy munosabatning dastlabki shakllari namoyon bo'la boshlaydi, birga o'ynash istagi paydo bo'ladi. Tarbiyachi esa, o'z navbatida bunday ijobiy munosabatni, birgalikdagi faoliyatni rag'batlantirib borishi maqsadga muvofiq.

O'rta yosh guruhi bolalarida xushmuomalilik, o'rtog'iga achinish, xursandchiligidan quvonish, uni xursand qilish, narsasini bo'lishish kabi jihatlar tarkib toptirib boriladi. Bolalar o'yinchoqdan birgalikda foydalanishni kelishib oladilar, o'yinda kim qaysi rolni bajarishini tortishmay osongina hal etadilar, bir-birlariga umumiy ishda va boshqalarga yordam beradilar.

Katta va maktabgacha yosh guruhi bolalarining o'z tengdoshlariga munosabati ongli tusda bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar o'z tengdoshlariga mehribon, kasal bo'lganda g'amxo'rlik qiladigan bo'lib qoladilar, bu yoshdagi bolalarda jamoatchilikning dastlabki namunalari shakllanadi. Tortishuvlarni haqqoniy hal etadilar, o'rtog'ining nohaqligini unga tushuntira oladilar.

Maktabgacha yosh davridan boshlab bolalarni *intizomlilikka* o'rgatib borish zarur. Buning uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni hisobga olish lozim:

1. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda intizomlilikni tarbiyalashda tarbiyachi, ota-onalar va kattalar obro'yi, o'zaro munosabatlari eng muhim va birinchi darajali ahamiyatga ega.

2. Bolalarni intizomlilikka o'rgatishda aniq tuzilgan kun tartibi ham muhimdir. Bolalarni doimiy ravishda kun davomida bajariladigan ish-harakatlarga odatlantirib borish zarur.

3. Guruh xonasining tartib bilan jihozlangani, asbob-anjomlarning to'g'ri joylashtirilishi ham intizomlilikni tarkib toptirishda muhim ahamiyatga ega.

4. Bolalar guruhida ularning qiziqishi, rivojlanishi, yosh xususiyatiga mos bo'lgan o'yinchoqlarning yetarlicha bo'lishi – turli xil faoliyatni boshlash va rivojlantirish, birgalikda o'ynash, mehnat qilish, qiziqishlar bo'yicha mashg'ulot bilan band bo'lishga sharoit yaratadi va nomaqbul xatti-harakatlarning oldini oladi.

5. Bolalarda intizomlilikni tarbiyalashda bolaning ongliligiga asoslanish kerak. Buning uchun kattalar bola talab qilinayotgan narsani nima uchun bajarishi kerakligini unga yaxshilab tushuntirishlari kerak.

Bola muayyan qoidani egallab olgandan so'ng topshiriqni aniq va to'liq bajarishga harakat qiladi.

6. Tarbiyachi bolalar guruhida iltifotlilik muhitini yaratish uchun bolalarning faoliyatlari xilma-xil va mazmunli bo'lishiga e'tibor beradi. Bu bolalarda doimo biror ish bilan mashg'ul bo'lishga intilish uyg'otadi, ularning hayotini yo'lga qo'yadi, intizomlilikni tarkib toptirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda tarbiyalanishi lozim bo'lgan yana bir axloqiy fazilat – *vatanparvarlik*dir. Vatanparvarlik – tarixiy hodisa. U tarixan odamlarning hayot yo'lining paydo bo'lishi va shakllanishi hamda uning butun tarixi davomida unga yo'ldosh bo'lib kelgan, u bilan birga o'zagaradi va rivojlanadi.

Vatanparvarlik barcha tarixiy davrlar va barcha avlod uchun xos xususiyatdir. Jamiyatning rivojlanishi, mavjud shart-sharoitlarning o'zgarishi bilan vatanparvarlik tushunchasi mazmun-mohiyati ham o'ziga xos ahamiyat kasb etib boradi. Vatanparvarlik tushunchasining mohiyatini anglash uchun har bir davlatning tashkil topishi va mustahkamlanishi, uning milliy mustaqillik uchun kurashi bilan bog'liq tarixiy genezisidan xabardor bo'lish lozim. Ana shu sababli vatanparvarlik minglab yillar davomida odamlarda shakllangan yuksak hissiyotdir.

Vatanparvarlik va insonning vatanparvarlik hissiyoti qator o'zgarib boruvchi omillarga bog'liq. Ijtimoiy hodisa sifatida vatanparvarlikning paydo bo'lishi, uning hayotiyliigi uning o'z tabiatiga va kelib chiqishiga ko'ra obyektiv asosga ega ekanligi bilan izohlanadi. Inson har doim o'zining tug'ilib o'sgan joyi, o'zining tarixiy Vatanga ega bo'ladi. U har doim turli aloqadorliklar, shu jumladan, u yashayotgan, rivojlangan, kelajagini davom ettirish imkoniyatiga ega bo'lgan atrof-muhit bilan o'zaro bog'liqdir. Aynan mazkur va boshqa omillar vatanparvarlik tushunchasi bilan bevosita bog'liqdir. Vatanparvarlik ijtimoiy-axloqiy qadriyat sifatida insoniyatning birligi, uning taqdirining umumiyliigi, har bir xalqning milliy o'ziga xosliklarini saqlab qolishini aks ettiradi.

“Vatan” atamasi aslida arabcha so'z bo'lib, “ona yurt” ma'nosini bildiradi. Vatan tushunchasi keng va tor ma'noda qo'llaniladi. Bir xalq vakillari jamuljam yashab turgan, ularning ajdodlari azal-azaldan istiqomat qilgan hudud nazarda tutilsa, bu keng ma'nodagi tushunchadir. Kishi tug'ilib o'sgan uy, mahalla, qishloq nazarda tutilsa, bu tor ma'nodagi tushunchadir²⁵.

25. A.Ibrohimov, X.Sultonov, N.Jo'rayev Vatan tuyg'usi.–T., «O'zbekiston», 1996. – 139-b.

O'zbekistonning kelajakda buyuk davlatga aylanishi O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov aytib o'tganidek, to'rtta ma'naviy-axloqiy negizlar-ga asoslanadi. Bular:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;
- vatanparvarlik²⁶.

Mustaqil O'zbekistonni buyuk davlat darajasida taraqqiy etishi uchun jamiyat ma'naviyatini rivojlantirish zaryr. Zero, ma'naviy kamol topgan insonlarga buyuk kelajak sari intiladilar. Ma'naviy yetuklikning eng muhim belgisi esa vatanparvarlikdir.

Vatanparvarlik shaxsning o'zi mansub bo'lgan millat, tug'ilib o'sgan vatani tarixidan g'ururlanishi, buguni to'g'risida qayg'urishi hamda uning porloq istiqboliga bo'lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat sanaladi.

“Vatanparvarlik – o'z taqdirini vatan, millat taqdiri bilan bog'lagan barcha kishilarga xos fazilat. Millat taraqqiyotining imkoniyatlari, shon-shuhrati, obro'-e'tibori ham shu millat kishilari vatanparvarlik tuyg'usi-ning darajasi bilan bog'liqdir”²⁷.

Vatanparvarlik – tug'ma, irsiy xususiyat emas, balki ta'lim tarbiya natijasida shakllanadigan ma'naviy-axloqiy xislatdir. Bolalarni vatanpar-varlik ruhida tarbiyalash jarayoni insonda turli fazilatlarni shakllantirish, ya'ni aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy, huquqiy, fuqarolik, milliy o'zlikni anglash, sofdillik, insonparvarlik, millatparvarlik va boshqalarning umu-miy majmuida tarkib topadi. Zero, millatni, xalqni o'z ezgu niyatiga yetishida Prezident I.A. Karimov ta'kidlaganidek, fuqarolarda, xususan yoshlarda milliy mafkuraviy qarashni tarbiyalash, aynan bugungi istiqloq sharoiti talablari borasidagi ta'limiy-tarbiyaviy va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf etishda muhim vosita bo'lib xizmat qilishi mum-kin. Shuning uchun ham “milliy g'urur, milliy iftixor har qanday ishi-mizning poydevori bo'lmog'i kerak”²⁸.

26. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. – T., «O'zbekiston», 1992. – 65-b.

27. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. – T., «Universitet», 1998. – 148-b.

28. Atadjanova Sh. Oilada o'spirin-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari nomzodi ... diss. – T., 2001. – 23-b.

Bu muqaddas g'oyalar millati va e'tiqodidan qat'iy nazar, yosh avlodning, har bir fuqaroning ongiga singdirilishi kerak. Bugungi yoshlarda milliy g'urur, milliy tuyg'u kabi tushunchalarni tarbiyalash vatanparvarlik muammosi bilan bog'liqligini har bir O'zbekiston fuqarosi, farzandlari "yaxshi anglamog'i va unga o'z ongi, ixtiyori, xohishi va istagi bilan munosabatda bo'lmog'i darkor".

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov mustaqillikni mustahkamlashning asosiy negizlaridan biri "vatanparvarlik" deb ko'rsatar ekan, demak, bugun vatanparvarlik tarbiyasi davlat ahamiyatiga molik muammo sifatida qaralishini ta'kidlaydi.

Vatanparvarlikning ijtimoiy-pedagogik asoslari quyidagilardan iboratdir:

– vatanparvarlik tuyg'usi ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish jarayonida shaxsning vatan hamda uning mavjudligi darajasiga nisbatan yondashuvida aks etadi;

– vatanparvarlik tuyg'usiga ega bo'lish shaxsning umumiy kamoloti, ma'naviy dunyoqarashi, tafakkuri, shuningdek, hayotiy tajribasi negizida yuzaga keladi;

– vatanparvarlik individual xususiyat bo'lib, u tarixiy obyektiv sharoitda namoyon bo'luvchi psixologik-pedagogik hodisa hisoblanadi;

- vatanparvarlik ma'naviy ehtiyoj sifatida uzluksiz, tizimli hamda samarali tarzda tashkil etiluvchi pedagogik-ijtimoiy tarbiya natijasida qaror topadi;

– shaxsda vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash uning ijtimoiy jamiyat bilan yakdilligini ta'minlashga xizmat qilish bilan birga davlat va xalq manfaatlariga uyg'un keladi.

Psixologik munosabatlarning barcha o'ziga xosliklarini qamrab olgan holda, vatanparvarlik tuyg'usi o'zida kognitiv (bilishga oid), emotsional va xulq-atvor ko'nikmalarini aks ettiradi.

Kognitiv (bilishga oid) tarkibiy qism bolalarning o'z Vatani, tug'ilib o'sgan joyi tarixi va madaniyati; yurtdoshlarining qahramonliklari; olimlarning, madaniyat arboblarning yutuqlari; zamonaviy sharoitda erishilgan natijalar haqidagi bilimlaridan tashkil topadi. Shuning uchun biz vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishimiz uchun bolalarda ana shunday ongni qaror toptirishimiz zarur. Vatanparvar shaxs o'z Vatani haqida quyidagi xislatlarga ega bo'lishi kerak:

– o'z tug'ilib o'sgan joyini sevish;

– o'z Vatanining tarixini bilish, uning o'tmishi va buguni bilan faxr-

lanishi, uning eng yaxshi an'ana va muvafaqqiyatlarini saqlab qolish va ko'paytirishda faol ishtirok etish;

– tabiatni sevish va ardoqlash;

– o'z Vatanida yashayotgan xalqlar o'rtasidagi do'stlikni rivojlantirish va mustahkamlash;

– boshqa millat vakillarining hayot yo'li bilan qiziqish va ularning an'ana, urf-odatlarini hurmat qilish va o'zaro tajriba almashish.

Emotsional tarkibiy qism Vatan tushunchasiga xos barcha narsalarni idrok etish bilan bog'liq hissiyotlar tizimi bilan tavsiflanadi va aks etirilayotgan obyekt bilan bog'liqlikda quyidagi his-tuyg'ularni hosil qiladi:

– estetik his-tuyg'ular – Ona Vatan go'zalliklaridan bahramand bo'lish;

– lirik his-tuyg'ular – “qondoshlik, yaqinlik hissi” – vatanning bir parchasi ekanligini his etish;

– gnostik his-tuyg'ular – Vatani va o'zi tug'ilib o'sgan yurt tarixi, an'analari va marosimlari bilan tanishish natijasida yuzaga keladi;

– jamg'arilgan his-tuyg'ular – mamlakatimizdagi tabiat va inson resurslariga doir tasavvurlar bilan bog'liqlikda namoyon bo'ladi.

Xulq-atvorga doir tarkibiy qism bolalarda aniq munosabatni paydo qiladigan, chuqurlashtiradigan va mustahkamlaydigan vatanparvarlikka doir innovatsion xulq-atvor tajribalarini talab etadi. Shuning uchun bolalarda bizning, mening sifatidagi Vatan tuyg'usini shakllantirish bilan bir qatorda, ularda keyingi avlod uchun eng yaxshi narsalarni saqlab qolish va ko'paytirishga doir faoliyatda faol ishtirok etishni tarkib toptirish zarur.

Vatanga muhabbat hissi maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda kattalar tomonidan bolaning ruhiy taraqqiyotini hamda ular tafakkurining aniq va obrazlilikini e'tiborga olgan holda ma'lum izchillik bilan tarbiyalab boriladi. Shuning uchun mazkur yoshdagi bolalarda Vatanga muhabbat hissini ularga yaqin va tanish bo'lgan aniq faktlar, yorqin misollar orqali tarbiyalab boriladi. Tarbiyachilar bolalarda o'z oilasiga, uyiga, maktabgacha ta'lim muassasasiga va bolalarni o'rab turgan atrof-muhitga mehr-muhabbatni va ularga sodiq bo'lishni tarbiyalayotib, eng muhim ijtimoiy his hisoblangan vatanga muhabbatni tarbiyalab boradi.

Kichik yosh guruhi bolalari tevarak-atrofdagi voqea-hodisalarning faqat tashqi belgilarini anglay oladilar. Ular Mustaqillik, Navro'z. Hayit baramlarini hamma kishilar shodiyonalik bilan kutib olishlarini ko'radilar, bundan juda zavqlanadilar, ammo buning sabablari, natijalari bilan qiziqmaydilar. Biroq mazkur yosh guruhi bolalar tevarak-atrofdagi kishilar

mehnati, ularning bolalarga ko'rsatayotgan g'amxo'rliklari bilan kattalar tanishtirib borishlari, aniq misollar orqali tushuntirib borishlari lozim.

Kichik yosh guruhida vatanga muhabbat hissi o'z uyiga, maktabgacha ta'lim muassasasiga, tarbiyachiga muhabbatni tarbiyalashdan boshlanadi. Bolalar ota-onalar, tarbiyachilar ularga qanday g'amxo'rlik qilayotganini ko'ra oladilar va his etadilar, natijada bolalarda ularga bo'lgan muhabbat yanada ortadi, ularning g'amxo'rlik va himoyasiga ishonch hosil qiladilar.

O'rta yosh guruhi bolalari kattalar mehnatini, ularning jamiyat rivoji uchun qo'shayotgan hissalarini, kishilar tomonidan amalga oshirilayotgan obodonlashtirish ishlarini tushunadigan bo'lib qoladilar. Mazkur yosh guruhi bolalari endi kengroq doiradagi kishilar bilan munosabatda bo'la boshlaydilar. Ular ota-onalari va tarbiyachilardan o'z shahri, qishlog'i to'g'risida ko'p narsani bilib oladilar.

Katta guruh bolalariga uyda ota-onasi, bobo-buvilariga yordam berish topshiriladi. Butun guruh bolalari bilan ular oilada kattalarga qanday yordam berganliklari haqida suhbatlashiladi. Mazkur yosh guruhi tarbiyalanuvchilarida vatanga muhabbat hissini tarbiyalashda badiiy adabiyotlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Tayyorlov guruhi bilan esa, tarbiyachi jonajon shahar, qishloqdagi eng ko'rkam joylarni, maydonlarni, binolarni, bog'larni ko'rsatadi. Ko'cha, maydonlar va xiyobonlarning nomi shahar yoki qishloqning kelib chiqish tarixini, xalqning o'tmishini anglatishini tushuntirib boradi. Bu nomlar ijtimoiy hayot, buyuk olimlar, xalq e'zozlagan kishilar sharafiga qo'yilganini tushuntiradi. Shuningdek, mazkur yosh guruhi tarbiyalanuvchilari bilan "Xotiramiz hamrohimiz, qadr esa qomatimiz", "O'zbekiston – bayrog'ingiz", "Beg'ubor bolalik himoyachilari", "Uyim – Vatan ichra bo'stonim" kabi vatanparvarlik mavzusidagi turli tadbirlar, mashg'ulotlar o'tkazish yaxshi samara beradi.

? NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Axloq deganda nimani tushunasiz?
2. Axloq qanday unsurlarni o'z ichiga oladi?
3. Axloqiy tarbiya deganda nimani tushunasiz?
4. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni axloqiy tarbiyalash mazmuni nimadan iborat?

5. Maktabgacha ta'lim muassasalarida axloqiy tarbiyani tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlariga nimalar kiradi?

6. Axloqiy fazilatlarini shakllantirish texnologiyasi qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi?

7. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni axloqiy tarbiyalash uslublarini shartli ravishda qanday guruhlariga ajratish mumkin?

8. Axloqiy ongni shakllantirish uslublarini sanang va ularga izoh bering.

9. Axloqiy xulq-atvorni shakllantirish uslublariga nimalar kiradi?

10. Axloqiy motivatsiyani hosil qiluvchi uslublarning ahamiyatini qanday baholash mumkin?

11. Bolalar jamoasini shakllantirish bosqichlarini sanang va har bir bosqich mazmunini bayon eting.

12. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda shakllantirish zarur bo'lgan axloqiy fazilatlar haqida ma'lumot bering.

?

MAVZU YUZASIDAN TESTLAR

1. Axloq qanday xususiyatga ega?

- A) Siyosiy-ijtimoiy
- B) Ijtimoiy-psixologik
- C) Tarixiy
- D) Pedagogik

2. Insonning barkamolligi nima bilan belgilanadi?

- A) Bilimi bilan
- B) Odobi bilan
- C) Adolatli va mehnatsevarligi bilan
- D) Ma'naviy dunyosi bilan

3. Qaysi asarda axloq-odob masalalari keng yoritilgan?

- A) "Qobusnoma" da
- B) "Qutadg'u bilik" va "Hibatul Haqoyiq" da
- C) "Al-Adab Al-Mufrad" da
- D) Barchasida

4. “Odob – oltindan qimmat” hikmati kimga ta’luqli?

- A) A.Navoiyga
- B) Yusuf xos Hojibga
- C) Ahmad Yugnakiyga
- D) Koshifiyga

5. Bola necha yoshga kirganda uyatchanlik, mustaqillik, xudbinlik va g’amxo‘rlik kabi qator shaxsiy xususiyatlar namoyon bo‘ladi?

- A) 5 yosh
- B) 3 yosh
- C) 2 yosh
- D) 2–3 yosh

6. Tarbiyaning bola rivojlanishga ta’siri qanday?

- A) Bola axloqiy kamolga yetadi
- B) Bola jismoniy kamolga yetadi
- C) Bola ruhiy kamolga yetadi
- D) Bolaning axloq-odobi tarbiyalanadi.

7. Bolaning ahloqiy rivojlanishidagi muhim omil nima?

- A) Ta’lim-tarbiya
- B) Tevarak-atrof
- C) Jamoa
- D) Ota-ona

8. Necha yoshda bolaning ijobiy xulq-atvori barqarorlashadi?

- A) 3–5 yoshda
- B) 6–7 yoshda
- C) 8–10 yoshda
- D) 10–15 yoshda

Mehnat tarbiyasining maqsad va vazifalari

Mehnat tarbiyasi bola-larga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy foydali harakat ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Mehnat tarbiyasining maqsadi bolalarda mehnatga ongli munosabatni shakllantirishdir. Shuningdek, mehnat orqali bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini tarkib toptirish, kelajakdagi mehnat faoliyatiga ruhiy jihatdan tayyorlash, ularga mehnat qilish xohishini singdirib borish ham alohida ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'lim muassasasidagi *mehnat tarbiyasining vazifalari* xilma-xil bo'lib, ularni quyidagi uch katta guruhga tasnif etish mumkin:

Birinchi guruh vazifalari bolalarning mustaqil mehnat faoliyatiga pedagogik ta'sir ko'rsatish bilan belgilanadi:

- bolalarni maqsad qo'yishga, mehnat ko'nikma va malakalari, mehnat madaniyati bo'yicha kerakli materiallar va mehnat qurollarini tanlab olishga o'rgatish;

- bolalarda bo'lajak mehnat faoliyatini shakllantirish, mehnat jarayonlarini mehnatda qatnashuvchilar o'rtasida taqsimlash, mehnatda yaxshi natijalarga erishish malakalarini shakllantirish;

- mehnat faoliyatining dastlabki ijtimoiy sabablarini shakllantirish, buyumlar va harakatlarga qiziqish uyg'otish orqali mehnat natijalariga erishish, katta guruhlarda esa mehnatning ijtimoiy ahamiyatli ekanligini anglab etish.

Ikkinchi guruh vazifalari kattalar mehnatiga ijobiy munosabatni tarbiyalashga qaratilgan:

- bolalarga kattalarni qanday natijalarga erishish uchun mehnat qilayotganini tushuntirish;

- bolalarda mehnat ahliga hurmatni, ularga qo'ldan kelganicha yordam berish xohishlarini tarbiyalash;

- kattalarning mehnat natijalarini asrab-avaylashga o'rgatish.

Uchinchi guruh vazifalari mehnat faoliyatida bola shaxsini shakllantirishga qaratilgan:

– bolalarda mehnatsevarlik, har qanday mehnatga qatnashish, boshlagan ishini oxiriga yetkazish uchun bor kuchini ayamaslik, o‘z shaxsiy mehnatiga nisbatan to‘g‘ri munosabatni tarbiyalash;

– javobgarlik, mustaqillik, maqsadga qaratilganlik, qat‘iylik, tashabbuskorlik va faollik, sabr-matонатlilik, chidamlilik kabi bola shaxsining axloqiy sifatlarini tarbiyalash.

– madaniy xulq va o‘z tengdoshlariga nisbatan ijobiy munosabatni tarbiyalash, o‘zaro kelishgan holda birga ishlay olish, jamoa ishida natijaga erishguncha o‘z mehnati bilan qatnashish, o‘zi va o‘rtoqlarining mehnatini xolisona baholash, yordam berish.

Maktabgacha ta‘lim muassasidagi mehnat tarbiyasining mazmuni

Maktabgacha ta‘lim muassasalarida mehnat tarbiyasi *ikki yo‘nalish*da amalga oshiriladi:

1) kattalar mehnati bilan tanishtirish;

2) bolalarning o‘zini mehnatga o‘rgatish.

Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarni *kattalar mehnati bilan tanishtirish* orqali ularga kattalar mehnati ijtimoiy-foydali, ishlab chiqarish mehnati bo‘lib, moddiy va ma‘naviy boyliklarni yaratishga qaratilganligi haqida tushuncha berish, kattalar mehnati haqida aniq bilim va tasavvur hosil qilish, mehnat va mehnat natijalarini qadrlashga o‘rgatish, mehnatga qiziqish va muhabbatni uyg‘otish, mehnat qilish xohishini tarbiyalash kabilar amalga oshiriladi.

Kattalar mehnati bilan tanishtirish “Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” asosida ishlab chiqilgan “Bolajon” tayanch dasturining “Atrofolam to‘g‘risida bilimga ega bo‘lish va uni anglash” bo‘limida berilgan.

“Bolajon” dasturiga binoan har bir yosh guruhidagi bolalar kattalar mehnati to‘g‘risida quyidagi bilim va tasavvurlarni egallab olishlari lozim:

Ilk yosh guruhida:

1. Kattalar mehnatiga qiziqishni tarbiyalash.

2. Maktabgacha ta‘lim muassasasi xodimlarining mehnat jarayonlari bilan tanishtirish.

3. Bolalarga kattalarning mehnatini hurmat qilish tuyg‘usini shakllantirish.

Kichik yosh guruhida:

1. Kattalar mehnati natijasida kerakli narsalar, predmetlar yaratilishini tushuntirish.

2. Oshpaz, kir yuvuvchi, sotuvchi, quruvchi, haydovchi mehnati va ularning asosiy ishlari haqida bilim berish.

3. Ish natijasi va uning ahamiyatini ajratib ko'rsatishga o'rgatish.

4. Kattalar mehnati uchun zarur bo'ladigan materiallar, kishilar mehnatini yengillashtiradigan, mehnat jarayoni va natijalariga erishishni tezlashtiradigan mashinalar bilan tanishtirish.

5. Turli transport vositalari va kasblar haqida tushuncha berish. Bolalarning bu boradagi bilimlarini kengaytirish va ularning nomlarini to'g'ri aytishga odatlantirish.

O'rti guruhda:

1. Bolalarda kattalar mehnatiga hurmat va qiziqish hissini tarbiyalash.

2. O'zbek xalqining milliy hunarmandchilik mehnati – duradgorlik bilan tanishtirish.

3. Dehqon mehnati haqida qisqacha ma'lumot berish.

4. Bolalarning o'z tarbiyachisi va boshqalar mehnati haqidagi tushunchalarini kengaytirish.

5. Bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirish jarayonida ularda inson va uning mehnatiga hurmat hissini shakllantirishga e'tiborni kuchaytirish.

Katta guruhda:

1. Bolalarning kattalar mehnati haqidagi tasavvurlarini umumlashtirish.

2. Ishlab chiqarish korxonalari, qurilishlar, dalalarda qilinadigan mehnat haqidagi bilimlarini takomillashtirish. Mehnatning shu joyda tarqalgan turlari bilan bolalarni yaqindan tanishtirish.

3. Ularni yaqin atrofdagi korxonaga olib borish (mebel, avtomobil, televizor, chinni ishlab chiqaruvchi korxonalar, novvoyxonalar va h.k.). Bu korxonaning nomi, u yerda kimlar ishlashi, qanday mahsulot ishlab chiqarishi, mehnat quroli va asboblari haqidagi bilimlarini aniqlash va takomillashtirish.

4. Ular ishlab chiqarayotgan mahsulotlarning mamlakat aholisi uchun ahamiyati bilan tanishtirish.


5. Mashinasoz, tikuvchi, kosib, nonvoy, oshpaz, o'yimakor, bo'yoqchi, haydovchi kabi kasblar bilan tanishtirish.

6. Ishning maqsadi, natijasi va ularning jamiyat uchun ahamiyati, turli xil "aqli" mashinalarning kishilar mehnatini yengillashtirishi, tovarlar sifatini yaxshilash va ishlab chiqarishni tezlashtirishdagi roli haqidagi bilimlarini kengaytirish.

Maktabga tayyorlov guruhida:

1. Bolalarni zargarlik, zardo'zlik, misgarlik, ganchkorlik kabi xalq hunarmandchiligi bilan tanishtirish.
2. Bolalarni kattalar mehnati haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish, kishilar mehnatiga hurmat hissini tarbiyalashni davom ettirish.
3. Bolalarga dehqonchilik, chorvachilik haqida so'zlab berish va ularni dehqon, chorvador va bog'bon mehnatining mazmuni bilan tanishtirish.
4. Bozor haqida tushuncha berish.
5. Pochta aloqasi xizmati bilan tanishtirish.
6. Pochtaning vazifasi va ahamiyati haqida ma'lumot berish.
7. Telefon aloqasi va telegrafchilar, ularning mehnati, telefon xizmatining hayotimizdagi ahamiyati haqida ma'lumot berish.
8. Buyumlarning bir necha xil belgilari va ulardan foydalanish haqida tushuncha berish.
9. Matodan qilingan buyumlar, ularning turlari va foydalanish usullari haqida tushuncha berish.
10. Temir va yog'ochdan ishlangan buyumlar va ulardan to'g'ri foydalanish haqida tushunchalar hosil qilish.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi *bolalar mehnatini tashkil etishda* mehnatning quyidagi turlaridan foydalaniladi: o'z-o'ziga xizmat qilish, xo'jalik-maishiy mehnat, tabiat quchog'idagi mehnat va qo'l mehnati (12-rasm).



12-rasm. Bolalar mehnatining asosiy turlari

O'z-o'ziga xizmat qilish – bu bolalar mehnatining bir turi bo'lib, unda bolalar ilk yoshidan boshlab mustaqil ovqatlanishga, yuvinishga, kiyinish va echinishga, o'yinchoqlarni yig'ishtirib qo'yishga o'rgatiladi. O'z-o'ziga xizmat qilish jarayonida bolalarda mustaqillik, ma'lum maqsad bilan harakat qilish kabi sifatlar shakllanadi, bolalar mustaqil ravishda o'zlarining qo'llaridan kelgan ishni bajarishga o'rganadilar. O'z-o'ziga

xizmat qilish bolalarda oddiy mehnat turlariga nisbatan qiziqish uyg'otadi, batartiblikka, intizomli bo'lishga, xulq-odobga o'rgatadi.

Bolalar *xo'jalik-maishiy mehnat*ga maktabgacha ta'lim muassasasi va oilada jalb etiladi. Xo'jalik-maishiy mehnatga xona va maydonchani yig'ishtirish, stolni bezatish va stoldagi idish-tovoqlarni yig'ishtirish, choy idishlarini, qo'g'irchoq kiyimlarini, mayda narsalarni yuvish, mashg'ulotga kerakli materialni tayyorlab qo'yish, mashg'ulotdan keyin stol ustidagi narsalarni yig'ishtirib olish kabilarni kiritish mumkin.

Tabiatdagi mehnat bolaning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'simlik va hayvonlar, yil fasllari, jonsiz tabiat burchagidagi bilimlar manbayi, bolalarda mehnatsevarlikni, tabiatga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish vositasidir. Shu bilan birga bolalar mehnatning bu turi orqali tuproqni ekishga tayyorlash va o'g'itlash, ko'chat o'tqazish, o'simlik va hayvonlarni parvarish qilish kabi bir qancha mehnat ko'nikma va malakalarini egallab oladilar. Mehnatning asosan ochiq havoda tashkil etilishi bolalar organizmini chiniqtiradi, ularning sog'lig'ini mustahkamlaydi.

Tabiatdagi mehnat bolada bilishga qiziqishni rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Bolalar jonli obyektning o'sishi va rivojlanishini kuzatadilar, ayrim o'simlik va hayvonlarning o'ziga xosliklarini bilib oladilar, tajribalarni o'tkazishda ishtirok etadilar.

Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, tabiatdagi mehnat nafaqat bolaning

Qo'l mehnati – mashg'ulot, o'yinlarga mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan o'yinchoq va qurilmalar (qog'oz qiyqimlarini tashlash uchun, o'simliklar urug'i uchun qutichalar, qo'g'irchoq kiyimlari, qalpoqchalar, niqoblar va shunga o'xshash narsalar)ni tayyorlash bo'yicha bolalar mehnatidir. Qo'l mehnatini bajarish orqali bola aniq natijaga erishadi, ya'ni narsa-buyumlar vujudga keladi. Bolalar yopishtirish, bo'yash, qirqish, arralash, mix qoqish, tikish va shunga o'xshash oddiy mehnat ko'nikma va malakalarini egallab oladilar. Ularda ijodkorlik, topqirlik, zehnilik xislatlari rivojlanadi.

Maktabgacha ta'lim muassalarida mehnatni tashkil etish shakllari Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar mehnatini tashkil etishning asosiy shakllariga quyidagilar kiradi: topshiriqni bajarish, individual mehnat, navbatchilik, qo'l mehnati bo'yicha mashg'ulotlar, jamoaviy mehnat.

Topshiriq – maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar mehnatini tashkil etishning boshlang'ich shakli hisoblanib, barcha yosh guruhlarida qo'llash imkoniyatini beradi.

Ilk va kichik yosh guruhlarida bolalarga uncha murakkab bo'lmagan va qisqa muddatli topshiriqlar beriladi: "O'yinchoqni, kitobni, stolni olib kel, joyiga olib borib qo'y, tushki ovqat uchun stol ustiga qoshiqlarni qo'yib chiq".

O'rta va katta guruhdagi bolalarga beriladigan topshiriqlar ancha murakkab bo'lib, ular endi xonadan tashqarida bajarishga mo'ljallangan va ma'lum bir kishiga murojaat qilish bilan bog'langan. Shuningdek, topshiriqlar (o'yinchoqlarni yig'ishtirish, gullarga suv quyish, to'kilgan barglarni terib, tegishli joyga olib borib tashlash) ikki-uch boladan tashkil topgan kichik guruhlar tomonidan bajarilishi mumkin.

Maktabga tayyorlov guruhida beriladigan topshiriqlar yana ham murakkablashadi. Bunday topshiriqlar bolada alohida mas'uliyatni va boshqalarga g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lishni tarkib toptirish bilan bog'liq bo'ladi: kichik guruh bolalarining sayrga chiqishdan oldin, uyqudan keyin kiyinishiga yordam berish, ularning stolini tushlik ovqatga tayyorlab berish, enagaga toza sochiqlarni osish, toza choyshablarni olib kelishga yordamlashish va boshqalar.

Navbatchilik – bu jamoa uchun mo'ljallangan mehnat faoliyatining shakli bo'lib, u majburiy tartibda bajariladi. Bolalarning navbatchiligi kichik guruhda yil oxiridan boshlanadi.

Barcha bolalarning mehnatda doimiy ishtirok etishlarini ta'minlash uchun navbatchilikning xilma-xil turlari uyushtiriladi: oshxonada (hamma yosh guruhlarida), mashg'ulotga tayyorlanishda (o'rta guruhdan boshlab), o'simlik va hayvonlarni parvarish qilishda (katta va maktabga tayyorlov guruhlarida).

Kichik guruh bolalari oshxonada navbatchilik qiladilar. Birdaniga to'rt-besh bola navbatchilik qilishi mumkin, har bir bola bir-ikki stolni bezatadi. Katta va tayyorlov guruhlarida bolalarning vazifalari kengayadi. Nonushta va tushlik ovqatga, kech tushki va kechki ovqatga dasturxon tuzatish, ovqatlanib bo'lingandan so'ng idish-tovoqni ovqat tarqatiladigan stolga yig'ishtirish, stollar ustini yig'ishtirib olish, enagaga choy idishlarini yuvishda yordam berish shular jumlasidandir. Bu yoshdagi bolalar ikkitadan navbatchilik qilishadi, ammo har bir bolaning ish hajmlari ortadi.

Mashg'ulotga tayyorgarlik bo'yicha navbatchilik o'rta guruhda – bolalar oshxonada navbatchilik qilishni bilib olganlaridan so'ng kiritiladi. Bu navbatchilar stol va stullarni, mashg'ulotga kerakli materiallarni, qo'llanmalarni mashg'ulotga tayyorlaydilar va xonani tartibga keltiradilar.

Katta guruhdan boshlab bolalar tabiat burchagida navbatchilik qila boshlaydilar. Navbatchilikning bu turi ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega. Navbatchilikning bu turida ham bolalar ikkitadan tayinlanadi: biri o'simliklarni parvarish qilsa, ikkinchisi jonivorlarga qaraydi. Ulardan qaysi biri bo'sh qolsa, ikkinchisiga yordam beradi.

Bolalarning mehnat tarbiyasini tashkil etish shakllaridan yana biri qo'l mehnati bo'yicha mashg'ulotdir. Bilim va malaka birinchi marta berilayotgan bo'lsa va u tushuntirish hamda barcha bolalarga yaqqol, ko'rgazmali qilib ko'rsatishni talab etgan hollarda ana shunday mashg'ulotlar o'tkaziladi.

Bolalarni mehnat tarbiyasini tashkil etishning topshiriq, navbatchilik kabilarga qaraganda yana bir nisbatan murakkab shakli – bolalarning *umumiy, birgalikdagi, jamoaviy mehnatini tashkil etish*dir. Umumiy, birgalikdagi va ayniqsa, jamoaviy mehnat bolalarda o'z harakatlarini boshqalarniki bilan uyg'unlashtirish, bir-biriga yordam berishni tarkib toptirish uchun ijobiy shart-sharoit yaratadi, ishni bir xil sur'atda bajarishni ta'minlaydi.

Umumiy, birgalikdagi, jamoaviy mehnat bolalar faoliyatining ijtimoiy yo'naltirilgan maqsadini birlashtiradi. Bunday mehnat natijasi hamma uchun foydali bo'lishi bilan tavsiflanadi. Xonani, maktabgacha ta'lim muassasasi maydonchasini tartibga keltirish, guruh xonasini bayramga bezatish kabilarda bolalarning hammasini mehnat jarayonida ishtirok etishlarini talab etadi.

Umumiy mehnat qo'yilgan maqsad bilan bog'liqlikda bolalarning mehnat faoliyatini tashkil etishda har bir bola ishining ma'lum bir qismini bajarishlariga asoslaniladi. Masalan, tarbiyachi bolalardan guruh xonasini tartibga keltirishni so'raydi va ularga topshiriqlarni taqsimlab beradi: Alisher va Elyor qurilish materiallarini qutiga joylaydi; Shaxnoza va Maftuna qo'g'irchoqqa toza kiyimlarini kiydiradi; biz Sora va Behruz bilan birgalikda stolning ustini tozalaymiz.

Birgalikdagi mehnat bolalarning bir xil sur'at va sifatdagi o'zaro harakatini talab etadi. Bunday mehnat turini tashkil etishda bolalarni alohida zvenolarga birlashtirish muhim ahamiyatga ega. SHuningdek, har bir zvenoga berilgan topshiqlar ham bolalar o'rtasida taqsimlanadi: bolalardan

biri o'yinchoqlarni javondan olib, polga qo'yadi, boshqasi javonni changdan tozalaydi, uchinchisi esa, o'yinchoqlarni qaytadan javonga taxlaydi.

Jamoaviy mehnat bolalarda mehnatga doir hamda axloqiy vazifalarni hal etishga imkon beradi: mehnatga doir topshiriqni taqsimlash, tasodifiy zaruriyat bilan bog'liqlikda bir-birlariga yordam beradi, umumiy, birgalikdagi ishning sifati uchun intilishadi. Bolalar mehnat faoliyatining jamoaviy shakli jamoaviy o'zaro munosabatlarni maqsadga yo'naltirilgan tarzda tarbiyalashga imkon beradi. Har qanday umumiy yoki birgalikdagi mehnat jamoaviy tavsifga ega bo'lmasligi mumkin, biroq har qanday jamoaviy ish umumiy va birgalikdagi mehnatni o'zida aks ettiradi.

Maktabgacha ta'lim muassalarida bolalar mehnatini rejalashtirish

Bolalarning mehnat faoliyatlarini tashkil etish shakllariga doir rejalashtirish ma'qul.

Mehnatni tashkil etish shakli sifatida barcha guruhlarda topshiriqdan foydalaniladi. O'z mazmuniga ko'ra topshiriqlar turlicha bo'lishi mumkin. Tarbiyachining ish rejasida yangi topshiriq mazmunini qayd etish, so'ngra uni bajarishga jalb etiladigan bolalar ismlarini ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Bu tarbiyachiga mazkur topshiriq bilan barcha tarbiyalanuvchilarni qamrab olish va ularni kerakli mehnat topshiriqlarini bajarishga o'rgatish, barcha bolalarning qo'lidan keladigan bo'lib borishiga ko'ra tarbiyachi o'zining alohida e'tiboriga muhtoj bo'lgan bolalarning ismlarinigina ko'rsatib beradi.

Bolalar navbatchiligiga rahbarlikni rejalashtirar ekan, tarbiyachi mehnat hajmi va mazmunini, o'zi bolalarga navbatchilarning vazifalarini tanishtirishda foydalanadigan jihoz, uslub va usullarni ko'rsatadi.

Keyinchalik navbatchilik ishiga rahbarlik rejada mehnat mazmuni murakkablashgan, navbatchilikka jalb qilinayotgan bolalar tarbiyachining aloxida e'tiboriga muhtoj bo'lgan hollarda ko'rsatiladi. Vaqti - vaqtida navbatchilik bolalarning birlaridan ikkinchilariga topshirilayotgan vaqtda (katta guruhda) bolalar bilan suhbat rejalashtiriladi.

Rejada bolalarning jamoa shaklidagi mehnatlarini tashkil qilish mazmuni va tarkibi, o'tkazish vaqti ko'rsatiladi. Zarur jihozlar belgilanadi va joylashtiriladi.

Navro'z va mustaqillik bayramlaridan avval uyushtiriladigan umum-xalq hasharlari, bayramlari maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarda Vatanga muhabbat, baynalmilalchi xislatini tarbiyalash, ularga xalqning jangovor va mehnat an'analarini tanishtirish maqsadlarida nishonlanadi.

Bayramlar tarbiyaning muhim vositasi sifatida puxta rejalashtirilishi lozim. Rejada muassasaning butun jamoasi, shu jumladan bolalarning ham tayyorgarliklari aks ettiriladi.

Tarbiyachining joriy rejasida bolalarga u yoki bu bayram (yoki mashhur sana) ning ahamiyati haqida hikoya qilinadigan, bolalar katta yoshlilarning bayramga tayyorgarliklari bilan tanishish imkoniga ega bo'ladigan sayr-tomoshalar o'tkaziladigan turli mashg'ulotlar nazarda tutiladi. Bolalarni bayram ertaliklarida qatnashishga tayyorlash: she'rlar, qo'shiqlar aytish, raqsga tushish, libos va boshqa atributlarni tikishi ham rejalashtiriladi. Pedagoglar kengashida bayram dasturi ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi, bolalarni bayramga tayyorlash jarayonida ham, bayramni o'tkazish kunida ham uyushtirish shakllari o'ylab chiqiladi va puxta rejalashtiriladi.

Umumxalq bayramlariga bag'ishlangan ertaliklardan tashqari tarbiyachi bolalar bilan maishiy bayramlar va turli ko'ngil ochishlar: yangi yil bayrami, bolalarni maktabga chiqarish, bir oyda tug'ilgan bolalarning tug'ilgan kunlarini bir kunda nishonlash, shuningdek, qo'g'irchoq, soya teatrini, ko'ngil ochadigan videofilm va kinofilmlar, oynayi jahon ko'rsatuvlarini ko'rsatish va shu kabilarni o'tkazishni rejalashtiradi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi ota-onalar o'rtasida ishlashni rejalashtirish pedagoglik targ'ibotini amalga oshirish rejalashtiriladi. Ularni oila va bolalar muassasasining bolalarga ta'sir ko'rsatishda hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadlarida ta'lim-tarbiyaviy ish mazmuni bilan tanishtiradi, bolalarni oilada tarbiyalashning ilg'or tajribasini o'rganadi, umumlashtiradi va tarqatadi. Bu ish uzluksiz tarzida amalga oshiriladi va maktabgacha ta'lim muassasasi mudirasi tomonidan ham (yillik rejada), har bir guruh tarbiyachisi tomonidan ham rejalashtiriladi. Ishni tashkil etish usullari va ularning mazmuni quyidagilarni: ota-onalar majlislarini, maslahatlarini o'tkazishni, bola oilasiga borishni, ochiq eshiklar kunini, mashg'ulotlar o'tkazishni, bolalar ishlari ko'rgazmalarini tashkil etishni, ota-onalar burchaklarini yangilash va shu kabilarni nazarda tutadi.

? NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Mehnat tarbiyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Mehnat tarbiyasining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

3. Maktabgacha ta'lim muassasalarida mehnat tarbiyasi qanday yo'nalishlarda amalga oshiriladi?

4. "Bolajon" dasturiga binoan bolalar kattalar mehnati to'g'risida qanday bilim va tasavvurlarni egallab olishlari lozim?

5. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar mehnatini tashkil etishda mehnatning qanday turlaridan foydalaniladi?

6. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar mehnatini tashkil etishning asosiy shakllariga nimalar kiradi?

7. Umumiy, birgalikdagi, jamoaviy mehnatning o'ziga xosliklarini izohlang.

?

MAVZU YUZASIDAN TESTLAR

1. Kattalar mehnati bilan tanishtirish qanday usullarda amalga oshiriladi?

- A) Kattalar mehnati bolalarga yaqinlashtiriladi
- B) Kattalar mehnatiga bolalar yaqinlashtiriladi
- C) Suratlar orqali tanishtiriladi
- D) A va B javoblar to'g'ri

2. Mehnat tarbiyasi masalalari MTMning qanday rejasiga kiritiladi?

- A) Haftalik
- B) Oylik
- C) Choraklik
- D) Yillik

3. Navbatchilarning ish natijalari qachon tahlil qilinadi?

- A) Tushlikdan keyin
- B) Kechqurun
- C) Ertasiga ertalab
- D) Uyg'a ketishdan oldin

4. Bolaning qo'l mehnati deganda nimani tushunasiz?

- A) Qo'lda bajariladigan ishlar
- B) Turli faoliyat uchun zarur bo'lgan o'yinchoq va qurilmalarni tayyorlash
- C) Qog'oz qiyqimlarini qiyish
- D) Bog'cha maydonchasida bajariladigan qo'l ishlari

Estetik tarbiyaning mazmuni va mohiyati

Ta'lim-tarbiyaning boshqa shakllari kabi estetik tarbiya ham o'z diqqat-e'tiborini alohida shaxsga va ijtimoiy guruhga qaratadi. Estetik tarbiya ham umuminsoniy va milliy qadriyatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Ayonki, tarbiya inson ongiga, his-tuyg'ulariga, tasavvuriga, e'tiqodiga, dunyoqarashiga, xatti-harakatlariga, xulq-atvoriga ta'sir o'tkazishni o'z oldiga maqsad va vazifa qilib qo'yadi.

Estetik tarbiya ham ana shu umumiy maqsad va vazifaning tarkibiy qismi sifatida amal qilib, tarixiy-ijtimoiy jihatdan ahamiyatga molik hodijsani anglatadi. Shuni ta'kidlash joizki, Qadimgi dunyoda umuman tarbiya maqsadi estetik asosda namoyon bo'lgan. Masalan, qadimgi yunonlarda estetik tarbiya maqsadi fuqarolarning har tomonlama rivojlanishiga, "ruh va badan" hamohangligini qaror toptirishga yo'naltirilgan edi. Aflotun va Arastu kabi zabardast mutafakkirlar ta'limotlarida estetik tarbiya tizimining bir-biridan farqli tomonlari bo'lgani holda umumiylik ham mavjud bo'lib, u yagona estetik orzuni qaror toptirishga, yagona axloqiy xulq-atvor va fuqarolik xislat-fazilatlarini shakllantirishga xizmat qilgan edi.

Avvallari estetik tarbiya o'ta tor va bir tomonlama talqin qilinardi. ya'ni uni san'at asarlarini to'g'ri idrok etish, bu bilan alohida lazzatlanish yoki biror san'at turini bilib olib, muayyan badiiy ko'nikmalarga ega bo'lish doirasida in'ikos etilardi. Ba'zan estetik tarbiyaga odamlarda yuksak estetik did-farosatni shakllantirish sifatida qaralardi. Bularning barchasi badiiy-estetik tarbiyaning vazifa va maqsadlari doirasiga kirardi.

Badiiy tarbiya estetik tarbiyaning tarkibiy qismi bo'lib, u estetik tarbiyaning asosiy mazmunini va maqsad yo'nalishlarini to'la ifodalamaydi. Badiiy tarbiyaning asosiy maqsadi – munosabatlarni san'at vositalari yordamida shakllantirishdir²⁹. Estetik tarbiya bilan badiiy tarbiyani bir-biriga tenglashtirish ham, qorishtirish ham, qarama-qarshi qo'yish ham xato bo'lardi. Shuni nazarda tutish lozimki, estetik tarbiya san'at bilan chegaralanib qolmaydi, balki uning asosiy mazmuni insonning voqelikka estetik munosabatini faollashtirish va rivojlantirishdan iboratdir.

Voqelikka estetik munosabat o'z xususiyatlariga ega bo'lgan holda nisbiy mustaqillikka ham ega bo'lib, foydali-amaliy, ilmiy-nazariy mu-

29. Педагогический энциклопедический словарь – М.: Большая Российская энциклопедия. 2002. – С.313.

nosabatlarni ham o'z ichiga oladi. Binobarin, voqelikka bo'lgan inson munosabatining xar qanday ko'rinishi estetik mazmundan ajralib qolsa, u asl insoniy mohiyatini yo'qotib qo'yadi.

Estetik tarbiyaning estetik ongni shakllantirish maqsadi va vazifasi ko'proq yosh avlodga taalluqli estetik ongni shakllantirish demakdir. Estetik tomonsiz dunyoqarash chala, biryoqlama bo'lib qolishi turgan gap, estetik dunyoqarash falsafiy, axloqiy va boshqa dunyoqarash sohalardan bahramand bo'lib, o'z navbatida ularni ham boyitib turadi.

Estetik tarbiya, eng avvalo, odamlarning estetik didlari shakllanishiga katta ta'sir o'tkazadi. Shaxs o'zligi uning estetik didi orqali namoyon bo'ladi. Estetik didda inson aqliy va hissiy dunyosi, orzu-umidlari, talab-ehhtiyojlari, maqsad-manfaatlari ro'yobga chiqishi ifodalanadi. Did faqat kayfiyat baholarigina emas, balki inson faoliyati samaralari vositasida ham ifoda topadi. Inson faoliyatining barcha samaralarida uning didi aks etadi.

Estetik tarbiya o'z diqqat-e'tiborini shaxs estetik ehtiyojlarini shakllantirishga qaratadi, xilma-xil o'ta murakkab talab-ehhtiyojlarni birlashtiradi, uyg'unlashtiradi va hamohang tarzda amal qilishi uchun shart-sharoitlar yaratib beradi.

Estetik tarbiyaning inson talab-ehhtiyojlari madaniyatini shakllantirishdagi o'rni ham beqiyosdir, zero insonning talab-ehhtiyojlari madaniyatida muayyan mezon tuyg'usi ham mavjud bo'lishini, bu mezon tuyg'usi shaxsiy ehtiyojni jamiyat ehtiyoji bilan mutanosib tarzda olib borishni taqozo etadi. Ana shu mezon tuyg'usida yetuklikka erishish estetik tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biridir.

Estetik ehtiyoj faqat moddiy va ma'naviy go'zalliklardan lazzatlanishigina emas, balki har qanday amaliyot sohasida narsalarni nafasat qonunlariga rioya qilgan holda yaratishni, faoliyatga go'zallikni tatbiq qilishni ham bildiradi. Shu bois estetik tarbiya hayot jabhalarining hammasiga: o'qish, mehnat qilish, ilmiy va texnik izlanish, jamoaviy faoliyatga tatbiq etilishi lozim bo'ladi.

Bolalarni estetik tarbiyalash va rivojlantirish estetik tarbiya tizimi yordamida amalga oshadi. Estetik tarbiyani tashkil etish tizimida qator tamoyillar yotadi³⁰. *Estetik tarbiya va badiiy ta'limning hamma uchun umumiyligi* shundaki, kattalar va bolalar ma'naviy hayotda, kundalik mehnat, san'at va tabiat bilan muloqotda, turmushda va shaxslararo mu-

30. Estetik tarbiya tizimining vazku tamoyillarini yoritishda B.T. Lixachevning qarashlaridan foydalanildi. Qarang: B.T. Lixachev. *Pedagogika* – M.: «YuRAYT», 2003–395-397-b.

nosabatda estetik hodisalar bilan doimiy ravishda o'zaro munosabatda bo'ladi. Ana shu jarayonda ularning go'zalligi va xunukligi, fojiali va kulgili jihatlari namoyon bo'lib boradi. Bundan ma'lum bo'ladiki, estetik savodlilik, ideallar, estetik rivojlanish va badiiy ta'limsiz, ishda mahsulotni estetik takomilga yetkaza olmasdan, shaxsning har tomonlama barkamol bo'lib rivojlanishi mumkin emas.


Estetik tarbiyani tashkil etish tizimi yana *barcha tarbiyaviy ishlarga yaxlit yondashuv* tamoyiliga asoslanadi. Bolalarning estetik tarbiyasida san'atning barcha turlari o'z-o'zidan birga harakatlanadi, bolaga yaxlit ta'sir ko'rsatadi. Bunday o'zaro harakat badiiy asarlar, tasviriy san'at, musiqiy savodxonlikni oshirishda mustahkam aloqadorlik natijasida amalga oshadi. Bundan tashqari estetik tarbiya fan, mehnat, jismoniy madaniyat, estetik munosabat va turmush go'zalliklarini ochish hisobiga ham amalga oshadi.


Estetik tarbiya tizimi *bolalarning butun badiiy-estetik faoliyatini hayot, jamiyatning amaliy taraqqiyoti, bolalarda dunyoqarash va axloqiylikni shakllantirish jarayoni bilan o'zaro aloqadorlik* tamoyiliga tayanadi. Jamiyatning demokratlashuvi – go'zallik va axloqiylik manbayidir.

Bola shaxsining estetik va umumiy shakllanishi o'zaro aloqadorligi *bolaning badiiy va umumiy psixik rivojlanishi birligi* tamoyilini taqozo etadi. Bolalarning badiiy-estetik faoliyati ularda his etish, emotsiya, obrazli va mantiqiy xotira, nutq, fikrlashning jadal rivojlanishini ta'minlaydi.

Estetik tarbiyaning amaliyligi to'g'ridan-to'g'ri *bolalarning badiiy-ijodiy va mustaqil faoliyati* tamoyiliga amal qilinishiga bog'liqdir. Milliy xalq o'yinlari, xalq qo'shiqlari, she'rlar, hikoyalar, ocherklar tadqiqotchilik ko'nikmalarini hosil qiladi, bolalarning badiiy rivojlanishi, alohida va jamoaviy ijodkorligi vositasida ma'naviy hayot mazmuni shakllanadi.

Bolalarning butun hayotini estetiklashtirish tamoyili munosabat, faoliyat, bolalarning munosabatlarini go'zallik qonunlari, ulardan quvonish hissini uyg'otish asosida tashkil etishni talab etadi.





13-rasm. Estetik tarbiya tizimi.

Bolalarning estetik tarbiyasi tizimi ularning *yosh bilan bog'liq psixo-pedagogik o'ziga xosliklarini hisobga olish* tamoyili asosiga quriladi.

Estetik tarbiya insonning estetik ongini shakllantirish jarayonida uni axloqiy, mehnat, ekologik jihatlardan ham tarbiyalash vazifalarini qamrab oladi. Estetik tarbiyaning axloqiy tarbiyaga ta'siri shundaki, nafosat olami ezgulik va yaxshilikdan, beg'arazlikdan ajralmagan holda amal qiladi. Estetik tarbiyaning mehnat tarbiyasi bilan birlashib ketishi asosi shundaki, mehnat jarayoni shaxsning tabiiy ehtiyojiga aylanib borishida o'z ifodasini topadi. Estetik tarbiya bilan ekologik tarbiya bog'liqligi esa tabiatga beg'araz, insoniy munosabatda bo'lishda, jamiyat bilan tabiat o'rtasida hamohang aloqadorlik munosabatlarini o'rnatishda namoyon bo'ladi.

Tarbiyalanuvchining estetik madaniyatini shakllantirishning tarkibiy qismlari


Shunday qilib, estetik tarbiya – bu estetik jihatdan rivojlangan va ijodiy faol bo'lgan bola shaxsini shakllantirish demakdir.

Estetik tarbiya insonparvar mohiyatga, estetik orzu mos keladigan voqelikni idrok etish, baholash va nafosat qonunlari asosida qayta yaratishga qobil bo'lgan bola shaxsini shakllantirishga mo'ljallangan ta'lim-tarbiya sohasidir.

Estetik madaniyatni shakllantirish – bu borliqdagi va san'atdagi go'zallikni to'liq idrok etadigan va to'g'ri tushunadigan shaxs qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan jarayon³¹. U o'zida badiiy kechinmalar, qarashlar va e'tiqodlar tizimini aks ettiradi, haqiqiy estetik qadri-

³¹. Общая педагогика/Под.пед В.А. Сластенина – М.: «Владос», 2003. – С.64.

yatlardan zavqlanishni ta'minlaydi. Shu bilan birga bu orqali bolalarda turmushning hamma tomonlaridagi go'zallik unsurlarini ilg'ab olish, xunuklik, didsizlikka qarshi kurashga harakat qilishni tarbiyalaydi.



14-расм. Estetik madaniyatning tarkibiy qismlari

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning estetik rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlar

Shaxsning voqelikni estetik jihatdan bilib olishga undovchi subyektiv omillar *estetik ehtiyoj* deb ataladi. Shaxsning estetik faoliyatiga, voqelik va san'at asarlarini estetik jihatdan o'zlashtirishga kirishishi *estetik qiziqish* deb ataladi. Ijtimoiy voqelik, tabiat, san'at bilan bevosita muloqot jarayonida – nazariyalar, qarashlar, badiiy ta'lim va tarbiya natijasida shakllanadigan xususiyat *estetik ong* deb ataladi. Shaxsning aniq bir estetik hodisaga munosabatini bildiruvchi aqliy harakati *estetik mulohaza* deb ataladi. Estetik axborotlar oqimi, estetik va axloqiy normalar yig'indisi orqali shakllanadigan va shaxsning buyum, hodisalarga estetik baho berishida yaqqol namoyon bo'ladigan hodisa *estetik did* deb ataladi. Shaxsning tabiat, jamiyat va san'atdagi maqsad tarzida idrok etadigan, takomillashgan go'zallik borasidagi bahosining aks etishi *estetik ideal* deb ataladi.

Maktabgacha ta'limning ilk yosh davri bolalari ham tevarak-atrofdagi, musiqa, she'riyat, tasviriy san'at asarlari, tabiatdagi go'zallikni idrok eta oladilar, shuningdek, o'zlari rasm chizish, yasash, kuylash, raqs tushish, she'r yodlay olish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bolalarda kuzatiladigan bunday holatlar estetik tarbiyani maktabgacha ta'lim davridanoq boshlash haqida xulosa qilishga imkon beradi.

Estetik tarbiya – shaxsda tabiat, mehnat, ijtimoiy munosabatlardagi go‘zallikni estetik ideal nuqtayi nazaridan idrok etish va baholash, shuningdek, voqelikni go‘zallik qonunlariga ko‘ra o‘zgartirish ehtiyojini his etish qobiliyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan muntazam ta‘sir jarayonidir³².

Estetik tarbiya – bolani tarbiyalashning muhim jihatini o‘zida aks etirib, u hissiy tajriba, shaxs emotsional sohasini boyitishga imkon beradi, borliqni axloqiy jihatdan anglashga ta‘sir ko‘rsatadi, bilish faolligini oshiradi, hatto jismoniy rivojlanishga ham ko‘maklashadi. Estetik tarbiya natijalari estetik rivojlanishda o‘z aksini topadi.

Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarni estetik tarbiyalashning vazifalarini ikki katta guruhga ajratish mumkin:

1. Bolalarda tevarak-atrofga estetik munosabatni shakllantirish: tabiatdagi, san‘atdagi go‘zallikni ko‘ra olish va his etish, go‘zallikni tushuna olish; badiiy didni, go‘zallikni anglashga ehtiyojni tarbiyalash.

2. Xilma-xil san‘at turlariga oid badiiy ko‘nikmalarni shakllantirish: bolalarni rasm chizish, turli buyumlarni yasash; qo‘shiq kuylash, musiqaga mos harakatlanishga o‘rgatish; so‘z boyligini oshirish.

Maktabgacha ta‘lim yoshining turli davrlari bilan bog‘liqlikda estetik tarbiyani amalga oshirishning o‘ziga xosliklari ham aniq namoyon bo‘ladi.

Ilk yoshli bolalarda hali ularning estetik tarbiyasi to‘g‘risida emas, balki ularning hissiy va sensor rivojlanishi to‘g‘risida o‘ylash kerak. Bola yaltiroq bo‘yoqdan xursand bo‘ladi, bir maromdagi tovush va harakatlardan huzur qiladi. Bola hayotining birinchi yilida ularning sensor-hissiy qabul qiluvchanligi takomillashib boradi. Bu yoshdagi bolalarda hissiy kechinmalarning shakllanishida kattalar muhim rol o‘ynaydi. Kattalarning ochiq yuz bilan jo‘shqin ohangda gapirishlari bolaga buyumlarning u yoki bu xususiyatlariga ijobiy munosabatda bo‘lishiga yordam beradi. Va, aksincha, kattalarning ogohlantiruvchi ovozi, ular yuzidagi tundlik alomati yoki ho‘mrayib qarashlari, jerkib, siltab tashlashlari bolalarda shu buyumga yoki uning sifatiga salbiy munosabatni shakllantiradi.

Bola hayotining ikkinchi yilida uning idroki asta-sekin takomillasha boradi. Bolalar endi faqat borliq xususiyatlarini emas, shu bilan birga san‘at asarlaridagi ayrim estetik ifoda vositalarini ham idrok eta boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalarda musiqaning quvnoq va g‘amgin kuylariga, ularning qattiq va sokin ohangiga, ohista va tezligiga javob ta‘siri paydo bo‘ladi.

32. Valixo‘jayeva F.B. Talabalarni maktabgacha ta‘lim muassasalarida bolalarga estetik tarbiya berishga tayyorlash. Ped.fan.nom. ... dis. avt. 2005. – 7-b.

O'rta yosh guruhi davrida bolalar estetik idrokining rivojlanishida muhim o'zgarishlar yuz beradi. Ularning estetik idroki ancha aniq va tabaqalashgan bo'lib qoladi. Ammo u qisqa-qisqa bo'lib, bolaning shaxsiy tajribasi va qiziqishiga bog'liq bo'lib qoladi. Bu yoshdagi bolalar badiiy obrazni eng oddiy estetik baholay oladilar, ba'zi bir estetik vositalarni to'g'ri anglaydigan, tasvir mohiyatini tushunadigan bo'lib qoladilar.

Bolalarda go'zallikni idrok etish jarayoni aniq ifodalangan, ta'sirli, faol tusda bo'ladi. Bu ayniqsa, ular qo'g'irchoq teatri, kino, multfilm, telespektakllarni tomosha qilganlarida aniq namoyon bo'ladi. Bolalar asar qahramonlari harakatiga qo'shilib bemaolol harakat qiladilar, ularning muayyan vaziyatda o'zlarini qanday tutishlarini aytib turadilar, go'yo o'zlarini ular bilan birga o'ynayotgandek his etadilar. Bu yoshdagi bolalar tanish bo'lgan san'at asarlarini yangi asarlar bilan solishtiradilar va ba'zi bir xulosalar chiqaradilar. Bolalarni she'rni hikoyadan, badiiy asarning ba'zi bir janrlarini, tasviriy san'at va musiqaning ayrim turlarini (ertakni hikoyadan, marshni raqsdan, allani o'yindan va boshqalar) bir-biridan ajrata boshlaydilar.

Katta yosh guruhining oxiriga kelganda ular musiqani, badiiy asarlarni diqqat bilan tinglaydilar, tasviriy san'at asarlarini sinchiklab kuzatadilar, ulardagi ijobiy qahramonlar xatti-harakatlardan quvonadilar, yomonlikni qoralaydilar. Bolada musiqaviy va shoirona tinglash qobiliyati rivojlanadi. Ularda ayrim musiqa janrlariga, adabiy va tasviriy san'at asarlariga nisbatan barqaror qiziqish paydo bo'ladi. Bolalarda badiiy ijodiy qobiliyat rivojlana boshlaydi, ular mustaqil ravishda topishmoqlar, ashulalar, ertaklar, she'rlar to'qiydilar, applikatsiya va rasmlar ishlaydilar. Endi ular o'zlarining va o'rtoqlarining ishlarini baholaydigan bo'lib qoladilar.

Kuzatayotgan san'at asarlari, eshitayotgan musiqa asarlari, o'qilayotgan she'rlarning eng nozik tomonlarini ko'ra biladilar, seza boshlaydilar. Badiiy asarlardagi ba'zi she'riy obrazlarni eslab qoladilar va o'z nutqlarida ishlatadilar. Tevarak atrofdagi go'zallikka, san'atga, badiiy va o'yin faoliyatining xilma-xil turlariga nisbatan ularda qiziqish shakllana boshlaydi.

Tarbiyalanuvchilarni estetik tarbiyalash omillari va vositalari Shaxsning estetik madaniyatini shakllanishi ko'p jihatdan estetik kamolotiga ta'sir o'tkazadigan tashqi va ichki shart-sharoitlarga bog'liq.

Bunday tashqi va ichki shart-sharoitlar *estetik tarbiya omillari* deb ataladi.

Tarbiyaviy faoliyatning shunday shakllari borki, ular shaxsning estetik voqelikka munosabatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tarbiyaviy faoliyatning bunday shakllari *estetik tarbiya vositalari* deb ataladi. Estetik tarbiya omillari va vositalari o'rtasidagi chegara nisbiy hamda shartlidir. Muayyan sharoitlarda estetik tarbiya omillari estetik tarbiya vositalari vazifasini o'tashi va aksincha bo'lishi ham mumkin.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning estetik tarbiyalash vazifalarini amalga oshirish uchun ma'lum bir sharoitlarni yaratish lozim. Bolalarni o'rab turgan muhit, *turmush estetikasi* ana shunday eng muhim omildir. Agar muhit estetiklikka asoslangan bo'lsa, agar bola odamlar orasidagi xushmuomala munosabatni ko'rsa, tevarak-atrofdan olingan taassurotlar ijobiy tavsifga ega bo'lsa, u kichikligidanoq estetik borliqni o'zi uchun me'yor sifatida qabul qiladi. Turmush estetikasi o'zida ko'plab detallarni qamrab oladi.



15-rasm. Estetik tarbiya omillari.

Shuningdek, bolalarni borliqni va uning go'zalligini tahlil etib borishga o'rgatish lozim: "Seni ko'ylagingga qaysi rangdagi tufli mos tushadi, deb o'ylaysan?". "Uyimiz devoriga ko'proq qaysi rangdagi parda to'g'ri tushadi: ko'kmi yoki yashil?". Mazkur holatda bolaning aynan javobining o'zi muhim emas, asosiysi uning e'tiborini rangning mos

kelishi yoki kelmasligiga qaratish, shuningdek, bolada u ham go‘zallik yaratishi mumkinligi haqidagi xulosani hosil qilishga erishishdir.

Estetik tarbiyaning eng muhim omili – bu *tabiat*dir. Tabiat bilan doimiy ravishda munosabatda bo‘lmay turib, estetik jihatdan rivojlanish, estetik tarbiyani uyushtirish mumkin emas. Boshqacha aytganda, tabiat hech narsa bilan almashtirib bo‘lmaydigan go‘zallik manbai. U estetik his-tuyg‘u, kuzatuvchanlikni rivojlantirish uchun boy material beradi. Ayniqsa, tabiat badiiy obrazlar orqali ifodalansa, yanada o‘zining estetik jihatini yaqqol namoyon etadi. Masalan, Quddus Muhammadiyning “Bolari” she‘rida ana shu jihat yorqin aks etgan:

G‘uv-g‘uv uchar bolari,

Duv-duv uchar bolari.

Guldan gulga qo‘nishib,

Sharbat ichar bolari.

Sen qadrdon do‘stimiz,

Asaling yeb, o‘sdik biz.

Yasab berayin quti,

Bog‘chamizda qol, ari!

Jonajon tabiat estetik tarbiyaning qudratli vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Tevarak-atrofdagi tabiat go‘zalligi hatto eng kichik bolani ham quvon-tiradi. Uning tuyg‘ular va xayollarda saqlangan go‘zalligi bolalikda ayniqsa, chuqur va yorqin idrok qilinadi, inson bularni butun hayoti davomida esidan chiqarmaydi.

Sayr, ekskursiya vaqtida tarbiyachi bolalarning diqqatini tabiatning rang-barangligiga, uning o‘zgarishi va uyg‘unligiga qaratadi, tabiat hodisalariga qiziqish uyg‘otadi, unga muhabbat va ehtiyotkorlik munosabatini tarbiyalaydi, asrab-avaylashga o‘rgatadi. Bularning hammasi bolalarning estetik didlarini tarbiyalaydi, ular kishilarning mehnat natijalarini yaqqol ko‘rib, atrofdagi go‘zallik inson mehnati tufayli yuzaga kelishiga ishonch hosil qiladilar. Mana shu jihatdan estetik tarbiyaning yana bir vositasi sifatida *mehnat* yuzaga chiqadi.

Maktabgacha ta‘lim muassasasi yer maydonchasi va tabiat burchagidagi o‘simlik va hayvonlarni kuzatish hamda parvarish qilish bolalarda estetik idrokni, ularga nisbatan to‘g‘ri munosabatni, go‘zallik yaratish xohishini shakllantiradi hamda qizg‘in faoliyatga undaydi. Yilning yoz fasllarida polizda, gulzorda, yer maydonchasida mehnat qilish jarayonida ham bolalar estetik zavq oladilar. Kuzda o‘z mehnati

mevasini yeyish bolaga alohida estetik huzur bag'ishlaydi. Dala va bog'larga sayrga borganda tabiatning go'zalligi va boyligidan, u yerdagi dehqonlarning yaratuvchilik mehnatlaridan benihoya zavqlanishadi.

Estetik tarbiya vositalari orasida *san'at* muhim o'rin egallaydi. *San'at* – ijtimoiy ong va faoliyatning o'ziga xos shakli bo'lib, tevarak-atrof va borliqni badiiy obrazlarda aks ettirilishidir.

Estetik tarbiyaning eng muhim omili sifatida *san'at* nafaqat badiiy qadriyatlarni idrok qilish, balki ularni yaratishni ham o'z ichiga oladi. Badiiy qadriyatlarni yaratishga jamiyat a'zolarining, ayniqsa, yosh avlodning faol ishtirok etishi ularda estetik did-farosat va talab-ehtiyojlarning rivojlanishiga, ijodkorlik qobiliyatlarini rag'batlantirishga olib keladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni estetik jihatdan tarbiyalashda *san'at*ning xilma xil turlari va janrlaridan, xususan musiqa va tasviriy *san'at*dan foydalaniladi.

Estetik tarbiyaning vositalaridan yana biri *qo'g'irchoq teatri*dir. *Qo'g'irchoq teatri* dunyoning ko'plab xalq va elatlariga qadim zamonlardan buyon ma'lum. U jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. *Qo'g'irchoq teatri* har qaysi davlatda turli shaklda, turli hajmda, o'ziga xos tarzda taraqqiy etib, rivojlanib kelgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalashda *qo'g'irchoq teatri* vositasidan samarali foydalanish – bolalarning iqtidori, obyektiv borliq haqidagi tasavvuri, dunyoqarashini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitni yaratishi bilan ahamiyatlidir. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda “Yoshlarning ma'naviy olamini bolalikdan boshlab ezgu g'oyalari asosida shakllantirish va kamol toptirish haqida gap borar ekan, yana bir muhim masala xususida to'xtalib o'tish o'rinli, deb o'ylayman. U ham bo'lsa, dunyoga hayrat ko'zi bilan boqib, undan o'zicha ma'no topishga intiladigan murg'ak farzandlarimizning qiziqishi va hissiyotlariga mos *qo'g'irchoq* va o'yinchoqlar ishlab chiqarish masalasidir”.³³ Zero, *qo'g'irchoq teatri* vositasida bolaning atrof-muhit, hayot haqidagi tasavvurlari, taassurotlari, u yoki bu hodisalarni tushunish, go'zallikni ko'ra bilish va his etishga ma'suliyat hissi oshadi.

*Qo'g'irchoq teatri*ning bolalarni estetik tarbiyalashda nihoyatda kuchli ta'sir etishi uning soddaligi, odatdan tashqari jo'shqinligi va *qo'g'irchoqligi*, shuningdek, badiiy so'z, musiqa, *qo'shiq*, raqs, tasviriy *san'at*

33. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat», 2008. 157-b.

kabi tarkibiy qismlarning uzviy jipslashib ketganligi bola ko'z o'ngida yaqqol namoyon bo'lishidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning qo'g'irchoq teatri vositasida estetik sifatlarini shakllantirish jarayonida quyidagi bosqichlarning amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

1) o'tkazilishi rejalashtirilgan teatr oldi suhbat. Bolalarda teatr qahramonlarining o'ziga xos tabiati, xatti-harakatlari haqidagi tasavvurlarini savol-javob asosida aniqlash;

2) teatr tomoshaning ta'sirchan, his-tuyg'u va mazmunga boy tarzda o'tkazilishi;

3) teatr namoyishidan so'nggi suhbat. Bolalarning voqealar, ularning mazmun-mohiyati haqidagi fikrlari³⁴.

Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy didini o'stirishda *kitoblar* muhim rol o'ynaydi. Kitoblar faqat bolalarning yoshiga mos, mavzu, mazmun bilangina emas, shu bilan birga bayon qilish usuli hamda bezatilishi bilan ham ajralib turishi juda muhimdir.

Ayniqsa, ikki-uch yoshli bolalar uchun chiqarilgan kitoblarda so'zlardan ko'ra rasmlarning ta'siri katta bo'ladi. Bola kitobchadagi rasmlarni qayta-qayta o'z o'rtoqlariga, kattalarga, qo'g'irchoq'iga "o'qib" berish bilan uning mazmunini o'z xotirasida mustahkamlaydi. Kitobdagi chiroyli, yorqin rasmlar bolalarning badiiy didini tarbiyalaydi.

Bolalar tomonidan eng ko'p o'qiladigan kitoblar *ertaklar*dir. Ertaklar qisqa syujetli, tilining hayotiy va jonliligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari ertak qahramonlarining bolalarga yaqin va tanish ekanligi ham ular bilan birga hayratlanish, voqealarni qiziqish bilan eshitish imkonini beradi.

Estetik tarbiya maktabgacha ta'lim muassasalarida rasm chizish, qirqib yelimlash, loy ishi kabi faoliyatlar orqali amalga oshiriladi. Ana shu nuqtayi nazardan bolalarni estetik tarbiyalashda *tasviriy san'at* muhim rol o'ynaydi. Bolalarning badiiy-estetik tasavvurlari tevarak-atrofdagi jonli va jonsiz narsa-hodisalarni turli usullar (rasm chizish, qirqib-yelimlash, loydan narsalar yasash, tikish), an'anaviy (akvarel bo'yog'i, bo'r, qalam, mo'yqalam, flomaster, rangli qalam va iplar, qog'oz, karton, yelim, igna) va noan'anaviy (paxta, gubka, barmoqlar yordamida, sham, gugurt cho'plari) vositalar orqali tasvirlashda namoyon bo'ladi. Bularni badiiy-estetik savodxonlikning dastlabki elementlari sifatida qabul qilish mumkin.

34. Azizova Z. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda qo'g'irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarini shakllantirish. – T., 2010. – 4-b.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tasviriy ko'nikma va malakalarni oson o'zlashtiradilar. Ikki-uch yoshli bola qalam va mo'yqalamni to'g'ri ushlab malakasini oson egallaydi, undan foydalanishni qiyinchiliksiz o'rganib oladi. Olti yoshda bola bir qancha ko'nikma va malakalar zaxirasiga ega bo'ladi va ulardan yangi predmetlarni tasvirlashda kerakli usullarni qo'llab, mustaqil ravishda o'z aql-idrokiga tayangan holda foydalanishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa ta'limi va tarbiyasining maqsad hamda vazifalari

Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa tarbiyasining asosiy maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarning dunyoqarashini shakllantirish hamda musiqiy didini o'stirib, bolalarga musiqani o'rgatish jarayonida unda hayot o'z aksini topishini anglatishdir. Shuni alohida ta'

kidlash lozimki, musiqa mashg'ulotlari oldiga qo'yilgan pedagogik maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun, avvalo, bolalarning musiqiy uquvi va qobiliyatlarini muntazam ravishda o'stirib borish lozim. Bolalarning musiqiy uquv va qobiliyatlari quyidagi faoliyatlardan iborat:

- musiqiy uquv (musiqiy tovushlar baland-pastligini his etish qobiliyati)
- tembr uquvi (musiqiy tovushlarni bir-biridan farq qilish);
- ritm tuyg'usi (musiqaga mos harakat bajarish, qadam tashlab, chapak chalib musiqani xotirada saqlab, his etish va ifodalash).

Bolalarning musiqiy qobiliyatlari musiqiy mashg'ulotlarning barcha elemaentlarini amalga oshirish jarayonida muntazam ravishda rivojlanib boradi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan musiqa ta'lim-tarbiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- bolalarni musiqaga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish;
- musiqiy asarlar bilan tanishtirish jarayonida bolalarda emotsional his-tuyg'ularini hosil qilish yo'li bilan ularning musiqa haqidagi tasavvurlarini boyitish;
- bolalarning musiqa tinglash, qo'shiq kuylash, musiqa ostida ritmik harakatlarni bajarish, bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lish faoliyatlari yordamida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirib borish;
- bolalar ovozini asrab tarbiyalash, qo'shiqlarni sodda, ravon, erkin, tabiiy va ifodali kuylash o'rgatish va odatlantirish;
- musiqiy asarlardan zavq olishni, shu asosda musiqiy did va badiiy fikr yuritishni rivojlantirish;

➤ musiqa mashgʻulotlari jarayonida musiqiy asardagi badiiy obrazlarni oʻyin va raqs shaklida ifoda etishga oʻrgatish;

➤ musiqa mashgʻulotlari jarayonida bolalarni milliy qadriyatlarimiz bilan tanishtirish, milliy cholgʻu asboblari joʻrligida milliy musiqiy – ritmik harakatlarni bajarishga oʻrgatish;

➤ musiqa mashgʻulotlari mazmunini bogʻcha hayoti bilan bogʻlash, maktabgacha taʼlim muassasasida oʻtkaziladigan tadbirlarda oʻrganilgan kuy va qoʻshiqlar bilan ishtirok etish.

Musiqa mashgʻulotlarida bola hayotni, tevarak-atrofnii musiqiy obrazlar orqali idrok etib boradi. Maktabgacha taʼlim muassasasida musiqiy tarbiya ishlari badiiy adabiyot va tasviriy sanʼat bilan uzviy ravishda bogʻlangan holda amalga oshiriladi.

Musiqa oʻz tabiatiga koʻra insonlar hayotini, ularning turli voqealarga nisbatan munosabati va ichki kechinmalarini xilma-xil tovush boʻyoqlari orqali badiiy obrazlar vositasida tasvirlaydi. Musiqa bolalar hissiyotiga kuchli taʼsir eta olish bilan birga ularni nafosat olamiga olib kiradi. Buning uchun musiqa rahbari tomonidan tashkil etilgan musiqiy tarbiya bolalarni barkamol inson boʻlib yetishishlariga ijobiy taʼsir etadi. Musiqa mashgʻulotlarini gigienik talablarga javob beradigan darajada olib borish musiqa rahbarining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Musiqiy mashgʻulotlar oldiga qoʻyilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish, avvalo, musiqa rahbarining pedagogik tayyorgarligiga bogʻliq. Musiqiy mashgʻulotlarni olib borishda musiqa rahbari bolalarning yoshi va qiziqishlarini eʼtiborga olishi lozim. Mashgʻulotning tuzilishi oʻquv materiallarining mazmunidan kelib chiqishi kerak. Bunda asarlarning taʼlimiy, tarbiyaviy ahamiyati, badiiy saviyasi, bolalar yoshiga mosligining hisobga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqiy mashgʻulotlarining tuzilishi quyidagi faoliyat turlaridan iborat:

- ❖ musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish;
- ❖ musiqa tinglash;
- ❖ musiqa savodi;
- ❖ qoʻshiq kuylash;
- ❖ bolalar cholgʻu asboblari joʻr boʻlish.

Maktabgacha taʼlim muassasalarida musiqa mashgʻulotlarining davomiyliigi bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda olib boriladi. Shunga muvofiq mashgʻulotlar kichik guruh – 15–20 daqiqa, oʻrta guruhda – 20–25 daqiqa, katta guruhda – 25–30 daqiqa, tayyorlov guruhida – 30–35 daqiqa davomida olib boriladi.

Mashg'ulotlar davomida bolalar qo'shiq kuylashga, musiqa tinglashga, musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish va cholg'u asboblari va ularga jo'r bo'lishni o'rganib boradilar. Qo'shiq kuylash musiqa mashg'ulotining asosini tashkil etadi. Har bir qo'shiq ma'lum pedagogik maqsadlarni amalga oshirishni ko'zda tutib tanlanadi. Qo'shiqlarni ma'lum bir tizimga solishda oddiydan murakkabga qarab borishga rioya qilish kerak. Qo'shiq kuylash yengil va oson amalga oshirilishi tufayli bolalar diqqatini tez jalb etadi. Musiqa ijrochiligida ovoz eng qulay vositadir, chunki qo'shiq kuylashni turli sharoitlarda tez va oson tashkil etish mumkin. Qo'shiq kuylash jarayonida bolaning fikrlash qobiliyati, nutqi, idroki o'sadi. Bolalar ovozini asrab tarbiyalashning zarur shartlaridan biri qo'shiqlarni ularning yoshiga va ovoz diapazoniga qat'iy rioya etib tanlashdan iborat.

Musiqa bolalarni go'zallikni idrok eta olishlariga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi vositadir. Estetik tarbiyaning mazkur vositasi bolalarda musiqaviy didni shakllantiradi, zamonaviy va mumtoz kuylarni idrok eta olishga tayyorlaydi. Ana shu sababli bolalarni qo'shiq aytish va raqsga tushishga o'rgatishda faqat to'g'ri aytish va harakat qilishni emas, balki ifodali ijro etish hamda yengil, chiroyli va latofat bilan raqsga tushishga o'rgatib borish maqsadga muvofiq.

Qo'shiq kuylab raqsga tushishda asosan, xalq og'zaki ijodi asarlaridan foydalaniladi, bu bolalarni axloqiy-estetik tarbiyalash uchun go'yat qimmatli vositadir.

Xalq qo'shiqlari orasida esa bolani dunyoga kelgan kundan boshlab uning xarakteri, milliy ruhiyati, fe'l-atvori va dunyoqarashini shakllantirishda go'iyaviy-estetik asos vazifasini o'tovchi *allalar* alohida o'rin tutadi. Allalar bola shaxsiga kuchli ta'sir etish xususiyatiga ega bo'lib, o'zida ovutish, nimagadir qiziqtirish, go'zal hislarni to'yish, so'z go'zalliklaridan bahramand bo'lishni o'zida aks ettiradi.

Allalarda ifodalangan go'oya, ohang, shuningdek, uni ijro etishda sodir etiladigan amaliy harakatlar o'ziga xos estetik jihatdan tarbiyaviy kuch va imkoniyatga ega. Buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino o'z davrida allaning bolani ma'naviy-estetik jihatdan rivojlanishiga ta'sirini quyidagicha bayon etgan: "Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi uni uxlatish uchun odat bo'lgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab, bolaning tanasi bilan badantarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi hosil bo'ladi"³⁵.

35 Ibn Sino, Abu Ali. Tib qonunlari. 1-jild. –T.: «Xalq me'rosi» nashriyoti, 1992. – 77-b

Bolalarning kuylash imkoniyatlaridan ko'ra, tinglash imkoniyatlari kengroq bo'ladi. Musiqa tinglash orqali bolalarning badiiy idroki rivojlanadi. Musiqashunos olimlar bolalarni musiqiy tarbiyalashda musiqa tinglash faoliyatiga alohida e'tibor beradilar. Chunki, har bir insonning musiqa madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda musiqa tinglash ko'nikmasi muhim o'rin egallaydi. Musiqa tinglash uchun tavsiya etilgan va repertuarga kiritilgan musiqiy asarlar musiqiy obrazlar orqali bolalarda jonajon Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, tabiatni e'zozlash, hamjihatlik, rahm-shafqat kabi xislatlarni shakllantirishga qaratilgan. Musiqa mashg'ulotlarida musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish bolalarning axloqiy-ma'naviy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqaga mos raqs, o'yin harakatlarini bajarish bolalarning diqqatini jamlash, xotirasini mustahkamlash va jismonan sog'lom o'sishlariga yordam beradi. Eng muhimi, raqs va ritmik harakatlar vositasida bolalarning musiqiy iqtidori, ritmik tuyg'ular shakllanadi, xotirasi charxlanadi. Musiqiy-ritmik harakatlar bolaning harakatchan, chaqqon bo'lishiga yordam beradi, qomatining to'g'ri o'sishiga ta'sir ko'rsatadi. Bolaga tetiklik va g'ayrat bag'ishlab, turli emotsional hislarini uyg'otadi. Raqs kuylari esa bolalarda ajoyib ichki his-tuyg'ular, kechinmalar hosil qilib, beixtiyor raqsga tushishga undaydi va ularni behand zavqlantiradi. Musiqa mashg'ulotlari davomida bolalar musiqa cholg'u asboblari jo'r bo'lishi bolalar uchun g'oyatda yoqimlidir, chunki musiqa cholg'u asboblari, tovushli o'yinchoqlar sifatida har bir bolani qiziqtiradi. Bolalar musiqa chalg'u asboblari, birinchi navbatda, bolalarda ijrochilik mahorati, musiqiy uquvi va qiziqishni o'stiradi. Musiqa asarlarini diqqat bilan tinglash, musiqaning xarakterini his etish musiqa cholg'u asboblari farqlashga, tovush balandligini bilishga o'rgatadi. Bolalar qo'shiqni kuydan ajrata olishga, qo'shiq so'zlarini aniq, tushunarli kuylashga, kirish qismidan so'ng qo'shiqni birga boshlash va tugallashga, metallofondoda oddiy kuylarni, doirada oddiy ritmlarni ijro etishga harakat qiladilar. Musiqa mashg'ulotlarida bolalar guruhidan bolalar musiqa cholg'u asboblari orkestri, vokal ansambllari tuzish mumkin bo'ladi. Kichik hajmdagi o'zbek xalq kuylaridan boshlab, kattaroq asarlarga bolalar shiqildoqchalar, doirachalar va rumbalardan turli ritmik usullarni chalinishni o'rganadilar.

1. Estetik tarbiya deganda nimani tushunasiz?
2. Estetik tarbiyaning badiiy tarbiya bilan aloqadorligi nimada?
3. Estetik tarbiya tizimini tushuntirib bering.
4. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning estetik rivojlanishidagi o'ziga xosliklarni bayon eting.
5. Estetik tarbiya omillari deb nimaga aytiladi?
6. Estetik tarbiya vositalari deganda nimani tushunasiz?
7. Estetik tarbiya vositalariga nimalar kiradi?
8. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni estetik tarbiyalashda badiiy adabiyotning o'rni qanday baholaysiz?
9. Maktabgacha ta'lim yoshi bilan bog'liqlikda ertak asosida qo'g'irchoq teatrini o'tkazishga doir ishlanma tayyorlang.
10. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga musiqiy tarbiya berishning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarga estetik tarbiya berish mazmuniga nimalar kiradi?

- A) Tabiatga estetik munosabatni tarbiyalash
- B) Mehnat va ijtimoiy hayotga estetik munosabatni tarbiyalash
- C) Turmushga estetik munosabatni tarbiyalash, san'atga estetik munosabatni tarbiyalash kiradi
- D) Barcha javoblar to'g'ri

2. Estetik ehtiyoj nima?

- A) Borliqni idrok etishga undovchi subyektiv omil
- B) Badiiy faoliyatni idrok etishga undovchi obyektiv omil
- C) Biror narsani chuqurroq o'rganishga intilish
- D) Estetik go'zal tuyg'ularga intilish

3. Badiiy tarbiya nima?

- A) Badiiy filmlar orqali tarbiyalash

- B) Amaliy san'at asarlari orqali tarbiyalash
- C) San'at asarlari orqali tarbiyalash
- D) Badiiy adabiyotlar orqali tarbiyalash

4. "Go'zallik bola ega bo'lgan narsa emas, balki birinchi navbatda u yaratayotgan narsadir" fikri kimga taaluqli?

- A) N.G.Chernishevskiy
- B) A.S. Makarenko
- C) V.A. Suxomslinskiy
- D) A.G. Nazarova

5. Estetik tarbiya boladan nimani talab qiladi?

- A) Idrokni
- B) Sensor madaniyatni
- C) Qobiliyatni
- D) Hissiyotni

6. Estetik tarbiyaning maqsadi bu...

- A) Bolalarda go'zallikni ko'ra olish, his qilish, tushunish va yaratish ko'nikmalarini shakllantirish
- B) Badiiy didni, go'zallikni baholash qobiliyatini tarbiyalash
- C) Bolaning voqelikka estetik munosabatini shakllantirish
- D) Estetik tarbiya va badiiy ta'limning hamma uchun umumiyligi

7. Estetik tarbiya tizimi qanday tamoyillarga tayanadi?

- A) Badiiy estetik faoliyat, jamiyatning amaliy taraqqiyoti
- B) Estetik didni shakllantirish, go'zallikni tushunish
- C) Estetik tarbiya va badiiy ta'limning hamma uchun umumiyligi, bolalarning badiiy ijodiy va mustaqil faoliyati
- D) Bolaning voqelikka estetik munosabatini shakllantirish, san'atdagi, atrofimizdagi go'zallikni his qila olishi

8. Estetik ehtiyoj, estetik qiziqish, estetik ong ... tarkibiy qismlari.

- A) Estetik tarbiyaning
- B) Estetik rivojlanishning
- C) Estetik tarbiyaning
- D) Estetik madaniyatning

Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda sharq mutafakkirlari fikrlaridan foydalanish

Barkamol avlodni tarbiyalash insoniyatning eng yorqin orzusi bo'lib kelgan. Biroq dunyo xalqlarining barchasi ham bu haqda o'ylayvermagan. Bunday orzudagi insonlar azaliy ma'rifatga, madaniyatga mansub bo'lgan yurtlarning donishmandlari – eng

mo'tabar ziyolilari, hukmdorlari hisoblanganlar. Ularning orasida O'zbekiston deb atalmish muazzam zaminimizda yashagan bobolarimizning o'z o'rni, hurmati bor. Bu jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilingan haqiqatdir. Barkamol avlodni tarbiyalash orzusiga o'z tariximizdan juda ko'p dalillar keltirishimiz mumkin. Al-Forobiyning «Fozil odamlar shahri» asaridagi g'oyani yodga oling. Unga ko'ra jamiyatning har bir fuqarosi – mansabi, tutgan o'rni, ya'ni kim bo'lishidan qat'iy nazar FOZIL kishi. Fozil inson o'z davlatining barcha qonun-qoidalarini yaxshi biladi, unga amal qiladi, fikrlaydi, o'z kasbining ustasi, lozim bo'lganda Vatani uchun jon fido qiladi. Fozillar shahri aholisi bir-biriga hurmatda bo'ladi.

Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi har bir sohani qamrab olgani singari maktabgacha ta'lim muassasalarini ham qamrab olib, ularning iqtisodiy ahvolini qiyin sharoitga solib qo'ydi. Iqtisodiyotdan xabari bor, tadbirkorlik qobiliyatiga ega, tashabbuskor va uddaburon bog'cha mudiralariga bu holat unchalik sezilmadi. Xo'sh, iqtisodiyot nima o'zi? Uning bog'chalarga ta'siri nimada? Kishilar yashashlari, siyosat, san'at, adabiyot, fan, ma'rifat, madaniyat, ta'lim bilan shug'ullanishlari uchun hayotiy ne'matlarni iste'mol qilishlari, kiyinishlari kerak. Buning uchun esa oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va turli xizmatlardan iborat hayotiy vositalar zarur. Har bir kishi, o'zining kundalik hayotida bir qancha muammolarga, ya'ni hayotiy ehtiyojlari – kiyim-kechak, oziq-ovqat, uy-ro'zg'or buyumlari, bilim olish kabi ehtiyojlar uchun zarur bo'lgan pul daromadlarini qaerdan, nima hisobiga topish kerak, degan muammolarga duch keladi. Iqtisod qilish, tejashga odatlangan odamlar saodat va tinchlik bilan umr kechiradilar.

Iqtisodiyot kishilik munosabatlarining muhim va ajralmas qismi bo'lib, uni samarali tashkil etish tabiiy ehtiyojlar (yeyish-ichish, kiyinish, yashash va hokazolar)ni qondirishga xizmat qilibgina qolmay, shaxsning ma'naviy jihatdan kamolotga erishishida ham alohida ahamiyatga ega. Shu bois

turli ijtimoiy tuzumlar davrida ham ishlab chiqarishni to'g'ri tashkil etish, takomillashtirish, ilm-fan, texnika hamda texnologiya sohalarida qo'lga kiritilayotgan yutuqlardan foydalanish masalalariga jiddiy e'tibor qaratib kelingan. Iqtisodiyot yetakchi yo'nalishlardan biri sifatida jamiyatning ijtimoiy va madaniy taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi bois barcha davrlarda ham har qanday davlat siyosatining asosini tashkil etadi.

Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek: "Fuqarolar endi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning ishtirokchisi, bajaruvchisi emas, balki bunyodkor va tashkilotchisidir. Bunday yangicha yondashish atbatta pedagogika fanining keyingi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Endi pedagogika fani faqat ta'lim-tarbiya jarayonini nazariy, uslubik-amaliy ta'minlovchi emas, komil insonning shakllanishi, rivojlanishini ta'minlovchi keng sohalarni o'z ichiga ola boshladi. Endilikda pedagogika fani o'z oldiga yangicha fikrlash, yangicha tafakkur, milliy mafkuraning keng qamrovli sifatlarini shakllantirish vazifalarini qo'ydi. Shuning uchun ham yangi ta'lim konsepsiyasi qabul qilindi va unda keyingi rivojlantirishlarning barcha yo'nalishlari qayta ko'rib chiqildi. Ko'p yillar davomida pedagogika siyosatga xizmat qilib kelgan va unda ma'lum chegaralanishlarga amal qilishga majbur bo'lgan bo'lsa, endilikda u siyosatdan xoli bo'lgan holda erkin fan sifatida o'z rivojlanishini davom ettirish imkoniyatiga ega bo'ldi. O'zbek pedagogikasi o'z milliy xususiyatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ldi".

Iqtisodiyot haqida bilimga ega, tadbirkorlik qobiliyati bor maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilari tarbiyalanuvchilarga ehtiyojlar, pulning paydo bo'lishi, iqtisod, oila iqtisodi, bog'cha iqtisodi, pul, bazor, mahsulot, ishlab chiqarish, savdo-sotiq, savdodagi halollik kabi tushunchalarni oddiy tilda soddalashtirib o'rgatib boradilar. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarida yangicha moddiy va iqtisodiy farovonlik haqidagi tuyg'ularni tarbiyalashga ahamiyat berish, ezgu maqsadga erishish malakalarini vujudga keltirish va takomillashtirish, halollik va fidoyilik odobini tarbiyalash masalalari bugungi kunda pedagogika fani oldida turgan masaladir.

Zardushtiylik g'oyalari ko'ra, iqtisod tabiat va uning ne'matlariga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish, ularni asrab-avaylash hamda ko'paytirish to'g'risida qayg'urishdan iboratdir. Bu g'oyalar keyinchalik islom dinining muqaddas manbalari Quroni Karim va Hadisi sharifda ham yanada rivojlantiriladi hamda shaxs faoliyatining iqtisodga ta'siri nuqtayi

nazaridan aniq baholashga e'tibor qaratiladi. Ya'ni, bu manbalarda mavjud moddiy va ma'naviy ashyolarni asrash, boyitish yo'lida amalga oshiriluvchi xatti-harakatlar savob, ularni isrof qilish, nobud etish gunoh deya baholangan. O'z asarlarini islomiy g'oyalar negizida yaratgan Sharq mutafakkirlari Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Alisher Navoiy, Abdurauf Fitrat hamda Abdulla Avloniy shaxsning yaratuvchanlik faoliyati, dehqonchilik va hunarmandchilik, oila xo'jaligini tashkil etish to'g'risidagi qarashlarni ilgari surganlar.

Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga ishlab chiqarish haqida tushuncha berishda allomalar fikrlari, o'gitlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, tibbiyot ilmining sultoni Abu Ali ibn Sino tibbiyot bilan bir qatorda iqtisodiyot bilan ham shug'ullanganligi uning quyidagi fikrlarida o'z aksini topgan: "hayvon tabiat ne'matlariga qanoat qiladi, odamlarga esa tabiat ne'matlari kamlik qiladi, u oziq-ovqat, kiyim-kechak va uy-joyga ehtiyoj sezadi. Hayvon ta'biat ne'matlarini o'zlashtirib oladi, odam esa o'z mehnati bilan o'ziga oziq-ovqat, kiyim-kechak, joy yaratadi. Shu maqsadda inson dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanishi kerak».

Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarida iqtisodiy bilim va tarbiyani, resurslarning cheklanganligi, tabiat ne'matlarining tugab qolishi, inson ehtiyojlarining esa cheksizligi haqidagi ma'lumotlarni yoshligidanoq singdirib borish ularni tejamkorlikka, moddiy va ma'naviy boyliklarni asrab-avaylash ko'nikmalarining shakllanishiga olib keladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya

O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach, iqtisodiy madaniyatni yuksaltirish davlatning muhim vazifalaridan biriga aylandi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan asosiy o'zgarishlar amalga oshirilib, bozor madaniyatini shakllantirish uchun jiddiy asos yaratildi. Iqtisodiy madaniyat rivojining asosiy omillaridan biri bo'lgan xo'jalik yuritish erkinligining asosi ta'minlandi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mamlakat iqtisodiyotining bozor munosabatlarini rivojlantirishga yo'naltirilganligi, barcha mulk shakllarining teng huquqli ekanligi va ularning bab-baravar muhofaza etilishi, xususiy mulkning ham davlat muhofazasiga olinganligi belgilab berildi. Iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi uchun keng yo'l ochildi. Aholining iqtisodiy bilim savi-

yasi va malakasini, iqtisodiy fikrlash qobiliyatini kengaytirish, mehnatga boʻlgan ijodiy yondashuvini kuchaytirish, ularning tadbirkorlik faoliyatidagi ishtirokini faollashtirishga asosiy eʼtibor qaratilib, ularni amalga oshirish uchun qulay shart-sharoit yaratilmoqda.

1996-yil 17-avgustda “Oʻzbekiston Respublikasida uzluksiz iqtisodiy taʼlim-tarbiya konsepsiyasi” qabul qilindi. Mazkur konsepsiyani amalga oshirishda esa quyidagi sakkiz bosqichga asoslanildi:

I bosqich. Oila. Maktabdan tashqari taʼlim (Har bir bosqich uchun tayyorlangan ishlanmalar).

II bosqich. Maktabgacha taʼlim-tarbiya (Iqtisodga yoʻnaltirilgan oʻyin mashgʻulot).

III bosqich. Boshlangʻich taʼlim (Iqtisod alifbosi).

IV bosqich. Umumiy taʼlim (Iqtisodiy tushunchalar).

V bosqich. Oʻrta-maxsus, kasb-hunar taʼlimi (Iqtisodiy bilim va kasb iqtisodiyoti asoslari).

VI bosqich. Oliy taʼlim (Tarmoq iqtisodiyoti).

VII bosqich. Tarmoqlar boʻyicha malaka oshirish tizimi (Amaliy iqtisod).

VIII bosqich. Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi, tarmoq akademiyalari, ilmiy markazlar (Iqtisodiy taʼlim boʻyicha ilmiy izlanishlar).

Uzluksiz iqtisodiy taʼlim-tarbiya konsepsiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Iqtisodiy taʼlimning uzluksizligini taʼminlovchi bir butunlikni hosil qilish uchun har bosqichning oʻziga xosligini oʻrganish.

2. Har bir bosqichning mustaqil maqsad va vazifalari, tashkiliy shakl, uslub, vosita, usul va uslubikalarini ishlab chiqish.

3. Bosqichlar orasida koʻprik vazifasini bajaruvchi shaxsning iqtisodiy madaniyatlilik darajasini koʻrsatuvchi taʼlimiy-tarbiyaviy tadbirlar majmuining xususiyati, imkoniyatlarini aniqlash.

4. “Labirintlar tizimi” ilmiy-uslubik loyihani amalga oshirishdagi moddiy taʼminot.

Uzluksiz iqtisodiy taʼlim-tarbiyaning umumiy vazifalaridan kelib chiqqan holda, maktabgacha taʼlim muassasalarida amalga oshiriladigan iqtisodiy tarbiyaning maqsad va vazifalarini quyidagicha belgilab olish mumkin:

Maktabgacha taʼlim muassasalarida amalga oshiriladigan iqtisodiy tarbiyaning maqsadi bolalarni iqtisodiy bilim, koʻnikma va malakalarni

egallashga tayyorlashdir. Mazkur maqsadga erishishda quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish lozim:

1) maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning fikrlash doirasini kengaytirish va chuqurlashtirishga imkon beruvchi turli vaziyatlarni ishlab chiqish;

2) iqtisodiy tushunchalar bilan bog'liq vaziyatlarni hal etishni amalga oshirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish;

3) iqtisodiy bilimlarni egallashga zamin bo'luvchi, mantiqiy-matematik tasavvurlarni rivojlantiruvchi o'yinlar majmuini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiyani amalga oshirish o'rta guruhdan boshlanib, "Ilk iqtisodiy ta'lim-tarbiya dasturi"ga ko'ra mazkur yosh guruhida bolalarni olti xil iqtisodiy tushuncha bilan tanishtirish ko'zda tutiladi: 1) iqtisod; 2) mehnat; 3) bo'ylik; 4) mulkiy munosabatlar; 5) bozor; 6) pul.

Katta yosh guruhi bolalariga esa o'rta guruhda o'rgatilishi mo'ljallangan tushunchalar mohiyatini kengroq va to'liqroq yoritish bilan birga quyidagi sakkiz turdagi iqtisodiy tushuncha haqidagi bilimlar tarkib top-tiriladi: 1) iqtisod; 2) mehnat; 3) bo'ylik; 4) mulkiy munosabatlar; 5) tad-birkorlik; 6) bozor; 7) pul; 8) mahsulot.

Maktabga tayyorlov guruhida esa o'n bir xil iqtisodiy tushuncha mazmuni yoritib beriladi: 1) iqtisod; 2) mehnat; 3) oila; 4) jamiyat; 5) aloqa; 6) ma'naviyat; 7) qoida va tartibni saqlash; 8) boshqaruv; 9) savdo; 10) pul; 11) mahsulot.

Ilk iqtisodiy ta'lim-tarbiya mazmuni maktabgacha ta'lim muassasalarini- ning "Atrofolam to'g'risida bilimga ega bo'lish va uni anglash" hamda "Elementar matematik bilim va ko'nikmalar"ni tarkib toptirishga doir mashg'ulotlar negizida amalga oshiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy ta'lim berishning nazariy asoslari

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat barpo etishni strategik maqsad qilib oldi. Shuningdek, prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan bozor iqtisodiyotiga tadrijiy ravishda o'tishning 5 ta tamoyili ishlab chiqildi. Barcha o'quv yurtlarida iqtisodiyot fanlari o'rgatila boshlandi.

Bu ishlarni bolalar bilan maktabgacha ta'lim yoshdanoq olib borish davr talabi bo'lib qoldi. Axir ota-bobolarimiz bola boshidan deb bejiz

aytishmagan. Bolalarimiz yoshligidanoq beixtiyor ravishda iqtisod bilan to'qnash keladilar. Ular ilk yoshidanoq oilada «meniki», «bizniki», «boy», «arzon», «qimmat», «sotib olish», «sotish», «pul» kabi tushunchalar bilan qurollanadilar. Shunday ekan, bolalarning oilada o'rganganlarini bog'chada davom ettirishimiz, ya'ni ilk sodda iqtisodiy tushunchalarni berib borishimiz lozim.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari va «Bolajon» tayanch dasturi asosida maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilari uchun «Ilk iqtisodiy ta'lim saboqlari» dastur va uslubiy qo'llanma ishlab chiqilgan.

Dastur o'rta, katta va tayyorlov guruh bolalari uchun mo'ljalangan bo'lib, mashg'ulotlar ikki haftada bir marta nutq o'stirish, matematika, tabiat, mehnat, tasviriy faoliyat mashg'ulotlari bilan integral tarzda 25-30 daqiqadan olib boriladi. Mashg'ulotlarning yakunida iqtisodiy o'yinlarning berilishi bolalarning diqqati, nutqi, tafakkuri va mantiqiy fikrlash qobiliyati rivojlanishiga yordam beradi. Shuningdek, qo'llanmada iqtisodiy mazmunga ega bo'lgan topshiriqlar, boshqotirmalar ham berilgan.

Bolalar iqtisodiy tushuncha va tasavvurlarni o'yin, amaliy mashqlar orqali oson va tez qabul qiladilar. Bunday usullar, bolalarning iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiy terminlar olamiga oson va qiziqarli yo'llar bilan kirishiga omil bo'ladi.

Dastur va qo'llanmada o'rta guruhlar uchun (inson va uning ehtiyojlari, inson va iqtisod, pul, mahsulotlarni sotib olish va ayriboshlash) 11 ta mavzu, katta va tayyorlov guruhlari uchun 18 ta mavzuda (inson va uning ehtiyojlari, inson va iqtisodiyot, pul, narx, mahsulotlarni sotib olish va ayriboshlash, ishlab chiqarish, mehnat faoliyati) o'z aksini topgan.

Dasturning maqsadi: bolalarga ilk iqtisodiy tushuncha va atamalar bilan qurollantirish orqali, ularning shaxs sifatida ulg'ayib kamol topishiga asos bo'la oladigan bilim, ko'nikma va malakalar berishdan iborat.

Iqtisodiy tarbiya yosh avlodda iqtisodiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish, ularda tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, iqtisodiy faoliyatni yo'lga qo'yish to'g'risida fikrlashga o'rgatadi. Iqtisod, iqtisodiyotning o'zi nima? Bu tushuncha yunon olimi Geliot tomonidan kiritilgan bo'lib, bu - «uy xo'jaligini boshqarish sanoati» ma'nosini anglatadi. Keyinchalik bu tushunchaning mohiyati kengayib, ma'nosi ham to'ldirib borilgan. Iqtisodiyot – bu juda keng va murakkab tushuncha. Iqtisod atamasi tor ma'noda inson yaratgan barcha boyliklarni tejash,

shuningdek, inson mehnatini qadrlash ma'nosini anglatadi. Keng ma'noda iqtisodiyot insonning tirikchiligini o'tkazishga qaratilgan xo'jalik faoliyati bo'lib, bu faoliyat ishlab chiqarishdan boshlanib, yaratilgan mahsulotlarni iste'mol etish bilan yakunlanadi. Demak, iqtisod inson faoliyatining asosiy jihati bo'lib, jamiyatning eng muhim negizi, uning poydevori hisoblanadi. Iqtisodiy tarbiya o'z ichiga bolalar tomonidan iqtisodiyot asoslarini o'rganish, ularning unumli va ijtimoiy mehnatning turli ko'rinishlarida ishtirok etish, rejalashtirishga doir bilim va malakalarga ega bo'lish, ishlab chiqarish mahsulotlarini hisobga olish va nazorat qilish kabilarni oladi. Iqtisodiy tarbiyaning inson va jamiyat, iqtisodiy geografiya, tarix, matematika, kimyo, biologiya, mehnat ta'limi darslarida amalga oshirilishi yanada ijobiy samaralarni beradi.

Iqtisodiy tarbiya berishning maqsadi insonni iqtisodiy faoliyatga tayyorlashga, uni jamiyatimiz iqtisodiy hayotida ishtirok etishga, respublikaning tirishqoq, serg'ayrat fuqarolarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. U bolalar ongida jamiyatni rivojlantirishning iqtisodiy qonuniyatlari haqida aniq tasavvurlar shakllanishini va shular asosida unda kundalik hayotida zarur bo'ladigan iqtisodiy bilimlar tarkib topishini ta'minlashi kerak.

Iqtisodiy tarbiyalangan kishida hayotimizdagi ko'pgina kundalik muammolarni hal etishga bo'lgan qarashi o'zgaradi va quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

1) Bolalar iqtisodiy ongining qaror topishi ularda iqtisodiy tushunchalar tizimini shakllantirishni;

2) ularning jamiyatni iqtisodiy rivojlantirish qonuniyatlarini;

3) iqtisod, ishlab chiqarishni tashkil etishga doir umumiy ma'lumotlarni o'zlashtirib olishini;

4) ularda fikrlash operatsiyalari (tahlil, sintez qilish, umumlashtirish va boshqalar) ni rivojlantiradi;

5) eng oddiy iqtisodiy tahlil qilish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirishni nazarda tutadi.

Shu sababli maktabgacha yoshdanoq matematika mashg'ulotlarida iqtisodiy tarbiya elementlarini oshirib borish lozim. Buning uchun bolalarni oila budjeti asoslariga o'rgatish kerak. Shunda ular turli xil oila xarajatlari, oila a'zolari daromadi (ish haqi, pensiya, stipendiya, yordam puli va boshqalar)ning qanday manbalar hisobiga qoplanishini bilib oladilar. Bolalarni budjetning raqamlardagi ifodasi bilan tanishtirish,

oilaning ovqatlanish, kiyim-bosh, poyabzal, kommunal xizmatlar, o'yin-kulgi, sayr-tamosha va hokazolar uchun bo'ladigan xarajatlarni misollar bilan tushuntirish kerak. Shundan keyin bolaning shaxsiy budjetini misol qilib ko'rsatish kerak: ota-onalari unga maktabda ovqatlanishga, o'yin-kulgilarga necha so'm berishi, ularni qanday sarflashi. Bolalarni daromad va xarajatlarni taqsimlashga o'rgatish, jamg'armalardan qanday foydalanish mumkinligini ularga gapirib berish lozim. Shundan so'ng bolalarga ishlab chiqarish xarajatlari va ularning turlari haqida oddiy tushunchalar berish kerak. Ularga qo'shimcha ishlab chiqarish yoki uy xo'jaligini yuritishni, har qanday faoliyat xarajatlar bilan bog'liqligini eng oddiy misollarda tushuntirish zarur. Biror-bir ishni bajarish, tovar ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish uchun bir qancha resurslar sarflash lozimligini tushuntirish kerak.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni ilk iqtisodiy tushuncha va atamalar bilan tanishtirish uning shaxs sifatida ulg'ayib kamol topishida asos bo'la oladi. Shuning uchun har bir guruh tarbiyachisi bolalarni ilk iqtisodiy saboqlar bilan tanishtirish bo'yicha dastur talablarini, ya'ni bolalarga beriladigan tushunchalar hajmini va ularni amalga oshirish yo'llarini va uslublarini bilishi kerak.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ilk iqtisodiy ta'lim berish (tejamkorlik, oila, mehnat, bozor, do'kon, ishlab chiqarish va savdo)ning o'ziga xos xususiyati shundaki, o'rta guruhda asosan tejamkorlik mavzularida bilim berilib, do'kon, bozor o'yinlari soddaroq shaklda o'tiladi.

Katta tayyorlov guruhlarida mashg'ulot mavzulari deyarli o'zgarmaydi, ammo har bir mavzuni ochib berish, boyitish, kengaytirish hisobiga mashg'ulotni o'tishda faqat shu mavzuga tegishli tushunchalar yangi misollar, yangi muammolar yechib borilaveradi. Shuning hisobiga bolalarning ilk iqtisodiy tushunchalari ham kengayib borishi ko'zda tutilgan.

Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarga ilk iqtisodiy ta'lim integral ta'lim asosida olib boriladi: tevarak-atrof bilan tanishtirish, matematika, tasviriy faoliyat, mehnat, o'yin faoliyatlarida olib boriladi.

Barkamol avlodni tarbiyalashda iqtisodiy ta'limning ahamiyati

Har bir mustaqil davlat o'z ravnaqini qanchalik qadrlashi uning mamlakat kelaji hisoblangan yosh avlod haqida qilayotgan g'amxo'rliqi bilan chambarchas bog'liq. Davlatning bo'lajak taraqqiyoti aynan shu bolalar, yoshlar qo'lida ekanligi hech kimga sir emas. 2010-yilning Yurtboshimiz tomonidan «Barkamol

avlod yili» deb eʼlon qilinishi ham **shu** bilan bogʻliq. Chunki, har bir jamiyat va millatning taraqqiyot mezon**i**, tayan**chi**, kuch-qudrati, ijtimoiy hayot maqsadlarini roʻyobga chiqaruv**chi** asosiy omili – yoshlardir. Barkamol avlodning kelajagi haqida qaygʻurish. sogʻ, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatlarimizdir.

Taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida respublikamizda barkamol avlodni har tomonlama yetuk insonlar qilib voyaga yetkazishda barcha imkoniyat va shart-sharoitlar bugungi kun talablari darajasida mavjuddir.

Respublikamizda qabul qilingan «Taʼlim toʻgʻrisida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» milliy taʼlim tizimini ifoda etuvchi huquqiy hujjatlardir. Bu hujjatlarning mavjudligi «Barkamol avlod yili» davlat dasturida belgilangan vazifa va rej alarni hayotga tatbiq etish uchun muhim asosdir.

Mustaqil vatanimizda har tomonlama barkamol yosh avlodni tarbiyalash va shakllantirish borasida bir qator oʻta muhim masalalarga eʼtibor qaratish maqsadga muvofiqdir, xususan,

– uzluksiz taʼlim jarayonida yangi axborot-komunikatsiya va ilgʻor pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish;

– yoshlarni barcha taʼlim muassasalarda tarbiyalash borasida yaratilgan zamonaviy moddiy-texnika bazasidan samarali foydalanishni takomillashtirish;

– yoshlarning sogʻlom turmush tarzini yanada faollashtirish, bunda barcha taʼlim muassasalarida yoshlarni tarbiya va sport-sogʻlomlashtirish oʻyinlariga jalb etish;

– isteʼdodli yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ularni moddiy va maʼnaviy ragʻbatlantirishni takomillashtirish va hokazo.

Barkamol avlodni tarbiyalashda iqtisodiy taʼlimning ahamiyati beqiyosdir.

Tub islohotlarni amalga oshirish, bozor munosabatlarini shakllantirish koʻp jihatdan iqtisodiy taʼlimga bogʻliqdir. Kishilarda iqtisodiy tafakkurni shakllantirmasdan turib, chuqur oʻzgarishlarni amalga oshirib boʻlmaydi.

Mustaqillik yillari davomida milliy xoʻjaligimiz iqtisodiy jihatdan mustahkamlanib, inqiroz holatidan chiqarildi va uning koʻpgina sohalari-da barqaror oʻsishga erishildi. Bozor mexanizmining tarkibiy qismlari qaror topdi va uning infratuzilmalari vujudga keltirildi, hozirgi kunda esa iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotni har taraflama erkinlashtirish amalga oshirilmoqda. Eng muhimi, shu davr ichida milliy

istiqlol g'oyasi va mafkurasi shakllanib, kishilarimiz ongiga singib bormoqda.

Bugungi kunda, mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini zamon talablari darajasida qayta tashkil etish maqsadida ta'limning xalqaro andozalaridan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, dunyoning rivojlangan va bozor iqtisodiyoti amal qilayotgan mamlakatlarning deyarli barchasi yangi mexanizmning keskin o'zgarishlariga moslasha oladigan va har qanday sharoitda raqobatlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash borasida zamonaviy iqtisodiy ta'lim tizimiga egadirlar. Jamiyat taraqqiyoti darajasi, axborotlarning haddan tashqari ko'pligi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, umuman olganda, hayot tajribasi shuni ko'rsatadiki, yoshlarni yetuk, vaziyatni tezda anglay oladigan, ayni shu vaziyat uchun to'g'ri qaror qabul qila oladigan malakali mutaxassislar etib tayyorlash uchun faqat an'anaviy uslublarga tayanish yetarli emas.

Hozirgi paytda tayyor bilimlarni o'zlashtirish asosiy maqsad bo'lmay, eng asosiysi yoshlarning intellektual qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil tanlash va qaror qabul etish ko'nikmasini hosil etish obyektiv zaruratga aylandi. Ma'lumki, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar o'z navbatida mutaxassislar malakasi va mahoratining yuqori bo'lishini, mutaxassislarga bo'lgan talabning o'zgarishiga moslashuvchan, o'z malakasini oshirishga intiluvchan bo'lishni talab etadi. Buning uchun mutaxassislarni mustaqil izlanish, fikrlash, turli qarashlarni taqqoslash, tahlil etish, xulosa chiqarishga o'rgatish lozim. Bugungi kunda Respublikamizda ta'limni rivojlantirishning yangi bosqichida iqtisodiy ta'limning asosiy vazifasi sifatida jahon talablari darajasida yangilanib borayotgan ishlab chiqarish sharoitlariga moslasha oladigan, iqtisodiyotimizni buyuk davlat darajasiga ko'taradigan mutaxassislarni tayyorlash va bu jarayonda asosiy omil sifatida beriladigan axborotlar hajmini emas, balki ijodiy yondashuvni shakllantirish, mustaqil fikrlash va tatbiq etish sifatlarini tarbiyalashga e'tibor qaratish lozim. «Iqtisodiyot» bilan shug'ullanishning birinchi vazifasi talabalarning iqtisodiy bilim saviyasini oshirish bo'lsa, keyingisi ana shu bilim asosida malaka va ko'nikmalar hosil etishdir. Har bir insonning hayoti asosini iqtisodiy faoliyat tashkil etar ekan, u, albat, har bir odamdan iqtisodiy fikrlashga o'rganishni talab etadi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida bu talab yanada kuchayadi. Shuning uchun ham iqtisodchilarga yoshligidan boshlab iqtisodiy fikrlashni o'rganishlari

uchun, mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim maktabidan boshlab, iqtisodiy bilim asoslarini o'rganishga kirishildi.

Bo'lajak pedagog-tarbiyachilar iqtisodiy fikrlashni o'rganibgina qolmay, keng doiradagi iqtisodiy muammolarni aniqlash, tahlil qilish, iqtisodiy rivojlanish tendensiyalariga baho berish, bu o'zgarishlar kelajakda qanday natijalarga olib kelishini ko'z oldiga keltira bilishni o'rganishlari zarur. Shunday qilib, bugungi kunda siyosatning asosiy muammolari bu iqtisodiy muammolar bo'lib, ularni tushunmay turib, bu muammolarni yechish uchun zarur chora-tadbirlar belgilab yoki berilgan maslahatlarning qaysi biri diqqatga sazovor ekanligini ajratib bo'lmaydi. Buning uchun esa bo'lg'usi mutaxassis kadrlar iqtisodiy ta'lim asoslarini chuqur bilishlari va amaliyot jarayonida qo'llashlari davr talabidir.

Maktabgacha ta'lim muassasasida iqtisodiy tushunchalarni berishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llari

Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya jarayonida axborot texnologiyalarining joriy etilishi hozirgi vaqtda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ko'pgina maktabgacha ta'lim muassasalarimiz yetarli darajada texnik

vositalar bilan ta'minlangan. Bu esa o'z navbatida ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishga, mashg'ulotlarni qiziqarli va mazmunli bo'lishiga olib keladi.

«Ta'lim to'g'risida» gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni ro'yobga chiqarish sifat ko'rsatkichi bosqichiga kirdi. Yangi «Bolajon» dasturi yaratilib, MTM va tarbiyachilar ixtiyoriga taqdim etildi. Ularning tarbiyalanuvchilar tomonidan o'zlashtirilishi va mustaqil fikr yuritishlariga undashi bevosita tarbiyachi faoliyatiga bog'liqdir. Yangi «Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat talablari»ni o'zlashtirish kafolatli yangicha zamonaviy texnologiya asosida ish yuritishni talab etadi. Shu masalaning yechimini topishda ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni olib kirish eng dolzarb masalalardan biridir.

Pedagogik texnologiya o'zi nima? «Texnologiya» yunoncha «texnos» mahorat, san'at, «logos» fan, ta'limot so'zlaridan olingan.

Yangi pedagogik texnologiya asosida o'tkaziladigan mashg'ulotlarning an'anaviy mashg'ulotlardan farqi shuki, bu mashg'ulotda bolaga erkinlik muhitini yaratib berib, unga o'z fikrini erkin bayon etishga imkon yaratib berishdir. Bolani mustaqil ishlatish deganda, bir necha bolaga topshiriqlarni bo'lib berish orqali mashg'ulot o'tish emas, balki hamma bolalarni birga-

likda ishlatishni tushunamiz. Bolalarni birgalikda ishlatish uchun ta'lim jarayonida interfaol uslublardan foydalanamiz.

Interfaol – lotincha «inter» soʻzidan olingan boʻlib, «orasida», «oʻrtasida» degan maʼnoni anglatadi, yaʼni ikki narsa oʻrtasidagi faollik degan maʼnoni anglatadi.

Taʼlimda interfaol uslub – bu tarbiyalanuvchi bilan tarbiyachi oʻrtasida taʼlimni oʻzlashtirish munosabatlarini kuchaytirish, faollashtirish demakdir. Mazkur uslublar hamkorlikda ishlash vositasida mashgʻulot samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ular bolalarni mustaqil fikrlashga undaydi.

Interfaol uslublar tarbiyalanuvchi bilan tarbiyachining faol munosabati, bir-birini toʻliq tushunishiga asoslanadi. Interfaol uslublarni taʼlim jarayoniga joriy etishning tub maqsadi – mashgʻulot qaysi shaklda boʻlmasin, qayerda oʻtkazilmasin, mashgʻulotda tarbiyachi bilan bolalarning hamkorlikda ishlashini tashkil etishdir. Tarbiyachi mashgʻulotda tegishli muammolarga bolalarni jalb etishi, ularning harakatini faollashtirishi va natijada oʻzlashtirishlarini taʼminlashi lozim. Bunda tarbiyachi faqat fasilitator (yoʻl-yoʻriq koʻrsatuvchi, kuzatuvchi, xulosalovchi) vazifasini bajaradi. Ushbu uslublar orqali bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlantirilib, ularda erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, hissiyotlarni boshqara olish, tanqidiy va ijodiy fikr yuritishning rivojlanishiga zamin tayyorlanadi.

Dunyo miqyosida koʻp yillardan beri qoʻllanilib, yaxshi natijalar berayotgan oʻqitishning yangi shakl va usullari Respublikamiz xalq taʼlimida ilgʻor, ijodkor tarbiyachilar tomonidan qoʻllanilmoqda. Bu oʻqitishning interfaol usulidir. Bu usulning asl mohiyati bolalarni mustaqil bilim olishga, bilim olish uchun izlanishga, fikrlashga yoʻnaltirishdir.

Mashgʻulotlar jarayonida quyidagi interfaol usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

- kichik guruhlarda ishlash;
- aqliy hujum;
- rolli oʻyinlar;
- kichik guruhlarda ishlash.

Kichik guruhlarda ishlash anʼanaviy mashgʻulotdan nimasi bilan farq qiladi? Bolalar faol ishlaydilar, topshiriqlarni bajarishga masʼuliyat bilan qaraydilar. Bolalar jamoa boʻlib fikr-muloxazalarini muhokama qiladilar. Tushunish uchun bir-birlarini tinglaydilar, savollar beradilar, bir-birlariga yordam beradilar. Guruh ishlarida bolalar oʻzlarini erkin tutadilar. Bu

jarayonda javob berishga hadiksiraydigan bolalar ham o'zini erkin tutadilar, o'ziga nisbatan ishonch paydo bo'ladi.

Guruhlardagi ishdan qanday foydalanish kerak? Guruhdagi samarali ish bolalarni yig'ib, ularga topshiriqlar yozilgan kartochkalar berish bilan belgilanmaydi. Buning uchun tarbiyachi mavzu bilan tanishtirib chiqishi va uning mazmuniga oid muammolarni belgilashi, guruhda ishlashning eng samarali yo'llarini belgilab olishi kerak. Masalan: guruhni 4ta kichik guruhga bo'lib, guruhlarga topshiriq beradi va vaqtni belgilaydi, va mustahkamlash mashg'uloti o'tilsa, topshiriqlarni bajarish uchun 10 daqiqa beradi. Bolalar guruhda ish boshlaganda bir-birlariga savollar beradilar. egallagan bilimlari bo'yicha o'zaro fikr almashadilar. Bolalar guruhlarda ish bilan band bo'lganda, tarbiyachi guruh bo'ylab yuradi, u barchani kuzatib topshiriqni izohlab beradi, yordamga muhtojlik sezayotganlarga yordam ko'rsatadi, hamda mashg'ulot mavzusi bilan band bo'lishini kuzatadi. Vaqt tugagandan keyin hammaning e'tiborini doskaga qaratib, har bir guruhdan bittadan vakil chiqib, guruh bajargan ishni butun guruh oldida taqdim etadi. Har bir guruh taqdimotidan keyin boshqa guruhdagilar savol beradilar. Tarbiyachi hamma guruh ishlarini yakunlab bo'lgandan so'ng, ularga izoh beradi, xatolar bo'lsa to'g'rilaydi va xulosalaydi, guruh ishini baholaydi. Guruh ishini tashkil etishda quyidagi tamoyillarni yodingizda tutishingiz lozim:

Guruhlar tarkibi 3–5 boladan iborat bo'lishi. Bolalar sonini ko'paytirish guruhlarda ishlash jarayonini qiyinlashtiradi va ba'zi bolalarning chetda qolib ketishiga sabab bo'ladi.

Guruh tarkibini o'zgartirib borish kerak. Har bir mashg'ulotda yangi guruh tashkil etish lozim. Bu hamma bolalarni bir-biri bilan do'stona munosabatda ishlashlarining imkonini tug'diradi.

Guruh tuzishda o'g'il va qiz bolalardan bir xil guruh bo'lib qolmasliklariga e'tibor berish kerak.

Guruh tarkibini tarbiyachi belgilashi lozim. Har bir guruhda qobiliyatli bolalar bo'lishiga, qobiliyatli bolalardan guruh tuzilib qolmasligiga e'tibor berish lozim.

Guruh ishining taqdimotini o'tkazish, yakunlash va ularni rag'batlantirib borish kerak.

? NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan iqtisodiy tarbiyaning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Ilk iqtisodiy ta'lim-tarbiya qaysi mashg'ulotlarda amalga oshiriladi?
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy bilim berishda Sharq mutafakkirlarining qarashlari.
4. Barkamol avlodni tarbiyalashda iqtisodiy ta'limning ahamiyati nimalardan iborat?
5. Iqtisodiy ta'limning bolalarni kamolotidagi o'rni?
6. Iqtisodiy tarbiya berishda bolalarning yosh xususiyatlarining ahamiyati?

? MAVZU YUZASIDAN TESTLAR

1. 1997-yil 17-avgustda qanday qonun hujjati qabul qilindi?

- A) "O'zbekiston Respublikasi uzluksiz iqtisodiy ta'lim-tarbiya konsepsiyasi"
- B) "Huquqiy madaniyatni yuksaltirish" Milliy dasturi
- C) "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun
- D) "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"

2. "O'zbekiston Respublikasi uzluksiz iqtisodiy ta'lim-tarbiya konsepsiyasi" nechchi bosqichda amalga oshiriladi?

- A) 6
- B) 7
- C) 8
- D) 9

3. Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya qaysi guruhdan boshlab o'rgatiladi?

- A) Ilk yosh guruh
- B) Kichik yosh guruh
- C) O'rta yosh guruh
- D) Katta yosh guruh

4. O'rta yosh guruhi bolalari qanday iqtisodiy tushunchalar bilan tanishtiriladi?

- A) Boshqaruv, savdo, pul va mahsulot
- B) Mulkiy munosabatlar, bozor
- C) Iqtisod, mehnat, boylik, bozor, pul
- D) Qoida va tartibni saqlash, jamiyat va iqtisod

XI BOB. HUQUQIY TARBIYA

Maktabgacha ta'lim muassasalarida huquqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari

Huquqiy tarbiyaning asosiy maqsad va vazifalari Konstitutsiyani, davlat haqidagi ta'limotni, chunonchi, fuqarolik, oila, mehnat, xo'jalik, ma'muriy, nafaqa, sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma'nosini tushuntirishdan, bolalarni davlat qonunlarini yuksak darajada hurmat qilish, ularga so'zsiz rioya etish, adliyaviy bilimlarni egallashga ehtiyoj sezish, tartib va intizomni buzuvchilarga nisbatan murosasizlik ruhida tarbiyalash. xalqaro huquqning ahamiyatga molik masalalari, xalqaro tashkilotlar (BMT, Xavfsizlik Kengashi va hokazo) faoliyati haqida bolalarning umumiy tasavvurlarini shakllantirishdan iboratdir³⁶.

1997-yil 29-avgustda, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi" g'oyalari jamiyat va shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish va uni rivojlantirish borasida qimmatli nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Huquqiy ta'lim va tarbiya o'zaro bog'liqlik, uzviylik, aloqadorlik hamda dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish garovi hisoblanadi. Zero, huquqiy ta'lim bolalarga huquqiy me'yorlar, qonunlar hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati to'g'risida tizimlangan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni shakllantirish jarayoni bo'lib, u izchil, uzluksiz. tizimli tarzda tashkil etilishi lozim.

Huquqiy tarbiya shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish, unda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon hisoblanadi. Shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish huquqiy ta'lim va tarbiya jarayonining muhim bosqichidir. Huquqiy tarbiya berish orqali inson huquqlari va uni himoya qilish tizimi uzluksiz o'rgatilib boriladi. Inson huquqlarini himoya qilish – Konstitutsiyaning asosiy prinsipi, O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy tizimini tubdan isloh qilishning asosiy yo'nalishi va pirovard maqsadi. O'zbekiston

³⁶ Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasi. – Ma'rifat g., 1993, 3-mart.

Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning ma'ruza va nutqlarida inson huquqlari sohasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan quyidagi besh strategik yo'nalish belgilab berilgan:

1) inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning samarali mexanizmini vujudga keltirish;

2) inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqning umum e'tirof etgan prinsiplari va normalari asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish;

3) qabul qilingan qonunlarga og'ishmay amal qilish mexanizmini ishlab chiqish va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida qonun ustunligini ta'minlash;

4) odil sudlov islohotini amalga oshirish yo'li bilan butun sud tizimini demokratlashtirish;

5) aholi, ayniqsa, yoshlar va mansabdor shaxslar, huquq-tartibot idoralari xodimlari o'rtasida huquqiy tarbiya ishlarini tubdan yaxshilash, ularning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish.

O'zbekistonning inson huquqlari sohasidagi qonunchilik tizimini besh tarkibiy qismga bo'lish mumkin:

■ birinchisi, fuqarolarning shaxsiy huquqlariga oid qonunlar vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar, fuqarolarning murojaatlari, fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish, umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat, muqobil xizmat to'g'risidagi va boshqa qonunlar;

■ ikkinchisi, fuqarolarning siyosiy huquqlariga oid qonunlar «kamolot» birlashmalari, siyosiy partiyalar, saylovlar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish, kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari, ommaviy axborot vositalari, axborot olish erkinligi va kafolatlari, referendum to'g'risidagi va boshqalar;

■ uchinchisi, fuqarolarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qiluvchi qonunlar—mulkchilik, tadbirkorlik, yer, ijara, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish, aholini ish bilan ta'minlash, garov, sug'urta, dehqon xo'jaligi, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonunlar, fuqarolik, mehnat, soliq, bojxona kodekslari;

■ to'rtinchisi, insonning madaniy-ma'naviy huquqlariga oid qonunlardan, ta'lim, madaniyat, muzeylar, madaniy merosni himoya qilish, davlat tili to'g'risidagi va boshqa qonunlar:

■ beshinchisi, inson huquqlariga oid halqaro hujjatlar (ko'p tomonlama va ikki tomonlama)

Huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:

– bolalarga huquqiy me'yorlar, qonunlar va ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati hamda ularning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar berish;

– bolalarda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni qaror toptirishga erishish;

– bolalarda huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish;

– ularda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlar (huquqiy tasavvur, huquqiy idrok, huquqiy tafakkur, huquqiy savodxonlik, huquqiy mas'ullik, huquqiy faollik, huquqiy e'tiqod va huquqiy salohiyat)ning qaror topishini ta'minlash;

– bolalar huquqiy madaniyati (huquqiy me'yorlar, qonunlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini to'g'ri baholash, harakat va harakatsizlikning qonuniy bo'lishiga erishish, davlat Konstitutsiyasi va ramzlarini, shuningdek, fuqarolik huquq va burchlarini hurmat qilish, yuridik xizmatlarga nisbatan ehtiyojni qaror toptirish, har qanday ko'rinishdagi huquqbuzarliklarga qarshi muvofiqsiz kurashni tashkil etish)ni shakllantirish.

Huquqiy madaniyat – shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning o'zlashtirilishi hamda huquqiy faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi. Shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish quyidagi shartlar asosida amalga oshiriladi:

– keng ko'lamli ijtimoiy-huquqiy axborotli muhitning mavjudligi;

– shaxs huquqiy ongini shakllantirish;

– shaxs huquqiy faoliyatini yo'lga qo'yish.

Pedagogik jarayonda huquqiy ta'lim-tarbiyaning samaradorligini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Bolalarning huquqiy jihatdan tarbiyalanganligi quyidagi holatlar bilan o'lchanadi:

– bolalar tomonidan «O'zbekiston davlat va huquqi asoslari», «Konstitutsiyaviy huquq» kabi mashg'ulotlarning o'zlashtirilish darajasi, ya'ni, huquqiy bilimlarning muayyan darajasi;

– ularning umumjamiyat axloqiy-huquqiy me'yorlariga amal qilishlari hamda maktabgacha ta'lim muassasasi va boshqa o'quv yurtlari ichki tartib-qoidalari, shuningdek, bolalar qoidalariga rioya qilishlari, tartib-in-

tizomni buzish hollarining kamayganligi, o‘z-o‘zini nazorat qilish, xatti-harakatlari mohiyatini ongli tahlil etish qobiliyatiga ega ekanliklari – huquqiy ongning muayyan darajasi;

– ijtimoiy-huquqiy faolliklari (bolalar o‘z-o‘zini boshqaruv organlari, yoshlar uyushmalari, tabiatni muhofaza qilish, shuningdek, jamoat tashkilotlari hamda huquq-tartibotni himoya qiluvchi tashkilotlar faoliyatini uyushtirishdagi ishtiroklari) – amaliy-huquqiy faoliyat ko‘lami.

Shaxsda huquqiy sifatlarning qaror topishi uning ijtimoiy-huquqiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki darajasi va sifatiga bog‘liq. Doimiy ravishda, maqsadli tarzda huquqiy munosabatlarga kirishish shaxsda huquqiy madaniyat unsurlarining shakllanishiga olib keladi. Shu bois jamiyat mafkurasi, ijtimoiy tuzumda qaror topgan huquqiy munosabatlar mazmuni, uning g‘oyalari bolalar huquqiy madaniyatini shakllantirishda yetakchi o‘rin tutadi.

Maktabgacha ta‘lim muas- sasalarida huquqiy tarbiyani tashkil etish

Huquqiy tarbiyani tashkil etish davrida bolalar faoliyati mazmunini tahlil etish, ularda o‘z faoliyatlariga nisbatan tanqidiy yondashuvni qaror toptirish, shuningdek, o‘z faoliyatlarini real baholashga o‘rgatib borish talab etiladi.

Bolalarga huquqiy tarbiya berish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, fuqarolik jamiyati asoslari, milliy davlat tuzilishi, davlat organlari tizimi, vakillik hokimiyati organlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Respublika Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar va davlat qo‘mitalari, mahalliy boshqaruv organlari, fuqarolarining o‘zini o‘zi boshqarish organlari. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi kabi organlar faoliyati haqida ilk tushunchalarni o‘rganish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosati mohiyatini o‘zlashtirish, xalqaro huquqiy munosabatlarni yo‘lga qo‘yilishi tartibi bilan tanishib, bu haqida ham ilk tasavvurlarga ega bo‘lib borar ekanlar, ayni vaqtda ularda nafaqat huquqiy ong, balki siyosiy ong ham shakllanadi. Zero, jamiyat tizimi, uning amal qilishi uchun asos bo‘lgan g‘oya va qarashlar o‘z navbatida huquqiy g‘oya va qarashlarning vujudga kelishini ta‘minlaydi.

Ma‘lumki, 1989-yil 20-noyabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan «Bola huquqlari to‘g‘risida konvensiya» qabul qilingan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi mazkur konvensiyaga 1992-yil 9-dekabrda qo‘shilgan va Respublikamiz uchun konvensiya 1994-yil 29-iyuldan boshlab qonuniy kuchga kirgan. 2008-yil 7-yanvarda O‘zbekiston Res-

publikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi. Qonunda 18 yoshga to'lgunga qadar shaxslarni bola deb tushunish, ota-onalar, farzandlikka oluvchilar, vasiylar va homiylar bolalarning qonuniy vakillari hisoblanishi, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning ta'minotini ta'minlash, ta'lim-tarbiya berish, huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun 14 yoshga to'lmagan voyaga yetmaganlarga vasiy va 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarga homiy tayinlanishi, yetim, jismoniy, aqliy va ruhiy nuqsonli, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning davlat tomonidan himoya qilinishi belgilab qo'yildi. «Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risida»gi konvensiyani ratifikatsiya qilish to'g'risida 2008-yil 4-aprelda, «Bolalar mehnatining og'ir shakllarini ta'qiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'g'risida»gi Jeneva konvensiyasini ratifikatsiya qilish to'g'risida 2008-yil 8-aprelda Qonunlar qabul qilindi.

Mazkur konvensiyalarni ratifikatsiya qilish to'g'risida Qonunlar qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2008-yil 12-sentyabrda 207-sonli qarori qabul qilinib, Milliy harakat rejasi tasdiqlandi va bolalar mehnatining og'ir shakllarini ta'qiqlash, yo'q qilishga doir chora-tadbirlar ko'rildi. 2008 yil 16-aprelda voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilishga doir qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonuni va Oila kodeksiga o'zgartishlar kiritilib, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, ta'lim, davolash va boshqa muassasalarning mansabdor shaxslari hamda fuqarolarga ota-onalar qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar haqidagi ma'lumotlarni vasiylik va homiylik organiga taqdim etish majburiyati yuklatildi. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar to'g'risidagi ma'lumotlarni vasiylik va homiylik organiga xabar qilmaslik, ularni joylashtirishda qonun talablarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilandi. Oliy Majlis Senatining o'n oltinchi yalpi majlisida bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasi amaliyotidan bolalarni himoyalash, bolaning sog'lig'iga xavf tug'dirish yoki ta'lim olishiga monelik qilish yoxud uning salomatligiga, jismoniy, aqliy, ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy kamol topishiga zarar-zahmat yetkazishi mumkin bo'lgan iqtisodiy ekspluatatsiyadan hamda har qanday ishni bajarishdan himoya qilish maqsadida «O'zbekiston Respublikasining Bola huquqlari

to'g'risidagi konvensiyaga doir, bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga taalluqli Fakultativ Protokolga (Nyu-York, 2000-yil 25-may) qo'shilishi haqida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilingan. R.Mahmudov huquqiy madaniyatning asosini tashkil etuvchi qismlar moddiy, ma'naviy, huquqiy, axloqiy, estetik va boshqa mafkuraviy omillardan iborat ekanligini, demakki, moddiy hamda ma'naviy xususiyatga ega bo'lgan asosiy, bir-biriga muvofiq qismlarni ajratib ko'rsatadi. Huquqshunos olimlar Sh.O'razaev, M.Qoriyevlar esa huquqiy madaniyat huquqiy bilimlarni egallash, huquqiy me'yorlarning amaliyotda o'z isbotini topishi hamda boshqa mualliflardan farqli ravishda huquqning obro'si va qonunning ijtimoiy hayotdagi o'rni bilan belgilanishini qayd etib o'tadilar: «Huquqiy madaniyat tushunchasi – huquqning rivojlanish darajasi, aholining huquq haqidagi tushunchasi, qonunchilikning ahvoli, huquqning obro'si va shu singari unsurlardan tashkil topadi»³⁷.

A.F. Nikitin esa shaxs huquqiy madaniyati tarkibini tushunishga o'ziga xos tarzda yondashadi hamda shaxs huquqiy madaniyatini murakkab psixologik hodisa deb baholaydi. U chunonchi, uning tarkibiy qismlarini: huquqiy bilimlar va ularni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasi; qonunga nisbatan shaxs munosabati va nihoyat shaxsning huquqiy mazmunga ega bo'lgan vaziyatlardagi faoliyatidan iborat»deb ta'kidlaydi³⁸.

Demak, shaxs huquqiy madaniyati negizida quyidagilar aks etadi:

1) huquq va huquqiy tizim borasida yetarli ma'lumotga ega bo'lish, huquqiy bilim asoslarini o'rganish, ularni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishning hosil bo'lishi, egallangan nazariy-huquqiy bilimlarni amaliyotga tadbiiq etish borasidagi ko'nikmani shakllantirish hamda malakaga ega bo'lish;

2) ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlarni uyushtirish chog'ida o'z faoliyati timsolida huquqiy madaniyat unsurlarini namoyon etish, ijtimoiy-siyosiy hamda huquqiy faollikni yuzaga keltira olishda ko'rinadi.

Shaxs huquqiy madaniyatini quyidagi ikki asosiy qismga ajratish mumkin;

1) huquqiy ong; 2) huquqiy faoliyat.

37. Tadjixanov., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. 2–tomlik.–Toshkent, O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1998.–182-bet.

38. Никитин А. Ответственность несовершеннолетних. – Москва, Просвещение, 1990. – 109-с.

Huquqiy ong – ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, u jamiyat taraqqiyotining ma‘lum bosqichida – davlat, mulk va mulkiy munosabatlarning paydo bo‘lishi, aholining keskin sur‘atda tabaqalashuvi, huquq, huquqiy munosabatlar tushunchalarining paydo bo‘lish jarayonida ularga yondosh tushuncha sifatida qo‘llanilgan hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni tashkil etish chog‘ida ko‘zga tashlanadi.

Huquqiy ong muayyan jamiyatning moddiy hayot tarzi bilan belgilanadigan tasavvur, idrok, tafakkur va e‘tiqodlar tizimi bo‘lib, ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida murakkab tuzilishga ega.

Huquqiy faoliyat huquqiy me‘yorlar, qonunlar talablariga nisbatan ongli yondashish, ularga qat‘iy va og‘ishmay amal qilish, qonunlarni hurmat qilish, ularni shaxs erkini himoya qilish kafolati sifatida e‘tirof etish, huquqiy munosabatlar jarayonidagi faol ishtirokni tashkil etishga yo‘naltirilgan amaliy xatti-harakatlar majmui.

Shaxs huquqiy madaniyatining muhim tarkibiy qismlari sifatida quyidagilar e‘tirof etiladi: huquqiy tasavvur, huquqiy idrok, huquqiy savodxonlik, huquqiy tafakkur, huquqiy faollik, huquqiy mas‘ullik, huquqiy e‘tiqod, huquqiy salohiyat.

Maktabgacha ta‘lim muassasalarida huquqiy tarbiya bolalarni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan tanishtirish

Huquqiy ta‘lim uzluksiz bo‘lib, yoshlikdan boshlab berib borilishi lozim. Bolalar oilada, maktabgacha ta‘lim muassasalaridayoq xulq-atvor qoidalaridan xabardor bo‘lishi, ma‘naviy va ba‘zi huquqiy normalar to‘g‘risida boshlang‘ich tushunchalar olishi, kelgusida bu bilimlar kengaytirilishi va chuqurlashtirilishi aniq ifodalangan huquqiy xususiyat kasb etishi zarur. Shuning uchun 1998–1999-o‘quv yilidan boshlab O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim muassasalaridan boshlab, har bir ta‘lim tizimida bosqichma-bosqich huquq saboqlari, huquqiy bilim va tarbiya berib borilishi yo‘lga qo‘yildi.

Maktabgacha ta‘lim muassasalarining asosiy vazifasi tarbiyalanuvchilarda huquqqa doir sodda tushunchalarni tarkib toptirishdir. Ana shu maqsadda mashg‘ulotlar jarayonida “Konstitutsiya saboqlari”ni amalga oshirish yo‘lga qo‘yilgan. Ma‘lumki, Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni bo‘lib, har bir mamlakatning qiyofasi va nufuzini belgilaydi. Shu xususiyatdan kelib chiqib aytish mumkinki, 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ham mamlakatimizni

dunyoga tanitgan, xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatida faol harakat qilishiga huquqiy zamin yaratgan muhim huquqiy hujjatdir. Konstitutsiya to‘g‘risida so‘z aytilganda uni nafaqat xalqaro munosabatlarda davlatning pasporti sifatidagi roli, balki ichki islohotlar jarayonidagi asosiy huquqiy manba ekanligini alohida e‘tirof etish maqsadga muvofiqdir. Konstitutsiyamizning har bir moddasini o‘qib kuzatar ekanmiz, unda, eng avvalo, inson huquqlari va erkinliklari masalasiga, ularning amalga oshirishini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilganligining guvohi bo‘lamiz. Uning milliy qonunchiligimizning o‘ziga xos yutuq‘ sifatida ko‘pgina xorijiy mutaxassislar tomonidan bot-bot e‘tirof etilganligi fikrimizning tasdiq‘idir. Bosh Qonunimizning qabul qilinishi O‘zbekiston xalqining tarixida tub burilish yasadi, yangi demokratik huquqiy davlat qurish asosini yaratdi. Bunda bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalardan biri mamlakatda yashovchi har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini to‘la kafolatlashdir.

“Konstitutsiya saboqlari”ni o‘rgatishning asosiy maqsadi esa ana shu kafolatlar asosida bolalarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi moddalari mazmunini yosh xususiyatlari bilan bog‘liqlikda anglab olishlariga erishishdir.

“Konstitutsiya saboqlari” mashg‘ulotlarida Konstitutsiyaning quyidagi moddalarini o‘rganishga alohida e‘tibor qaratiladi:

1-modda. O‘zbekiston – suveren demokratik respublika. Davlatning “O‘zbekiston Respublikasi” va “O‘zbekiston” degan nomlari bir ma‘noni anglatadi. Mazkur moddani o‘rganish jarayonida bolalarda quyidagi bilim va ko‘nikmalar tarkib toptiriladi: o‘zining tug‘ilib o‘sgan joyini bilish; Ona-Vatanga nisbatan muhabbat uyg‘otish; oila a‘zolari: ota-ona, aka-uka, opa-singil, qon-qarindoshga bo‘lgan hurmat hissi; xalqi, urf-odatlari, tarixiy joylarni bilish; milliy bayramlar: Mustaqillik kuni, hotira va qadrlash kuni, Navro‘z, Hayit bayramlari haqida tushunchaga ega bo‘lish; ma‘naviy merosni asrash zarurligi.

4-modda. O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an‘analari hurmat qilinishi uchun sharoit yaratadi. Ushbu moddani o‘rganish jarayonida bolalarda o‘zbek xalqi va davlat tilini hurmatlash; O‘zbekiston Respublikasi xududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an‘analarini hurmatlash; o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining bayram qilinishiga doir tushuncha va tasavvurlar shakllanadi.

5-modda. O‘zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o‘z davlat ramzlari – bayrog‘i, gerbi va madhiyasiga ega. Tarbiyachi moddani sharhlash jarayonida bolalarning davla-timizning nomi, uning ramzlarining ma‘no-mazmunini anglash va ularga nisbatan hurmat bilan qarash zarurligi; davlatimiz ramzlaridan faxrlanish va ularni hamisha himoya qilish; madhiya matnini yaratgan shoirni, musiqasini yaratgan bastakorning ismi va shariflarini bilish; Davlatimiz ramzlarining tavsifi haqida tushunchaga ega bo‘lishlariga asosiy e‘tibor qaratadi.

6-modda. O‘zbekiston Respublikasining poytaxti – Toshket shahridir. Bolalar O‘zbekiston Respublikasining poytaxti – Toshket shahri ekanligini anglashlari; Toshket shahri haqida ma‘lumotga ega bo‘lishlari zarur. Bolalarga Toshkent haqida videofilmlar, slaydlar, rangli rasmlar, fotoalbom ko‘rsatish orqali ularning tasavvurlari yanada boyitiladi.

8-modda. O‘zbekiston xalqini, millatidan qat‘iy nazar, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi. Bolalar o‘zlari bilan birga yashayotgan turli millat vakillarining hammasi O‘zbekiston deb atalgan davlat kishilari ekanligini anglab olishlari lozim.

31-modda. Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatnadi. har bir inson hohlagan dinga e‘tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e‘tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Mazkur moddaning bolalar tomonidan o‘zlashtirilishi uchun ularga hayit bayrami haqida tushuncha berish; hadislar mazmunini rasmlar orqali tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

37-modda. Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko‘rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalaniş huquqiga ega. Bolalarda mehnatga ijobiy munosabatni tarbiyalash; berilgan topshiriqni astoydil bajara olishlariga erishish; ularning kattalar mehnati haqidagi tasavvurini boyitish; mehnat qurollarining nomi va vazifasini bilish; mehnatni chin yurakdan bajargan bola mehnatsevar hisoblanishini, mehnatsevarlik bebaho fazilat ekanini anglashlariga erishiladi. Bolalar bilan “Kim bo‘lsam ekan” mavzusida suratlar asosida suhbatlar tashkil etiladi.

40-modda. Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega. Ushbu modda mohiyatini tushuntirish orqali bolalarda gigienik talablarga rioya qilishni hayotiy ehtiyojga aylantirish; “Sog‘lom tanda – sog‘ aql” naqlining ma‘nosini anglatish; shifokorlar mehnati va o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish haqida tushunchalarni boyitishga erishiladi.

41-modda. Har kim bilim olish huquqiga ega. Bolalar o'zlari qiziqqan narsalari haqida ma'lumot olishlari, bilim olish orqali yaxshi inson bo'lib yetishishlarini anglyadilar.

47-modda. Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlarini bajaradilar. Bolalar burch nima ekanligi; maktabgacha yoshdagi bolalarning burchlari nimadan iborat ekanligi; tarbiyali bola bo'lish, axloqiy qoidalarga rioya qilish kabi vazifalarni; ota-onani hurmatlash lozimligini anglyadilar. Yaxshilik qilish haqida hadis, maqollar mazmunini tushuntirish hamda mulkni asrash. ehtiyot qilib foydalanishga o'rgatish amalga oshiriladi.

49-modda. Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir. Bolalarni o'z shahar, qishlog'idagi diqqatga sazovor joylar, me'morchilik yodgorliklari bilan tanishtirish, mahalliy sharoitni hisobga olgan holda ziyoratgohlarni tanlab, suhbat o'tkazish; ziyoratgohlarga bog'liq ravishda insonning odob-axloqiga doir fazilatlar haqida ma'lumot berish; O'zbekistonning me'moriy obidalariga doir rasmlar ko'rsatish va ular haqida tushuncha berish; mamlakatimizdagi yodgorliklar, qadimiy binolar ham tarixiy me'ros sifatida asralishi kerakligini anglatish kabi jihatlariga alohida e'tibor qaratiladi.

50-modda. Fuqarolar atrof-tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar. 55-modda. Yer, yerosti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonat dunyosi, hamda boshqa tabiiy zahiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir. Bolalarga mazkur moddalar mazmuni bevosita tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlari jarayonida tanishtirilib, ular tabiat haqida tushunchaga ega bo'lishlari; ularda tabiatni asrash va avaylash hissini uyg'otish; o'simliklarni payhon qilish yomon odat ekanligini bilish; yovvoyi va uy hayvonlari haqida ma'lumot berish; hayvon, qushlarni asrash, avaylash har bir inson vazifasi ekanligini bilish; ularni parvarish qilish, och qoldirmaslik; qushlar insonlar uchun foydali ekanini uqtirish; "Qizil kitob" muhofaza ramzi ekanini bilish; "Qushlar bayrami", "Gullar bayrami", "Navro'z bayrami" haqida tushunchaga ega bo'lish; ehtiyotkorona munosabatni tarbiyalash choralari: choy qaynatgich qaynayotganda va kir yuvish mashinasi ishlayotganda suvga qo'l tiqmaslik haqida qisqacha ma'lumot berish; gaz va elektr tokini tushungan holda qo'llaganda oilalar uchun o'ta foydali ekani, ularning oila yumushlarini yengillashtirishi, agarda ulardan noto'g'ri foydalanilsa

katta xavf tug'dirishi, ko'pdan ko'p falokatlar chiqarishini, shu sababdan gaz plitasiga yaqinlashmaslik va turli murvatlarini bekordan bekorga buramaslikni uqtirish; gaz hidini sezishlari bilan darhol kattalarga aytish zarurligini bilish kabi bilim va ko'nikmalar tarkib toptiriladi.

52-modda. O'zbekiston Respublikasini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi har bir fuqorosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tishga majburlar.

89-modda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti – davlat boshlig'i ekanligi. Bolalarga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yurtimizda tinchlik, barqarorlikning posboni ekanligini tushuntirib, mamlakat yo'l boshchisiga bo'lgan ishonch va hurmat tuyg'usini tarkib toptirish; bolalarda fuqorolarning mehnatda ko'rsatgan xizmatlarini rag'batlantirish maqsadida berilgan O'zbekiston Respublikasining ordenlari, medallari va yorlig'i Prezident tomonidan berilishi haqida tushuncha hosil qilish lozim.

126-modda. O'zbekiston Respublikasi o'z xavfsizligini ta'minlash uchun yetarli darajada qurolli kuchlariga ega. Bolalarga har yili "14-yanvar – Vatan himoyachilar kuni" sifatida nishonlanishi; Vatan himoyachilari: askarlar, chegarachilar piyodalar va tankchilar haqida ma'lumot berish; bolalar ongiga Vatan himoyachilari ular ekanligini singdirish, buning uchun ular sog', baquvvat, qo'rqmas, botir bo'lib voyaga yetishlari zarurligini anglatishga erishiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida huquqiy tarbiyani amalga oshirish yo'llari

Maktabgacha ta'lim muassasasidagi huquqiy tarbiya o'z ichiga bolalarni huquqiy bilimlar bilan qurollantirish, mazkur bilimlar asosida o'z hulq-atvoriga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirish, qonun va qoidalarga rioya qilish muhimligini uqtirish, muayyan huquq va erkinliklardan foydalanish yo'l-yo'riqlarini singdiradi va qamrab oladi. Umum uslubiy rejadan kelib chiqib, tarbiyaga kompleks yondashuv prinsipi nuqtayinazardan qaralganda, uni g'oyaviy, siyosiy, axloqiy, estetik tarbiya ta'sirining yig'indisi sifatida tushunish mumkin.

Huquqiy tarbiyani quyidagi uslublarini ajratish lozim:

1. Huquqiy ongini shakllantirish, e'tiqod, isbot; huquqiy mavzularda suhbatlar, ma'ruzalar, hikoyalar; huquqiy mavzularga oid bosma materiallarni va san'at asarlarini muhokama qilish.

2. Huquqiy axloq asosini, malakasini, odatlarini va huquqni himoya qilish faoliyati tajribasini shakllantirish usuli: umumiy talab o'rnatish: ijodiy o'yindan foydalanish:

3. Huquqiy tarbiyani kuchaytirish uchun rag'batlantirish yoki jazo usullarini qo'llash.

Maktabgacha ta'lim muassasasi bolalarni huquqiy tarbiyalash tizimi ikki shakldan iborat bo'lib: og'zaki va amaliy ishlar ko'rinishida tashkil etiladi .

Huquqiy tarbiyani amalga oshirishda mashg'ulotlari bahs-munozaralar, huquqiy mavzulardagi suhbatlar yaxshi natija beradi.

Mashg'ulot jarayonida bolalarni huquqiy tarbiyalash uslubiyati xususiyatlari quyidagilardan kelib chiqadi:

birinchidan, bolalarning axloqiy tasavvurlarini to'g'ri shakllantirish, tarbiyachining nafaqat umumtarbiya faoliyati davomida, balki mashg'ulotlarda o'qitish jarayonida ham e'tiborda bo'lishi lozim;

ikkinchidan, maktabgacha ta'lim muassasasida huquqiy tarbiya jarayonida har bir holatning mohiyatini aniq, ravshan va tushunarli ravishda singdirish muhimligini ta'kidlab o'tish lozim. Tarbiyachi bolalar ruhiyatida mavzuga katta qiziqish uyg'ota olishi zarur;

uchinchidan, jamiyatda huquqiy talablarning mavjudligi va mazmun-mohiyati to'g'risidagi umumiy tasavvurdan kelib chiqqan holda bolalar ongida bilimlar tizimini, hukumat va qonun chiqaruvchi organlar, xuquq institutlari, huquqiy me'yorlarning rivojlanish asoslari, qonuniyatlari, shuningdek, huquq va majburiyatga oid qarorlar hamda ularning bajarilishi xususida ma'lumotlar berib borilishi maqsadga muvofiqdir;

to'rtinchidan, huquqiy tarbiya jarayonida ba'zi bir qonunlar matnlarni o'qib berish, bolalarga me'yoriy qonunlar muhim moddalarini yozib olishga imkoniyat va vaqt berish joiz;

beshinchidan, mashg'ulot jarayonida bolalarga davlat va huquq to'g'risida umumiy tushuncha berish, shuningdek, huquqiy yo'nalishlar (yo'l-yo'riqlar) ga alohida to'xtalib o'tish lozim;

oltinchidan, o'qituvchining ish quroli sifatida unda davriy bosma materiallar, Oliy Majlis sessiyasi hujjatlari, farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari hamda huquqiy-me'yoriy hujjatlar bo'lishi kerak.

? NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Huquqiy tarbiyani maktabgacha ta'lim yoshidanoq amalga oshirishning ijtimoiy zaruriyati nimada?
2. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarida huquqiy ongni shakllantirish qaysi dastur asosida amalga oshiriladi?
3. Huquqiy tarbiyani amalga oshirishda huquqiy ongni shakllantirishning ahamiyati?
4. Huquqiy madaniyatni maktabgacha yoshdagi bolalarda shakllantirishda "Konstitutsiya saboqlari" mashg'ulotlarining o'rni.
5. Huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida amalga oshiriladigan vazifalar nimalardan iborat?
6. «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi» va uning tarixiy ahamiyati.

? MAVZU YUZASIDAN TESTLAR

1. 1997-yil 29-avgustda, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi-ning IX sessiyasida qanday dastur qabul qilindi?

- A) "Jamiyatni huquqiy madaniyatini yuksaltirish" Milliy dasturi
- B) "Uchinchi mingyillikning bolasi" tayanch dasturi
- C) "Bolajon" tayanch dasturi
- D) "Maktabgacha ta'lim to'g'risida"gi Nizom

2. Shaxsda huquqiy sifatlarining qaror topishi nimaga bog'liq?

- A) Shaxsning huquqiy ongiga
- B) Shaxsning huquqiy savodxonligiga
- C) Shaxsning ijtimoiy-huquqiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki darajasi va sifatiga
- D) Shaxslararo huquqiy munosabatga

3. Shaxsning huquqiy madaniyatining asosiy qismlari to'g'ri berilgan javobni toping.

- A) Huquqiy faoliyat
- B) Huquqiy ong

- C) Huquqiy ong va faoliyat
- D) Huquqiy savodxonlik

4. Huquqiy tasavvur, huquqiy savodxonlik, huquqiy tasavvur – bular...

- A) Huquqiy ongning tarkibiy qismlari
- B) Huquqiy faoliyatning tarkibiy qismlari
- C) Huquqiy madaniyatning tarkibiy qismlari
- D) Huquqiy ongning asosiy qismlari

5. Qaysi o‘quv yilidan boshlab O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlab huquq saboqlari berish yo‘lga qo‘yildi?

- A) 1997–1998-o‘quv yili
- B) 1998–1999-o‘quv yili
- C) 1999–2000-o‘quv yili
- D) 1996–1997-o‘quv yili

6. Maktabgacha ta’lim muassasalarida qaysi mashg‘ulotlar tarkibida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o‘rgatiladi?

- A) Savodga o‘rgatishda
- B) Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda
- C) Huquqiy savodxonlikda
- D) Konstitutsiya saboqlarida

7. “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi” konvensiya qachon va qaysi tashkilot tomonidan qabul qilingan?

- A) 1989-yil BMT Bosh Assambelyasi
- B) 1988-yil BMT Bosh Assambelyasi
- C) 1989-yil YuNESKO tomonidan
- D) 1986-yil YuNISEF tomonidan

8. 2008-yil 7-yanvarda O‘zbekiston Respublikasining qanady qonuni qabul qilindi?

- A) “Bolalar huquqiy madaniyatini rivojlantirish” to‘g‘risidagi
- B) “Bolalar huquqlarini himoya qilish” to‘g‘risidagi
- C) “Bolalar huquqlarining kafolatlari” to‘g‘risidagi
- D) “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi” konvensiya

XII BOB. EKOLOGIK TARBIYA

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiya maqsadi va vazifalari

Ekologiya (grekcha “oikos” – yashash, uy, makon, “logos” – ta’limot – umumiy tarzda u organizmlarning yashash joyi, makoni degan ma’noni anglatadi. Ekologiya fani tirik organizmlarning ma’lum bir muhitda yashash qonuniyatlarini, ya’ni organizmlarning o’zaro va ularni o’rab turgan atrof-muhit bilan bog’liq bo’lgan hayot tarzini o’rganadi. Ekologiya so’zi tirik mavjudotlar, shu jumladan, odamning yashash sharoiti va tashqi muhit bilan o’zaro munosabatini bildiradi.

Keyingi davrda pedagogika nazariyasi va amaliyotiga “ekologik ta’lim”, “ekologik tarbiya”, “ekologik ong”, “ekologik faoliyat”, “ekologik mas’uliyat”, “ekologik e’tiqod”, “ekologik ma’rifat”, “ekologik madaniyat” va boshqa bir qator atamalar va ular bilan bog’liq tushunchalar kirib keldi. *Ekologik ta’lim* ekologik ma’rifatning asosiy jihati bo’lib, o’qitish va o’qish jarayonlarida mavjud ijtimoiy ekologik tajribaning avloddan-avlodga o’tkazilishidir. Ekologik ta’lim orqali shaxsda ekologik bilim, ko’nikma va malakalar hosil bo’ladi. *Ekologik tarbiya* (tor ma’noda) rivojlanayotgan shaxsda maqsadga muvofiq axloqiy-ekologik fazilatlarni tarkib toptirishni nazarda tutadi va shu orqali shaxsning ekologik xulq-atvor xususiyatlari takomillashib boradi. *Ekologik ong* – shaxsning amaliy ekologik faoliyati va hatti-harakatini tartibga solib turadi. *Ekologik faoliyat* esa ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar majmui demakdir. Ekologik dunyoqarashning ajralmas bir qismi bo’lmish “*ekologik mas’uliyat*” deganda insonning atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatini tushunamiz. Bunday munosabat insoniyatning, xususan, ayrim odamlarning bilib-bilmay, uzoqni o’ylamay tabiatga ko’rsatgan salbiy ta’siri oqibatlarini anglash va bunday ta’sirni bartaraf etish istagi natijasidagina shakllanadi. *Ekologik madaniyat* – alohida shaxsning ibratli axloqiy-ekologik xatti-harakati boshqalarda zavq-shavq uyg’ota olishlik holatini ifodalaydi. Bu atama shaxs va jamiyatning atrof-muhitga munosabat darajasini belgilash uchun qo’llaniladi.

Ma’lumki, respublikamizda “Uzluksiz ekologik ta’lim konsepsiyasi” yaratilgan. Mazkur konsepsiyaga ko’ra, maktabgacha ta’lim muassasalari bolalariga ekologik ta’lim-tarbiyaning oddiy elementlari beriladi. Maktab-

gacha ta'lim muassasalarida bolalar atrof-muhit bilan qanday muloqotda bo'lishlari zarurligini, issiq-sovuq, yorug'lik-qorong'ilik, kecha-kunduz, yomg'ir-qorni, yaxshilik-yomonlikni, qushlar, hayvonlar, o'simliklarga nisbatan qanday munosabatda bo'lishni bilishlari, tabiatdagi ranglarni tanishlari lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologiyadan boshlang'ich ta'lim-tarbiya berishning maqsadi ularni tabiatni sevadigan, asrab-avaylaydigan, odobli, erkin fikrlovchi, milliy g'urur egasi, barkamol sog'lom avlod etib tarbiyalashdan iboratdir.

Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi bo'lib, uni tashkil etish jarayonida quyidagi *vazifalar* hal etilishi zarur:

1. Bolalarda mashg'ulot va mashg'ulotdan tashqari jarayonda ekologik tushunchalarni tarkib toptirish.

2. Ularning tabiat va atrof-muhit ekologiyasi to'g'risidagi tasavvurini boyitish.

3. Bolalarda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash ijtimoiy zaruriyat ekanligi to'g'risidagi mas'uliyatni shakllantirish.

4. Bolalarda tabiatda o'zini tutish malakasini, atrof-muhitni muhofaza qilish tuyg'usini tarbiyalash hamda ularning tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash jarayonida faol ishtirok etishlariga erishish.


Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini ekologik tarbiyalashning o'ziga xosliklari

Ma'lumki, bola shaxsi o'zaro va bioijtimoiy munosabatlar tizimida tarkib topadi. Bu munosabatlarni keltirib chiqaradigan asosiy manba – bolaning hissiy bilish jarayoni va o'yin faoliyatidir. Demak, bola shaxsiga xos bo'lgan barcha psixologik holat va jarayonlar ijtimoiy hayot hamda atrof-muhit ta'sirida vujudga keladi. Bola o'z faoliyati jarayonida o'zini o'rab turgan tabiiy va antropogen narsalar va hodisalar mohiyatini bilib oladi.

Bolaning atrof-muhitni hissiy bilish jarayoni o'z mohiyati va xususiyati jihatidan bir-biridan shartli farq qiluvchi uch bosqichdan iborat bo'ladi (16-rasm). Zero, hissiy bilish bolaning sezgilariga bevosita ta'sir etgan tashqi atrof-muhit (tabiat) va uning alohida xossalarining ko'rinishlar, qiyofalar, tasvirlar, manzaralar shaklida miyasida aks etishidir.

Bola o'zini o'rab turgan atrof-muhit va tabiatning muayyan xossalarini: havoning issiq-sovuqligini terisi bilan, suyuqliklarning ta'mini tili bilan,

havodagi hidni burni bilan, tabiatdagi xilma-xil obyektlarning rangini ko'zi bilan, tovushlarni qulog'i bilan sezib, ya'ni mazkur xossalari bo'laning beshta turli sezgisiga ta'sir etib, shu a'zolarida joylashgan asab hujayralari orqali bosh miyasiga borib yetib, natijada miyada tabiatning ayrim xossalari to'g'risida bilim paydo bo'ladi, ularning ko'rinishlari, qiyofalari, tasvirlari, manzaralari vujudga keladi.



16-rasm. Bola shaxsining atrof-muhitni hissiy bilish jarayoni³⁹.

Falsafiy-psixologik nuqtayi nazardan bola bilimining manbasi sezgidir. Chunki bola atrof-muhit haqidagi dastlabki bilimlarni o'z sezgilaridan oladi. Bolaning atrof-muhit haqidagi boshqa birmuncha murakkab bilimlari mana shu dastlabki boshlang'ich bilimlari asosida vujudga keladi. Demak, bolani tabiiy va antropogen muhit bilan bog'lovchi eng birinchi yo'l ham atrof-muhitdagi obyektlar va hodisalarni sezishdir.

Atrof-muhitdagi obyektlar va hodisalarni idrok etish sezishga nisbatan birmuncha murakkab jarayon. Idrokning sezishdan farqi shundaki, unda atrof-muhitdagi obyektlar yoki hodisalarning ayrim xossalari emas, balki obyektlar yoki hodisalar butun holda aks etadi. Boshqacha ifodalasak, obyektlar yoki hodisalarning yaxlit manzarasi, tasviri vujudga keladi.

39. Qarang: Umarova M.X. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish uslubikasi: Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. – T., 2009. – 25-b.

Masalan, yomg'ir, qor manzaralari va h.k.

Atrof-muhitdagi obyektlar va hodisalarni hissiy bilishning yana bir shakli *tasavvur*dir. Tashqi muhit ta'siri natijasida bosh miya qobig'ining muayyan qismida paydo bo'lgan qo'zg'alish, ya'ni sezish va idrok ma'lum muddatgacha o'z izini qoldiradi. Demak, tasavvur atrof-muhitdagi obyektlar va hodisalarning xuddi shu onda idrok qilinmaydigan, biroq miyada qolgan, ko'z oldiga keltirilgan manzara, qiyofa-tasvirlarning tiklanishi yoki manzarali xotiradir.

Tasavvur bilimlarni saqlash va mustahkamlashga xizmat qiladi, ayni paytda obyektlar va hodisalarning xususiyatlarini bilib olishda, ya'ni umumlashtirishda ham muhim o'rin tutadi. Tasavvurdagi umumlashtirish xususiyati aqliy bilishning, boshlang'ich ekologik tushunchalarning tashkil topishiga katta yordam beradi.

Xususi tasavvurlar atrof-muhitdagi aniq obyektlar tasviri, manzara-sidir. Bu tasavvurlar aniq obyektlarni, masalan, aynan daraxtni, yo'lni, ko'prikni, soyni, ariqni, ko'chani, mahallani aks ettiradi. Xususi tasavvurlar ayni paytda ko'cha yoki mahalla hududining tabiati va kishilar hayotini ham aks ettiradi. Natijada bola ongida muayyan hududlarning hajmdor yoki hajmsiz, rangli yoki rangsiz, aniq yoki noaniq shakldagi manzaralari hosil bo'ladi va bu jarayon vaqt va tajribaga bog'liq holda tiniqlashib boradi.

Demak, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirish jarayonida ularning hissiy bilishiga tayanilib ish ko'riladi va shu asosda atrof-dagi muhit hamda uning har bir tarkibiy qismining tabiat va inson hayotida tutgan o'rni haqida aniq bog'lanishli misollar keltirilib, tegishli munosabat va madaniyat tarkib toptiriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiyani amalga oshirish shakli, uslub va vositalari

Boshlang'ich ekologik ta'lim va tarbiyani amalga oshirish uchun tegishli bilim va malakalar hosil qilishni ta'minlaydigan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar saviyasiga mos va xos ish shakllari, vositalari va uslublarini tanlab olish muhim vazifalardan biri sanaladi. Maktabgacha ta'lim muassasasida boshlang'ich ekologik tarbiyaning eng samarali yo'llaridan biri uni mehnat tarbiyasi bilan qo'shib olib borish, ya'ni bolaning bo'sh vaqtlarini foydali ishlarga jalb qilishdir. Chunki tabiatga ozor berish bilan bog'liq bo'lgan sho'xliklar ma'lum darajada bolaning bo'sh qolishi natijasida kelib chiqadi. U

qiladigan ishi yo'qligidan mushukning dumiga ip bog'laydi, qushlarning iniga chiqib, polaponlarini oladi va hokazolar. Aslida bola jonivorlarga ozor bermasdan, ular bilan do'st tutunib ham olam-olam zavq olishi mumkin. Biz unga qanotli do'stlari uchun inlar yasab, ho'raklar tayyorlashni o'rgatishimiz maqsadga muvofiqdir.

Ekologik ta'lim va tarbiyaga doir mavjud tadqiqot ishlarida tavsiya etilishicha, bu borada quyidagi shakl, uslub va vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq: tushuntirish, ko'rsatmali, amaliy; induktiv va deduktiv, reproduktiv, muammoli; suhbat, savol-javob; hadislar, hikoyalar, rivoyatlar, maqolalar o'qib berish, qayta hikoya qilish; izohlash, ko'zdan kechirish; kuzatish; qiyoslash va taqqoslash; tasavvur qilish; ishontrish, ibrat olish uchun misol va namuna keltirish; talab qilish, odatlantirish va rag'batlantirish; o'yinlar, shu jumladan, improvizatsiyalarda ishtirok etish, kolleksiya to'plash, sayr, ekologik kechalar, ekologiya haftaligi va boshqalar (11-rasm).

Shakllar	Uslublar	Vositalar
Tabiat burchagidagi ishlar; sayr: ekologik kechalar; ekologiya haftaligi; shoirlar va olimlar bilan uchrashuvlar; sahna ko'rinishlari; kattalarga yordam; bellashuvlar	Kuzatish; tushuntirish; tabiat go'zalliklaridan zavqlantirish; tajriba; bolalarni gapirtirish; nutqiy-mantiqiy masalalar yechish; suhbat; ekologik o'yinlar; didaktik o'yinlar	Hadislar; rivoyat va hikoyatlar; she'rilar yod olish; pand-nasihatlar; maqol va matallar; topishmoqlar; ertaklar; loto; labirint; rebus; videoroliklar

17-rasm. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini ekologik tarbiyalash shakl, uslub va vositalari

Tabiat burchagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishga, kichkintoylarda ularga mehr paydo etish, muhabbat uyg'otish ishida katta yordam beradi. Tabiat burchagidagi jonzotlarni bolalar har kuni ko'radilar, bu narsa tarbiyachilar ishini yengillashtiradi: ular tirik mavjudotlarni muntazam kuzatib boradilar va parvarish qiladilar. Ularni parvarish qilish natijasida bolalar zaminimizdagi o'simliklar va hayvonot dunyosining nihoyatda turli-tumanligi to'g'risida, o'simliklar, hayvonlar qay tariqa o'sib rivojla-

nib borishi, ularga qanday sharoitlar yaratib berilishi zarurligi to'g'risida tasavvur hosil qiladilar.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar mushukcha, kuchukcha, qo'zi-choq, tipratikan yoki quyon bolasini darhol ushlab ko'rmoqchi, ularning oldiga borib silamoqchi, orqasidan quvlab ushlab olmoqchi bo'lganliklarini ko'p marta ko'rganmiz va kuzatganmiz. Bolalar bu jonivorlarga tezda in yasashga kirishadilar. Uni parvarish qilishga otlanadilar. Ota-onalar bolaning zo'r hafsala va ishtiyoq bilan boshlagan ana shu tashabbusini qo'llabquvvatlashlari va maslahatlar bilan unga yaqindan yordam berishlari kerak.

Jonli burchakda qushlar va hayvonlarni parvarish qilish bolalarda tabiatga, undagi barcha jonli va jonsiz narsalarga qiziqish, muhabbat uyg'otish, ularni his etish, mehribonlik ko'rsatish tuyg'ularining shakllanishiga yordam beradi. Qushlar va hayvonlar bilan yaqin munosabatda bo'lish bolaning bilimini har tomonlama boyitishga olib keladi. Bolalarni jonli tabiat, undagi hayvonot dunyosi, o'simliklar olami bilan muntazam ravishda tanishtirib boriladi. Bunda ishlar yil davomida reja asosida tashkil etiladi. Mashg'ulotlar suhbat, kuzatish, o'yin faoliyatlari bilan bog'lab o'tkaziladi. Bunda bolalar ona tabiatga, jonzotlar va qushlarga muhabbatli, mehrlil bo'lib, ularni asrab-avaylashga o'rganadilar.

Sayr chog'ida bola o'zidagi bilimlarni, tabiat oldidagi mas'uliyat his-sini, ya'ni o'z irodasini amaliyotda sinab ko'radi. Bolalarni sayr vaqtida dalada o'tloqda o'tlab yurgan qo'y, echki va buzoq, sigirlar bilan yaqindan tanishtirish uchun ularning yashash sharoiti, insonlar uchun foydasi haqida hikoya qilib boriladi. Ovqatimizni mazali qilayotgan go'sht, yog', qaymoq, sut va qatiqlar shu hayvonlar tufayli ekanligi bolalarga tushuntiriladi.

Sayr chog'ida tarbiyaviy vaziyatlarni yuzaga keltirish va bolalarni atrof-muhitda sodir bo'layotgan voqealarga hozirjavoblik bilan munosabat bildirishga o'rgatish muhim ahamiyatga kasb etadi. Sayr paytida ilgaridan kelishib olganday, tayyorgarlik natijasi sifatida "timsolga kirish" imkoniyati yaratilishi mumkin. Kimdir tabiatga ziyon yetkazuvchi, kimdir tabiatni muhofaza etuvchi bo'ladi. Bunday paytda bolalar o'zlari payqagan nojo'ya xatti-harakatning oldini olish tashabbusini ko'rsatishlari kerakligi sayrga qadar tayinlab qo'yiladi.

Tabiatdagi yilning istagan faslida go'zallik va rang-baranglik, o'zgarishlar bolalarning bevosita hissiy holatiga ta'sir etadi, ularda kuzatish, so'rash, fikr yuritish, hikoya qilish istagini uyg'otadi. Bu narsa ularning

mantiqiy fikrlash va nutqini o‘stirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Bu borada *ekologiya haftaliklarining* tutgan o‘rni beqiyos. Chunonchi, har faslda bir marta ekologiya haftaliklari o‘tkazilib, mashg‘ulotlardan tashqari tadbirlar tizimi amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarga ekologik tarbiya berishda *kuzatish va tushuntirish* uslublaridan keng foydalaniladi. Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarni ko‘rsatmali-timsolli fikrlashga o‘rgatish, buning uchun bilib olish kerak bo‘lgan obyektlarni ko‘rsatmalilik asosida va kuzatishga qulay tarzda taqdim etish, ayniqsa, tabiatning go‘zalliklaridan zavq olish vaziyatini tez-tez yuzaga keltirib turish, bilimlarni shu yo‘llar bilan singdirish orqali ularning aqliy rivojlanishiga erishiladi.

Bolalar tabiat bilan bir butun organizm darajasida tanishadilar. Eng avval ayrim o‘simliklar, hayvonlar, ularning yashash usullari bolaning idrok va faoliyat obyektiga aylanadi. Jonli tabiat obyektlarining tashqi muhit bilan aloqasi o‘quv-bilish mavzuyi bo‘lib qoladi: o‘simliklar oziqlanish uchun o‘z ildizi bilan tuproq ichkarisiga kirib boradi, hayvonlar makonda joy almashtirib yuradi, ovqat topib yeydi va shu kabilar.

Ayniqsa, harakatlanadigan yorqin, rangin obyektlar maktabgacha yoshdagi bolalarda alohida, o‘ta kuchli qiziqish uyg‘otdi, xotirasida timsollar qoldiradi. Ana shu obyektlar yordamida hayvonlar o‘zlari yashab turgan muhitga moslashganliklari kuzatiladi. Masalan, qo‘y va sigir kabi uy hayvonlarining o‘t-o‘lanlar bilan ovqatlanishi ana shunday moslashuv oqibati ekanligiga yaqqol misol bo‘la oladi. O‘simlik va hayvonlarning ayrim ko‘zdan yana ham uzoqroq bo‘lgan bog‘liq jihatlari, bundagi o‘zgarishlarni kuzatish maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalar fikrlashini ekologik yo‘naltirish, ularni tahlil qilish va solishtirish yo‘li bilan anglashga o‘rgatish imkonini beradi.

Maktabgacha ta‘lim muassasalarida bolalarga tabiatning nafosatli namunalarini ko‘rsatgan, go‘zallikni idrok ettirgan, uning qismlarini o‘rgangan, sensor tekshiruv o‘tkazgan, tabiiy go‘zallikning turli xil o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligini tushuntirgan holda suhbatlar o‘tkazish katta naf keltiradi.

Tabiat obyektlarini ko‘zdan kechirish jarayonida bolalarning kuzatishlarini boshqarish, olgan estetik-ekologik taassurotlari haqidagi avvalgi bilimlaridan foydalanish, yangilarini ketma-ket hikoya qilish yo‘li bilan ma‘lum qilish maqsadga muvofiqdir. Ekologik bilimlarga doir estetik tushunchalarni bolalar ongiga singdirish va ularni go‘zallikning eng

oddiy alifbosidan bahramand qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarni eshitilganlar yuzasidan estetik-ekologik mazmunda o‘zaro suhbatlashishga da‘vat etish, qayta hikoya qilishni talab qilish zarur bo‘ladi. Ayniqsa, ekskursiya, sayr haqidagi hikoyalar mazmunli chiqadi.

Bolalarga jonli va jonsiz tabiatdagi har bir narsaning betakror go‘zallik ekanligini anglatish, his ettirish, kuzattirish, har bir narsaning o‘ziga xosligini aniqlatish, ularning o‘zaro munosabatda va o‘zaro aloqada ekanligiga ishora qiluvchi belgilarini ajratish muhim rol o‘ynaydi.

Tevarak-atrofnı kuzatish, rasm solish jarayonida bola ranglarnı, tovushlarnı, makon va tabiat obyektining shaklini qabul qilishga o‘rganađı. Bu narsa go‘zallikni his etishga olib keladi. Tarbiyachining vazifasi shundan iboratki, u bolalarning aqliy kuch-g‘ayratini uyg‘otadi, tabiat go‘zalliklar hissini rivojlantiradi va tabiatga bo‘lgan insoniy munosabatlarning axloqiy-estetik tomonlarini ko‘rsatadi. Tabiatdan zavqlanish go‘zalliklarnı idrok etishda yorqin namoyon bo‘ladi.

Bolalardan bog‘chaga kelishda va ketishda, ko‘cha-ko‘yda atrof-muhitga qanday zarar yetkazilayotganligini ko‘rganliklari haqida so‘zlab berish so‘ralishi, ya‘ni *bolalarnı gapirtirish* ham muhim ekologik uslublar sirasiga kiradi. Bu usul kichkintoylarda kuzatuvchanlikni va ekologik tarbiya olgan yoki olmagan odamlar orasidagi farqni ajratish tuyg‘ularini o‘stiradi. Masalan, bolalar quyidagicha gap topib keladilar: “Bir bola gugurt olib, xazonlarnı yoqđı. O‘tib ketayotgan bir kishi uni koyib, olovni o‘chirtirdi” va hokazo.

Bolalarning tabiatni muhofaza qilish amaliyotida uch xil faoliyatdan (ta‘lim, mehnat, o‘yin) keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, bolalarning *ekologik mazmundagi o‘yin faoliyati* ta‘lim unsurlariga ega bo‘lib, tegishli ko‘nikmalarnı hosil qilishda ularning ahamiyati katta bo‘ldi.

Didaktik o‘yin o‘quv-bilish vazifalari (masalan, narsaning xossalari va sifatini aniqlash, turli buyumlarnı tasnif qilish va guruhlash) o‘yin bilan (topish, rol ijro etish, musobaqalashish) qo‘shib olib boriladiki, bunda didaktik o‘yin ta‘limning alohida shakli – yengil, tez va bolalar tomonidan oldindan mo‘ljallanmagan bilimlarnı o‘zlashtirish shakliga aylanadi. Masalan, “Bu hayvonning nomi “Qizil kitob”ga kiritilganmi? Shu hayvonni top” o‘yini. Tarbiyachi bolalarnı doira shaklida turg‘izib, hayvon nomini aytadi va koptokni biror bolaga otadi. Bola koptokni ilib olib, “Qizil kitob”ga kirgan yoki kirmaganligini aytadi.

Tabiat muhofazasiga doir o‘yin mazmunini ishlab chiqishda shaxsning axloqiy pozitsiyasi, odamlarning o‘zaro munosabatlari, ularning tabiiy muhitga insonparvarlik, g‘amxo‘rlik bilan munosabatlari markaziy o‘rinda turmog‘i lozim.

Rolli o‘yinlar har bir ishtirokchiga mustaqillik va uyushqoqlik namoyon etish imkonini beradi. Ijodiy rolli o‘yinlar tushunchalarni, tasavvurlarni, faktlarni tiklash, qayta guruhlash tariqasida kechadi. Masalan, rolli o‘yin sifatida bolalardan biri maqbul va nojo‘ya harakatlar qilib ko‘rsatadi. Nojo‘ya xatti-harakatga kelganda, bolalar: “To‘xta!” – deb buyruq berishlari kutiladi. Kuzatishlarning ko‘rsatishicha, bunday paytlarda ko‘p vaqt sukutda bo‘ladigan bolalarda ham qat‘iyat, jur‘at paydo bo‘ladi. Bu esa o‘yinning muhim jihati hisoblanadi.

Tabiat bilan insonning o‘zaro aloqador ekanligini o‘rgatish, umuman, bolalarda atrof-muhitga mas‘uliyatli munosabatni shakllantirish – uzoq vaqtni o‘z ichiga oladigan jarayon. Buning uchun bolalarning atrof-muhit, tabiat bilan har tomonlama doimiy aloqalarini ta‘minlash zarur. Maktabgacha ta‘lim muassasasi hududida, sayr chog‘ida bog‘da, tabiat quchog‘ida bo‘lish, bu muddatda turli xil ekologik o‘yinlar uyushtirish ana shu imkoniyatni yuzaga keltiradi.

Voqeaband rolli o‘yinlar, ayniqsa, bola hayotida katta rol o‘ynaydi. Dastlab sahna ko‘rinishlari tariqasida tayyorlanadigan o‘yin chog‘ida bola tabiatni muhofaza qilish bilan shug‘ullanuvchi turli mutaxassislar rolini ijro etadi, ko‘pchilik ana shunday mutaxassislarni ko‘radi, shunday mutaxassislar borligidan darak topadi, keyinchalik o‘zi ham shu mutaxassis rolini o‘ynashga muvaffaq bo‘ladi. Boshqacha aytganda, o‘yin jarayonida bola bilan mutaxassis o‘rtasida muloqot sodir bo‘ladi.

Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarni ekologik tarbiyalashda *nutqiy mantiqiy masala yechish* uslubidan ham foydalanish mumkin. Bunday masalalar tabiat haqida topishmoq-hikoyalardir. Qo‘yilgan masalani yechish, savolga javob berish uchun bolalar tabiat hodisalari orasidagi ma‘lum bog‘lanishlar va qonuniyatlarni o‘zlari uchun tushunib olgan bo‘lishlari kerak. Tarbiyachi bolalarga nutqiy mantiqiy masala berar ekan, ularni aqliy faoliyat usullaridan shunday (qiyoslash, hodisalarni turli tomondan ko‘rib chiqish, masalani yechish yo‘llarini izlash) vaziyatga solishi zarurki, bu narsa fikrlashning mustaqil, aqlning o‘tkir bo‘lishiga turtki beradi.

Bolalar tomonidan tabiatdagi narsa va hodisalar, odamlarning ayrim nojo‘ya xatti-harakatlari haqida *hikoya-etyudlar tuzish* ijodiy topshiriq turlaridan biridir. Albatta, bu ish daf‘atan boshlanmasligi kerak. Dastlab ishni bolalarbop hikoyalar tanlash va ularni so‘zlab berish usuliga murojaat etishdan boshlash lozim. Bu hikoyalar oxir-oqibatda hikoya-etyudlar tuzish uchun andaza vazifasini bajaradi.

Maktabgacha ta‘lim muassasasida ekologik muammolar aks etgan *videofilmlardan* foydalanish maqsadga muvofiq. Bugungi kunda bolalarbop bunday videodisklar va filmlar ko‘payib bormoqda. Har bir namoyishdan so‘ng bolalar bilan ko‘rilgan filmlar haqida suhbat o‘tkazilishi mumkin.

Bolalarni ekologik tarbiyalashda *hadislardan namunalar aytish, rivoyat va hikoyatlar so‘zlab berish* samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Atrof-muhitga eng qadimgi zamonlarda ham juda katta e‘tibor berilib kelingan. Hadisi shariflarda quyidagi kabi bandlar bor: “Soyasidan xalq foydalanib turgan daraxtni kesib yuborgan odamni tangri do‘zaxga mahkum etur”; “Dunyo yam-yashil go‘zaldir, kimki undan haqli ravishda halollik bilan olsa, undan baraka topadi”.

Ajdodlarimiz o‘z farzandlariga oila davrasida *pand-nasihatlar* qilganlar va turli suhbatlarda quyidagilarni alohida uqtirganlar: “Suvni iflos qilma, barcha jonivorlar uni ichib bahra oladi”; “Rizq-ro‘zingni isrof qilma, gunohkor bo‘lasan”; “Pishib yetilmagan uzumni uzma, agar uzsang katta gunoh ish bo‘ladi, chunki unda ahli mo‘minning nasibasi bor”.

Xalq og‘zaki ijodi namunalarida muammolarni hal etish yo‘llari bevosita va bilvosita usullarda qo‘llanadi, shunga ko‘ra bu usullarning tarbiyaviy va ta‘limiy imkoniyatini oshirib, tug‘ilgan muammolarning bolalarga yanada tushunarli bo‘lishini ta‘minlaydi hamda ta‘sirchanligini kuchaytiradi. Masalan, “Urug‘ sepmay ekin bo‘lmas, Yog‘och ekkan soyada yotmas” naqlida soyaning fayzli dam olish joyi, lekin shu soyaning bo‘lishi uchun ter to‘kib mehnat qilish, daraxt ekish zarurligi tushuntiriladi.

Loto, labirint, rebus, boshqotirma, topishmoq, topishmoq-hazillardan foydalanish ham bolalarni ekologik tarbiyalashda yaxshi natija beradi. *Ertak to‘qish, she‘r ijod qilish, tabiatda o‘zini qanday tutish kerakligi haqida eslatmalar aytish* bir tomondan, ijodiy nutq o‘stirish uchun xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, ekologik ongini rivojlantiradi.

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologiyadan boshlang'ich ta'lim-tarbiya berishning maqsad va vazifalari nimadan iborat?
2. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini ekologik tarbiyalashning o'ziga xosliklarini bayon eting.
3. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini ekologik tarbiyalash shakllariga nimalar kiradi?
4. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini ekologik tarbiyalash uslublari va ularning mohiyatini tushuntirib bering.
5. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini ekologik tarbiyalash vositalarini bayon eting.

1. **Ekologiya so'zi qaysi tildan olingan va qanday ma'noni anglatadi?**
 - A) Grekcha, organizmlarning yashash joyi
 - B) Lotincha, makon
 - C) Inglizcha, yashash
 - D) Nemischa, uy-joy
2. **Qaysi konsepsiyaga muvofiq maktabgacha ta'lim muassasalari bolalarga ekologik ta'lim tarbiyaning oddiy elementlari beriladi?**
 - A) "Maktabgacha ta'lim to'g'risida"gi konsepsiyaga
 - B) "Bolalarga huquqiy tarbiya berish to'g'risida"gi konsepsiya
 - C) "Uzluksiz ekologik ta'lim" konsepsiyasi
 - D) To'g'ri javob berilmagan
3. **Ekologik tarbiya vazifalari noto'g'ri berilgan javobni aniqlang?**
 - A) Bolalarga mashg'ulot va mashg'ulotdan tashqari jarayonda ekologik tushunchalarni tarkib toptirish
 - B) Bolalarning tabiat va atrof-muhit ekologiyasi to'g'risidagi tasavvurini shakllantirish
 - C) Bolalarda tabiatda o'zini tutish malakasini shakllantirish
 - D) Bolalarga sayyoralar haqida bilim berish

III BO‘LIM. MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARNI O‘QITISH MAZMUNI VA USLUBIKASI

XIII bob. TA’LIM JARAYONINING UMUMIY ASOSLARI

Ta’lim nazariyasi (didaktika) maktabgacha pedago- gikaning tarkibiy qismi

Didaktika maktabgacha pedagogikaning nisbatan mustaqil qismi bo‘lib, unda o‘qitish jarayonining umumiy qonuniyatlari ochib beriladi. Didaktikaning so‘zma-so‘z tarjimai “ta’lim nazariyasi”ni anglatadi.

Didaktika “grekcha” so‘zdan olingan bo‘lib, “didacticos”— o‘rgatish, o‘qitish ma‘nosini bildiradi. Bu atamani nemis pedagogi Volfgang Ratke (1571–1635) fanga kiritgan, deb hisoblanadi. Didaktika nomi ostida u ilmiy fanning nazariy va uslubologik asoslarini tadqiq qiladigan ilmiy fanni tushundi. Didaktikaning fundamental ilmiy asoslari ilk bor Ya.A.Komenskiy tomonidan ishlab chiqilgan. 1657-yilda u chex tilida “Buyuk didaktika” asarini yozdi. Didaktika nomi ostida Komenskiy “hammani hamma narsaga o‘rgatish san’ati” deb tushundi.

Didaktika “nimaga o‘qitish?”, “nimani o‘qitish?” “qanday o‘qitish?” “qayerda o‘qitish” kabi savollarga javob izlaydi. Didaktikada ta’limni tashkil etishning umumiy masalalari, o‘qitish jarayonining mohiyati, ta’limning mazmuni, o‘qitish qonuniyatlari, o‘qitish tamoyillari, uslublari, uning tashkiliy shakllari yoritiladi.

O‘qitish jarayoni pedagogning o‘rgatuvchilik faoliyatini va ta’lim oluvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini o‘z ichiga oladi. Shu o‘rinda bu jarayonlarning tahliliga e‘tibor qarataylik. Ta’limda pedagogning boshqaruvchilik roli o‘z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarining boy tajribasini, insoniyatning asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda axloqiy qarashlar jarayonida qo‘lga kiritgan yutuqlarini egallashni shart qilib qo‘yadi.

Bularning barchasi pedagogning ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarini amalga oshirishida o‘z aksini topmog‘i lozim. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, ta’lim jarayonida pedagog ta’lim oluvchilariga qo‘lga kiritilgan bilimlarni o‘rgatadi. O‘quv faoliyatida ularni ko‘nikma va malakalar bilan qurollantiradi. Shu bilan bir paytda u ta’lim oluvchilarda dunyoqarash va axloq normalarini hosil qiladi, qiziqish va qobiliyatlarni shakllantiradi, ularning bilish faolligini oshiradi.

Pedagogning faoliyati ta'lim oluvchi shaxsining maqsadga muvofiq shakllanishiga katta imkoniyatlar ochib beradi. Yanada aniq qilib aytganda, butun mashg'ulot jarayonini rejalashtiradi, ushbu jarayonda ta'lim oluvchilar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil etadi. Ta'lim oluvchilarga qiyinchiliklarni yengib o'tishda yordam beradi hamda ularning bilimlarini va butun ta'lim jarayonini tashxis qiladi. O'z navbatida ta'lim oluvchilarning faoliyati mashg'ulot jarayonida o'rganishga, bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallashga, o'zini jamiyatga foydali faoliyatga tayyorlashga yo'naltiradi. Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarning faoliyati ko'p qirrali yo'nalgan harakatni ifodalaydi va bu harakat bilishga doir vazifalarni hal qilishda ularga katta yordam beradi.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari

Didaktikaning asosiy kategoriyalariga ta'lim, ta'lim jarayoni, ta'lim tamoyillari, ta'lim uslublari, ta'lim shakllari, ta'lim vositalari,

bilim, ko'nikma, malaka, o'qitish, o'qish kiradi. *Ta'lim* – tevarak-atrofdagi olamni bilishning maxsus tashkil etilgan va tarbiyachi rahbarlik qiladigan alohida turi. *Ta'lim jarayoni* – tarbiyachi bilan bolalarning birgalikdagi faoliyati bo'lib, ikki tomonlama xarakterga egadir. *Ta'lim tamoyillari* – ta'lim uslubikasi va tashkil etilishi mazmuniga qo'yiladigan talablarni aniqlaydigan eng muhim qoidalar. *Ta'lim uslublari* – pedagog bilan ta'lim oluvchining o'quv vazifalarini hal etishga qaratilgan, o'zaro bog'langan faoliyati yo'llari va usullari. *Ta'lim vositalari* – mashg'ulot jarayonining tashkil etilishi va o'tib borishini ta'minlaydigan xilma-xil o'quv jihozlari, o'quv qo'llanmalari va boshqalar. *Bilim* – bu ta'lim oluvchilar ongida muayyan tartibda mustahkamlangan, ularning shaxsiy mulkini tashkil etadigan va bundan ular zaruratga ko'ra foydalana oladigan faktlar, ma'lumotlar, ilmiy nazariyalar, qonunlar, tushunchalardir. *Ko'nikma* – bu o'zlashtirib olingan bilimlar asosida amalga oshiriladigan va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq harakatlarga tayyorlikda ifodalangan ongli faoliyat. *Malaka* – avtomatlashgan, o'rganib qolingan, muayyan usul bilan bexato bajariladigan harakatdir. *O'qitish* – ta'lim oluvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish hamda ularning bilish faoliyati natijasida bu bilim, ko'nikma va malakalarni egallab olishga doir maxsus tashkil etilgan va biror maqsadga qaratilgan faoliyatdir. *O'qish* – bilim, ko'nikma va malakalarni egallab olishning murakkab jarayoni bo'lib, ta'lim oluvchining intellektual, irodaviy va jismoniy kuch-g'ayratini talab etadi hamda ularning rivojlanishini rag'batlantiradi.

O'qitish pedagog rahbarligida ta'lim oluvchining o'quv materiallarini rejali ravishda bilib olish jarayonidir. Bu jarayonni bilish bosqichidan iborat bo'lgan tarkibiy qismlarga (yoki bo'g'inlarga) ajratish mumkin. Ta'lim oluvchi bilmaslikdan bilish, uddasidan chiqa olmaslikdan uddalay olish, malakalar hosil qilish yo'lidan borib, bu bosqichlardan o'tishi kerak.

O'qitish jarayoni to'rtta asosiy bo'g'indan tashkil topgan:

- 1) o'zlashtirilishi lozim bo'lgan materialni idrok etish;
- 2) uni fahmlab olish, tushunchalarning hosil bo'lishi;
- 3) bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish, ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishi;
- 4) hosil qilingan ko'nikma va malakalarni amalda qo'llash.

Ta'lim jarayonining tuzilishi

Har bir bo'g'in uchun ta'lim oluvchilarning muayyan tarzda bilish faoliyati xarakterlidir. Bu faoliyat pedagog tomonidan alo-

hida rahbarlikni talab etadi.

O'rganilayotgan materialni idrok qilish. Ta'lim oluvchilarning o'rganilayotgan (yoki o'rganilishi lozim bo'lgan) materialni idrok qilishini tashkil etar ekan, pedagog ularning hayotiy tajribasi va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda material to'g'risida umumiy tasavvur hosil qilib, oldindan uni butunligicha tushuntiradi va ko'rsatadi.

O'rganilayotgan materialni fahmlab olish. O'rganilayotgan obyekt haqidagi umumiy tasavvur asosida uni tushunishni ta'minlovchi, asta-sekin chuqurlashib boruvchi anglash jarayoni davom etadi. O'qitishning bu bo'g'inining maqsadi ilmiy tushunchalarni tarkib toptirishdir.

Bilimlarning mustahkamlanishi, ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishi. O'quv materialini idrok etish va fahmlab olish jarayonida o'zlashtirish keyinchalik uni mustahkamlash va takomillashtirishni talab etadi.

Bilim, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llash. Bilim, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llash jarayoni ta'limning yakuniy mustaqilligini asta-sekin va izchillik bilan oshirib borish.

Maktabgacha ta'lim yoshida o'quv faoliyatiga doir shart-sharoitlar tarkib toptiriladi, uning alohida unsurlari shakllantiriladi. Kichik maktab yoshida mashg'ulotlar jarayonida bolalarda o'z faoliyatini tashkil etish maqsadini shakllantirish (ikki yoshdan uch yoshgacha), turli faoliyat usullarini o'zlashtirishga o'rgatish (uch yoshdan to'rt yoshgacha) zarur. To'rt yoshdan boshlab bola natijaga qarab aniq yo'nalganlikni egallaydi. Pedagog bolalarni tinglash, tushunish, topshiriqni bajarish, bir-biriga

halaqit bermaslikga o'rgatadi, mashg'ulotlar mazmuniga qiziqishni qo'llab-quvvatlaydi, faollik va intilishni rag'batlaydi.

Katta maktabgacha yosh davrida bolada quyidagi o'quv faoliyati unsurlari shakllantiriladi:

- 1) faoliyat turi bilan bog'liqlikda maqsadni va natijaga erishish usullarini aniqlay olish;
- 2) namunaga muvofiq olinadigan natija bilan taqqoslashda namoyon bo'ladigan o'z-o'zini nazorat qila olish;
- 3) oraliq natijalarga erishish jarayonida joriy nazoratni amalga oshira olish;
- 4) natijaga erishishga yo'nalganlik bilan bog'liqlikda faoliyatni rejalashtira olish.

Ta'lim jarayoni qonuniyatlari

Ta'lim jarayonini tashkil etish va amalga oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi zaruriy, sababiy, o'zgaruvchan aloqadorliklar yig'indisi

ta'lim qonuniyatlari deb ataladi.

Ta'lim jarayonining quyidagi *umumiy qonuniyatlari* mavjud:

– Ta'lim maqsadi jamiyatning rivojlanish sur'ati va darajasi, jamiyatning talablari va imkoniyatlari hamda pedagogika fani va amaliyotining rivojlanganligi va imkoniyatlari darajasiga bog'liq.

– Ta'lim mazmuni ta'limning ijtimoiy ehtiyojlari va maqsadlari, ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot sur'ati, bolalarning yosh imkoniyatlari, ta'lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanish darajasi, shuningdek, o'quv yurtining moddiy-texnik va iqtisodiy imkoniyatlariga bog'liq.

– Ta'lim sifati (samaradorligi) avvalgi bosqich mahsuldorligi va mazkur bosqichda erishilgan natijalar, o'rganilayotgan material xususiyati va hajmi, ta'lim oluvchilarga tashkiliy-pedagogik ta'sir ko'rsatish hamda bolalarning bilim olishga qobiliyatlari va ta'lim vaqtiga bog'liq.

– Ta'lim uslublari samaradorligi uslublarni qo'llashda bilimlari va ko'nikmalari, ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, ta'lim oluvchilarning yoshi, ta'lim olish imkoniyatlari, moddiy-texnik ta'minot hamda o'quv jarayonini tashkil etishga bog'liq.

– Ta'limni boshqarish mahsuldorligi ta'lim tizimida qayta aloqalarning intensivligi va tuzatish, ta'sir ko'rsatishlarning asoslanganligiga bog'liq.

– Ta'limni rag'batlantirish samaradorligi ta'limning ichki rag'batlari (sabablari) hamda tashqi (ijtimoiy, iqtisodiy, pedagogik) rag'batlariga bog'liq.

Ta'lim tamoyillari Ta'lim qonuniyatlaridan kelib chiquvchi dastlabki, asos va qoidalar ta'lim tamoyillari deb ataladi. Zamonavoiiy didaktikada ta'limning mazmunli va tashkiliy-uslubik tamoyillari ajratiladi. **Ta'limning mazmunli tamoyillari** ta'lim mazmunini tanlash bilan bog'liq bo'lgan qonuniyatlarni aks ettiradi va quyidagi muhim asoslarni o'zida ifoda etadi:

– Ta'limning *ilmiylik tamoyili* ta'lim mazmunini zamonaviy fan va texnika rivojlanish darajasi, jahon sivilizatsiyasi to'plagan tajribaga mos kelishini ifodalaydi. Bu tamoyil o'qitish jarayoni ta'lim oluvchilarni obyektiv ilmiy dalillar, hodisalar, qonunlar bilan tanishtirishga yo'naltirilgan bo'lishni talab etadi.

– Ta'limning *tarbiyalovchilik tamoyili* yaxlit pedagogik jarayonda ta'lim va tarbiyaning birligi qonuniyatlariga tayanadi. Bu tamoyil ta'lim jarayonida har tomonlama barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishni ko'zda tutadi.

– *Ta'limning tabiat bilan uyg'unligi tamoyili* ta'lim oluvchilarga ularning yosh davrlarini inobatga olgan holda bilimlarning berilishi ushbu bilimlarning ular uchun tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Tabiat bilan uyg'unlik g'oyasi asta-sekinlik, ketma-ketlik va mustaqil faoliyat kabi ta'lim tamoyilining asosi hisoblanadi.

– Ta'limda *insonparvarlik tamoyilini* bolaning shaxs sifatidagi qadrgimmati, uning erkinligi hamda baxtli hayot kechirishini ta'minlash, uni rivojlantirishi, ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi, unga hayotda o'z o'rnini topishda yordam ko'rsatishi va hokazolarni nazarda tutadi.

– Ta'limning **tashkiliy-uslubik tamoyillari** muayyan ijtimoiy, psixologik va pedagogik talablarni inobatga olish bilan bog'liq bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

– *Ta'limning izchilligi, tizimliliigi, ketma-ketligi tamoyili* bilish bosqichlarining obyektivligini anglatadi. Izchillik ta'lim mazmuni, uning shakli va usullari, o'quv jarayoni ishtirokchilari bo'lgan subyektlarning o'zaro munosabatlariga taalluqli. U alohida partsial (yunoncha partialis – qisman) va xususiy o'quv vaziyatlari, predmet va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlik, aloqadorlik qonuniyatlarini asta-sekin o'zlashtirish asosida ularni yagona yaxlit o'quv jarayoniga birlashtirishga imkon beradi. Ketma-ketlik u yoki bu o'quv materialini o'zlashtirish sur'ati, uning elementlari o'rtasidagi o'zaro mosligini tahlil qilishga imkon beradi.

– *Onglilik va ijodiy faollik tamoyili*. Bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirish quyidagi omil va shartlarga bog‘liq: ta‘lim motivlari, ta‘lim oluvchilarning faollik darajasi, o‘quv-tarbiyaviy jarayonning samarali tashkil etilishi, tarbiyachi tomonidan qo‘llanuvchi ta‘lim uslublari va vositalarining samaradorligi va boshqalar. Ta‘lim oluvchilarning faolliklari reproduktiv va ijodiy xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Mazkur tamoyil ta‘lim oluvchilarning tashabbuskorliklari va mustaqil faoliyatlarini nazarda tutadi.

– *Ko‘rgazmalilik tamoyili* didaktikaning “oltin qoidasi” hisoblanib, unga binoan ta‘limda inson sezgi organlaridan foydalanish kerak. Ko‘rgazmalilikdan o‘quv jarayonining barcha bosqichlarida: yangi materialni o‘zlashtirish, uni mustahkamlash, mashqlarni tashkil qilish hamda bolalarning dastur materiallarini o‘zlashtirishlarini tekshirish va baholashda foydalanish mumkin.

– *Ta‘limning tushunariligi tamoyili* ta‘lim oluvchilarning mavjud imkoniyatlarini hisobga olish, jismoniy va psixik sog‘lig‘iga yomon ta‘sir etuvchi intellektual va emotsional qiyinchiliklardan voz kechishni talab etadi. Ta‘limning tushunariligi ta‘lim oluvchilar egallab olishi zarur bo‘lgan bilim, amaliy ko‘nikma va malakalari hajmini to‘g‘ri aniqlashdir.

– *Ta‘limning bolalarning yoshi va individual xususiyatlariga mos kelishi tamoyili* ta‘lim oluvchilarning yoshiga ko‘ra va individual yondashuvni anglatadi. Agarda qo‘yilayotgan talablar yoki ta‘limning tashkiliy tuzilishi ta‘lim oluvchilarning yosh imkoniyatlaridan ortda qolsa yoki ilgarilab ketsa, o‘quv faoliyatining samarasi pasayadi. Individual yondashish ta‘lim oluvchilarning murakkab ichki dunyosini o‘rganish, yuzaga kelgan munosabatlar tizimini tahlil qilish va shaxs shakllanishi sodir bo‘ladigan ko‘p turdagi sharoitlarni aniqlashni talab etadi.

– *Oqilona talabchanlik bilan bola shaxsini hurmat qilishning birligi tamoyiliga* ko‘ra pedagog tarbiyalanuvchini shaxs sifatida hurmat qilishi zarur. Oqilona talabchanlik maqsadga muvofiq bo‘lsa, ta‘lim-tarbiya jarayoni, shaxsning to‘liq va barkamol rivojlanishini ta‘minlay olsa samarasi ancha yuqori bo‘ladi.

? NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Didaktikaning bahs doirasi nimadan iborat?
2. Didaktikaning asosiy kategoriyalarini sanang va ularga izoh bering.
3. Ta'lim jarayonining tuzilishi qanday bo'g'inlarni o'z ichiga oladi?
4. Maktabgacha ta'lim yoshidagi o'quv faoliyati qanday pedagogik shart-sharoitlar bilan bog'liq?
5. Ta'lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini sanang va ularga izoh bering.
6. Ta'limning mazmunli tamoyillariga nimalar kiradi?
7. Ta'limning tashkiliy-uslubik tamoyillari nimalarni o'z ichiga oladi?

? MAVZU YUZASIDAN TESTLAR

1. Didaktika so'zini kim fanga kiritgan?

- A) Ya.A.Komenskiy
- B) K.Ushinskiy
- C) Wolfgang Ratke
- D) S.Bichurin

2. Didaktikaning kategoriyalari qaysi qatorda noto'g'ri berilgan?

- A) Ta'lim, bilim, malaka
- B) Ta'lim uslublari, ta'lim jarayoni, ta'lim uslubi
- C) Ta'lim vositalari, o'qish va o'qitish
- D) Ta'lim vositalari, ko'rgazmalilik

3. Malaka bu ...

- A) Ta'lim oluvchilarni bilim bilan qurollantirish
- B) O'rganib qolingan muayyan usul bilan bexato bajariladigan harakatdir
- C) Olingan bilimlar natijasida amaliy jihatdan maqsadga muvofiq harakatlar yig'indisi
- D) Ta'lim oluvchilarning bilimga bo'lgan ehtiyoji

4. O'qitish jarayoni nechta asosiy bo'g'indan tashkil topgan?

- A) 6
- B) 5
- C) 4
- D) 3

5. Ta'lim jarayonini tashkil etish va amalga oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi zaruriy, sababiy, o'zgaruvchan aloqadorliklar yig'indisi nima deb ataladi?

- A) Ta'lim vositalari
- B) Ta'lim uslublari
- C) Ta'lim kategoriyalari
- D) Ta'lim qonuniyatlari

6. Ta'limni rag'batlantirish samaradorligi qaysi javobda berilgan?

- A) Ichki va tashqi rag'batlantirishga
- B) Ijtimoiy va pedagogik rag'batlantirishga
- C) Moddiy va iqtisodiy rag'batlantirish
- D) To'g'ri javob berilmagan

7. Zamonaviy didaktikada ta'limning tamoyillari to'g'ri ajratilgan javobni aniqlang.

- A) Mazmunli va tashkiliy – uslubik
- B) Ko'rgazmali va amaliy
- C) Umumiy va yakka
- D) Og'zaki va ilmiylik

8. Ta'limning tashkiliy-uslubik tamoyillari to'g'ri berilgan javobni aniqlang?

- A) Ta'imning izchillik, onglilik va ko'rgazmalilik tamoyili
- B) Ta'limning tarbiyalanuvchanlik, ilmiylik tamoyili
- C) Ta'limning talabchanlik, tushunarlilik va tabiat bilan uyg'unlik tamoyili
- D) Ta'limning insonparvarlik, tushunarlilik tamoyili

Bolalarning o'quv faoliyatini tashkil etish shakllari

Ta'limni tashkil etish shakli deganda pedagog va bolaning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi va kun tartibida ma'lum bir vaqtda o'tkaziladi. Ta'lim shakli bolalar soni, pedagog va bolalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir xususiyati, o'tkazish joyi, shuningdek, kun tartibida egallagan o'rninga qarab bir-biridan farqlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'quv faoliyatini tashkil etishning uchta asosiy shakli mavjud: individual, guruhli va ommaviy (frontal). Bolalarning o'quv faoliyatini tashkil etishning har bir shakli didaktik maqsadi, bolalarning mustaqillik darajasi, jamoaviy va individual ishga munosabati, pedagogik rahbarlik bilan bog'liqlikda o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi.

Bolalarning o'quv faoliyatini tashkil etishning *individual shakli* o'zida bir qancha ijobiy jihatlarni aks ettiradi: o'quv faoliyati mazmuni, uslubi va sur'atini to'la individualashtirish imkoniyatining mavjudligi hamda aniq bir masalani hal etishda ta'lim oluvchining har bir harakati va operatsiyalarini kuzatib borishga imkon berishi kabilar. Biroq ta'limning individual shakli ayrim kamchiliklarga ham ega: vaqtning tejamli emasligi (bir guruhda yigirma nafar bola bo'lsa, pedagog har biri uchun 20-25 minutdan vaqt sarflaydi. Demak, pedagog qariyb olti soat individual o'qitish bilan shug'ullanadi); pedagog ta'sirining cheklanganligi (pedagogning vazifasi bolaga topshiriq berish va uning bajarilishini tekshirishdan iborat); boshqa bolalar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyati cheklanganligi (bu holat ijtimoiylashishi jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi); jamoada ishlash tajribasining shakllanmasligi.

Biroq ba'zan o'quv faoliyatining individual shaklidan foydalanish zaruriyati tug'iladi. Eng avvalo, rivojlanishida nuqsoni bor, tez-tez kasallikka chalinuvchi bolalar bilan individual tartibda ishlash, ularni zarur bilim va ko'nikmalarni egallashlariga yordamlashish, psixik jarayonlarni boshqarishga qobiliyatlilikni rivojlantirish ehtiyoji mavjud. Shuningdek, maxsus qobiliyatlar (rasm chizish, qo'shiq aytish, matematikaga doir)ga ega bolalar bilan ham individual tarzda mashg'ulotlar olib borish talab etiladi.

Guruhdagi har bir bola bilan pedagog uning ta'lim olganlik darajasi, bilim va ko'nikmalarni egallashdagi uzilishlarni o'z vaqtida aniqlash uchun vaqt-vaqti bilan nazorat-tashxis etish tavsifiga ega individual mashg'ulotlarni o'tkazadi.

Bolalarning o'quv faoliyatini tashkil etishning *guruhli shakli* mashg'ulotlarni kichik guruhlarda amalga oshirishni talab etadi. Buning uchun guruh olti nafar boladan oshmaganda holda kichik guruhlariga bo'linadi. Kichik guruhlariga birlashtirish bolalarning o'z xohish-istaklari, umumiy qiziqishlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi mumkin, biroq ularning o'zlashtirish darajasiga ko'ra guruhlariga ajratish tavsiya etilmaydi. Aksincha, kuchli o'zlashtirish darajasiga ega bolalar bilan pastroq o'zlashtiruvchi bolalardan iborat tarzda guruhni shakllantirish maqsadga muvofiq.

Kichik guruhlarda ishlashni tashkil etish texnologiyasi ham turlicha bo'lishi mumkin. Ba'zan mashg'ulot birdaniga kichik guruhlariga bo'lingan holda o'tkaziladi. Bunday holatda pedagog bolalarni qanday tartibda joylashtirish haqida o'ylashi lozim. Har bir guruh a'zolari bir-biriga qulay tarzda o'tirishlari, shu bilan birga oraliq masofani ham hisobga olish lozim. Chunki guruhlarda ishlash jarayonida kichik guruh a'zolari bir-birlari bilan muloqotga kirishadi, o'zaro hamkorlikda topshiriqni bajarishadi. Shuning uchun ham bunday mashg'ulotlarda hamma vaqt tinchlikni saqlab turish imkoniyati bo'lmaydi. Mashg'ulotga doir topshiriq hamma uchun bir xilda yoki alohida-alohida berilishi mumkin. Mashg'ulot berilgan topshiriqni o'ziga xos tarzda taqdim etish bilan tugallanadi.

Zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning o'quv faoliyatini tashkil etishning *ommaviy (frontal) shakliga* ham alohida zaruriyat mavjud. Ommaviy tarzda o'tkaziladigan mashg'ulotlar mazmuni ko'pincha badiiy tavsifga ega faoliyat ko'rinishida amalga oshirilishi mumkin. Masalan, musiqa mashg'ulotlari, sahna ko'rinishlarini namoyish etish, o'yin-sayohatlar, san'at asarlari bilan tanishish va boshqalar. Bunday mashg'ulotlarda aqliy faollikni oshirishga undovchi "emotsional ta'sir ko'rsatish" yaxshi samara beradi, bolaning o'z-o'zini namoyon eta olishiga imkon beradi.

Mashg'ulot – maktabgacha ta'limda o'qitishning asosiy shakli Mashg'ulot – maktabgacha ta'limda o'qitishning asosiy shakli sanalib, u hamma bolalar uchun majburiydir: unda dastur mazmuni belgilab berilgan, kun tartibida unga ma'lum o'rin va vaqt ajratilgan. Mashg'ulot tarbiyachi rahbarligida o'tkaziladi, tarbiyachi mashg'ulotda bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, bolalar egallab olgan bilimlarni esa aniqlab, mustahkamlaydi, bolalarning amaliy mashg'ulotini tashkil etadi.

Maktabgacha ta'lim yoshi guruhlari bilan bog'liqlikda mashg'ulotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Kichik yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarning maqsadi bolalarning nutqi va harakatini rivojlantirib borishdir. Katta va tayyorlov guruhlaridagi mashg'ulotlar orqali bolalarda tashabbuskorlik va mustaqillik, bilimga qiziquvchanlik, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish kabi malakalar tarkib toptirib boriladi. Bolalarda kuzatuvchanlik, mas'uliyat hissi takomillashib boradi, ularda aqliy mehnat qilish malakasi va xohish-istagi tarbiyalanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasada mashg'ulotlar bolalarni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Bu mashg'ulotlarda bolalar o'quv faoliyati ko'nikmalari hosil qiladilar, ancha intizomli, uyushgan bo'lib boradilar. Ularda barqaror diqqat, diqqatni bir narsaga qarata olish, irodaviy zo'r berilish qobiliyati rivojlanadi. Sistemali o'qish natijasida bilishga qiziqish paydo bo'ladi.

Bolalarni jamoada o'qitish muayyan afzalliklarga ega: birgalikda ishda ular bir-birlariga aktiv ta'sir etadilar, tashabbus, fahm-farosat ko'rsatish imkoniga ega bo'ladilar.

Bolalar oldilariga ko'pchilikdan kuch-g'ayrat talab qiladigan vazifalar qo'yilganda birgalikdagi kechinmalar paydo bo'ladi, jamoa tuyg'usi vujudga keladi. Ekskursiyalar, rasm chizish, loy va plastilindan buyumlar yasash, qurish-yasashga oid ishlarni birgalikda bajarish, umumiy o'yinlarda va musiqa mashg'ulotlardagi raqslarda, harakatlarni rivojlantirish mashg'ulotlarida birlashish, badiiy adabiyotni o'qish tufayli yuzaga kelgan birgalikdagi kechinmalar – bularning hammasi inoq bolalar kollektivini vujudga keltirishda yordam beradi hamda jamoada yashash va ishlash ko'nikmasi hosil qiladi.

Mashg'ulotlarda ta'lim berish bolalardan aqliy va jismoniy zo'r berishni talab etadi, ya'ni u bolaning faol harakatlanishi bilan bog'liq bo'lib, bola ma'lum natijaga erishish uchun intiladi, bu esa boladan uzoq davomli ixtiyoriy diqqatni talab etadi. Shuning uchun mashg'ulotga tayyorlanishda bolaning yoshi, imkoniyatini e'tiborga olish zarur. Shuningdek, mashg'ulotning vaqti, kun tartibidagi o'rni, dasturning har bir bo'limlarini to'g'ri almashtirib turishni oldindan o'ylab, aniq belgilab olish zarur. Har bir yosh guruhida necha marta mashg'ulot o'tkazilishi, uning mazmuni va har bir mashg'ulot yosh guruhlari bo'yicha necha daqiqada davom etishi "Bolajon" tayach dasturida ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda belgilab berilgan.

Mashg'ulotlardagi o'qitish jarayonida bolalarda maktabga va o'qishga qiziqish tarbiyalanadi, to'g'ri xulq-atvor ko'nikmalari, ma'suliyat hissi, ishchanlik, o'zini tuta bilish, ishda zo'r berish odati hosil qilinadi.

Bolalarga kerakli bilim va malakalarni mashg'ulot jarayonida, yangi pedagogik texnologiya materiallaridan va tarbiyaning samarali usullaridan foydalanib berilsa, bolaning yosh, ruhiy fiziologik xususiyatlari inobatga olinsa, tarbiya berishning samaradorligi oshadi.

Bolalar mashg'ulotlarning turli xil ko'rinishlarini egallashlari orqali, yoshlari o'sib borish davomida, maktabga bo'lgan qiziqishlari ham o'sib rivojlanib boradi va ular maktabni ham hech qiynalmay o'qib, davom ettirib boradilar.

Mashg'ulotning turlari va tuzilishi

Didaktik-maqsadiga ko'ra mashg'ulotlar quyidagi turlarga bo'linadi: yangi bilim va ko'nikmalarni hosil qiluvchi mashg'ulotlar, o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlovchi mashg'ulotlar, nazorat mashg'ulotlari va majmuaviy mashg'ulotlar.

Yangi bilim va ko'nikmalarni hosil qiluvchi mashg'ulotlarni o'tkazishdan maqsad – ularni yangi bilimlardan xabardor qilish, tevarakatrofdagi narsa-buyumlar, voqealar to'g'risidagi bilimlarini kengaytirishdir. Bunday mashg'ulotga yangi obyektни kuzatish, hikoya qilib so'zlab berish va boshqalar kiradi. Mazkur mashg'ulotlar hamma yosh guruhlarida o'tkaziladi.

Bolalarning *o'zlashtirgan bilimlarini mustahkamlovchi mashg'ulotlardan* ko'zlangan asosiy maqsad idrok etilgan narsalarni anglab olish va umumlashtirishga o'rgatishdir. Buning uchun tanish obyekt kuzatiladi, ikki narsa (xona o'simliklari, daraxtlar, hayvonlar) solishtiriladi, didaktik o'yinlar, suhbatlar o'tkaziladi. Bunday mashg'ulotni o'tkazish orqali tarbiyachi bolalar nimani yaxshi o'zlashtirib olgan-u, nima yaxshi o'zlashtirilmaganligini bilib oladi. Tarbiyachi mashg'ulotlar jarayonida bolalarning bilimini yangi ma'lumotlar bilan boyitadi.

Nazorat mashg'ulotlari bolalarning dastur bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini tekshirish va aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning faoliyati natijalarini umumlashtirib, xulosalash imkonini beradi. *Nazorat mashg'ulotlari* chorak, yarim yillik va yil oxirida o'tkazilishi mumkin.

Majmuaviy mashg'ulotlar maktabgacha ta'lim tajribasida keng tarqalgan bo'lib, bunday mashg'ulotlarda bolalarga yangi bilim beriladi.

egallangan bilimlar mustahkamlanadi va takrorlanadi, tizimga solinadi, olgan bilim va ko'nikmalarni amalda qo'llashga o'rgatiladi.

Mashg'ulot o'ziga xos tuzilishga ega bo'lib, har qanday mashg'ulot o'zida uchta tarkibiy qismni aks ettiradi: tashkiliy qism, mashg'ulotning borishi (jarayon) va yakuniy qism.

Tashkiliy qism bevosita bolalarni mashg'ulotga jalb etish: ularning e'tiborini amalga oshiriladigan faoliyatga qaratish, bajariladigan ishga nisbatan qiziqishni hosil qilish, jo'shqin kayfiyatni yaratish, o'quv vazifalarini ochib berishga yo'naltiriladi. Tushuntirish ishlari mohirona, bosiqlik bilan hamda emotsional tarzda olib boriladi. Tushuntirish va ko'rsatish usullari asosida bolada qanday tarzda harakatlanish, ketma-ketlikda bajarish, natijaga erishishga doir oddiy ko'rinishdagi ish rejasi hosil qilinadi.

Mashg'ulotning borishi – belgilangan o'quv vazifalari bilan bog'liqlikda bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish bilan tugallanadigan bolalarning mustaqil aqliy yoki amaliy faoliyati. Mashg'ulotning mazkur bosqichida har bir bolaning rivojlanish darajasi, idrok etish sur'ati, fikrlashining o'ziga xosliklari bilan bog'liqlikda ta'lim usullari individuallashtiriladi. Agar pedagogning aniq tushuntirib bera olmasligi oqibatida o'quv vazifalarini bajarishda ko'pchilikda xatolar kuzatilsa, hamma bolalarning diqqatini ommaviy jalb etish zaruriyati yuzaga keladi.

Tez va oson yodda saqlab qola oladigan, tahlil qila oladigan, pedagog ko'rsatmalari bilan o'zining harakatlari, natijalarini taqqoslay oladigan bolalarga nisbatan kam yordam ko'rsatiladi. Agar bolalarda vazifani bajarishda qiyinchiliklar paydo bo'lsa, maslahat berish, qaytadan eslatib o'tish, yo'naltiruvchi savollardan foydalanish mumkin. Pedagog har bir bolaga o'ylash, qiyin vaziyatlardan o'zi mustaqil chiqib keta olishiga imkoniyat yaratadi. Ba'zi bolalarga qo'shimcha tushuntirish, ko'rsatish, pedagogning bevosita yordami talab etilsa, boshqalariga og'zaki ko'rsatma berish yetarli bo'ladi.

Pedagog har bir bolaning u nimani o'rganganligini ko'rsatib beruvchi, uning harakatlaridan guvohlik beruvchi natijalarni olishiga harakat qiladi. Natijaga erishish – mashg'ulotdagi amaliy va o'quv faoliyatining yakuniy mahsuli. Bu esa, bolaning irodasini mustahkamlaydi, bilim va ko'nikmalarni egallashga qiziqishini oshiradi.

Mashg'ulotning yakunlanishi bolalarning o'quv faoliyati yuzasidan xulosalar chiqarish va natijalarni baholashni o'zida aks ettiradi. Olingan

natijaning sifati bolalarning yosh va individual xususiyatlari, o'quv vazifasining murakkabligiga bog'liqdir. Kichik guruhlarda pedagog bolalarni tahsinlaydi, tirishqoqliklari, topshiriqni bajarishdagi intilishlari uchun ularni maqtaydi, ta'lim mazmuni bilan bog'liqlikda ulardagi ijobiy kayfiyatni oshiradi. O'rta guruhda bolalarning faoliyati, ularni topshiriqni bajarishga munosabatlarini baholashda tabaqalashtirilgan yondashuvga asoslaniladi. Bunday yondashuvni tadbiiq etishdan maqsad bolaning o'quv vazifasi mohiyatini tushunishi, pedagogning ko'rsatmalariga e'tiborli bo'lish, belgilangan ketma-ketlikda ishni bajarish zaruriyatini anglab yetishlariga erishishdir. Baho bolani o'z muvafaqqiyatini, shu bilan birga xato va kamchiliklarini ko'ra olishga o'rgatadi. Katta guruhda bolalar o'z faoliyati natijalarini baholash va o'z-o'zini baholashga jalb etiladi.

Mashg'ulotning turlari va tuzilishi

Didaktik maqsadiga ko'ra mashg'ulotlar quyidagi turlarga bo'linadi: yangi bilim va ko'nikmalarni hosil qiluvchi mashg'ulotlardir

Mashg'ulotning samaradorligi uning puxta tayyorlanganligi va samarali tashkil etilganligi bilan bog'liq. Yaxshi rejalashtirilmagan, yetarlicha o'ylab chiqilmagan, shoshilinch tuzilgan va bolalar imkoniyatlariga moslashtirilmagan mashg'ulot sifatli bo'la olmaydi. Mashg'ulotga tayyorgarlik aniq sharoitlarda eng yuqori yakuniy natijaga erishishni ta'minlovchi o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etilishini ta'minlash, kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishdir.

Tarbiyachining mashg'ulotga tayyorgarligi quyidagi uch bosqichda amalga oshiriladi: tashxislash, bashoratlash, loyihalashtirish (rejalashtirish). Shu bilan birga tarbiyachi amaliy materiallarni yaxshi bilishi, mashg'ulotni erkin olib borishga erishishi lozim. Mashg'ulotga tayyorgarlik asosini bo'lajak mashg'ulotning algoritmlari, samaradorligi bog'liq bo'lgan omillar va holatlarni hisobga olishni ta'minlovchi qadamlarni ketma-ket tartib bilan bajarish tashkil etadi.

Algoritmni amalga oshirish aniq sharoitlarni *tashxis qilish* bilan boshlanadi. Tashxis didaktik jarayon kehadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilashdir. Unda bolalarning imkoniyatlari, ularning faoliyatlar va xulqlari, motivlari, talab va layoqatlari, qiziqish va qobiliyatlari, bilimdonlik darajasi, o'quv materialining xususiyati, uning amaliy ahamiyati, mashg'ulotning tuzilishi, yangi axborotni o'zlashtirish, mustahkamlash va tizimlashtirish, bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish hamda tuzatish kabi holatlar namoyon bo'ladi.

Bashoratlash bo'lajak mashg'ulotni tashkil etilishining turli variantlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma'qulini tanlab olish.

Loyihalashtirish (rejalashtirish) bolalarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish bo'lib, u mashg'ulotga tayyorlanishning yakuniy bosqichi hisoblanadi. Shuning uchun pedagog mashg'ulotning texnologik modeli va kartasini ishlab chiqishi lozim. Mashg'ulot loyihasi qisqa va aniq, erkin tuzilgan, pedagog o'zi uchun boshqarish jarayoni muhim vaziyatlari (kimdan va qachon so'rash, qayerda mavzuni kiritish, mashg'ulot keyingi bosqichiga qanday o'tish, oldindan ko'zda tutilmagan qiyinchiliklar yuzaga kelganida jarayonni qaysi sxema bo'yicha qayta o'zgar-tirish)ni belgilab olishga imkon beruvchi hujjatdir. Mashg'ulot loyihasi an'anaviy rejadani boshqarishga doir ta'sir ko'rsatishlarning aniq va tushunarli belgilab olinishi, kutiladigan natijalarning oldindan aniqlanganligi bilan farq qiladi.

**Ekskursiya ta'limni
tashkil etish shakli
sifatida**

Ekskursiya – bolalarga ta'lim berishning maxsus shakli. U o'zida tabiiy sharoitda bolalarni tabiat, madaniy obyektlar, kattalar mehnati bilan tanishtirish imkoniyatini beradi.

Ekskursiya vaqtida bolalar olamning turfa xilligi, rivojlanishini anglaydilar, narsa-hodisalar orasidagi aloqadorliklarni kuzatadilar.

Ilk va kichik guruhda ekskursiya maktabgacha ta'lim muassasasining ichkarisida, yer maydonchasida, o'rta guruhdan boshlab muassasadan tashqarida o'tkazila boshlanadi.

Ekskursiya uyushtirishni rejalashtirishda quyidagi jihatlarni hisobga olish lozim:

1) ekskursiya narsa-hodisalarni dastlabki yorqin, yaxlit idrok etilishini ta'minlashi kerak;

2) bolalarning tanish obyekt yoki hodisalar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, chuqurlashtirish, umumlashtirish uchun takroran ekskursiya uyushtiriladi. Takroriy ekskursiya bola dastlabki ekskursiya paytida kuzatgan obyekt, hodisalarning yangi sifat va xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi;

3) dasturiy materialni bosqichma-bosqich murakkablashtirish ikki yo'nalishda amalga oshirilishi zarur: kuzatilgan hodisalar ko'lamini kengaytirish va u yoki bu hodisalar haqidagi bilimlarni ketma-ketlikda chuqurlashtirish va umumlashtirish;

4) har bir ekskursiyada ta'limiy va tarbiyaviy vazifalar birgalikda hal etilishi lozim. Shuning uchun o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar hajmini rejalashtirish hamda qanday his-tuyg'u, munosabat, axloqiy sifat, estetik ehtiyojlarni faollashtirish avvaldan o'ylanishi kerak.

Ekskursiya o'zaro bir-biri bilan bog'langan aniq *tarkibiy tuzilishga* ega: tayyorlov bosqichi, ekskursiyaning borishi va ekskursiyadan keyin amalga oshiriladigan ish.

Tayyorlov bosqichi ham pedagogni, ham bolalarni ekskursiyaga tayyorlashni o'z ichiga qamrab oladi. Pedagog ekskursiya mavzusini, uning mazmun-mohiyatini, o'tkazilish muddatini belgilaydi. Shuningdek, ekskursiya uyushtiriladigan obyektning joylashgan o'rni va holatini ham ko'zdan kechiradi. Ekskursiya davomida beriladigan namunaviy savollarni tuzadi, she'r, maqol va topishmoqlardan namunalar tanlaydi.

Bolalarni ekskursiyaga tayyorlash ularda o'rganish ko'zda tutilgan obyekt va hodisalarga doir qiziqish va ehtiyojni hosil qilishni talab etadi. Buning uchun quyidagi pedagogik usul va vositalardan foydalaniladi: 1) ekskursiya jarayonida bolalar kuzatishi mumkin bo'lgan narsa-buyumlar va hodisalar haqida qiziqarli ma'lumotlar berish; 2) bolalardagi mavjud tajribalarga tayanish; 3) bolalarga emotsional ta'sir ko'rsatish maqsadida san'at asarlaridan foydalanish.

Ekskursiyani amalga oshirish jarayonida ta'limning turli uslublari (kuzatish, suhbat, tushuntirish)dan foydalaniladi. Dastlab bolalarga obyekt bilan to'liq tanishish imkoniyati beriladi. Shu bilan birga bolalarning kuzatilayotgan obyektning aniq idrok etishlarini badiiy iboralar yordamida amalga oshirish mumkin: pedagogning o'zi yoki bolalardan biri she'rdan parcha o'qiydi. Obyekt yaxlit tarzda idrok qilib bo'linganidan so'ng, bolalar uni chuqurroq anglab olishlari uchun tahlil qilishga o'tiladi. Bunda turli xil savollardan foydalaniladi:

1) dalillar keltirishni talab etuvchi savollar (qanday nomlanadi, qanday qismlardan iborat, qanday xususiyatlar va o'ziga xosliklarga ega);

2) fikrlashni faollashtiruvchi, qiyoslash, taqqoslash, farqini ajratish, umumlashtirishni talab etuvchi savollar (munosabat, aloqadorliklarni hosil qilish uchun);

3) anglash faolligini rag'batlovchi, ijodiy fikrlash, xulosalar chiqarishga undovchi savollar.

Ayrim ekskursiyalar jarayonida suhbat asosiy uslub sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, bolalarni turli kasb egalari (oshpaz, temirchi, sotuvchi,

fermer, xususiy tadbirkor) faoliyati bilan tanishtirish paytida mazkur uslubdan foydalanish yaxshi samara beradi. Buning uchun tarbiyachi suhbat jarayonida foydalaniladigan savollarni avvaldan tayyorlab olishi zarur.

Shuningdek, ekskursiya jarayonida bolalarning fikriy faolligini qo‘llab-quvvatlash lozim. Ana shu maqsadda bilish-izlanishni rag‘batlovchi usullardan foydalaniladi: bolalarga ular nimalarni o‘ylayotgani, ularni nimalar qiziqtirayotgani, ularning fikricha nima tushunarsiz ekanligi haqida savollar beriladi; ular guvohi bo‘layotgan obyekt, hodisaga mos she‘r, maqol, topishmoqni yodga tushirish so‘raladi.

Ekskursiya so‘ngida bolalar nimalarni ko‘rganliklari, bilib olganliklari haqida umumiy xulosalar chiqariladi. Bir nechta bolaga ularga nimalar qiziqarli bo‘lganligi haqida gapirib berishni taklif etish mumkin.

Ekskursiyadan so‘ng amalga oshiriladigan ish bilimlarni kengaytirish, aniqlashtirish, tizimlashtirishga, ekskursiya jarayonida tug‘ilgan his-tuyg‘u, munosabatlarni mustahkamlashga yo‘naltiriladi. Buning uchun quyidagi usullardan foydalaniladi:

1) ekskursiya davomida to‘plangan materiallar(tosh, yong‘oq, na‘matak va boshqalar)ni chiroyli qilib bezatish;

2) bolalarning ekskursiyadan olgan taassurotlarini boyitish maqsadida badiiy asarlarga (kitoblar, musiqa, qo‘shiq, amaliy san‘at buyumlari) murojaat qilish;

3) kitob burchagida (“Bizning shahrimiz”, “Bizning bog‘”, “O‘zbekiston – serquyosh o‘lka” albomlarini tuzish), tabiat burchagida (maketlar tayyorlash, kolleksiyalar to‘plash, gerbariy tuzish) ishlash;

4) o‘yinlarni (teatrlashtirilgan, didaktik, syujetli-rolli) tashkil etish;

5) ma‘lum bir belgilangan mavzu yuzasidan amalga oshirilgan o‘quv ishining yakuniy qismi bo‘yicha umumlashtiruvchi suhbat o‘tkazish.

? NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ta‘limni tashkil etish shakli deganda nimani tushunasiz?
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘quv faoliyatini tashkil etishning asosiy shakllariga nimalar kiradi?
3. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida o‘qitishning asosiy shakli nima va u qanday o‘ziga xosliklarga ega?

4. Mashg'ulotning qanday turlari mavjud? Ularning tuzilishi qanday tarkibiy qismlardan iborat?

5. Tarbiyachining mashg'ulotga tayyorlanishi qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi?

6. Ekskursiya ta'limni tashkil etish shakli sifatida qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?

? MAVZU YUZASIDAN TESTLAR

1. Ta'limni tashkil etish shakliga qaysi qatorda to'g'ri ta'rif berilgan?

- A) Pedagog va bolaning maxsus tashkil etilgan faoliyati
- B) Kun tartibida ma'lum bir vaqtda o'tkaziladigan mashg'ulotlar yig'indisi
- C) Pedagog va bolalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir xususiyati
- D) To'g'ri javob berilmagan

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'quv faoliyatini tashkil etishning nechta shakli mavjud va ular qaysilar?

- A) 2 ta individual va guruhli
- B) 3 ta yakka, ommaviy va individual
- C) 3 ta individual, guruhli va ommaviy
- D) 1 ta guruhli

3. Mashg'ulot nima?

- A) Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya berish shakli
- B) Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'limni tashkil etishning asosiy shakli
- C) Aniq maqsadga qaratilgan jarayon
- D) Maktabgacha ta'lim muassasasidagi dars

4. Mashg'ulotning asosiy maqsadi nima?

- A) Bolalarga bilim berish
- B) Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga har tomonlama bilim berish
- C) Bolalarni bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurolantirish
- D) Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash

5. Mashg'ulotlar asosan qaysi vaqtda o'tkaziladi?

- A) Ertalab
- B) Tushlikkacha
- C) Kunning birinchi yarmida
- D) Kunning ikkinchi yarmida

6. Mashg'ulot qanday tuzilishga ega bo'ladi?

- A) Tashkiliy qism, mashg'ulotning borishi
- B) Bolalarni uyushtirish, asosiy va yakuniy qism
- C) Mashg'ulotning boshlanishi, borishi, yakuni
- D) Bolalarni uyushtirish, mashg'ulotning borishi, asosiy qism, yakunlovchi qism

7. Ekskursiya nima?

- A) Ta'lim berish shakli
- B) Ta'lim berish uslubi
- C) Ta'lim berish usuli
- D) Ta'lim berish vositasi

8. Ekskursiyadan ko'zlangan maqsad?

- A) Bolalarning ochiq havoda bo'lishini ta'minlash
- B) Bolalarning tevarak-atrofdagi hayot to'g'risidagi tasavvur va taassurotlarini shakllantirish
- C) Tevarak-atrof hayot bilan bevosita tanishtirish
- D) Bolalarning taassurotlarini shakllantirish

9. Ekskursiyada asosan qaysi uslubdan foydalaniladi?

- A) Og'zaki
- B) Amaliy
- C) Ko'rgazmali, kuzatish
- D) Barcha javoblar to'g'ri

XV bob. MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNI O'QITISH UslubLARI

«Ta'lim uslublari» va «ta'lim usullari» haqida tushuncha

Uslub so'zi grekcha tadqiqot, maqsadga erishish yo'li, usuli deganidir. Bu so'zning etimologiyasi (kelib chiqishi) uning ilmiy kategoriya sifatidagi talqinida ham aks etgan.

“Uslub – eng umumiy ma'noda – maqsadga erishish usuli, ma'lum tarzda tartibga solingan faoliyat”.

Ta'lim uslublari deyilganda, o'rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo'yicha pedagogning o'rgatuvchi ishi va ta'lim oluvchilar o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari tushuniladi.

Ta'lim usuli – ta'lim uslubining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni, Uslublar bilan usullar munosabati o'zaro bir-biriga bog'langan. Usul va uslub butun va qism sifatida bir-biriga bog'lanadi. Usullar yordamida faqat pedagogik yoki o'quv vazifasining bir qismi hal qilinadi. Xuddi shu uslubik usullar turli uslublarda foydalanilgan bo'lishi mumkin. Va aksincha, xuddi shu uslub turli pedagoglar tomonidan turli usullarda ochib berilishi mumkin.

Tanlab olingan uslub bilan bog'liqlikda faoliyat usullarini amalga oshirish uchun qulay tarzda harakat qilish zarurligini belgilab beruvchi me'yoriy ko'rsatmalar esa *qoidalar* deb ataladi.

Ta'lim uslublarini tanlab olish *aniq shart-sharoitlarni* talab etadi. Ta'lim uslublarini tanlab olishning umumiy shartlariga quyidagilar kiradi: 1. Ta'limning umumiy maqsadlari. 2. O'rganilayotgan mavzuning mazmuni hamda o'ziga xosliklari. 3. Mashg'ulotni o'tkazish uslubikasining o'ziga xosliklari. 4. Materialni o'rganishga ajratilgan vaqt. 5. O'quv mashg'ulotining maqsadi, vazifalari va mazmuni. 6. Ta'lim oluvchilarning yoshi va bilish imkoniyatlari. 7. Ta'lim oluvchilarning tayyorgarlik darajasi. 8. Ta'lim muassasasining moddiy ta'minlanganligi. 9. Pedagogning nazariy, amaliy va uslubik tayyorgarligi, pedagogik mahoratni egallaganlik darajasi.

Zamonaviy didaktikada ta'lim uslublarining eng keng tarqalgan beshta tasnifi mavjud:

1. *An'anaviy (manbasiga ko'ra) ta'lim uslublari* (E.I.Golant, N.M.Verzilin va boshqalar) tasnifi: og'zaki (hikoya, suhbat, tushuntirish),

**Zamonaviy didaktikada
ta'lim uslublarini
tasniflashga doir
yondashuvlar**

ko'rgazmali (illyustratsiya, demonstratsiya), amaliy (mashq, didaktik o'yin, amaliy), kitob bilan o'yin, amaliy), kitob bilan ishlash (o'qish, o'rganish), videouslub (ko'rish, o'rganish, nazorat qilish).

2. *Ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati tavsifiga ko'ra ta'lim uslublari tasnifi* (I.Ya. Lerner va M.N. Skatkin): axboriy retseptiv (o'quv axborotini uzatish, o'rganilayotgan obyekt bilan ta'lim oluvchi harakatini tashkil etish); reproduktiv (bilimlar hamda aqliy va faoliyat usullarini hosil qilishga doir topshiriqlarni tuzish va taqdim etish); muammoli bayon etish (muammoni qo'yish va uni hal etish usullarini ochib berish); evristik (muammoni qo'yish va uni hal etishga doir qadamlar ketma-ketligini rejalashtirish, ta'lim oluvchilar faoliyatini boshqarish); tadqiqotchilik (mustaqil hal etishga doir muammoli vazifalarni shakllantirish, muammoni hal etilish jarayonini nazorat qilish).

3. *Asosiy didaktik maqsadlariga ko'ra ta'lim uslublari tasnifi* (M.A.Danilov va B.P.Esipov): yangi bilimlarni egallash uslublari; ko'nikma va malakalarni shakllantirish uslublari; bilimlarni amaliyotda qo'llash uslublari; bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va nazorat qilish uslublari.

4. *Ta'limning binar uslublari* (M.I.Maxmutov): o'rgatish uslublari (axboriy-ma'lumotli, tushuntirishli, ko'rgazmali-amaliy, tushuntirishli-undovchi); o'rganish uslublari (bajarish, reproduktiv, ijodiy-amaliy, qisman izlanishga doir, izlanishga doir).

5. *Yaxlit yondashuv bo'yicha ta'lim uslublari tasnifi* (Yu.K.Babanskiy): o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish uslublari; o'quv-bilish faoliyatini motivatsiyalash va rag'batlantirish uslublari; o'quv-bilish faoliyatini nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish uslublari.

**Ta'limning ozaki
uslublari**

Ta'limning og'zaki uslublari va usullari qisqa vaqt ichida bolalarga axborotlarni uzatish, ularning oldiga o'quv vazifalarini qo'yish, ularni hal etish yo'llarini ko'rsatib berishga imkon beradi. Og'zaki uslublar va usullar qoidaga muvofiq ko'rgazmali, o'yin, amaliy uslublar bilan uyg'unlikda qo'llaniladi. Maktabgacha ta'lim yoshida sof og'zaki uslubdan foydalanish cheklangan. Chunki maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar bilan ishlashda, atrofolam haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirishda faqat o'qib berish, hikoya qilib berishning o'zi yetarli emas.

Shu bilan birga narsa-buyumlarning o'zini ko'rsatish, namoyish etish ehtiyoji yuqori.

Hikoya – o'quv materialini bolalar uchun tushunarli tarzda bayon etish imkonini beruvchi og'zaki uslublardan biri. Hikoyada turli mazmundagi bilimlar obrazli shaklda taqdim etiladi. Bolalar uchun hikoyalar kundalik voqealar, yil fasllari, yozuvchilar, rassomlar, ona shahri haqida bo'lishi mumkin.

Ta'lim metodlari va usullari

Og'zaki	Ko'rgazmali	Amaliy
<ul style="list-style-type: none"> ➤ Hikoya ➤ Suhbat ➤ Badiiy adabiyot o'qish ➤ Savollar bilan murojaat qilish ➤ Ko'rsatma berish ➤ Tushuntirish 	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Kuzatish ➤ Ko'rgazmali vositalarni (rasmlar, diafilmlar, slaydlar, kompyuter dasturlari)ni namoyish etish ➤ Harakatlar namoyishi ➤ Namuna ko'rsatish 	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Mashq ➤ Tajriba ➤ Modellashtirish

15-rasm. Maktabgacha ta'limda o'qitish uslublari va usullari.

Hikoya qilish uchun material sifatida badiiy asarlardan foydalanish mumkin. Ayniqsa, bolalar uchun tarbiyachining shaxsiy tajribasi bilan bog'liq hikoyalar qiziqarlidir: "Mening birinchi tarbiyachim", "Men o'qish va yozishni qanday o'rganganman?", "Bolalikdagi sevimli o'yinchog'im" va boshqalar.

Hikoyani tushunish qobiliyati, ya'ni tinglay olish, mazmuniga munosabat bildira olish, savollarga javob berish, oddiy qayta aytib berish uch yoshdan boshlab paydo bo'ladi. Kichik guruhlarda hikoya ko'rgazmali materiallarni (narsa-buyumlar, ularning tasviri) namoyish qilish bilan birga qo'shib olib boriladi. Ko'rgazmali materiallardan bolalar tasavvurga ega bo'lmagan voqea-hodisalar haqida hikoya qilinganda o'rta va katta maktabgacha yosh guruhlarida ham foydalaniladi. Biroq katta guruhlarda hikoya qilish jarayonida ko'rgazmali materiallardan keragidan ortiqcha foydalanish tavsiya etilmaydi. Chunki bolalarni so'z yordamida fikrlashga o'rgatish, ularda fazoviy tasavvurni rivojlantirish lozim.

Suhbat – ta’limning dialogik uslubi bo‘lib, savol-javob o‘tkazish, o‘z nuqtayi nazarini ifodalashni talab etadi. Suhbat bolalar narsa-hodisalar, voqealar to‘g‘risida ayrim bilim va tajribalarga ega bo‘lgan holatda o‘tkaziladi. Suhbat jarayonida bolalarning mavjud bilimlari aniqlashadi, boyiydi, tizimlashtiriladi. Suhbatda ishtirok etish bolalar uchun foydali qator ko‘nikma va malakalarni paydo qiladi: bir-birini tinglash, aytilganlarini to‘ldirish, ularni takrorlamaslik, bildirilgan fikrlarni samimiy baholash va boshqalar. Suhbat fikrning aniq yo‘nalganligini, diqqatni va o‘z xulq-atvorini boshqara olishni talab etadi. U mantiqiy fikr yuritish, aniq fikr bildirish, xulosa qilishga o‘rgatadi. Suhbat orqali tarbiyachi bolalarda his-tuyg‘ularni tarbiyalaydi, fikr yuritilayotgan voqea-hodisaga munosabatni tarkib toptiradi.

Mazmuniga ko‘ra ikki turdagi suhbat farqlanadi: *axloqiy mavzudagi va bilishga doir*. Axloqiy mavzudagi suhbatlar faqat katta maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o‘tkaziladi, bilishga doir suhbatlarni esa o‘rta guruhdanoq boshlab o‘tkazish mumkin.

Axloqiy mavzudagi suhbatlar bolalarda axloqiy his-tuyg‘uni tarbiyalash, axloqiy tasavvur, mulohaza va bahoni shakllantirish maqsadini ko‘zda tutadi. Turli mavzularda axloqiy mavzudagi suhbatlarni o‘tkazish mumkin: “Xushmuomalalilik haqida”, “Do‘stlik va o‘rtoqlik haqida”, “Salomlashish odobi”, “Ovqatlanish qoidalari” va boshqalar. Axloqiy mavzudagi suhbatlar badiiy asarlar o‘qish, ko‘rgazmali materiallarni ko‘rsatish, film namoyish etish bilan uyg‘unlikda amalga oshiriladi.

Bilishga doir suhbatlar mavzusi maktabgacha ta’lim dasturlarida aniqlab berilgan. Shuningdek, bunday suhbatlar kundalik turmush voqealari, atrof-muhit va kattalar mehnati bilan ham chambarchas bog‘liqlikda o‘tkaziladi.

Didaktik maqsadiga ko‘ra suhbat kirish va umumlashtiruvchi turlarga bo‘linadi. Bolalarni amalga oshirilishi ko‘zda tutilayotgan faoliyatga, kuzatishga tayyorlash maqsadida *kirish suhbatidan* foydalaniladi. Ana shu maqsadda tarbiyachi bolalardagi mavjud tajribani aniqlaydi, ularning bilimlarini faollashtiradi, bajarilishi ko‘zda tutilayotgan faoliyatga qiziqishni hosil qiladi, amaliy yoki bilishga doir vazifalarni taqdim etadi. *Umumlashtiruvchi suhbat* bolalarning biror mavzuda tashkil etilgan o‘quv ishi natijasida qo‘lga kiritilgan bilimlarni jamlash, aniqlashtirish, tizimga solish maqsadida o‘tkaziladi.

Badiiy adabiyot o'qish. Badiiy adabiyot – atrofolar haqidagi bilimlar manbai, bolalarda his-tuyg'uni tarbiyalash, fikrlash, tasavvur va xotirani rivojlantirish vositasi. Maktabgacha ta'lim yoshida badiiy adabiyotlar o'qish orqali bolalarda badiiy asarlarni idrok etish va anglashga qobiliyatlik shakllantiriladi. O'z navbatida mazkur vazifa bolalarda ko'rgazmali-obrazli, nutqiy-mantiqiy fikrlashni rivojlantirish bilan bog'liq.

O'quv maqsadi bilan bog'liqlikda badiiy asarlar o'qishda qator didaktik talablarga rioya etish lozim: bolalarning yoshi va rivojlanishi darajasi bilan bog'liqlikda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega asar tanlab olinishi; bolalarni asarni idrok etishga tayyorlash uchun qisqa suhbat o'tkazish, ularga o'quv-bilishga doir vazifalar berish; o'qishni boshqa uslublar, shu jumladan, ko'rgazmalilik bilan uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq.

Maktabgacha ta'lim jarayonida quyidagi *og'zaki usullardan* foydalanish yaxshi samara beradi: bolalarga savollar bilan murojaat qilish, ko'rsatma berish, izohlash, tushuntirish va boshqalar.

Ta'limning ko'rgazmali uslublari

Mashg'ulotlardagi bilishga doir va amaliy faoliyat narsa-hodisalarga muvofiq keluvchi ko'rgazmalilik asosida tashkil etilishi mumkin.

Ta'limning ko'rgazmali uslublariga kuzatish, ko'rgazmali qo'llanmalarni (narsa-buyumlar, rasmlar, diafilmlar, slaydlar, videoyozuvlar, kompyuter dasturlarini) namoyish etish kiradi.

Kuzatish – atrofolaridagi hodisalarni diqqat bilan ko'rish, ulardan muhim, asosiysini ajrata olish, yuzaga keladigan o'zgarishlarni belgilash, ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash, xulosalar qilish. Bolani ilk yoshdan boshlab kuzatishga o'rgatish, unda kuzatuvchanlik, kuzatilayotgan hodisaga diqqatni yo'naltira olish, ko'rganlari asosida fikr yuritish, fikrini so'z bilan ifodalay olishni rivojlantirish zarur.

Bolalarning o'rganilayotgan obyektini bevosita kuzata olishlari to'liq tasavvurlarni shakllantirish va bilish jarayonlari – idrok etish, xotira, fikrlash, xayolotni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Kuzatish jarayonida bolada xilma-xil fikriy faoliyat amalga oshadi: qo'yilgan savollarga javob izlash, qiyoslash, taqqoslash.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni o'qitishda kuzatishning xilma-xil turlaridan foydalaniladi: qisqa muddatli va uzoq muddatli, takroriy va qiyosiy.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni o'qitishda kuzatish *ikki yo'nalishda* rivojlanadi. Eng avvalo, *kuzatilayotgan obyektlar doirasi izchil tarzda kengaytirib boriladi*: guruh xonasini, keyin maktabgacha ta'lim muassasasidagi boshqa binolarni (oshxona, tibbiyot xonasi va hokazolar), yer maydonchasini, nihoyat maktabgacha ta'lim muassasasi atrofidagi obyektlarni (bog', daryo, anhor, maktab stadioni va boshqalar) kuzatish. Ikkinchi yo'nalishda *konsentrlangan kuzatishga* amal qilinadi. Dastlab bolalar biror obyektning o'ziga xos belgilarini aniqlashsa, takror kuzatishda esa o'sha obyektning boshqalari bilan qiyosiy o'rganadilar. Masalan, shahar transporti bekatida bolalar avtobus va marshrutkani kuzatishadi, ularni to'g'ri aytishni o'rganishadi; takror kuzatishda ularning diqqati avtobus va marshrutkaning o'ziga xos belgilariga qaratiladi; keyingi safar esa, bolalar avtobus va marshrutkani taqqoslashadi, ular-da umumiy tasavvurlar tarkib topadi va "shahar transporti" tushunchasi shakllanadi.

Kuzatish uslubidan foydalanishda ma'lum *didaktik talablarga* rioya qilish lozim. Jumladan:

- 1) kuzatish obyekti bolalar uchun qiziqarli bo'lishi zarur;
- 2) kuzatiladigan obyekt uning o'ziga xosliklarini aniqlay olishga imkon beradigan sharoitga ega bo'lishi kerak;
- 3) pedagog kuzatishning maqsadini oldindan belgilashi, yangi egallanadigan bilimlar doirasini aniqlashi, o'rganilishi rejalashtirilayotgan bilim va ko'nikmalarning bolalardagi mavjud tajribalar bilan aloqadorligi ta'minlashi lozim;
- 4) yaxlit idrok etishni ta'minlash uchun bolalarga kuzatish haqida to'liq ko'rsatma berilishi zarur;
- 5) qo'yilgan maqsad va vazifalar, obyektning o'ziga xosliklari, bolalarning yosh xususiyatlari bilan bog'liqlikda kuzatishning izchil, tizimli, rejali tarzda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Rasm, diafilm, slayd, videorolik va boshqa ko'rgazmali vositalarni namoyish etish – qator didaktik vazifalarni hal etishga imkon beruvchi maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni o'qitishning muhim uslubi. Ko'rgazmali vosita tanish va notanish narsa-buyumlarni obrazli ko'rish imkonini beradi. Rasm, chizma, jadval yordamida bolalarda harakatsiz ko'rgazmali timsollar shakllantiriladi, ta'limning texnik vositalaridan jo'shqin ko'rgazmali timsollarni yaratishda foydalaniladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida rasmning xilma-xil turlaridan foydalaniladi: didaktik rasmlar, rassomlarning san'at asarlari, kitob grafikasi, narsa-buyumlarni ifodalovchi rasmlar. Didaktik rasmlar maxsus yaratilib, yil fasllari, hayvonot va o'simliklar dunyosi kabi seriyali taqdim etiladi. Bolalarni madaniyat, san'at bilan tanishtirishda mashhur rassomlarning san'at asarlaridan foydalaniladi. Badiiy asar qahramonlari, voealar sodir bo'lgan mamlakat va shaharlar haqida ma'lumot beruvchi kitob grafikasi (kitobdagi rasmlar)dan ta'limning ko'rgazmali vositasi sifatida foydalaniladi. Shuningdek, tarbiyachi tomonidan narsa-buyumlarni ifodalovchi rasmlar ham tanlanadi va mavzu doirasi bilan bog'liqlikda ("O'yinchoqlar", "Transport", "Hayvonlar" va boshqalar) ularni tasniflaydi.

Shuningdek, bolalarni o'qitishda harakatlar namoyishi, namuna ko'rsatish kabi *ta'limning ko'rgazmali usullaridan* ham foydalaniladi. *Harakatlar namoyishi* ish usullari, ularni bajarish ketma-ketligini o'zida ifoda etib, jismoniy tarbiya, musiqa, tasviriy san'at, mehnat mashg'ulotlarida qo'llaniladi. *Namuna ko'rsatish* usulidan tasviriy faoliyat, mehnat, shu jumladan, qo'l mehnatiga o'rgatishda keng foydalaniladi. Tarbiyachi bolalarni namunani tahlil etishga jalb etadi, ishni bajarish bosqichlarini aniqlaydi.

Ta'limning amaliy usublari Ta'limning amaliy uslubi tarbiyachiga bolalarning turli-tuman amaliy faoliyatlarini tashkil etish, yangi bilim, ko'nikma va malakalarni egallab olishiga yordam beradi. Ta'limning amaliy usublari orqali bolalar narsa-buyumlarning o'ziga tanish bo'lmagan xususiyatlarini bilib oladilar. Amaliy usublar ona tili va chet tili, rasm chizish, raqsga tushish, konstruksiyalash, qo'l mehnati, matematikani o'rgatishda keng foydalaniladi. Masalan, bolada elementar matematik tasavvurlar narsa-buyumlar guruhi bilan amaliy faoliyatni tashkil etish asosida shakllanadi. Asosiy amaliy usublarga mashq, tajriba, modellashtirish kiradi.

Mashq – bolaning belgilangan mazmundagi aqliy yoki amaliy harakatlarni ko'p marta takrorlashidir. Mashqni bajarish tufayli bolalar turli aqliy faoliyat usullarini egallaydi, ularda xilma-xil o'quv va amaliy ko'nikmalar shakllanadi.

Maktabgacha ta'lim mazmunining katta qismini bola bevosita mashq yordamida o'zlashtiradi. Kuylash, raqs tushish, asosiy va sportga doir harakatlarni bajarish, to'g'ri va ravon gapirish, rasm chizish uchun bola mazkur ko'nikmalarga muvofiq keluvchi harakat usullarini egallashi zarur.

Ko'pgina mashqlar predmetli tavsifga ega bo'ladi, ya'ni ularni bajarish narsa-buyumlar, o'yinchoqlar, didaktik materiallardan foydalanishni talab etadi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni o'qitishda xilma-xil turdagi mashqlardan foydalaniladi. Ma'lum bir holatda bolalar pedagogga taqlid qilgan holda mashqni (*taqlidga doir mashqlar*) bajarishadi. Bunday mashqlarga artikulyatsion apparatni rivoj-lantirish, madaniy-gigienik ko'nikmalarni mustahkamlovchi mashqlarni kiritish mumkin. *Konstruktiv mashqlar* orqali bola avval o'zlashtirgan harakat usullarini yangi mazmunga ko'chirib o'tkazadi. Masalan, bolalar dastlab doira chizishni mashq qilishadi, so'ngra ularga havo sharini chizish taklif etiladi. Bola avval egallagan bilim va ko'nikmalarini birlashtirishini talab etuvchi ijodiy mashqlarni bajaradi. Katta guruhlarda bolalar topishmoq, ertak va hikoyalar tuzishni, tabiiy materiallardan o'yinchoqlar yasashni mashq qilishadi.

Mashq uslubini qo'llashda quyidagi didaktik talablarga rioya qilinadi:

1) bolalarga ular bajarishi lozim bo'lgan ishga doir o'quv vazifasi berish (gap tuzishni, vazifalarni hal etishni, ko'chat o'tqazishni o'rganamiz);

2) og'zaki tushuntirish bilan birga harakatlarni bajarish usullarini ko'rsatish;

3) bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun ko'p marotaba mashq qilish, biroq yangi ish usullarini kiritish bilan ketma-ketlikda vazifalarni murakkablashtirib borish talab etiladi;

4) bolalarning mashqlarni bajarishi pedagog tomonidan nazorat qilishni talab etadi.

Tajriba maktabgacha ta'limda bolaga ma'lum bir narsa haqida yangi bilimlarni egallashga yordam berishga yo'naltirilgan amaliy uslubdir. Tajriba jarayonida bola uning xususiyatlari, aloqadorliklarini anglash maqsadida obyektga ta'sir ko'rsatadi.

Ko'pgina narsa-buyumlar, moddalar (suv, qum, tuproq va boshqalar) bevosita sezgi a'zolari yordamida idrok qilinadigan (rangi, o'lchami, shakli, hidi) va idrok qilinmaydigan (mo'rtlik, suvda boshqa holatga o'tish) belgilariga ega. Yashirin belgilarni aniqlash elementar tajribalar yordamida amalga oshiriladi. Uni tashkil etishda pedagog bolalar bilan birgalikda maxsus sharoitni hosil qiladi. Bunday tajribalarga suvni bug'ga, qorni suvga aylantirish; qum va loy bilan tajribalar o'tkazishni kiritish mumkin.

Tajribalar bolalarga atrof-muhitda sodir bo'ladigan hodisalarni chuqurroq anglash, ular orasida aloqadorliklarni aniqlashga yordam beradi. Tajri-

balar o'tkazish orqali bolada kuzatuvchanlik, qiyoslash, taqqoslash, taxmin qilish, xulosalar chiqara olish qobiliyati rivojlanadi.

Modellashtirish – ta'limning ko'rgazmali-amaliy uslubi. Modellashtirish uslubi asosida o'rin almashish tamoyili yotadi: bola real narsa-buyumning o'rnini o'sha predmetning tasviri, qandaydir shartli belgi bilan almashtiradi.

Model – olamdagi muayyan hodisani abstrakt tasvirlashdan iborat bo'lib, ushbu hodisani ro'y berishini nisbatan ilgariroq aytib berish imkonini beradi. Masalan, xonaning deraza va eshiklari yopiladi va bir necha daqiqadan so'ng tashqarida bir muddat bo'lgandan keyin xonaga qaytib kiriladi va xona havosi bilan tashqaridagi havoning farqi aniqlanadi, xonaning havosi deraza va eshiklar, fortochkalar yopib qo'yilganligi uchun buzilgan degan xulosaga kelinadi. Yoki katta idishga ulangan jo'mrakdan tomchilab suv oqizib qo'yiladi. Ma'lum vaqt o'tgach, idishdagi toza suv tugaydi. Bundan jo'mrakdan tomchi tomib tursa, toza suv isrofgarchiligiga olib keladi, degan fikr kelib chiqadi.

? NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. "Ta'lim uslublari", "ta'lim usullari" va "qoida" tushunchalarini izohlang.

2. Ta'lim uslublarini tanlab olish shart-sharoitlariga nimalar kiradi?

3. Zamonaviy didaktikada ta'lim uslublarini tasniflashga doir qanday yondashuvlar mavjud?

4. Maktabgacha ta'limda o'qitishning eng keng tarqalgan uslub va usullariga nimalar kiradi?

5. Maktabgacha ta'limda qo'llaniladigan ta'limning og'zaki uslublarini sanang va ularning har biriga izoh bering.

6. Maktabgacha ta'limda o'qitishning qanday ko'rgazmali uslublaridan foydalaniladi?

7. Maktabgacha ta'limda qo'llaniladigan o'qitishning uslub va usullariga nimalar kiradi?

1. Ta'lim uslubini tanlab olish nimani talab etadi?

- A) Aniq shart-sharoitlarni
- B) Aniq maqsadni
- C) Ta'lim oluvchining bilish faoliyati
- D) A va B javoblar to'g'ri

2. Uslub nima?

- A) Usul
- B) Vosita
- C) Yo'nalish
- D) Maqsadga erishish yo'li

3. Maktabgacha ta'lim muassasasida keng qo'llaniladigan o'qitish uslublariga nimalar kiradi?

- A) Ko'rgazmali, og'zaki
- B) Amaliy
- C) O'yin
- D) Barcha javoblar to'g'ri

4. Tushuntirish – bu ...

- A) Axloqiy tarbiya uslubi
- B) Og'zaki uslub usuli
- C) Ko'rsatmali, og'zaki uslub usuli
- D) Uslublar yig'indisi

5. Zamonaviy didaktikada ta'lim uslublarining eng keng tarqalgan nechta tasnifi mavjud?

- A) 4
- B) 3
- C) 5
- D) 6

6. Maktabgacha ta'limda o'qitish uslublari to'g'ri berilgan javobni aniqlang?

- A) Hikoya, kuzatish, mashq
- B) Suhbat, ko'rgazmali, mashq
- C) Ko'rsatma berish, harakatlar namoyishi, modellashtirish
- D) Og'zaki, ko'rgazmali va amaliy

XVI bob. O'YIN MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALAR FAOLIYATINING ASOSIY TURI SIFATIDA

O'yinning bolalar faoliyatining asosiy turi sifatidagi o'ziga xosligi

O'yin maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati bo'lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O'yin bolaning kelajakdagi o'quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatning qay darajada shakllanishini belgilab beradi. O'yin bolalarning jismoniy rivojlanishi, maktabgacha ta'lim muassasasining ta'lim-tarbiya ishida, bolalarni aqliy, axloqiy, mehnat va estetik jihatdan tarbiyalashda katta o'rin tutadi. O'yinning maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar hayotida tutgan o'rnini umumlashtirib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. O'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi. Bola hayotining bir yoshidan boshlab unga o'rab turgan tevarak-atrofnı bilishga ehtiyoj xosdir. Bolalar o'yinlari o'zining barcha xilma-xilligi bilan unga yangi narsani bilish, o'yin mazmunida aks etgan jihatga o'z munosabatini bildirish imkonini beradi. Bola – o'sib va rivojlanib boruvchi mavjudotdir. Harakat – uning to'la-to'kis o'sib-ulg'ayishining shartlaridan biri. Faol harakatlarga ehtiyoj o'yinning barcha turlari, ayniqsa, harakatli va o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan didaktik o'yinlar orqali to'liq qoniqtiriladi. Shuningdek, o'yinlar bolaning muloqotga kirishishga bo'lgan ehtiyojini qondirishda katta imkoniyatga ega.

2. O'yin maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar hayotini tashkil etish shaklidir. Ilmiy asoslangan o'yinlar maktabgacha ta'lim muassasasida bolalar hayoti va faoliyatini tashkil etish shakli sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda tarbiyachi yetakchi o'rin egallab, u eng avvalo, o'yin orqali ta'lim-tarbiyaga doir qanday vazifalarni muvafaqqiyatli hal etish mumkinligini aniq tasavvur qila olishi lozim. Shuningdek, bolalar o'yiniga ajratilgan vaqtni mashg'ulot yoki kun tartibidagi boshqa tadbirlarni cho'zib yuborish orqali egallash mumkin emas. Maktabgacha ta'lim muassasasi tayanch dasturida har kungi kun tartibiga ovqatlanish, badantarbiya, sayr, mashg'ulotlar o'tkazish bilan bir qatorda o'yin ham kiritilgan. O'yin bolalar hayotini tashkil etish shakli sifatida kichik guruhdan boshlanadi. O'yin ertalab nonushtagacha (15–20 daqiqa) boshlanadi va nonushtadan keyin, mashg'ulotlar o'rtasida, ochiq

havoda, uyqudan keyin o'tkaziladi. Ertalab rolli o'yinlar, qurish-yasash, harakatli o'yinlarni tashkil etish tavsiya etiladi. Mashg'ulot o'rtasida harakatli, qoidali o'yinlar o'tkaziladi. Ular asosan, mashg'ulotning mazmuniga bog'liq bo'ladi. Sayr vaqtida ochiq havodagi o'yinlardan foydalaniladi. Kunduzgi uyqudan keyingi o'yinlarga qurilish o'yinlari, ertak bo'yicha qo'yiladigan o'yin, rolli, didaktik o'yinlar kiradi.

3. O'yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir. Pedagogika fani o'yinni bola shaxsini tarbiyalashning asosiy vositasi deb hisoblaydi. O'yin orqali bolalar kattalarning mehnat tajribasini, bilim, ko'nikma va malakalari, harakat usullari, axloq me'yorlari va qoidalarini, mulohaza va muhokamalarini egallab oladilar. O'yinda bolaning o'z tengqurlari va kattalar bilan bo'ladigan munosabat usullari shakllanadi, his va didlari tarbiyalanadi.

4. O'yin bolalarga ta'lim-tarbiya berishning uslub va usulidir. O'yin jarayonida bolalarning bilimlari va tasavvurlari boyib, chuqurlashib boradi. O'yinda u yoki bu rolni bajarayotib, bola o'zining butun diqqatini o'yinga qaratishi lozim. Bola o'ynayotganida kishilar mehnati, ularning aniq harakatlari, munosabatlari to'g'risidagi tasavvuri yetarli emasligini sezib qoladi, buning natijasida kattalarga savol bera boshlaydi. Tarbiyachi bolalarning bunday savollariga javob berib, ularning bilimlariga aniqlik kiritadi, boyitadi. Shunday qilib, o'yin bolalardagi bilim va tasavvurlarni mustahkamlaydi. Bunda pedagogning to'g'ri rahbarligida uning tushunchalari kengayadi.

Tarbiyachi o'yin orqali bolalarda ona-Vatanga, o'z xalqiga, boshqa millat vakillariga ijobiy munosabatni shakllantiradi, mustahkamlaydi. O'yin orqali tarbiyachi bolalarda jasurlik, rostgo'ylik, o'zini tuta bilishlik, tashabbuskorlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi. O'yin bolalarda ijtimoiy axloqni, ularning hayotga, bir-biriga bo'lgan munosabatini shakllantiruvchi maktab vazifasini bajaradi. Tarbiyachi bolalarning o'yiniga rahbarlik qilayotib, ularni jamoa orqali ham tarbiyalab boradi. O'yin jarayonida bolalar o'z xohish-istaklarini jamoa xohishi bilan kelishib olishga, o'yinda o'rnatilgan qoidalarga rioya qilishga o'rganadilar.

**Maktabgacha ta'limda
qo'llaniladigan o'yinlar
va ularni tashkil etish
uslubikasi**

Maktabgacha ta'limda qo'llaniladigan bolalar o'yini o'zining mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko'ra xilma-xildir, umumlashtirgan holda, uni ikki guruhga tasniflash mumkin: 1) ijodiy o'yinlar; 2) qoidali o'yinlar.

Ijodiy o‘yinlarni bolalar o‘zlari o‘ylab topishadi. Unda oldindan belgilangan qoidalar bo‘lmaydi. O‘yin qoidasini bolalar o‘zlari o‘yin jarayonida belgilashadi. Ijodiy o‘yinlarga syujetli-rolli o‘yinlar, sahnalashtirilgan o‘yinlar, qurilish-yasashga doir o‘yinlar kiradi.

Syujetli-rolli o‘yin o‘z xususiyatiga ko‘ra aks ettiruvchi faoliyatdir. Tevarak-atrofdagi kattalar va tengdoshlarining hayoti va faoliyati bu o‘yin mazmuniga manba bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur turdagi o‘yinlarning o‘ziga xosligi ularda syujet, rol va xayol qilingan vaziyatning mavjud bo‘lishidir. Buning uchun albatta, bolalar biror narsa yoki voqea to‘g‘risida yetarlicha tasavvurga ega bo‘lishi lozim. Masalan, bolalar “parovoz” o‘yinini o‘ynashmoqchi bo‘lishadi. Bunga o‘yinning qanday borishi to‘g‘risida syujet (voqeaning borishi) kerak. Syujet bolalarning bilimiga bog‘liq bo‘ladi. Bolada avval g‘oya tug‘iladi, keyin mazmuni rivojlanadi. Ba‘zan bolalar o‘yinning qanday borishini oldindan belgilab oladilar. Masalan, ular orasidan kim “parovoz” bo‘lishi, qolganlar uning orqasidan ergashishi, qayerga borganda navbat almashishlarini oldindan kelishib olishadi.

Syujetli-rolli o‘yinlarda tarbiyachi yetakchi rol o‘ynaydi. Tarbiyachi bolalarning qiziqishlarini diqqat bilan kuzatib, ularning ijobiy tomonlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratishi va bolalarni kerakli yo‘nalishda tarbiyalab borishi lozim. Tarbiyachi syujetli-rolli o‘yinlarga rahbarlik qilishda quyidagi jihatlarga e‘tibor qaratishi lozim:

1) bolalar o‘yiniga rahbarlik qilish uchun ularning o‘yinini bilish va har doim kuzatib borishi lozim;

2) tarbiyachi bolalarning o‘yin davomidagi muloqotlari, xatti-harakatlarini muntazam kuzatib, tinglab borishi lozim. Bu tarbiyachiga bolalarning qiziqishlari, xohish-istaklarini bilib olib, ularni to‘g‘ri yo‘lga solish, ijobiy xususiyatlarini yanada rivojlantirish imkonini beradi;

3) syujetli-rolli o‘yinlarni o‘ynash uchun ma‘lum joy ajratish lozim;

4) o‘yin jarayonida kerak bo‘ladigan o‘yinchoqlarni bolalar mustaqil o‘zlari yasashlari uchun ularga kichkina yog‘och bo‘laklari, mix, loy, qog‘oz, karton, bo‘yoq va kerakli asboblari – bolg‘acha, qo‘l arra, qaychi, pichoq kabilarni berish kerak. Biroq o‘yinchoqlar yasash ustida ishlash faqat tarbiyachining rahbarligi ostida bajarilishi lozim;

5) o‘yin mavzusini tanlashga yordam berish bolalarni o‘ynashga o‘rgatish usullaridan biridir. Tarbiyachi bolalarning rolli o‘yinlari mavzusini boyitibgina qolmay, balki uning syujetini, mazmunini boyitish to‘g‘risida ham o‘ylashi kerak;

6) tarbiyachi hamma bolalarning o'yinga qatnashishlari ustida g'am-xo'rlik qilishi kerak. O'yinda ko'pincha ular rol talashib bir-birlari bilan kelisha olmay qoladilar. Bolalarni bunday kelishmovchiliklarni haqqoniy echishga o'rgatish lozim.

Sahnalashtirilgan o'yinlar bolalar biror ertak yoki hikoya syujeti asosida ma'lum bir rolni bajarishiga, o'yin jarayonidagi personajlarning aytadigan so'zlarining yod olinishiga asoslangan bo'lib, bolalarda iroda, intizom, o'z harakatlarini boshqalarning harakatiga muvofiq amalga oshirish kabi sifatlarni tarbiyalashda samarali vosita sanaladi. Sahnalashtirilgan o'yinlarni tashkil etish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi:

I bosqich. Sahnalashtirish uchun badiiy asarni tanlash. Badiiy asarni tanlashda quyidagi talablarga rioya qilish kerak: 1) ertak yoki hikoyada qatnashuvchilar soni ko'p bo'lishi kerak; 2) asarning nafaqat mazmuni, balki unda harakatlarning ham turfa xil bo'lishiga e'tibor qaratish lozim; 3) asar ifodali o'qishga mos bo'lishi kerak; 4) asar mazmuni qiziqarli va emotsional bo'lishi zarur; 5) asar bolalarning yoshiga mos kelishi lozim.

II bosqich. Sahnalashtirish uchun tanlangan ertak yoki hikoyaning mazmunini o'qib berish.

III bosqich. Asarning bolalar tomonidan eslab qolinishiga erishish: qayta o'qib berish, har bir bolaning aytadigan gaplari ustida individual ish olib borish, rasmlar namoyish etish.

IV bosqich. O'yin qiziqarli o'tishi va uzoq davom etishi uchun o'yinga kerakli materiallar, kiyimlar tayyorlash hamda rahbarlikni to'g'ri amalga oshirish.

Sahnalashtirilgan o'yinlar bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda oddiydan murakkabga qarab yo'naltirib borilishi maqsadga muvofiq. Masalan, o'rta guruh uchun asosan harakatni aks ettiruvchi asarlar tanlansa, katta guruh bolalari uchun esa asar qahramonlarining ancha murakkab munosabatlari, ularning kechinmalari, qayg'ulari aks ettirilgan asarlar tanlanadi.

Bolalarning qurilish, buyum yasash o'yinlari rollarga bo'linib o'ynaydigan o'yinning tarkibiy qismidir. Biror narsani qurish bolalarning o'z fikrlarini ro'yobga chiqarish usulidir. *Qurilish materiallari bilan o'tkaziladigan o'yinlarda* bolalarning texnikaga qiziqishi ortadi, kuzatuvchanligi rivojlanadi, ular geometrik jismlarning eng oddiy xususiyatlari bilan tanishadilar.

Qurilish materiallari bilan bog'liq o'yinlarni o'tkazishda quyidagi jihatlarni hisobga olish lozim:

1) qurilish materiallari butun guruh bolalarining bir paytda o'ynashlari uchun yetarli bo'lishi lozim;

2) guruh xonasida qurilish materiallarini saqlaydigan, uni quradigan va bir necha kungacha saqlab qo'yishning iloji bo'lgan joy bo'lishi kerak;

3) qurilish materiallari uchun har bir detalga alohida xonachalari bo'lgan g'ildirakli shkaf bo'lishi, uni bolalar istagan tomonlariga sudrab olib yurishlariga imkon yaratilishi kerak;

4) qurilish materiallari saqlanadigan burchakda mayda o'yinchoqlar, o'yinchoqli odamlar, qushchalar, hayvonlar, transport bo'lishi mumkin;

5) bolalarning o'zlari o'yinchoq yasashlari uchun har doim kerakli material bo'lishi zarur;

6) bolalarga qurilish usullarini o'rgatish lozim;

7) qurilish materiallaridan ishlangan buyumlarni bir necha kungacha, hatto undan ko'proq muddat saqlash kerak.

Qurilish materiallari bilan o'tkaziladigan o'yinlarning maktabgacha ta'lim amaliyotida keng tarqalgan turlariga *qum bilan o'ynash, suv bilan o'ynash, qor o'yinlari* kabilarni kiritish mumkin.

Qum bolalarning yozda o'ynashlari uchun yaxshi material. Har bir guruhda ikkitadan qum yashigi bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Shunda hamma bolalar o'ynash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Qum bolalarning o'ynashlari uchun eng qulay o'yin vositasi bo'lib hisoblanadi. Qum maxsus yashiklarda nam holatda saqlanadi. Qumni saqlashga quyidagi gigienik talablar qo'yiladi: a) qum turli xil tosh, shishalardan tozalangan bo'lishi; b) qum faqat namroq holda saqlanishi; d) bolalarning salomatligiga xavf solmasligi kerak. Kichik yoshdagi bolalarni qum bilan o'ynashlari uchun bayroqchalar, o'yinchoqlar tayyorlab qo'yilishi kerak.

Suv bilan o'ynaladigan o'yinlar bolalarda kichik yoshdan boshlab shug'ullanish mumkin. Suvda qo'g'irchoqni cho'miltirish, o'yinchoqlar bilan o'ynash, katta yoshdagi bolalar esa suvda cho'milishlari mumkin.

Qor bilan o'ynaladigan o'yinlar bolalarda quvnoq kayfiyatni uyg'otadi. Buning uchun yog'och belkurakcha, qorni tashish uchun quticha ortilgan chana bo'lishi shart. Kattalar yordamida qor uyumlaridan turli shakllar, qorbobo, qorqiz, hayvonlarning qiyofasini yasaydilar.

Didaktik o'yinlar ta'limiy o'yin sifatida bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan o'yinlar sirasiga kiradi. Didaktik o'yinlarning

muhim belgisi undagi qoidalarining mavjudligidir. O'yinda o'yin niyati, o'yin qoidalari, o'yin harakatlari o'rtasida uzviy aloqa mavjud. O'yin niyati o'yin harakatlarining tabiatini belgilaydi. O'yin qoidasi esa, o'yin harakatlarini, vazifasini hal etishga va o'yindagi harakatlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Didaktik o'yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu o'yinlarda bolaning har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi. O'yin qoidasiga rioya qilish, unga amal qilish o'yin mazmunini boyitadi.

Didaktik o'yinlarda tabiiy narsa va buyumlardan keng foydalaniladi. Bolaning kun tartibida didaktik o'yin uchun vaqt va joy ajratilishi kerak. Bunday o'yinlar mashg'ulot jarayonida va o'yindan tashqari vaqtlarda guruh yoki yakka-yakka o'tkaziladi. Bunda o'yin mazmuni va natijasi puxta aniqlanadi. Didaktik o'yinlarda quyidagi qoidalarga amal qilinishi kerak: 1) navbatma-navbat ta'sir etish; 2) so'ralganda javob berish; 3) o'rtoqlari fikrini eshita olish; 4) o'yin jarayonida boshqalarga xalaqit bermaslik; 5) o'yin qoidasini bajarish; 6) o'z xatosini tan olish.

Didaktik o'yinlarda bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish lozim. O'yinda o'yin sur'ati va ritmi katta rol o'ynaydi, juda sekin va bir tekisdagi temp bolani ko'p kuttiradi, juda tez temp esa bolalarni hayajonga soladi, turli bahs-munozaralarga olib keladi. Kattalar tomonidan o'yin ishtirokchilarini to'g'ri baholash muhim ahamiyatga ega.

Didaktik o'yinlarning quyidagi turlari mavjud: a) buyum va o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan; b) stol-bosma; d) og'zaki so'z o'yinlari. *Buyum va o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan o'yinlar* bolaning ilk yoshidan boshlab, to maktab yoshiga yetgunga qadar o'ynaladigan o'yin turi hisoblanadi. Bunda bolalarning tasavvurlari, diqqatlari o'yin asosini tashkil etadi. Ularda tevarak-atrofdagi narsa va buyumlar, ularning sifati, foydali tomonlari to'g'risida umumiy tushuncha hosil bo'ladi. O'yinda o'ynaladigan har bir buyum yoki o'yinchoq o'zining tashqi ko'rinishiga ega bo'lishi, narsaning asosiy belgisini ajrata bilish imkonini berishi lozim. Bunday o'yinlar bolalarning narsalarning shakli, hajmi, belgisi, sifati haqidagi bilimlarini kengaytiradi. *Stol-bosma o'yinlari* bolalarning tevarak-atrof haqidagi tasavvurlarini aniqlash, bir tizimga solish, tafakkurini (tahlil qilish, umumlashtirish, tavsiflash) o'stirish imkonini beruv-

chi o'yin usulidir. Bu o'yin turiga lotto, juft rasmlar, domino va labirint kiradi. *Og'zaki so'z o'yinlari* katta maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o'tkaziladi. Ular bolani eshita olish, zudlik bilan javob topa olish, o'z fikrlarini tez va aniq ifoda eta olishga o'rgatadi. Bunday o'yinlar bolaning aqliy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan o'yin turlarida didaktik maqsad va o'yin materiallarining mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

? NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O'yinning maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar hayotida tutgan o'rnini nimalarda yorqin namoyon bo'ladi?

2. Maktabgacha ta'limda qo'llaniladigan bolalar o'yinlarini o'zining mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko'ra necha guruhga turkumlash mumkin?

3. Ijodiy o'yinlarga nimalar kiradi? Qurilish o'yinlariga-chi?

4. Tarbiyachi syujetli-rolli o'yinlarga rahbarlik qilishda qaysi jihatlarga e'tibor qaratishi lozim?

5. Sahnalashtirilgan o'yinlarni tashkil etishda qanday bosqichlar ko'zga tashlanadi?

6. Qurilish materiallari bilan bog'liq o'yinlarni o'tkazishda qanday jihatlarni hisobga olish lozim?

7. Didaktik o'yinlarning qanday turlari mavjud?

? MAVZU YUZASIDAN TESTLAR

1. O'yin qanday turlarga bo'linadi?

- A) Ijodiy o'yin, qoidali o'yin
- B) Sahnalashtirilgan
- C) Syujetli-rolli
- D) Qurush-yasash o'yinlari

2. O'yin maktabgacha ta'lim muassasalarida qaysi paytlarda o'tkaziladi?

- A) Ertalab nonushtagacha, nonushtadan keyin

- B) Mashg'ulotlar o'rtasida, ochiq havoda
- C) Uyqudan keyin
- D) Hamma javoblar to'g'ri

3. Mashg'ulot o'rtasida qanday o'yinlar o'tkaziladi?

- A) Qurish-yasash
- B) Sahnalashgan
- C) Harakatli-qoidali o'yinlar o'tkaziladi (ular mashg'ulot mazmuniga qarab tanlanadi)
- D) Syujetli-rolli

4. Ijodiy o'yinlarga qanday o'yinlar kiradi?

- A) Didaktik o'yinlar
- B) Sport o'yinlar
- C) Harakatli o'yinlar
- D) Syujetli, roli, sahnalashtirilgan, qurish-yasash

5. Qoidali o'yin turlarini ayting.

- A) Didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, musiqali didaktik o'yinlar
- B) Qurilish materiallari bilan o'ynaladigan o'yinlar
- C) Qurilish materiallari bilan o'ynaladigan o'yinlar
- D) Sahnalashtirilgan o'yinlar

6. Qaysi o'yin turida bolalar o'yin qoidalarini o'zlari o'yin jarayonida belgilashadi?

- A) Qoidali o'yinlar
- B) Ijodiy o'yinlar
- C) Sahnalashtirilgan o'yinlar
- D) Qurish-yasash o'yinlari

7. Didaktik o'yinlar to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.

- A) Buyum va o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan
- B) Stol-bosma
- C) Og'zaki so'z o'yinlari
- D) Barcha javoblar to'g'ri

IV BO‘LIM. MAKTABGACHA TA‘LIM MUASSASASI MENEJMENTI

XVII bob. MAKTABGACHA TA‘LIM MUASSASASINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI

Ta‘lim menejmenti – boshqaruv san‘ati sifatida

“Menejment” inglizcha so‘z bo‘lib, o‘z-bek tilida boshqaruvni tashkil etish (boshqarish, boshqaruv hokimiyati, tashkil etish), rahbarlik qilish (rejalashtirish, tartibga solish-muvofiqlashtirish, nazorat qilish) ma‘nolarini anglatadi. Menejment ko‘zlangan maqsadlarga erishish uchun faoliyatni, ya‘ni insonlar yoki ularning guruhlarini faoliyatini muvofiqlashtirish hamda boshqarish usullari, shakllari va vositalari majmuidir.

Sodda qilib aytganda, menejment umumiy holda u yoki bu faoliyat turini tashkil etishni va unga rahbarlik qilishni, ya‘ni turli xil sohalarida faoliyat ko‘rsatayotgan insonlarning xatti-harakatlarini, munosabatlarini muvofiqlashtirish, ularning imkoniyatlari va qobiliyatlaridan to‘g‘ri foydalanishni tashkil etish, nazorat qilish va boshqarishni bildiradi. Menejment eng avvalo insonlarni boshqarish, ularni o‘z faoliyatiga qiziq-tirish, tadbirkorlikka, mehnatga ijodiy yondashish, o‘ziga ishonish tuy-g‘ularini shakllantirish, sohalar bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashiga ko‘maklashish, yangilikka va ijodkorlikka chorlash, inson-larning faoliyatini boshqarish demakdir.

L.Fishman fikriga ko‘ra, *ta‘lim menejmenti* – bu ilmiy asosda tashkil etilgan, o‘ziga xos pog‘onaviylikka asoslangan boshqaruv: rahbar, pedagogik jamoa, ta‘lim oluvchilar jamoasi. Shunga ko‘ra boshqaruvni turli xil modellar asosida amalga oshirish mumkin: integral model, birinchi pog‘ona – pedagogik jamoa faoliyatini boshqarish; ikkinchi pog‘ona – bolalar faoliyatini boshqarish⁴⁰.

Bundan tashqari, olimlar ta‘lim menejmetining bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ham ta‘kidlab o‘tishadi. Ular orasida quyidagi xususiyatlar asosiy hisoblanadi:

– ta‘lim menejmenti “maqsadga muvofiqlik” so‘zi bilan aniqlanadigan ma‘naviy o‘lchovga ega;

40. Turg‘unov S.T. Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari: Pedagogika fanlari doktori. ...diss. – T., 2007. – 25-b.

– taʼlim menejmenti – bu fan va sanʼat (chunki bunda insonlar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlar katta rol oʻynaydi);

– menejment mazmunida oʻz aksini topadigan shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarining oʻzaro dialektik birligi;

– taʼlimni boshqarishda jamoatchilikning faol qatnashuvi⁴¹.

Mamlakatimizda menejment fanining rivojlanishiga salmoqli hissa qoʻshgan olimlardan M.Sharifxoʻjaev, Yo.Abdullayevlar boshqaruv oʻziga xos yuksak sanʼat va mahoratni talab qiluvchi tanlov, shu tanlov asosida qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish ekanligini taʼkidlab, quyidagicha taʼrif beradilar: “*Boshqaruv* – bu tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish jarayonidir”⁴². Taʼlim menejmentida boshqaruvning quyidagi turlari mavjud:

Avtokratik rahbar

Bunday turdagi rahbar:

➤ buyruq chiqarish, qaror qabul qilish, xodimlarga jazo berish yoki ragʻbatlantirishda jamoa fikrini hisobga olmaydi;

➤ oʻzini jamoadan uzoq tutadi; jamoa aʼzolarini bevosita muloqotda boʻlishini chegaralab qoʻyadi;

➤ oʻzining nooʻrin harakatlarining tanqid qilinishiga chiday olmaydi;

➤ oʻziga boʻysinuvchilarning harakatlarini keskin ravishda tanqid qilishni yaxshi koʻradi;

➤ muttasil buyruq berishga, hammani oʻz istaklariga soʻzsiz boʻy-sindirishga intiladi;

➤ koʻp gapirishni yoqtirmaydi, lekin boʻysinuvchilari bilan muomilada boʻlganda uning rahbarlik gʻururi balandligi, oʻzini katta tutishi sezilib turadi;

➤ oʻziga boʻysinuvchilar oldida qovogʻi solingan kayfiyatda boʻladi.

Xullas, avtokratik rahbar oʻziga bino qoʻygan, dimogʻdor, oʻz qobiliyati va imkoniyatlariga ortiqcha ishonadigan, hukmini oʻtkazishga intiladigan kishilardan yetishib chiqadi.

Bunday rahbar nazoratdan chetda qolsa oʻsha yerda dagʻallik, takabburlik, tazyiq oʻtkazish, majbur qilish kabi oʻta salbiy holatlar avj oladi.

41. Pedagogika. / M.X.Toxroxodjayeving umumiy tahriri ostida. – T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010. – 292-b.

42. Sharifxoʻjayev M., Abdullayev Yo. Menejment: Darslik. – T.: «Oʻqituvchi», 2001. – 7–6-b.

Biroq avtokratik boshqaruv usulini har jihatdan yomon deb bo'lmaydi. Ba'zi bir hollarda bo'ysinuvchilarning madaniy darajasi, axloqi pastligi sababli avtokratik uslubini tanlab olish ham ish berib qolishi mumkin.

Liberal rahbar

Bunday turdagi rahbar:

- irodasiz, tashabbussiz bo'ladi;
- o'z zimmasiga mas'uliyat olishni yoqtirmaydi;
- ishni o'z holiga tashlab qo'yadi;
- idoraga nisbatan qat'iy bo'lishdan hayiqadi;
- o'zini haddan tashqari ehtiyot qiladi;
- biron xodim bilan ham aloqani buzishni istamaydi;
- talabchan emas, sust nazorat qiladi;
- suiiste'mollarga bevosita yo'l qo'ymasa ham o'zini bilmaslikka

soladi.

Bunday rahbar tashqaridan ko'rsatiladigan ta'sirga moyilligi bilan ko'zga tashlanib turadi.

Demokratik rahbar

Bunday turdagi rahbar:

- boshqarish funksiyalarini jamoa fikri bilan hisoblashib amalga oshiradi;
- ishlab chiqarishni boshqarishga xodimlarni jalb qiladi;
- ularning bildirgan fikriga quloq soladi;
- ular bilan maslahatlashadi, ijobiy tamonlarini inobatga oladi;
- barcha bilan barobar va samimiy munosabatda bo'ladi, ustunligini bildirmaydi;
- buyruq berish yo'li bilan emas, balki ishontirish uslubida ish tutadi;
- buyruq rahbarlik uslubi bo'ysinuvchilarning shaxsiy tashabbusini, ijodiy faoliyatini rivojlantiradi va jamoada o'rtoqlik va ishchan muhitini yaratadi.

Boshqaruvchi qaysi boshqaruv shaklini qo'llashidan qat'iy nazar o'zining mustaqil dunyoqarashi, mustaqil fikri va quyidagilarni o'z ichiga olgan ma'naviy qiyofasi bo'lishi kerak.

Har qanday holatda ham rahbar qaysi bo'g'inda rahbar bo'lishidan qat'iy nazar o'zining asosiy majburiyati, ya'ni qo'l ostidagilarni o'zining misolida tarbiyalashni unutmastligi kerak.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida, O'zbekistonda ta'lim sohasini boshqarish respublika tasarrufidagi yuqo-

ri hukumat va uning boshqarish organlari hamda mahalliy hukumat va uning boshqarish organlari tomonidan amalga oshirilishi ko'rsatilgan.

Maktabgacha ta'lim muassasalari Xalq ta'limi vazirligi tasarrufiga kiradi. Xalq ta'limi Vazirligining mahalliy organlariga quyidagilar kiradi: Xalq ta'limi viloyat boshqarmasi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi, tuman xalq ta'limi bo'limi.

Respublikamizda davlat maktabgacha ta'lim muassasalari bilan birga nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari ham faoliyat yuritadi. Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari va boshqa hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek «O'zbekiston Respublikasida nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risida»gi Nizomga amal qiladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasining ustavi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-yanvardagi 5-son qarori bilan tasdiqlangan Ta'lim muassasasi ustavini ishlab chiqish tartibiga muvofiq ishlab chiqiladi, uning muassasi tomonidan tasdiqlanadi va tegishli davlat organlarida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi ta'lim-tarbiya va sog'lomlashtirish muassasasi hisoblanadi, quyidagilar uning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- bolalarning hayotini muhofaza qilish va sog'lig'ini mustahkamlash;
- bolaning shaxsi asoslarini shakllantirish, uning bilimga qiziqishlarini rivojlantirish;
- bolaning intellektual, shaxsiy va jismoniy rivojlanishini ta'minlash;
- bolaning rivojlanishidagi nuqsonlarni zarur tarzda tuzatish;
- bolaning milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish;
- bolalarni maktabda o'qishga tayyorlash.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi muassasa sifatidagi tashkiliy-huquqiy shaklda tashkil etiladi va qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat ko'rsatadi. Yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan nodavlat mulkchilik shaklidagi yuridik va jismoniy shaxslar nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasining muassislari bo'lishlari mumkin.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi, mustaqil moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshiradi, dumaloq muhriga, burchakli shtampga va o'z logotipi yozilgan blankaga ega bo'ladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan tartibda litsenziya olgan vaqtdan boshlab ta'lim faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega bo'ladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasini akkreditatsiya qilish vakolati davlat organi tomonidan, attestatsiya asosida amalga oshiriladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim va tarbiya dunyoviy xususiyatga ega bo'ladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim mazmuni O'zbekiston respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tavsiya qilingan dasturlar bilan belgilanadi. Muassasa o'z (mualliflik) dasturidan foydalanishga haqlidir. Ushbu dasturlarni tasdiqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan belgilanadi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasining ish rejimi va bolalarning u yerda qancha vaqt bo'lishi muassasa ustavida hamda muassasa rahbari (yohud muassasi) bila nota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'rtasida tuzilgan shartnomada belgilanadi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarni o'qitish va tarbiyalash davlat tilida va «Davlat tili haqida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq boshqa tillarda olib boriladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilariga tibbiy yordam ko'rsatish shtatdagi yoki sog'liqni saqlash organlarining shartnoma asosida maxsus birlashtirilgan tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Tibbiyot xodimlari nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlari bilan birgalikda bolalarning hayoti, sog'lig'i va jismoniy rivojlanishi, davolash-proflaktika tadbirlari o'tkazilishi, sanitariya-gigiena normalariga, ovqatlanish rejimi va sifatiga rioya qilinishi uchun javob beradilar. Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlarini tibbiy ko'rikdan o'tkazish shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarning ovqatlanishi O'zbekiston respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan tibbiyot, sanitariya-gigiena normalari va talablari asosida amalga oshiriladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi ta'limning uzluksizligini ta'minlash maqsadida shartnoma asosida o'z faoliyatini umumiy o'rta ta'lim muassasalari bilan birgalikda amalga oshirishi mumkin.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasiga bolalar 2 yoshdan boshlab 6–7 yoshgacha tegishli tibbiy xulosa hisobga olingan holda qabul qilinadi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasiga bolalarni qabul qilish va ularning chiqib ketishi tartibi nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasining ustavi bilan belgilanadi.

Nodavlat muassasa guruhlaridagi bolalar soni davlat maktabgacha ta'lim muassasalari uchun belgilangan sonda ortiq bo'lmash kerak.

Maxsus pedagogik ma'lumotli shaxslar nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga egadir. Sud tomonidan yoki tibbiy xulosaga muvofiq bunday faoliyat bilan shug'ullanishi ta'qiqlangan shaxslar pedagogik faoliyatga qo'yilmaydilar.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi rahbari belgilangan tartibda pedagog kadrlar malakasini oshirishni va ularni qayta tayyorlashni ta'minlaydi, ularning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qiladi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari, mualliflik dasturlari, uslubik qo'llanmalar va didaktik materiallar joriy etilishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasining pedagoglari va boshqa xodimlar bilan mehnat shartnomalari tuzish va ularni bekor qilish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasida bolalar, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar va pedagog xodimlar ta'lim jarayonining qatnashchilari hisoblanadi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasida vasiylik kengashlari tashkil etiladi, ularni saylash tartibi va ularning vakolatlari maktabgacha ta'lim muassasalarining ustavlarida belgilanadi.

Bolalarni qabul qilishda nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi ota-onalarni yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni muassasaning ustavi va uning faoliyatini tartibga soladigan boshqa hujjatlar bilan tanishtirishi shart.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi bilan ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasining ustavi va shartnoma bilan tartibga solinadi. Shartnoma o'qitish, tarbiyalash, qarab turish va parvarlik qilish jarayonida paydo bo'ladigan tomonlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini o'z ichiga oladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchisi va xodimi o'rtasidagi munosabatlar o'zaro hamkorlik, bolaning shaxsini hurmat qilish va unga shaxsiy xususiyatlariga muvofiq rivojlanishi uchun erkinlik berish asosida olib boriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida o'quv yili har yili 2-sentabrdan boshlanadi, keyingi yilning 1-iyunida tugallanadi va yangi o'quv yili boshlangunga qadar sog'lomlashtirish davri boshlanadi⁴³.

Bugungi kunda nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari o'z faoliyatini "O'zbekiston Respublikasida nodavlat maktabgacha ta'lim to'g'risida"gi Nizom asosida amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim to'g'risida"gi Nizomi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 25-oktabrdagi 225-sonli qaroriga asosan tasdiqlangan bo'lib, quyidagi to'qqiz bo'limni o'z ichiga oladi:

I. Umumiy qoidalar

II. Maktabgacha ta'lim muassasasini tashkil etish tartibi

III. Maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etish

IV. Maktabgacha ta'lim muassasasini butlash

V. Ta'lim jarayoni qatnashchilari

VI. Maktabgacha ta'lim muassasasini boshqarish

VII. Maktabgacha ta'lim muassasasining mol-mulki va pul mablag'lari

VIII. Maktabgacha ta'lim muassasasining javobgarligi

IX. Yakuniy qoidalar

Nizomning "*Umumiy qoidalar*" bo'limida maktabgacha ta'lim muassasalari o'z faoliyatini ularga tayangan holda amalga oshiradigan me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda maktabgacha ta'lim muassasasining asosiy vazifalari belgilab berilgan.

Nizomning ikkinchi – "*Maktabgacha ta'lim muassasasini tashkil etish tartibi*" bo'limida belgilab qo'yilganidek, maktabgacha ta'lim muassasasi muassis tomonidan tashkil etiladi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkaziladi. Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat korxonalari, qonun hujjatlariga muvofiq boshqa davlat tashkilotlari davlat maktabgacha ta'lim muassasasining muassislari bo'lishi mumkin.

43. «O'zbekiston Respublikasida nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risida»gi Nizom. –T., 2008. 35–38-betlar.

Maktabgacha ta'lim muassasasini akkreditatsiya qilish davlat vakolatli organi tomonidan attestatsiya asosida amalga oshiriladi.

Nizomning *"Maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etish"* bo'limida maktabgacha ta'lim muassasasidagi ta'lim mazmuni, ish rejimi, ta'lim olish tili, ovqatlanishni yo'lga qo'yish tartibi, tibbiy xizmat ko'rsatish, qo'shimcha mablag'lar topish masalalari aniq ko'rsatib berilgan.

"Maktabgacha ta'lim muassasasini butlash" bo'limida esa, bolalarni maktabgacha ta'lim muassasasiga qabul qilish tartibi, imtiyozga ega guruhlar, bolalarni yoshi va rivojlanish darajasiga ko'ra guruhlarga bo'lish tartibi belgilab berilgan.

Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalar, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar va pedagog xodimlar *ta'lim jarayonining qatnashchilari* hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida vasiylik kengashlari tashkil etiladi, ularni saylash tartibi va ularning vakolatlari maktabgacha ta'lim muassasalarining ustavlarida belgilanadi. Vasiylik kengashlarining faoliyati belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan vasiylik kengashi to'g'risidagi namunaviy nizom asosida amalga oshiriladi.

Shuningdek, Nizomning beshinchi bo'limida ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar va pedagog xodimlarning huquq hamda majburiyatlari belgilab berilgan.

Nizomning oltinchi bo'limi *"Maktabgacha ta'lim muassasasini boshqarish"* deb nomlangan bo'lib, unda Pedagoglar kengashining faoliyat yuritish tartibi hamda maktabgacha ta'lim muassasasi mudirining vakolatlari ko'rsatib o'tilgan.

Maktabgacha ta'lim muassasasining mol-mulki va pul mablag'lari muassis yoki u vakolat bergan organga birlashtiriladi. Maktabgacha ta'lim muassasasiga birlashtirilgan mol-mulk uning tezkor boshqaruv huquqida bo'ladi. Maktabgacha ta'lim muassasasi o'ziga birlashtirilgan mol-mulkni va xarajatlar smetasi bo'yicha o'ziga ajratilgan mablag'lar hisobiga sotib olingan mol-mulkni qonun hujjatlariga muvofiq tasarruf etadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi o'z ustavida nazarda tutilgan funksiyalarning bajarilmaganligi; ta'lim dasturlarining to'liq hajmda bajarilmaganligi, amalga oshirilayotgan ta'lim dasturlarining sifati; ta'lim jarayonini tashkil etishning qo'llanayotgan shakllari, uslublari va vosi-

talarining bolalarning yosh, ruhiy-fiziologik xususiyatlariga, qobiliyatiga, layoqatiga, qiziqishlariga va ehtiyojlariga nomuvofiqligi; muassasada tarbiyalanayotgan bolalarning ta'lim jarayoni vaqtidagi hayoti va sog'ligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda *javob beradi*.

Nizomning *yakuniy qoidalarida* ko'rsatib o'tilganidek, maktabgacha ta'lim muassasasida maktabgacha ta'lim muassasasining asosiy faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan tashkilotlarning, shu jumladan, siyosiy partiyalar va harakatlarning tashkil etilishiga va faoliyat ko'rsatishiga yo'l qo'yilmaydi. Davlat maktabgacha ta'lim muassasasidagi ta'lim dunyoviy xususiyatga ega.

**Ta'lim muassasasining
Ustavi – boshqarish va
unga rahbarlik qilish-
ning asosiy hujjati**

Ta'lim muassasasining Ustavi ta'lim muassasasi faoliyatiga rahbarlik va boshqarish tizimini aniqlovchi hujjatdir.

Maktabgacha ta'lim muassasasining Ustavi ta'lim muassasasining joylashgan o'rni, uning turi, ta'lim tili, tarbiyachilarning huquq va burchlari, tarbiyalanuvchilar hamda ularning ota-onalarining huquq va burchlari, shuningdek, ta'lim muassasasining iqtisodiy tuzilishi va xo'jalik faoliyati, boshqarish tartibi aniq belgilanishi ko'rsatib berilgan.

Ta'lim muassasasining Ustavi quyidagi bo'limlardan tashkil topadi:

1. Qisqacha ta'lim muassasasi haqidagi ma'lumotlar.
2. Ta'lim muassasasining maqsad va vazifalari.
3. Ta'lim muassasasini boshqarish.
4. O'quv-tarbiya va ilmiy-uslubiy ishlarni tashkil etish.
5. Tarbiyachi. Huquq va burchlari.
6. Tarbiyalanuvchi. Huquq va burchlari.
7. Ma'muriy va yordamchi xodimlarning huquq va burchlari;
8. Ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning huquqlari, majburiyat va mas'uliyatlari;
9. Ta'lim muassasasining moddiy va moliyaviy xo'jalik ta'minoti.

**Mudira – Maktabgacha
ta'lim muassasasi
rahbari**

Maktabgacha ta'lim muassasasiga bevosita rahbarlik qilish mudir tomonidan amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim muassasasi mudirini ishga qabul qilish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi bilan kelishgan holda amalga oshiriladi. Davlat maktabgacha ta'lim muassasasi mudiri bilan mehnat shartnomasi bir yil muddatga tuziladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi mudiri lavozimiga qo'yiladigan malaka talablari belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan belgilanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi mudiri:

– maktabgacha ta'lim muassasasi nomidan ishonchnomasiz faoliyat ko'rsatadi, barcha muassasa va tashkilotlarda uning manfaatlarini ifodalaydi;

– maktabgacha ta'lim muassasasi mol-mulkini o'ziga berilgan vakolatlar doirasida tasarruf etadi;

– ishonchnomalar beradi;

– bank muassasalarida hisob raqamlari ochadi;

– maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlarini ishga qabul qilish va joy-joyiga qo'yishni amalga oshiradi, rag'batlantiradi, intizomiy jazo choralarini ko'radi va ular bilan tuzilgan mehnat shartnomalari (kontraktlari)ni to'xtatadi;

– o'z vakolatlari doirasida buyruqlar (farmoyishlar) chiqaradi;

– maktabgacha ta'lim muassasalarining ishlarini takomillashtirish, moddiy bazasini mustahkamlash, xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishni ta'minlash bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish uchun xalq ta'limini boshqarish yuqori organiga kiritadi;

– bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishning samarali tashkil etilishi, o'quv-tarbiya jarayoni, moliya-xo'jalik faoliyati ahvoli, moddiy-texnik bazaning mustahkamlanishi va moddiy boyliklarning saqlanishi uchun javob beradi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi – murakkab tarmoq bo'lib, mudiraning undagi roli, faoliyati ko'p qirralidir. Mudira – maktabgacha ta'lim muassasasining tashkilotchisi, rahbari, malakali pedagog, uning faoliyati maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni komil inson qilib tarbiyalash vazifalarini to'laqonli hal etishga qaratilgan. U bolalar muassasalaridagi ta'lim-tarbiyaviy, pedagogik va gigienik talablarga muvofiq ravishda amalga oshirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi. O'z jamoasida ishchanlik, maqsadga qaratilgan inoqlik vaziyatini yaratadi. Ularga umumiy rahbarlik qiladi. Mudira o'z ishida davlatimiz va Xalq ta'limi vazirligi tomonidan qabul qilingan qaror, qonunlarga amal qiladi va o'z ustida ijodiy ravishda ishlashni amalga oshiradi. Yuksak ongillik va siyosiy yetuklik, prinsiplilik, o'ziga va qo'l ostidagilarga talabchanlik – bu mudiraga qo'yiladigan asosiy talablardir.

Jamoadagi to'g'ri, o'zaro munosabatlar har bir xodimning mehnat va ishlab chiqarish intizomligiga rioya qilishni ta'minlaydi.

Rahbarlik mavqei mudira o'z g'oyaviy, ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy, huquqiy saviyasini va mintaqaviylik mahoratini doimo ongli ravishda pedagogik bilimlarni bolalarga ta'lim-tarbiya berish nazariyasi va amaliyotini puxta egallashga, hozirgi bosqichda maktabgacha ta'lim oldida turgan vazifalarni bilishga, o'z bilimlaridan amaliy faoliyatiga foydalanishga majbur etadi. U programma, uslubik instruktiv, normativ hujjatlarni yaxshi bilishi va unga amal qilishi kerak. U pedagogik jarayonning mohiyatini chuqur bilib, yutuq va kamchiliklarini darhol bartaraf qilish choralarini ko'rish lozim.

Maktabgacha ta'lim muassasasi mudiri Xalq ta'limini boshqarish organlari tomonidan oliy ma'lumotga va 5 yildan kam bo'lmagan pedagogik ish stajiga ega bo'lgan shaxslardan tayinlanadi. Maktabgacha ta'lim muassasasida kadrlarini tanlash, joy-joyiga qo'yish tarbiyalash bo'yicha ishni mehnat jamoasi, maktabgacha ta'lim muassasasi kengashining faollari ishtirokida ma'muriyat amalga oshiradi. Maktabgacha ta'lim muassasasi rahbarlari kadrlarning kasb mahoratini, umumiy ta'lim mahoratini, umumiy ta'lim va madaniy darajasini muntazam o'stirib borishiga g'amho'rlik qiladi: xodimlar malakasini hisobga olgan holda va maktabgacha ta'lim muassasasi manfaatlaridan kelib chiqib, ularni ratsional va o'z vaqtida joydan-joyga ko'chirib turilishini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida kadrlar zaxirasi shakllantirilib, ular bilan doimiy ish olib boriladi. Maktabgacha ta'lim muassasasining shaxsiy tarkibi quyidagilardan iborat: ma'muriy guruh (mudir, tarbiyachi-uslubist, xo'jalik mudiri, katta meditsina hamshirasi), pedagogika, meditsina, xizmat ko'rsatish tarmoqlari xodimlari.

Maktabgacha ta'lim muassasasi ma'muriyati jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda o'z-o'zini boshqaruv asosida bolalarni tarbiyalashda yuksak natijalarga erishishga qodir bo'lgan turg'un mehnat jamoasini shakllantiradi; kadrlarni o'zini muntazam takomillashtirib borish, pedagogik va xizmat ko'rsatish, mehnat samaradorligini oshirish ruhida tarbiyalaydi, o'z jamoasi, tanlagan kasbi uchun faxrlanish hissini shakllantiradi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi rahbarlari kadrlarning kasb mahoratini, umumiy ta'lim mahoratini, umumiy ta'lim va madaniy darajasini muntazam o'stirib borishga g'amxo'rlik qiladi; xodimlar malakasini hisobga olgan holda va maktabgacha ta'lim muassasasi manfaatlaridan kelib

chiqib, ularni ratsional va o'z vaqtida joydan-joyga ko'chirib turilishini ta'minlaydi. Bu maqsadlar uchun ma'muriyat ruhiy-pedagogik bolaning huquqiy va iqtisodiy o'quv bilan organik uyg'unlanishini ta'minlaydi; xodimlar malakasini bevosita maktabgacha ta'lim muassasasida oshirish uchun shart-sharoit yaratadi, murabbiylik harakatini rivojlantiradi; mamlakatda va chet ellarda pedagogik va boshqa aralash fanlardan erishgan yutuqlar haqida axborot beradi.

Ma'muriyat jamoat tashkilotlari bilan birgalikda maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish uchun optimal shart-sharoitlarni ta'minlaydi, ularga o'z vaqtida zarur uslubik yordam ko'rsatadi.

Mudira – ma'naviy, siyosiy, huquqiy axloqiy yetuklik–saviya, ong, ma'rifatchilik, madaniyatlilik, xodimlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, halollik, vijdonlilik, tanqidga chidamli bo'lish, mehnatsevarlik istiqbolni oldindan ko'ra olish kabi xususiyatlar mavjud bo'lishi kerak.

Xalq ta'limi vazirligining 2012-yil 14-iyundagi 186-sonli buyrug'iga muvofiq mudiraning malaka tavsiflari quyidagicha qilib belgilandi:

Lavozim vazifalari:

- maktabgacha ta'lim muassasasi umumiy faoliyatiga rahbarlik qilish;
- pedagogik jamoa va boshqa xodimlarning bolalar bilan olib boradigan tarbiyaviy ishlarda yuqori samaraga erishishni tashkil qilish;
- tarbiyaviy jarayonda mehnatni tashkil qilishning zamonaviy shakllaridan foydalanish;
- bolalarni boshlang'ich sinfda o'qitishga tayyorlash bo'yicha davlat talablariga muvofiq tarbiyalash dasturlarining bajarilishini nazorat qilish;
- bolalar sog'lig'ini mustahkamlash, ularni pedagogika va gigiena talablariga muvofiq tarbiyalash va o'qitish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni ta'minlash;
- pedagogik kengashga rahbarlik qilish, oilada farzand tarbiyasi masalalari bo'yicha ota-onalar bilan ishlashni tashkil etish;
- sanitariya-gigienik talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilinishini ta'minlash;
- byudjet mablag'laridan oqilona foydalanish va muassasa mulkiga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish va boshqalar.

Bilishi lozim:

- ta'lim tizimiga tegishli qonunlar, hukumatning tegishli qarorlari, Xalq ta'limi vazirligi tomonidan chiqarilgan normativ-huquqiy hujjatlarni;

• maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari, tarbiyaviy ishlar konsepsiyasi va boshqalar.

Malaka talablari:

- o'z yo'nalishi bo'yicha kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumot va kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash bo'yicha kurslarni tugatganlik;
- xorijiy tillardan birining boshlang'ich bosqichini va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni bilishi;
- besh yildan kam bo'lmagan ish staji.

Uslubchi va unga qo'yiladigan talablar Uslubchi oliy pedagogik ma'lumotga (maktabgacha pedagogika fakulteti) ega bo'lgan yoki o'rta pedagogik (maktabgacha bo'limi) ma'lumotga va kamida 3 yil pedagoglik faoliyatiga ega bo'lgan eng yaxshi tarbiyachilardan tayinlanadi. O'z kasbdoshlarining hurmatini qozonish va ularga o'z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishlarida yordam berish uchun uslubchi qanday uslubchilik sifatlariga ega bo'lishi kerak? Uslubchi faqat yaxshi nazariy tayyorgarlikkagina emas, balki bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmasiga ham ega bo'lishi zarur.

Tajribali uslubchining tashabbuskorligi va ishga ijodiy yondashishi: g'oyalarini umumlashtira bilish, maqsadga muvofiq ishlash, har bir tarbiyachining imkoniyat va mahoratlarini hisobga olishiga qarab, farqlanadi.

Uslubchi talablarni qo'yishda talabchan va qat'iy bo'lishi kerak. Rahbarning o'ziga bo'ysinuvchilar bilan muloqotining emotsional-irodaviy tomonini ifodalovchi bu sifatlar rahbarlik uslubining muhim xislati-talabchanlikni hosil qiladi. Yuksak talabchanlikni sezgirlik, hayrixohlik, odamlarga hurmat bilan birga qo'shib olib borish zarur. Talabchanlik – bu qattiqqo'llik degan gap emas. Buyruqlar, qattiq tanbehlar, xayfsanlarning foydasidan ko'ra zarari ko'proq va bu odatda rahbarning kuchliligidan emas, balki zaifligidan dalolat beradi. Maktabgacha muassasa ta'lim-tarbiyaviy faoliyatining samaradorligi, uning obro'si ko'p jihatdan pedagoglar jamoasining jipslashganligiga, eng avvalo butun maktabgacha muassasa rahbar yadrosida birlik va o'zaro tushunishning mavjudligiga bog'liq bo'ladi.

Tarbiyachilarning aniq intizomi va ishda uyushqoqligini ta'minlash; kollektivda jamoatchilik fikrini, tarbiyachilarning bir-birlarining kamchiliklariga tanqidiy munosabatini shakllantirish, mehnat aktivligi va ijodiy ishlash ehtiyojini rag'batlantirish: qabul qilingan qarorlar yechimini ta'

minlash kabi sotsial-psixologik masalalarni hal qilish uslubchi uchun birmuncha murakkablik qiladi.

Uslubchi maktabgacha bolalar muassasasidagi ta'lim-tarbiyaviy ishga uslubik rahbarlikni amalga oshiradi.

«Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya dasturi»ning bajarilishini ta'minlaydi va nazorat qiladi, ta'lim-tarbiyaviy ishning to'g'ri uyushtirilishi uchun javobgar;

ilg'or pedagogik tajribani o'rganadi, umumlashtiradi va tarqatadi, pedagogik kengashda ko'rib chiqish uchun zarur materiallarni tayyorlaydi; maktabgacha bolalar muassasasidagi uslubik xonaning ishini tashkil qiladi; bolalarning yoshlariga muvofiq pedagogik qo'llanmalar va o'yinchoqlarni tanlaydi.

Ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni propaganda qilish, turli yosh guruhlari tarbiyachilari, shuningdek maktabgacha bolalar muassasasi va maktab ishida ketma-ketlikni ta'minlash bo'yicha ishni uyushtiradi.

Uslubchi shuningdek pedagogik kengashni tashkil etadi va borish jarayonini kuzatib boradi. Pedagogik kengash-jamoa pedagoglari fikrini ifodalovchi, bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy masalalarni kollegial ko'rib chiqadigan doimiy ishlovchi organ, uslubik mahorat maktabi va ilg'or tajriba minbaridir.

Maktabgacha ta'lim muassasasi mudiri pedagogik kengash raisi hisoblanadi.

Pedagogik kengashga quyidagi masalalar: bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlar darajasini oshirish, ularni hal qilish yo'llarini izlash; muassasa ish praktikasiga pedagogika fanining yutuqlari va ilg'or pedagoglar tajribasini joriy qilish; tarbiyachilarning pedagoglik mahoratini oshirish, ularning ijodiy aktivligini rivojlantirish kiritiladi.

Pedagogik kengash xalq ta'limi Vazirligi, Xalq ta'limi Davlat komitetining maktabgacha ta'lim bo'yicha buyruq, instruksiya, nizom va boshqa normativ hujjatlarini; maktabgacha ta'lim muassasasining yillik ish rejasini; bolalar sog'ligini mustahkamlash tadbirlarini; har bir yosh guruhlari bo'yicha «Uchinchi ming yillikning bolasi» Davlat Dasturining sifatli bajarilishi jarayonini; ish praktikasiga joriy qilish maqsadida tarbiyachilarning ilg'or tajribalarini; maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berishning aktual masalalarini, tarbiyachilarning nazariy va uslubik tayyorgarliklarini oshirish masalalarini va maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyatining boshqa masalalarini muhokama qiladi.

Pedagogik kengashlar kun tartibini belgilashda barcha qatnashchilarni qiziqtiruvchi tematikaning kengligini, aktualligini ta'minlash zarur. Faqat shundagina pedagogik kengashda ish muhiti hukm suradi, masalalar muhokamasi sermahsul va aktiv bo'ladi.

Pedagogik kengash tarkibiga: uslubchi, tarbiyachilar, musiqa rahbari, maktabgacha ta'lim muassasasiga xizmat ko'rsatuvchi vrach, katta hamshira, kasaba uyushma qo'mitasining raisi, ota-onalar qo'mitasining raisi kiradi. Pedagogik kengash yig'ilishiga jamoat tashkilotlarining vakillari, maktablar o'qituvchilari, maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarining ota-onalari taklif etilishi mumkin.

Pedagogik kengash maktabgacha muassasaning yillik ish rejasiga kiritilgan va pedagoglar pedagogik kengashi tomonidan tasdiqlangan reja bo'yicha ishlaydilar.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida kollegial organ hisoblangan pedagogik Kengashlar tashkil etilib, u pedagogik xodimlar, ota-onalar, homiylarni birlashtirib, maktabgacha ta'lim Davlat talablari asosida muvofiqlashtirilgan ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Pedagogik Kengash maktabgacha ta'lim muassasasidagi ta'lim-tarbiya jarayonidagi asosiy masalalarni hal etuvchi doimiy faoliyat ko'rsatadigan organ hisoblanadi.

Pedagogik Kengash o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 25-oktabrdagi «Maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi 225-sonli qarori, muassasa Ustavi va mazkur Nizom asosida olib boradi.

Xalq ta'limi vazirligining 2012-yil 14-iyundagi 186-sonli buyrug'iga muvofiq uslubchining malaka tavsiflari quyidagicha qilib belgilandi:

Lavozim vazifalari:

- maktabgacha ta'lim muassasasi jamoasi o'quv – tarbiyaviy faoliyatiga uslubik rahbarlik qilish;
- barcha yosh guruhlarida bolalarni tarbiyalash va o'qitish dasturlarining bajarilishini ta'minlash va nazorat qilish;
- tarbiyachi va tibbiy hodimlar ishini yo'naltirish, nazorat qilish, bevosita bolalar bilan ishlovchi tarbiyachilarga va tibbiy hamshiralarga zarur uslubik yordam ko'rsatish;

- maktabgacha ta'lim muassasida qabul qilingan buyruqlarning bajarilishini nazorat qilish;
- ota-onalar orasida pedagogik bilimlarning tashviqotini ta'minlash va boshqalar

Bilishi lozim:

- ta'lim tizimiga tegishli qonunlar, hukumatning tegishli qarorlari, Xalq ta'limi vazirligi tomonidan chiqarilgan normativ-huquqiy hujjatlarni
- maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari, tarbiyaviy ishlar konsepsiyasi va boshqalar.

Malaka talablari:

- o'z yo'nalishi bo'yicha kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumot va kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash bo'yicha kurslarni tugatganlik;
- xorijiy tillardan birining boshlang'ich bosqichini va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni bilishi;
- uch yildan kam bo'lmagan ish staji.

? NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Menejment deganda nimani tushunasiz?
2. Ta'lim menejmenti qanday o'ziga xosliklarga ega?
3. Boshqaruv deb nimaga aytiladi?
4. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim muassasalari qay tartibda boshqariladi?
5. Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizom qachon qabul qilingan?
6. Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizomning bo'limlari va ularning mazmunini yoritib bering.
7. Maktabgacha ta'lim muassasasining Ustavi haqida ma'lumot bering.
8. Mudira va uslubchi lavozimiga qo'yilgan talablarni yoritib bering.

? MAVZU YUZASIDAN TESTLAR

1. Menejment so'zini ingliz tilidan tarjima qilganda qanday m'noni anglatadi?
 - A) Boshqaraman
 - B) Rahbarlik qilish

- C) Boshqaruvni tashkil etish va rahbarlik qilish
- D) Tashkilotchi

2. Mamlakatimizda menejment fanining rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shgan olimlar qaysi qatrdada berilgan?

- A) M. Sharifxo‘jayev, Yo. Abdullayev
- B) P. Yusupova, O. Hasanboeva
- C) YO. Abdullayev, P. Yusupova
- D) O. Hasanboyeva, M. Sharifxo‘jayev

3. Maktabgacha ta‘lim muassasalari qaysi varizlik tasarrufida ish olib boradi?

- A) Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
- B) Moliya vazirligi
- C) Madaniyat va sport vazirligi
- D) Xalq ta‘limi vazirligi

4. “Maktabgacha ta‘lim to‘g‘risidagi” Nizom Vazirlar mahkamasining nechanchi yildagi, nechanchi sonli qarori asosida tasdiqlangan?

- A) 2008-yil 20-oktabrdagi 220-sonli qarori
- B) 2005-yil 25-oktabrdagi 215-sonli qarori
- C) 2007-yil 25-oktabrdagi 225-sonli qarori
- D) 2010-yil 22-oktabrdagi 212-sonli qarori

5. “Maktabgacha ta‘lim to‘g‘risidagi” Nizom o‘z ichiga nechta bo‘limni olgan?

- A) 9
- B) 8
- C) 7
- D) 6

6. Maktabgacha ta‘lim muassasasi Ustavi qanday xujjat hisoblanadi?

- A) Muassasa faoliyatiga rahbarlik va boshqarish tizimini aniqlovchi hujjatdir
- B) Muassasa faoliyatini moliyalashtirishni tartib soluvchi hujjatdir
- C) Muassasaning huquq va burchlarini belgilab beruvchi hujjatdir
- D) Muassasa rahbari faoliyatini tartibga soluvchi hujjatdir

XVIII bob. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA PEDAGOGIK JARAYONNI BOSHQARISH

Pedagogik jarayonni rejalashtirish

Rejalashtirish maktabgacha ta'lim muassasani boshqarishni uning barcha bo'linmalarida rejali, muntazam, ratsional hamda samarali ishlashini ta'minlovchi muhim funksiyasidir. Rejalashtirish – murakkab analitik jarayon. U o'ziga xos ishlab chiqish va uni maktabgacha ta'lim muassasalari amaliyotiga qo'llash bosqichlariga ega. Maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonni rejalashtirish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1-bosqich – *tahliliy*. Mazkur bosqichda maktabgacha ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonining mavjud holati tahlil etiladi; rejani amalga oshirishga ta'sir etuvchi omillar aniqlanadi. Bu rejalashtirishning muhim bosqichi hisoblanib, Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatining samaradorligini rejalashtirish jarayonining qanchalik to'g'ri bashorat qilinganligiga bog'liq. Maktabgacha ta'lim muassasalari avvalgi yildagi faoliyatini tahlil etish chuqur va haqqoniy amalga oshirilishi zarur.

2-bosqich – *maqsadli*. U o'z ichiga ijtimoiy buyurtma bilan bog'liqlikda rejalashtirilgan bosqichdagi maktabgacha ta'lim muassasalarining umumiy maqsad va vazifalarini belgilash, natijalarni tahlil etish, rejalashtirilgan topshiriqlarni bajarishga ta'sir ko'rsatuvchi sabablarni aniqlash; maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyati turli ish rejalarining mazmunan bir-biriga mosligi; rejada belgilangan ishlarning pedagogik jamoa imkoniyatlari va maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatining moliyaviy-iqtisodiy holatiga muvofiqligi kabilarni qamrab oladi.

3-bosqich – *mazmunli*: davlat hujjatlari va qo'yilgan maqsadlarga muvofiq o'quv-tarbiya jarayoniga yo'nalganlikni ajratib ko'rsatish; maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatining alohida yo'nalishlari bo'yicha rejalashtirilgan topshiriqlarni bajarish ketma-ketligini aniqlash.

4-bosqich – *normativli*. Mazkur bosqichda ajratilgan yo'nalishlar uchun mas'ul kadrlar taqsimlanadi, qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun vositalar ajratib olinadi, ishni amalga oshirish muddatlari belgilanadi.

5-bosqich – *nazorat*: reja bo'limlarining bajarilishi yuzasidan o'tkaziladigan nazorat turlari va mazmunini aniqlash.

Rejalashtirish boshqarishga bevosita rahbarlik qilish yoki uni amalga oshirish yo'lidir. Boshqarishda belgilangan maqsad, tadbirlarni hayot-

ga tadbiriq etish uchun rejalashtirish kerak. So‘ng uni ijrochilar hukmiga havola qilish lozim. Rejalashtirish qaror qabul qilish va ijrosini nazorat qilishdir. Rejalashtirishning mohiyati shundaki, unda boshqarishning maqsad va vazifalari aniqlanadi, har bir tadbirni bajarish muddati, mas‘ul shaxs, uning ijrosini tekshirish va nazorat usuli aniqlanadi.

Rejalashtirish boshqarish modelini, fikriy nusxasini ishlab chiqish demakdir. Rejalashtirish pedagoglar malakasini oshirish tizimini rivojlantirish maqsadini va bunga erishish vosita, yo‘llarini belgilashdir. Bunda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan talablar ketma-ketligi, bajarish muddati, shakli belgilanadi. Rejalashtirish boshqarish lozim bo‘lgan sohalarni ma‘lum ketma-ketlik, chizmalı, grafik yoki model tariqasida amalga oshirishi mumkin. Rejalashtirishda boshqarish bilan bog‘liq harakatlar o‘zaro muvofiqlashtirilib, yuqori natijaga erishishni tashkil etish mumkin. Bu esa o‘z navbatida jarayonga ishtirok etuvchilardan harakat va munosabatlarni ongli va qat‘iy tashkil etishni talab qiladi. Shu asosda yagona maqsadga erishish mumkin bo‘ladi.

Rejalilik – bu ham ijtimoiy-iqtisodiy, ham pedagogik faoliyat sohasini boshqarishning asosidir. Rejaviylik – asosiy tamoyil. Rejali topshiriqlar barcha xizmatning natijaviyligini aniqlash uchun xizmat qiladi.

Rejalashtirishning mohiyati faoliyatning asosiy turlari va aniq ijrochilari va rejalashtirish muddati bilan bog‘liq chora-tadbirlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta‘lim muassasalari faoliyatini rejalashtirishning maqsadi bir tomondan ma‘muriy va pedagogik jamoaning, ikkinchi tomondan, tarbiyalanuvchilar jamoasi harakatlari birligini ishlab chiqishda namoyon bo‘ladi. Rejalashtirishning maqsadi vazifalari bilan aniqlashtiriladi. Aynan vazifalar aniq maktabgacha ta‘lim muassasalari sharoitida amaliy va “ko‘ngilli” maqsadni qo‘yadi.

Rejalashtirishning asosiy vazifalari quyidagilarda ko‘rinadi:

1) tarbiya masalalari va o‘sib kelayotgan avlodni o‘qitish ishlari bo‘yicha davlat organlari qarorlari ijrosini ta‘minlashda;

2) pedagogik jamoa faoliyatidagi asosiy masalalarni ajratib ko‘rsatishda;

3) aniq chora-tadbirlar, ularni ijro etish muddatlari va mas‘ullarini aniqlashda;

4) alohida ijrochilarni ularning faoliyatini ilmiy asoslangan reglamentlash yo‘li bilan tartiblashtirishda;

5) jamoa a'zolarida mas'uliyatlilikni tarbiyalashda.

Rejalashtirishga kirishish uchun maktabgacha ta'lim muassasasi mudiri butun ta'lim muassasasi faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishga imkon beruvchi asosiy qoidalarga tayanishi zarur. Rejalashtirish tamoyillariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Rejalashtirining *ilmiyligi* rejalarni boshqaruvning ilmiy uslubologik nuqtayi nazariga asoslangan holda tuzishni talab etadi. Bu erda rejadagi asosiy nuqtayi nazarning aniqligi, uning hayotiyliigi, rejalashtirilayotgan chora-tadbirlarni o'tkazishning pedagogik maqsadga muvofiqliigi va zarurligi muhimdir;

2. *Istiqbollilik* rejalashtirish g'oyasining o'zida aks ettirib, ya'ni nafaqat yaqin va olis kelajak, balki aniq maqsad va vazifalarga yo'naltirilganlikni hisobga olib, maqsadga qaratilgan tarzda ishlashni talab etadi. Istiqboli va oraliq rejalashtirishni uyg'unlashtirish ta'limiy vazifalarni bir necha yilga mo'ljallab qo'yish, ulardan qanchasini bir yilda hal qilib bo'lmashligini aniqlashni talab qiladi;

3. Ishni real rejalashtirish sharoitida aniq *pedagogik jamoaning o'ziga xosliklarini* hisobga olish muhim hisoblanadi. U yoki bu rejani qo'yishda boshqaruvchi MTMning asosiy tarkibi, tarbiyachilarining malakaviy darajasi, yosh bilan bog'liq jihatlari, kasbiy faoliyatida ijobiy motivatsiyaning mavjudliigi kabi ta'lim muassasasi jamoasining asosiy tavsifiga tayanadi;

4. Rejaning *obyektivligi*. Mazkur tamoyilning mohiyati shundaki, rejalar maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini chuqur va har tomonlama pedagogik tahlil etish va mazkur yilda uning erishiladigan natijalari, ya'ni ta'lim muassasasining obyektiv shart-sharoitlari bilan bog'liqlikda tashkil etiladi.

5. Aniqlik. Eng avvalo, mazkur tamoyil ta'lim-tarbiya jarayoni, moddiy baza, kadrlar ta'minoti holati haqida ishonchli va ko'p hajmli axborot olishni talab etadi.

6. Majmuaviylik. Mazkur tamoyilning muhim talabi – o'quv va tarbiyaviy ishlar va ularning moddiy-texnik ta'minotining tashkiliy jihatdan o'zaro aloqador va o'zaro bog'liqlikda amalga oshishidir. Tarbiyachilar, otanonalar va jamoat tashkilotlarining yillik rejalarining o'zaroaloqadorliigi va ma'qullanganligidir.

7. Jamoaviylik. Mazkur tamoyil o'quv-tarbiyaviy jarayonda barcha tarbiyachilarning ishtirok etishini talab etadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasini boshqarish amaliyotida rejalashtirishning quyidagi uchta asosiy shakli qo'llaniladi: 1) istiqbolli (perspektiv); 2) yillik; 3) yakuniy.

Istiqbolli rejalashtirish: Maktabgacha ta'lim muassasa ishining istiqbolli rejasi bolalarning maktabgacha ta'lim muassasasini uzoq muddatda xalq xo'jaligini rivojlantirishning rejalariga muvofiq rivojlantirishning eng asosiy yo'nalishlarini aniqlash maqsadida besh yilga tuziladi. Unga davlat va idoralarning maktabgacha ta'lim muassasa ishining yangi sifat darajasini ta'minlovchi xalq ta'limi va maktabgacha ta'lim muassasasi tarkibida tarbiyalash masalalari haqidagi ko'rsatmalar kiritilishi lozim.

Istiqbolli rejalashtirishning taxminiy tuzilishi

I. Maktabgacha ta'lim muassasaning muhim vazifalari va uni rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik muammolari.

II. Kadrlar bilan ishlash.

III. Ta'lim - tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish, unga rahbarlik va uni nazorat qilish muammolari.

IV. MTMning oila, maktab, jamoatchilik bilan hamkorlikdagi ishi.

V. Maktabgacha ta'lim muassasaning o'quv-moddiy bazasini mustahkamlash.

Bu bo'limlarning taxminiy mazmunini yoritib o'tamiz.

I. Maktabgacha muassasaning muhim vazifalari va uni rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik muammolari:

– maktabgacha yoshdagi bolalarning MTM va oiladagi mehnat tarbiyasining yo'lga qo'yilishini yaxshilash, ularda mehnatsevarlik va mehnat ahllariga hurmatni tarbiyalash;

– jamoaning bolalarni tarbiyalashda oilaga yordamini kuchaytirish va bolalar tarbiyasi uchun uning ma'suliyatini oshirish bo'yicha ishi, oila va MTM kelishilgan holdagi harakatlarini ta'minlash, pedagogik umumiy ta'lim tizimini ishlab chiqish;

– tarbiyachilarning doimiy mustaqil o'qishlari va kasb mahoratlarini o'stirish uchun zaruriy sharoitlarni yaratish va ularning siyosiy ong - bilim doiralarini kengaytirish.

II. Kadrlar bilan ishlash:

– ilg'or tajriba maktablari, seminar, to'garak, konferentsiyalar ishlarida qatnashtirish, malaka oshirish kurslarida o'qitish orqali tarbiyachilarning dunyoqarashlarini rivojlantirish hamda kasb mahoratini takomillashtirish;

– tarbiyachilarning mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash, ularning ishlarini ma'naviy va moddiy rag'batlantirishni takomillashtirish bo'yicha tadbirlar;

– ilg'or pedagogik tajribani o'rganish, umumlashtirish va joriy etishga doir ish.

III. Ta'lim-tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish, unga rahbarlik va uni nazorat qilish muammolari:

– maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish va tarbiyalashda MTM va maktab ishi mazmuni, shakl va uslublaridagi izchillikni ta'minlash;

– maktabgacha ta'lim muassasasining ta'lim-tarbiyaviy ishiga maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy, axloqiy, mehnat, aqliy, estetik tarbiyalash birligini ta'minlovchi kompleks yondashuvni amalga oshirishga doir ish;

– maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish va tarbiyalash shakl, uslub va vositalarini takomillashtirishga doir ish;

– mashg'ulotlarda o'quv materialini tushuntirishning yuksak g'oyaviyligi: va ilmiyligi, tushunariligi va ko'rgazmaliligi, aniqligi, ravshanligi va jonliligini ta'minlashga doir ish;

– maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalash ishini takomillashtirish;

– maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy-estetik jihatdan tarbiyalashni yaxshilash: ularda go'zallikni his qilishni, tabiat va jamiyatdagi go'zallikni tushunish va qadrlash ko'nikmasini, estetik did va badiiy ijod mohor-atdarini tarbiyalash.

IV. Maktabgacha ta'lim muassasasining.oila, maktab, jamoatchilik bilan hamkorlikdagi ishi;

– pedagogik umumiy ta'limni ta'minlashga doir (ota-onalar maktablari, lektoriylar, konferentsiyalar, to'garaklar va shu kabilar);

– maktablar, jamoatchilik tashkilotlarining maktabgacha ta'lim muassasalari ustidan otalig'i;

V. Maktabgacha ta'lim muassasaning o'quv-moddiy bazasini mustahkamlash: (jihozlar) o'yin, o'quv, sport, xo'jalik) ni olish va remont qilish; o'yin, mehnat, o'quv faoliyati uchun qo'llanma, atributlarni tayyorlash;

– uslubika kabinetini ijtimoiy-siyosiy, uslubik, badiiy adabiyot bilan to'ldirish;

– maktabgacha ta'lim muassasasi binosini va hududini obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish.

Yillik rejalashtirish: Yillik reja aniq, real, maktabgacha ta'lim muassasasining butun hayotini qamrab oladigan, barcha ta'lim-tarbiyaviy ishlarining uzviyligi va izchilligini nazarda tutadigan, pedagoglar jamoaning o'tgan yildagi faoliyati natijalarini hisobga oladigan bo'lishi kerak.

Rejaning mazmuni, asosiy bo'limlari, uni tuzish uslubikasi haqida uslubik adabiyot va yo'riqnoma xatlarda tavsiyalar berilgan. Ular maktabgacha ta'lim muassasa tashabbusini qandaydir andaza doirasida bo'g'ib qo'ymaydi. Barcha uchun shart bo'lgan ilmiy asoslangan talablar bilan birga ijodiy variantlash uchun ham o'rin qoldirilgan. Yillik rejani tuzishda kasaba uyushmasi tashkiloti, shifokor, tibbiyot hamshirasi, tarbiyachilarning qatnashishlari muhimdir. Shundagina u bog'cha xodimlari jamoa, ijodiy fikrning natijasi bo'ladi.

Yillik rejalashtirish butun o'quv yilini qamrab oladi. Yillik rejalashtirish o'quv yili davomida amalga oshiriladi va ta'lim jarayonini tashkil etilishiga qarab bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Yillik ish rejasi o'quv yilining boshlanishidan oldin avgust oyi pedagogik kengashida muhokama qilinadi va tasdiqlanadi. Yillik reja o'quv yilining boshlanishiga tuman (shahar) uslub kabinetining maktabgacha tarbiya uslubisti tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Maktabgacha ta'lim muassasasining o'quv yili uchun yillik ish rejasi Davlatimiz tomonidan barcha sohalar bo'yicha qabul qilingan qonun hujjatlari, Xalq ta'limi bo'yicha me'yoriy hujjatlari, "Bolajon" dasturi "Davlat talablari", "Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi" shuningdek maktabgacha ta'lim muassasaning o'tgan yildagi ishining tahlili asosida ishlab chiqiladi.

Yillik reja aniq, maktabgacha ta'lim muassasasining butun hayotini qamrab oladigan, barcha ta'lim-tarbiyaviy ishlarining uzviyligi va izchilligini nazarda tutadigan, pedagoglar jamoasining o'tgan yildagi faoliyati natijalarini hisobga oladigan bo'lishi kerak.

Rejaning mazmuni, asosiy bo'limlari, uning tuzilishi va uslubikasi haqida uslubik adabiyot va yo'l-yo'riq hujjatlarida tavsiyalar berilgan. Barcha uchun shart bo'lgan ilmiy asoslangan talablar bilan birga ijodiy variantlash uchun ham o'rin qoldirilgan. Yillik rejani tuzishda kasaba uyushmasi tashkiloti va shifokor, tibbiyot hamshirasi, tarbiyachilarning qatnashishlari muhimdir. Shundagina u maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlari jamoa, ijodiy fikrning natijasi bo'ladi.

Kirish qismi.

- I. Maktabgacha ta'lim muassasa ishining asosiy vazifalari.
- II. Tashkiliy-pedagogik ish.
- III. Kadrlar bilan ishlash.
- IV. Ta'lim-tarbiyaviy ishga rahbarlnk va uni kontrol qilish.
- V. Ota-onalar bilan ishlash.
- VI. Ma'muriy-xo'jalik ishi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida yillik rejani tuzish uchun muassasaning istiqbol rejasi asos bo'ladi.

Yakuniy rejalashtirish choraklar uchun tuziladi, u bir yillik rejaning aniqlashgan ko'rinishi hisoblanadi. Shu tarzda rejalashtirishning bunday aniqlashgan ko'rinishlari tarbiyachilar, tarbiyalanuvchilar va ota-onalar qo'mitasining faoliyatini boshqarishga yordam beradi. Bu rejalar tarbiyachilarning ish rejalari bilan aloqadorlikda aniqlashtirilib boriladi. Umuman olganda, boshqarish faoliyatida rejalashtirish vazifasining to'la amalga oshirilishi ta'lim muassasasi faoliyati samaradorligini oshiradi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarining ishi

Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya jarayonimi rejalashtirish tarbiyachidan tegishli tayyorgarlikni talab etadigan ancha murakkab ishdir, tarbiyachi bolalarning psixologik-fiziologik rivojlanish darajasini, maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarini hamda u asosida yaratilgan ta'lim-tarbiya dasturini yaxshi bilishi kerak. Reja tarbiyachiga dastur talablarini bir yilga bir tekisda taqsimlashga yordam beradi hamda ta'lim-tarbiya berish va tarbiyalashning usullarini oldindan o'ylab olish, maqsadni aniqroq ko'rish imkonini beradi. Reja bo'lsa, tarbiyachi bugun nima ish qilishi va qanday qilishini, qaysi qo'llanmalardan foydalanishni biladi.

Tarbiyachi ta'lim-tarbiya ishini rejalashtirish va o'tkazish jarayonida quyidagi hujjatlarning yuritilishini doimiy amalga oshirib borishi lozim:

1. Ta'lim tarbiyaviy ish rejasi tarbiyachi tomonidan tuziladi. Reja oy boshlanishidan besh kun avval uslubchiga tasdiqlash uchun beriladi, oylik ish reja daftarida avvalo, haftalik mashg'ulotlar jadvali, bir oylik rejaning taqsimoti beriladi. Har o'n besh kunga mo'ljallangan badan-tarbiya mashqlari, ota-onalar bilan ishlash rejasi va kundalik faoliyatning yuritilishi ochib beriladi. Kundalik faoliyatda ertalabki soat. mashg'ulot, sayr, kunning ikkinchi yarmida belgilangan vazifalar to'liq yoritiladi.

2. Davomat daftari. Davomat daftari tikilgan, sahifalangan, muhrlangan, rahbar tomonidan imzolangan bo'lishi kerak. Kundalik davomat tarbiyachi tomonidan bolalarning soni yozilganidan so'ng tasdiqlanadi, imzolanaadi. Davomat har oyda yopiladi.

3. Filtr daftari. Filtr daftari tikilgan, sahifalangan, muhrlangan, imzolangan bo'lishi kerak. U quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi: bolaning ismi va familiyasi; harorati, terisi; og'iz bo'shlig'i; pedikulyoz, ota-onalar bilan suhbat hamda ilova.

4. Patronaj daftari. Patronaj daftari tikilgan, sahifalangan, muhrlangan, imzolangan bo'lishi kerak. Unda bolaning oxirgi marta maktabgacha ta'lim muassasasiga kelgan kuni, o'tkazilgan patronaj, bolaga qo'yilgan tashxis kabilar o'z aksini topishi lozim.

5. Ota-onalar haqida ma'lumot daftari.

6. O'z ustida ishlash daftari.

7. Uslubik uyushmaga qatnashish daftari.

8. Bolalar bilan yakka ishlash daftari.

9. "Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yila-digan davlat talablari" asosida bolalarning rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish (har olti oyda);

10. Tahlil daftari (o'zaro mashg'ulotlarni kuzatish);

11. Ota-onalar bilan o'tkaziladigan majlisi qarori daftari.

Har qanday tajribali tarbiyachi ham ilk bor maktabgacha ta'lim muassasasiga yosh tarbiyachi sifatida ishga kelgan va sekin-asta kasbiy malakalarni egallab yuqori darajaga ko'tariladi. Maktabgacha ta'lim muassasasi yosh tarbiyachining dastlabki ish kunlari eng og'ir kunlar hisoblanadi. Bolalarda ularning yangi tarbiyachilari qanday ilk taassurot uyg'otishi ham katta ahamiyatga egadir. Agarda u ikkilansa, qat'iyatsizlik ko'rsatsa, kichkintoylar oldida muvaffaqiyatsizlikka duch kelishidan cho'chisa, bolalar buni tezda anglab oladilar va ularni boshqarish oson bo'lmaydi. «Guruhni eplolmaydi» deyishadi, bunday tarbiyachi haqida. Yosh mutaxassis o'z muvaffaqiyatsizliklaridan chuqur tashvishga tushadi, hatto o'zining kasbga yaroqliligiga gumonsiraydi.

Yosh tarbiyachilarga yordamni qanday uyushtirish kerak? Eng avvalo uni tajribali, bilimdon, bolalarni va o'z ishini sevadigan pedagog ishlaydigan guruhga yo'llash kerak. Eng yaxshi yordam pedagogga bolalar bilan qanday ishlash kerakligini ko'rsatishdir. Hech qanday maslahat, gapirib berish, tushuntirishlar ko'rsatishdek yordam berolmaydi.

Mana yosh tarbiyachi bolalarning mustaqil faoliyatlarini uyushtira bilmayapti. Bolalar nima bilan shug'ullanishini bilmaydilar, pedagog esa guruhda intizomni, tartibni o'rnatolmaydi. Uslubchi yoki bolalar bog'chasing mudiri bolalarning bunday xatti-harakatlari sababini aniqlaydi: agarda bolalar bekorchilikdan to'polon qilayotgan bo'lsalar, unda darhol ularga ma'qul keladigan mashg'ulotlarni topish kerak bo'ladi. Bunday vaziyatlarda katta tarbiyachi tarbiyachiga bolalarning xilma-xil faoliyatlariga mos keluvchi sharoitlarni qanday tashkil qilishni, ularni o'yinlar, mashg'ulotlarga jalb qilishni ko'rsatadi. Ustalik bilan, ularni fikrlarini buzmay, bolalarga individual yondashuvni amalga oshirishga yordam beradi, qiynalayotgan va ishni yarim yo'lda tashlab ketmoqchi bo'lganlarga maslahatlar beradi, tushuntiradi, ko'maklashadi, bolalarga o'z faoliyatlarini hamma narsani oldindan tayyorlab qo'yib uyushtirishni o'rgatadi; o'yin uchun sherik topishda yordamdashadi. Bunday ko'rgazmali misol tarbiyachiga bolalarning faoliyatlarini to'g'ri uyushtirishda yordam beradi.

Har bir yosh mutaxassis – ishni endi boshlayotgan yosh tarbiyachi maslahatlar olib turishi uchun unga murabbiy-tajribaliroq va obro'liroq tarbiyachini birlashtirish lozim.

Yosh mutaxassisning kasb mahoratini egallab olishi osonlik bilan bo'lmaydi. Mana shuning uchun ham yosh pedagogni ishning ilg'or usublari va usullarini egallashga, o'z bilimlarini doimo to'ldirib borishga, erishilganlar bilan cheklanmay, tarbiya sirlarini egallash ishtiyoqini singdirishga yo'llash katta tarbiyachining vazifasi hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirish

Maktabgacha ta'lim muassasasi ishini umuman va har bir yosh guruhida rejalashtirishning bevosita asosini ta'lim-tarbiya vazifalari aniqlanib, bolalar faoliyatining har bir asosiy turiga doir ta'lim-tarbiyaviy ish mazmuni «Bolajon» dasturida ochib berilgan. Rejalashtirishda bu vazifa va mazmunlar yanada aniqlashtiriladi, ularni amalga oshirish vaqti va izchilligi belgilanadi.

Ta'limiy ishning mazmuni, uslubi va usullari hamda uni tashkil etish turlari, bolalar xulq-atvorini tarbiyalash mazmuni, uslubi va usullari, ularda madaniy-gigienik malakalarni shakllantirish, bolalar mehnati va o'yinlariga rahbarlik usullari, bolalarning bo'sh vaqt va ko'ngil ochishlarini tashkil etish, shuningdek ota - onalar bilan ishlash turlari va tabiati rejalashtirilishi lozim.

Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'limiy ishni tashkil etishning asosiy shakli mashg'ulotdir. Bunda o'qitish ta'limiy ish masalalari, voqelikning turli sohalari haqidagi bilimlarni, aqliy va amaliy malakalar va ko'nikmalarni, o'quv faoliyati, bolalar nutqini o'stirishning oddiy asoslari va shu kabilarni hal etishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Bu mazmun dasturning tevarak-atrof bilan tanishtirish va nutqni o'stirish, oddiy matematik tasavvurlarni rivojlantirish, rasm solish, loy va plastilindan narsalar yasash, applikatsiya, qurish-yasash, musiqa ta'limi, jismoniy tarbiya singari asosiy bo'limlarida berilgan. Tegishli yo'nalish uslubikalarida ishlab chiqilgan mashg'ulotlar tizimi maktabgacha ta'lim muassasasi va yosh guruhidagi muayyan ish sharoitlarini, bolalarning ilgirilash daraja va sur'atlarini, ularni u yoki bu mazmunni egallashlarini xisobga olib rejalashtirishda foydalaniladi. Masalan, bolalarni tabiat bilan tanishtirishga doir mashg'ulotlar tizimi qishloq joy yoki katta shahar markazida, shimoliy va markaziy mintaqada va boshqa respublikalarda joylashgan maktabgacha ta'lim muassasasida turlicha bo'ladi.

O'qitishning har bir bo'limiga doir mashg'ulotlarni rejalashtirishda bilimlarni egallashning asosiy bosqichlari (boshlang'ich idrok, bilim va ko'nikmalarni kengaytirish va umumlashtirish, ulardan hayotda foydalanish bilimlarni yangi sharoitlarga ko'chirish) hisobga olinadi. Rejada bilimlar mazmunining takrorlanishi va ularni asta-sekin murakkablashtirilishi nazarda tutiladi. Istalgan bo'limga doir mashg'ulotlarni rejalashtirishda mazkur bo'lim bilan bog'langan asosiy ta'lim-tarbiyaviy masalalardan tashqari dasturning boshqa bo'limlaridan ayrim masalalarni ham kiritish kerak. Mashg'ulotlarni bunday yaxlitlash ularning rivojlantiruvchi samarasini ancha oshiradi. Ammo rejalashtirishda ta'limiy ishni qisman birlashtirish ishning butun mazmunini jamlovchi yagona mavzu tusini olmasligi kerak. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarixida o'rin tutgan mavzuviy rejalashtirish, «tashkiliy momentlar»ga oid rejalashtirish bilimlarning tizimlilik va bolalarning aqliy rivojlantirishni talab darajasida ta'minlamagan edi.

Bolalarni atrofidagi hayot va tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarini bolalarga nutq o'stirish mashg'ulotlari bilan, shuningdek tasviriy faoliyat mashg'ulotlari bilan aloqasini o'rnatish ayniqsa muhimdir.

Ta'limiy ish mashg'ulotdan tashqarida: kundalik turmush, o'yin, mehnatda ham davom ettiriladi. Kunning turli vaqtida (ertalab, sayrda) tarbiyachi tabiat va ijtimoiy hayotning turli hodisalarini kuzatishni tashkil etadi.

Bu kuzatishlar ham rejalashtiriladi. Ular butun guruh bolalari bilan yalpisiga, bolalarning kichik guruhlari bilan va yakka tartibda o'tkaziladi.

Tarbiyachi mashg'ulotlardan tashqari bilimning u yoki bu bo'limlariga doir ayrim bolalar yoki bolalarning kichik guruhlari bilan ta'limiy ishni rejalashtiradi va tashkil qiladi. Bu maqsadda didaktik o'yinlar, didaktik materialli mashqlar (masalan, nutqning tovush madaniyatiga doir, matematik tasavvurlarini rivojlantirishga oid ish va boshqalar) dan foydalaniladi.

Shunday qilib, rejada bolalar bilan ta'limiy ishning mazmuni ham, uni tashkil qilish shakllari ham aks etadi.

Shaxsning ma'naviy fazilatlarini tarbiyalash ta'lim-tarbiyaviy ish jarayonida: mashg'ulotlar, o'yinlar, mehnat va shu kabilarda hal qilinadi. Shuning uchun ma'naviy tarbiya ishining mustaqil bo'limi sifatida rejalashtirilmaydi. Bu ishning vazifa, mazmun va uslublari bolalarning asosiy faoliyat turlariga rahbarlikni rejalashtirishda ochib beriladi. Ammo xulq-atvor malakalarini shakllantirish (masalan, atrofdagi kishilarga muloyim va g'amxo'r munosabat, narsalarga tartibli va tejamkorlik munosabati, madaniy-gigienik malakalar, o'yin, kitob burchaklarida tozalik va tartibni saqlash malakalari, o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish malakalari va shu kabilar) bolalarning ma'lum harakat usullarini egallab olishlarini nazarda tutadi. Malakalarni tarbiyalash bevosita ta'sir usullari: harakat usullarini ko'rsatish, mashq qilishlar, ya'ni o'rgatish, odatlantirish orqali amalga oshiriladi, shuning uchun madaniy-gigienik malaka va madaniy xulq-atvor malakalarini rejalashtirish mumkin va lozim. Malakalar hajmi, ularni shakllantirish izchilligi, shuningdek, tarbiyachi foydalanadigan o'rgatish usullari rejalashtiriladi.

Ertalabki soatda qilinadigan pedagogik ishning asosiy vazifasi bolalarda tetik, quvnoq kayfiyat uyg'otishdir. Bunda bola faoliyati erkin bo'ladi, bolaning istagi va qiziqishiga tayaniladi, faoliyatlarining shakli va mazmuni qiziqarli bo'lishi ta'minlanadi.

Tarbiyachi har kuni ertalabki soatda bolalarni birlamchi tibbiy ko'rik asosida qabul qiladi, ota-onalar bilan suhbat olib boradi, badantarbiya mashqlarini o'tkazadi. Lekin bu vazifalar kundalik faoliyatda aks ettirilmaydi.

Kundalik faoliyat bayonida ertalabki soatda tarbiyachi bolalar bilan belgilangan mavzu yuzasidan qisqa suhbat uyushtirishi ko'rsatiladi, asosiy o'rin bolalarning o'yin faoliyati uchun ajratiladi. Ijodiy o'yinlarni,

tinch o'yinlarni (qurish-yasash, rasmi kitoblarni tomosha qilish) tashkil etish rejalashtiriladi.

Rejada bolalarning mehnat faoliyati keng yoritiladi. Mehnat tarbiyasining to'rtta vazifalari besh kunga bo'linib yoziladi. Navbatchilik har bir kun uchun alohida rejalashtirilmaydi. Rejada navbatchilikka yangilik kiritilsa, navbatchilik vazifasi murakkablashtirilsa yoki sharoitlar o'zgarasa, yangi mazmun alohida kiritiladi.

Bolalarning mustaqil faoliyati rejalashtirilmaydi, u bolaning qiziqishiga va kayfiyatiga bog'liq. Har bir bola erkin holda o'zi istagan faollik markazini tanlashi va u yerda ishlashi mumkin. Tarbiyachi bolalarni kuzatishi va zarur holda unga yordam ko'rsatishi lozim.

Mashg'ulotning maqsadida tarbiyachi bolalarga beriladigan ta'lim va tarbiya vazifalarini ko'rsatadi, bolalar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarining hajmini aniq belgilaydi. Mashg'ulotning borishi to'liq yozilmay, manbaning muallifi, ishlanmaning betini ko'rsatib o'tish kifoya. So'ngra zaruriy jihoz va ko'rgazmalarni ko'rsatadi. Mashg'ulot ishlanmasi yozilgan uslubik qo'llanma yo'q bo'lsa, tarbiyachi mashg'ulot ishlanmasini yozishi lozim.

Tarbiyachining sayrdagi asosiy vazifasi bolalar uchun faol, mazmunli, xilma-xil va qiziqarli faoliyatni tashkil etishdir. Sayr quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: 1) kuzatish; 2) harakatli o'yin; 3) ixtiyoriy o'yinlar; 4) mehnat; 5) tinch o'yin.

Kunning ikkinchi yarmi bolalar bilan yakka ishlash, xilma-xil o'yin faoliyati egallaydi: (ta'limiy, stol ustida, voqeaband, ixtiyoriy, sahnalashtirilgan), ko'ngilochar soatlar (har oyda 1-2 marta) rejalashtiriladi. Tarbiyachi kechki sayrda ixtiyoriy kuzatish, ixtiyoriy o'yin va ota-onalar bilan ish-lashni rejalashtiradi.

? NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Rejalashtirish deganda nima tushuniladi?
2. Maktabgacha ta'lim muassasasida pedagogik jarayonni rejalashtirishning o'ziga xosliklarini bayon eting.
3. Pedagogik jarayonni rejalashtirishda qanday tamoyillarga rioya etish zarur?
4. Rejaning qanday turlari mavjud?
5. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisining yillik, oylik va kundalik ish rejalari qanday tuzilishga ega?

6. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilarining ish yuritish hujjatlariga nimalar kiradi?

7. Ertalabki va kunning ikkinchi yarmida qanday ta'lim-tarbiya ishlari amalga oshiriladi?

?

MAVZU YUZASIDAN TESTLAR

1. Yillik rejani tuzishga asos bo'luvchi hujjat to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.

- A) Tarbiyachilarning kalendar rejasi
- B) Muassasaning ta'lim – tarbiya ishlari bo'yicha rejasi
- C) Muassasaning yakuniy rejasi
- D) Muassasaning istiqbol rejasi

2. Davomat, filtr va potranaj daftarlari maktabgacha ta'lim muassasasida faoliyat ko'rsatayotgan qaysi hodimning ish hujjatlari hisoblanadi?

- A) Uslubchi
- B) Hamshira
- C) Mudira
- D) Tarbiyachi

3. Yosh tarbiyachilar ish o'rganishi uchun kimga biriktiriladi?

- A) Uslubchiga
- B) Mudiraning o'zi ish o'rgatadi
- C) Tajribali tarbiyachiga
- D) Tarbiyachi yordamchisiga

4. Mashg'ulotlarni yillik rejasi maktabgacha ta'lim muassasasining qaysi yo'nalishdagi rejalari tarkibiga kiritiladi?

- A) Ta'lim-tarbiya ishlarini amalga oshirish rejasiga
- B) Yillik reja tarkibiga
- C) Istiqbolli reja tarkibiga
- D) Yakuniy reja tarkibiga

5. Maktabgacha ta'lim muassasasida qabul qilinishi mumkin bo'lgan rejalarda to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.

- A) Istiqbolli, yillik va yakuniy
- B) Yillik va yakuniy
- C) Oylik va kalendar reja
- D) Istiqbol, yillik va oylik

XVIII bob. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI VA OILA

Oila tushunchasi va uning mohiyati

Oila nikohga yoki a'zolarining ijtimoiy turmush tarzi, o'zaro axloqiy javobgarligi va o'zaro yordamiga asoslangan qon-qarindosh-

larning kichik guruhi⁴⁴.

Insonparvar demokratik huquqiy davlatda mavjud bo'lgan oilaga quyidagicha ta'rif mavjud: «Oila jamiyatning tabiiy va asosiy bo'g'ini bo'lib, yuridik ma'noda nikoh, qarindoshlik, farzandlikka olish yoki boshqa shakllarda bolalarni doimiy tarbiyaga olishdan kelib chiqadigan tegishli huquq va majburiyatlar bilan bog'langan shaxslar doirasidan iborat bo'lgan milliy mustaqillik mafkurasiga, umuminsoniy qadriyatlar va sharqona an'analarga asoslangan oilaviy munosabatlarni rivojlantirib, uni mustahkamlashga qaratilgan fuqarolar ittifoqidan iboratdir»⁴⁵.

Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini, u nikoh va qon-qarindoshlikka asoslanishi hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega, shuningdek, jamiyat va davlat oilani, otalik, onalik va bolalikni himoya qiladi va oilaviy munosabatlarga umuminsoniy va milliy qadriyatlar joriy etilishini ta'minlaydi⁴⁶.

Psixolog olimlar oilani kichik bir ijtimoiy guruh sifatida ta'riflaydilar. Oilani tashkil etuvchi ushbu guruh nikoh orqali hamda yaqin urug'chilik rishtalari bilan bir-biriga bog'langan bo'lib, ular o'rtasidagi munosabatlarga xos bo'lgan muhim jihatlari – bu o'zaro mehr-muhabbat, g'amxo'rlik, mas'uliyatlilik va albatta, hayot, turmush tarzidagi umumiylikdir⁴⁷.

Sotsiologiya oilaga yaxlit ijtimoiy organizmning qismi, jamiyat bo'g'ini, ijtimoiy tarbiya jamoasi sifatida qaraydi. Ijtimoiy-iqtisodiy sohada sodir bo'layotgan o'zgarishlar albatta, oilada o'z aksini topadi. Biroq boshqa – ishlab chiqarish, kasbiy, siyosiy ijtimoiy birlashmalardan farqli ravishda oila to'g'ridan-to'g'ri qayta qurishga uchramaydi. Oilaning axloqiy, psixologik jihatdan yangilanishi uzoq, murakkab, qarama-qarshiliklarga bog'liq jarayondir.

44. Педагогический энциклопедический словарь – М., 2002. – С.257.

45. Karimova O. Oila huquqi asoslari – T.: 2003.

46. Qarang: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: «O'zbekiston», 2009. – 12–13-b.

47. Karimova V. Oilaviy hayot psixologiyasi – T., 2006. – 10-b.

Iqtisodiy sohadagiga qaraganda, yangi munosabat, yangi axloq me'yorlari oilada sekin sur'atlarda amalga oshadi. Oilaviy o'zgarishlarning amalga oshishida ijtimoiy-iqtisodiy omillardan tashqari, boshqa – biologik, psixologik, demografik omillar ham ishtirok etadi.

Olimlarning fikricha, odamlar hayotining birdan-bir to'g'ri yo'li oilaviy hayotdir.

Oila inson uchun mehnat qobiliyatini tiklash va dam olish joyi. Shuningdek, oila muhim tarbiya o'chog'i hamdir. Oilada bolalar tarbiyasida ota-bobolar, momolardan qolgan, ming yillar mobaynida hayot sinovlaridan o'tgan yaxshi udum, odatlar mavjud. Pedagogika fanlari doktori, professor M. Inomova oilaning quyidagi jihatlarini alohida ajratib ko'rsatgan:

- birinchidan, oila o'ziga xos va takrorlanmas ta'sirga ega;
- ikkinchidan, oila bola uchun o'ziga xos «ko'zgu» bo'lib, ota-onaning shaxsiy namunasi, ibrati bola tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi;
- uchinchidan, oila o'ziga xos hissiyotlar olamidani iborat bo'lib, unda ijobiy va ba'zan salbiy his-tuyg'ular jamuljam bo'ladi;
- to'rtinchidan, oila sharoitida bolalarda o'zgalarga nisbatan hamdardlik tuyg'ulari ham tarbiyalanadi;
- beshinchidan, oiladagi maishiy turmushda bolaning ishtirok etishi ham axloqiy tarbiyaning muhim omili sanaladi;
- oltinchidan, oila – er-xotinlik, ota-onalik vazifalarini aks ettiradi. Ota-onaning bir-biriga bo'lgan muhabbati bolaga ta'sir ko'rsatadigan asosiy tarbiyaviy omillardan biriga aylanishi mumkin⁴⁸.

Demak, oila – tarbiyaviy jamoa va hech kim hech qanday holatda oilaning vazifasini bajara olmaydi.

Oila hayoti ko'p tomonlamali munosabatlar bilan tavsiflanadi: ijtimoiy-biologik, xo'jalik-iqtisodiy, axloqiy, psixologik. Oila rivojining har bir bosqichi bir funksiyasining tugashi, boshqasining paydo bo'lishi, uning a'zolarining ijtimoiy faoliyatining o'sib borish ko'lamini va tavsifi bilan bog'liq. V.A. Slastenin, I.F. Isayev, E.N. Isayevlarning fikricha, oila jamiyat va odamlarga munosabati bo'yicha muhim ijtimoiy ahamiyatga ega funksiyalarni bajaradi.

Bolalarni maktabga tayyorlashda oilaning o'rni Bolalarni maktabga tayyorlashda oila alohida ahamiyat kasb etadigan maskandir. Bola tarbiyasi oilaning barcha a'zolaridan na-

48. Inomova M. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi – T., 1999. – 20–21-b.

faqat bolalarga nisbatan to'g'ri munosabatni, balki ularning taqdiri uchun yuksak ma'suliyat hissini ham talab qiluvchi qiyin va murakkab ishdir.

Oila bolani maktabga tayyorlashda tarbiyani har tomonlama, jumladan ma'naviy, axloqiy, aqliy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyalarini birgalikda olib borish yaxshi samara beradi.

Ma'naviy tarbiyani bolaga o'tmishda Vatan ravnaqi, el-yurt tinchligi va farovonligi yo'lida kurashgan xalq qahramonlari haqida gapirib berish, davlatimizning ramziy belgilari bilan tanishtirish, mustaqillik, Vatan haqidagi she'r va qo'shiqlarni yod oldirish, qadriyat va an'analarimizni o'rgatish orqali singdirish mumkin.

Oilaviy tarbiya jarayonida shaxsning bir qator *axloqiy* jihatlari shakllanadi-ki, boshqa hech qaysi tarbiya obyekti oiladagidek yuqori natija bermaydi. Ularga insonparvarlik, mehr-muruvvat, rahm-shafqat, hamdardlik, muomala madaniyati, burchi va sadoqat, minnatdorchilik kabi insoniy fazilatlar kiradi.

Kelajak avlodga *estetik tarbiya* berishda ham oilaning muhim o'rni bor. Oila davrasida qo'shiqlar kuylanishi, biror ertak yoki asarni oila davrasida o'qish, birga spektakl va kino ko'rish va tahlil qilish, kiyinish madaniyatini shakllantirish, uyda gullar parvarish qilish, rasm solish va hokazolar bolaning estetik tarbiyasini shakllantirishdagi jihatlardir.

Ota-onalar voyaga yetayotgan farzandlarining *jismoniy barkamolligiga* o'ta ma'suliyat bilan qarashlari lozim. Masalan: ertalabki badantarbiya mashqlarini bolalar bilan birgalikda bajarish, to'g'ri va vitaminlashtirilgan ovqat berish, dam olishni, uyquni to'g'ri tashkil etish, vaqtda shifokor nazoratidan o'tkazishlari zarur.

Bola hayotida *mehnat tarbiyasi* muhim sanaladi. Bolalarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalashga, ularda mehnat qilish odobini shakllantirish va ko'nikmalar hosil qilishda ularning qiziqishlari hisobga olingandagina erishiladi. Ota-onalar bolani maktabga tayyorlashda unda mehnat ko'nikma va malakalarini hosil qilishga, mehnatga ehtiyojni tarbiyalashga, boshqalarning mehnatini qadrlashga, mehnat natijalarini extiyot qilishga o'rgatishga jiddiy e'tibor berishlari lozim. Mehnat bolalarda uyushqoqlik, diqqat, saranjom-sarishtalikni tarbiyalash, shuningdek maqsadga erishishda sabot va matonat kabi iroda xususiyatlarini rivojlantirish vositasidir.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni oilada tarbiyalashni, ota-onalar bilan hamkorlikni bundan keyin yanada takomilishtirish yo'llarini izlab topish oilaviy tarbiyaning ijtimoiy tarbiya bilan aloqasini

mustahkamlash maktabgacha tarbiya muassasalari xodimlari, pedagog omillar, bu sohada ilmiy ish olib boruvchi tadqiqotchilar va uslubchilarning muhim vazifasidir.

Bolalarni tarbiyalash davlat ahamiyatidagi vazifadir. Uning to'g'ri hal qilinishi tarbiya ishining quyilishiga kompleks yondoshishga tarbiyaviy muassasalarning, oila va jamiyatchilikning to'liq o'zaro ta'siri va harakatlarning birligiga bog'liq.

Bolalar maktab ta'limiga tayyorgarligiga ta'sir etuvchi omillar xaqida gapirar ekanmiz, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni oilada tarbiyaning ota-onalar bilan hamkorlikda, bundan keyin yanada takomillashtirish yo'llarini izlab topilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Oilaviy tarbiyaning ijtimoiy tarbiya bilan aloqasini mustahkamlashda maktabgacha tarbiya muassasasi xodimlarining, pedagog olimlar, bu sohada ilmiy ish olib boruvchi tadqiqotchi va uslubistlarning o'rni juda ham kattadir.

Maktabgacha ta'lim muassasining oila bilan ishlash shakllari

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta'limni uyda ota-onalarning mustaqil ta'lim berishi orqali yoki doimiy fa-

oliyat ko'rsatadigan maktabgacha tarbiya muassasalarida, shuningdek maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb qilingan bolalar uchun bolalar bog'chasida, maktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi. Bola kunning asosiy qismini maktabgacha ta'lim muassasasida o'tkazsa ham, inson kamoloti uchun eng muhim bo'lgan omillardan biri tarbiyaning tamal toshi oilada qo'yiladi. Shu sababli ham maktabgacha pedagogikaning asosiy maqsadi bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga har tomonlama tayyorlashda maktabgacha ta'lim muassasasi bilan oila hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarining oila bilan ishlash tizimida aniq maqsad, mazmun bo'lishi kerak. Maktabgacha ta'lim muassasasining ota-onalar bilan ishlashida keng aholi ommasi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil qilish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishish mumkin. Maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlari ota-onalar va oila bilan hamkorlikdagi ishlaridan eng keng tarqalgan shakl va usullarini keltiramiz:

• *Ota-ona va oila bilan yakkama-yakka ishlash.* Bunda oilaga tarbiyachining borishi, ota-onalar uchun suhbat o'tkazish, ularga maslahat berish, ota-onalarni bolaning maktabgacha ta'lim muassasadagi hayoti bilan tanishtirish kabilar kiradi.

• *Ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar.* Bular ota-onalarning guruhiy va umumiy majlislari, ota-onalar maktabi, anjumanlar, shanbaliklar, savol-javob kechalari.

• *Ko'rsatmali ishlar* – ishning bu turi: ko'rgazmalar uyushtirish, bolalarning ishlarini namoyish qilish, ochiq eshiklar kuni, ota-onalar burchagi, ota-onalar uchun kutubxonalar tashkil qilish.

• *Bolaning oilasini borib ko'rish va oila a'zolari bilan yaqindan tanishish.*

• Ota-onalarga pedagogik ta'lim berish va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Pedagogik adabiyotlarda maktabgacha ta'lim muassasasining oila bilan olib boradigan ishlarining ikki asosiy shakli ajratib ko'rsatiladi: *jamoaviy va individual.*

Maktabgacha ta'lim muassasasining oila bilan boradigan ishlarining jamoaviy shakllariga quyilagilar kiradi:

- pedagogik ma'ruzalar;
- pedagogik majburiy o'qish;
- pedagogik ta'lim universitetlari;
- yillik ilmiy-amaliy konferensiya;
- ochiq eshiklar kuni yoki ta'lim muassasasida ota-onalar kuni;
- ota-onalar majlisi.

Pedagogik ma'ruzalar ota-onalarning e'tiborini tarbiyaning zamonaviy muammolariga qaratishni maqsad qilib qo'yadi. Mazkur shakl ota-onalarni tarbiya nazariyasi asoslariga doir tizimli bilimlar bilan qurollantirishni talab etadi.

Pedagogik majburiy o'qishni ilk yosh guruhdanoq ota-onalar bilan boshlash lozim, chunki ayni shu paytda maktabgacha ta'lim muassasasiga, pedagogik ma'rifatparvarlikka munosabat paydo bo'ladi. Agar birinchi mashg'ulotni maktabgacha ta'lim muassasasi mudiri o'tib bersa, juda yaxshi bo'ladi. Pedagogik majburiy o'qishda parallel guruhlar bir-lashtirilishi ham mumkin.

Ko'pgina ta'lim muassasalarida ota-onalar uchun pedagogik ma'ruzalar va majburiy o'qish bilan taqqoslaganda, ota-onalarning tarbiya nazariyasini egallashlari bo'yicha murakkab ish shakllaridan biri hisoblangan *pedagogik ta'lim universitetlari* ishlaydi. Mashg'ulotlar ham ma'ruza, ham seminar tarzida tashkil etiladi. Albatta, hamma ota-onalar auditoriyasi bunday ish shakliga tayyor emas. Tez-tez ta'lim muassasalarida bunday

“universitet” tizimi ishlari soddalashlashtirib turiladi, nomi o‘zgarmasdan qolsa ham, mazmuniga o‘zgartirishlar kiritiladi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiya muammolari bo‘yicha ota-onalarning an’anaviy *yillik ilmiy-amaliy anjumani* shakllantiriladi. Oila tarbiyasiga doir dolzarb muammo aniqlab olinadi. Maktabgacha ta’lim muassasasi va oilada butun yil davomida uni nazariy va amaliy o‘rganish amalga oshiriladi. Shundagina anjuman haqiqatdan ham yakuniy bo‘lishi mumkin.

Ochiq eshiklar kuni yoki maktabgacha ta’lim muassasasida ota-onalar kuni juda katta tayyorgarlikni talab etib, odatda uni bolalar bir guruhni tugallab, keyingi bosqichga o‘tishlariga mo‘ljallanadi. Maktabgacha ta’lim muassasasi maxsus jihozlanadi, navbatchilar belgilanadi, ajoyib bayram dasturi tayyorlanadi.

Bayramni o‘tkazishning namunaviy tuzilishi:

- majlislar zalida o‘ttiz daqiqa davomida turli guruh ota-onalari uchun maktabgacha ta’lim muassasasi faol tarbiyalanuvchilarining chiqishlari tashkil etiladi, eng yaxshi guruh va alohida tarbiyalanuvchilar belgilanadi;

- guruhlar bilan tanishish (tarbiyalanuvchilar ota-onalarga qanday yashayotganliklari, qanday ta’lim olayotganliklari, nimani o‘rganganliklari, o‘zlarining ko‘nikma va malakalarini namoyish etishadi; katta va tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari suvenirlar tayyorlashadi va ota-onalarga topshirishadi);

- ko‘rgazmalarga tashrif buyurish: “Eng yaxshi rasmlar”, “Eng yaxshi qo‘lda bajarilgan ishlar”, “Kichik musavvirlar va konstruktorlar” va boshqalar;

- ota-onalar qo‘mitasi sovrini uchun tashkil etilgan sport musobaqalari;

- tarbiyalanuvchilarning badiiy film ko‘rishi;

- ota-onalar uchun film namoyish etish.

Albatta bunday ochiq eshiklar kunini o‘tkazish variantlari ko‘p. Eng asosiysi – maktabgacha ta’lim muassasasida olib borilayotgan ishlarni namoyish etish, ota-onalarning e’tiborini tarbiyaviy masalalarga qaratish.

Ota-onalar majlisi – an’anaviy, hammaga yaxshi ma’lum ish shakli. Shu bilan birga bugun majlis o‘tkazish uslubikasi uni takomillashtirishni talab etadi. Guruh majlisini tashkil etishga yondashuvlardan biri – majlis mavzularini muammoli tarzda shakllantirish: “Qiyinchiliklardan qochish yoki ularni chetlab o‘tish boallarni tarbiyalashga yordam beradimi?”, “Rahmdil, g‘amxo‘r qilib tarbiyalashni kechiktirish mumkinmi?”,

“Bolalardagi dangasalikni qanday yo‘qotish kerak?”, “Bolalarni o‘zini-o‘zi tarbiyalash ishlariga qanday jalb etish kerak?” Faqatgina muammo shakllantirilib qolmasdan, o‘tkazish uchun qiziqarli ham bo‘lishi kerak.

Maktabgacha ta‘lim muassasasining oila bilan olib boradigan ishlarining *individual shakllariga* esa quyidagilar kiradi:

- oilaga tashrif buyurish;
- pedagogik topshiriq;
- pedagogik maslahat.

Individual ish shakllari ota-onalar bilan ishlashda muhim o‘rin tutadi. Individual ish shakllaridan biri – *bola oilasiga tashrif buyurishdir*. Bu shakl tarbiyachi va ota-onalarga juda yaxshi ma‘lum, biroq ikki holatda tashrif buyurish to‘xtatilishi zarur.

Oilaga tashrif buyurish oldindan kelishilgan holda amalga oshirilishi zarur. Statistik ma‘lumotlarga qaraganda, bugun 90% bolalar ota ham, ona ham ishlaydigan oilalarda tarbiyalanadi. Demak, har qanday vaqt ham tarbiyalanuvchiga tashrif buyurish uchun qulay emas. Noo‘rin tashrif buyurish biror ish bilan mashg‘ul bo‘lib turgan ota-onalarda norozilik uyg‘otishi mumkin. Ba‘zan shunday ham bo‘ladiki, tarbiyachi uyga borganda kim bilan suhbatlashishni ham rejalashtirmaydi. Oila tarbiyasiga doir qator tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, “taklif bo‘yicha tashrif buyurish” tarbiyachining oilaga tashrif buyurishiga nisbatan tarbiyalanuvchilarning salbiydan ijobiy, faolgacha bo‘lgan radikal munosabatlarini o‘zgartiradi.

Bola oilasi bilan aloqalarni o‘rnatish shakllaridan biri dastlabki *pedagogik topshiriqni* bajarish jarayonidagi ota-onalar va tarbiyachining muloqotida aks etadi. Pedagogik topshiriqning bir necha turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Bolalar bilan uzluksiz (yakka, guruhiy, jamoaviy) ishlash, faol tarbiyaviy nuqtayi nazarni talab etuvchi topshiriq: bolalarning qiziqishlari bilan bog‘liq to‘garaklarga rahbarlik qilish va boshqalar. Tarbiyachiga tashkiliy yordam ko‘rsatishni talab etuvchi topshiriq: ekskursiyani tashkil etishga yordamlashish (transport, yo‘llanma bilan ta‘minlash); taniqli kishilar bilan uchrashuvlarni tashkil etishga ko‘maklashish; guruh xonasini jihozlashga yordamlashish. Xo‘jalik vazifalarini hal etishga qaratilgan, ta‘lim muassasasining moddiy bazasini rivojlantirish va mustahkamlashni talab etuvchi topshiriq: xonalarni jihozlash, o‘quv jihozlari va qurollarini tayyorlashda ishtirok etish; ta‘mirlash ishlariga yordam berish.

Pedagogik topshiriqlarning sanab o'tilgan mazkur turlari ota-onalarning ijtimoiy ishlarining barcha turlarini qamrab olmaydi. Ota-onalarga ular nima bilan shug'ullanishni xohlayotganliklari bo'yicha savol bilan murojaat qilish va anketa to'ldirishni taklif etish mumkin.

Pedagogik maslahat asosida ota-onalarning savollariga javob berish asosiy o'rin egallaydi. Maslahatning pedagogik-psixologik shartlari o'zida tarbihi va psixologning ota-onalarning tashabbuslariga ijobiy munosabati, oilaga yordam ko'rsatishga tayyor turish, ota-onalarda paydo bo'lgan savollar bo'yicha aniq tavsiya va maslahatlar berishni aks ettiradi.

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni

Maktabgacha ta'lim muassasasida ota-onalar bilan ishlash bo'yicha yillik reja tuziladi. Bu reja pedagogik kengashda muhokama qilinadi. Rejada umumiy va guruh majlislar, ota-onalar uchun ochiq eshik kunlari, suhbat va maslahatlar, otaliq tashkilotlarida ko'rgazmalar tashkil etish va konsertlar qo'yib berish, shuningdek bu tadbirlarni o'tkazish vaqtlari va unga ma'sul bo'lgan shaxslar belgilanadi.

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mavzulari va mazmuni tarbiyachi-uslubistning rejasida va tarbiyachining kalendar rejasida aks etadi.

Ota-onalar bilan ishlash bo'yicha juda ko'p ishlarni tarbiyachi-pedagog amalga oshiradi, chunki u bola tarbiyasida yuz berayotgan o'zgarishlarni hammadan ko'proq ko'radi va bolalar hayoti bilan yaqindan tanish bo'ladi. U ota-onalarga bolalar tarbiyasida nimalarga ko'proq e'tibor berish kerakligi, ularni maktab ta'limiga tayyorlash, sog'lig'ini saqlash, ovqati va kun tartibini to'g'ri tashkil etish va boshqalar sohasida tavsiyalar berib boradi.

Tarbiyachilarning ota-onalar bilan olib boradigan ishlari shakl va uslublarini tavsiflashdan oldin ularning o'zaro birgalikdagi faoliyati va oila bilan aloqalarni yo'lga qo'yish usullarining ba'zi psixologik-pedagogik ta'sirlariga to'xtalib o'tish lozim.

Birinchi qoida. Maktabgacha ta'lim muassasasi va tarbiyachilarning oila va jamoatchilik bilan olib boradigan ishlari asosida ota-onalarning obro'sini oshirish va mustahkamlashga yo'naltirilgan harakat va tadbirlar turishi kerak. Ota-onalar bilan maslahatlashganda, hech vaqt "qilishingiz kerak". "majbursiz" kabi jumalarni ishlatmaslik ma'qul. Chunki ko'pchilik ota-onalar o'z majburiyatlarini yaxshi biladilar, faqat amali-

yotda ular ana shu bilganlarini qanday amalga oshirish muammosiga duch kelishlari mumkin. Tarbiyachi va ota-onalarning o‘zaro munosabatlarining yagona to‘g‘ri shakli – bu o‘zaro hurmat. Qachonki, nazorat shaklida tajriba almashish, maslahat va birgalikda muhokama, yagona qaror shakllantirilsa, ikkala tomon uchun ham qoniqish hosil qiladi. Bunday munosabatlarning qimmatini shundaki, tarbiyachilarda ham, ota-onalarda ham shaxsiy javobgarlik hissin, talabchanlik, fuqarolik burchini rivojlantiradi.

Ota-onalarning ish joylariga “Rivojlanish xaritasi”, “Ochiq jurnal” kabilarni olib borish kutilgan natijalarni bermaydi. Ota-onalar bilan suhbatda “qora ro‘yxat”dagi ma’lumotlardan foydalanish ham yaxshi foyda bermaydi, chunki birinchidan, ota-onalarda bolalaridan norozilik paydo bo‘ladi, ikkinchidan ta’lim muassasasiga nisbatan ularda salbiy munosabat shakllanadi. Keyin ota-onalar ta’lim muassasasiga borgisi kelmasligi, ular bolalari haqida yomon fikr aytganliklari uchun ko‘ngli tortmasligini aytib arz qiladi. Ba’zan bunday holat oilada ota-ona munosabatlari yomonlashuviga ham olib keladi. Oxir-oqibat bolada ta’lim muassasasiga nisbatan ham, tarbiyachilarga nisbatan ham salbiy munosabat hosil bo‘ladi. Tarbiyachi tarbiyaviy ish shakl va uslublarini tanlashda qabul qilingan qaror va talab bolalar ko‘z oldida ota-onaning obro‘cini mustahkamlash va oshirishga imkon berishini hisobga olishi kerak.

Ikkinchi qoida. Ota-onalarning tarbiyalovchi imkoniyatlariga ishonish, ularning pedagogik madaniyati darajasi va tarbiyalashdagi faolligini oshirish. Ko‘pchilik ota-onalar psixologik jihatdan barcha talablarni qabul qilishga tayyor bo‘lishsa ham, biroq shunday ota-onalar bor ki, bolalarni tarbiyalashga mas’uliyat bilan yondashish va bu jarayonni chuqur tushunishga doir yetarlicha ma’lumotga va pedagogik tayyorgarlikka ega emas.

Uchinchi qoida. Pedagogik takt, oila hayotiga nojo‘ya aralashishga yo‘l qo‘yilmasligi. Tarbiyachi – rasmiy shaxs, biroq u o‘z faoliyatida oila hayotining maxfiy tomonlariga, “boshqalar”dan sir saqlanadigan tomonlariga ham daxldor bo‘ladi. Yaxshi tarbiyachi oila uchun begona bo‘lmaydi. ota-onalar yordam qidirganlarida ularning bu vaziyatdan chiqishlariga ishonadi, maslahat beradi. Oila qanday bo‘lishi, ota-onalar tarbiyachilar bilan qanday bo‘lishlariga qaramasdan, tarbiyachi hamma vaqt uddaburon, yordamga tayyor bo‘lishi kerak. Oila haqidagi hamma narsaga yaxshi tomondan e’tibor qaratishi, tarbiyada ota-onalarga yordam ko‘rsatishi kerak.

To'rtinchi qoida. Oilaviy muammolarni hal qilishga doir qaror qabul qilishda ko'tarinki ruh va kayfiyat, bolaning ijobiy sifatlari, oila tarbiyasining kuchli tomonlari, shaxsni muvaffaqiyatli rivojlantirishga tayanish. Tarbiyalanuvchining xarakterini shakllanishi qiyinchiliklarsiz, qarama-qarshiliklarsiz kechmaydi. Agar bu jarayon shaxs rivojlanishi qonuniyatining namoyon bo'lishi sifatida idrok etilsa, u holda mazkur qiyinchilik, qarama-qarshilik, kutilmagan natijalar tarbiyachining sarosimaga tushib qolishiga olib kelmaydi. Hammamizga yaxshi ma'lumki, yuzaga kelgan pedagogik vazifalarni hal etishning o'nlab usullari mavjud, biroq ulardan faqat biri mazkur aniq vaziyat uchun to'g'ri bo'lib chiqadi. Ana shuning uchun ham maktabgacha pedagogikaga tayyor ko'rsatma sifatida emas, shaxsga samarali ta'sir etishning umumiy qonuniyatlari haqidagi fan sifatida qarash kerak.

Maktabgacha ta'lim muassasasi va oila o'rtasida hamkorlik o'rnatishda mudira, pedagoglar jamoasi va ota-onalar birgalikda faol ishtirok etishlari lozim. Shundagina bola tarbiyasida kutilgan natijalarga erishish mumkin.

Ota-onalar bilan ishlashda quyidagi alohida ish shakllaridan foydalaniladi: suhbatlar, maslahatlar, oilalarga borish, ayrim ota-onalarni bog'chaga taklif etish, alohida esdaliklar va ko'chma papkalardan foydalanish.

Bolaning uyiga borishdan ko'zlangan maqsad-oila sharoiti, bolaning oiladagi xulqi, qiziqishlari, ota-onasi va oila a'zolari bilan tanishish, shuningdek ota-onalarni bola tarbiyasining samarali usullari bilan tanishtirish va oilaning bola tarbiyasidagi ijobiy tajribalarini o'rganib, ommalash-tirishdir.

Tarbiyachi bolaning uyiga tekshiruvchi sifatida emas, balki do'st, bola tarbiyasidek murakkab ishda yordam beruvchi sifatida borishi, oila a'zolari bilan nazokat va xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lishi kerak. Tarbiyachi har bir oilaga har gal borishidan avval o'z oldiga aniq maqsad qo'yishi, qaysi mavzuda suhbatlashishini oldindan belgilab olishi lozim. Ota-onalarga beriladigan savollar puxta o'ylangan bo'lishi kerak.

Suhbat shunday tuzilishi kerakki, tarbiyachi bilan ota-ona bir-birlarini yaxshi tushunishlari, ular o'rtasida ishonchli aloqa o'rnatilishi darkor. Oilaga borishdan oldin tarbiyachi shu oila to'g'risida (ota-onalarning fe'l-atvori, oilaviy munosabatlar, bolaning rivojlanish darajasi) to'g'risida ma'lum tasavvurlarga ega bo'lishi kerak. Tarbiyachi ota-onalar hurmati va ishonchini qozonmoq uchun avval ota-onalarga bolaning ijobiy

fazilatlarini to'g'risida fikr, mulohazalarini bilib oladi va bolaning uyidagi hayotini qanday tashkil etish kerakligi, unga nimalarni o'qib va hikoya qilib berish mumkinligi, bolaning kun tartibi, uni oila mehnatida qatnashtirish, kattalarga hurmat ruhida tarbiyalash kabi ta'lim-tarbiya ishlari mazmuni va usullari bo'yicha tavsiyalar beradi.

Albatta, tarbiyachining oila bilan olib boradigan ishida bolaning yoshi, imkoniyatlari, o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olinadi.

Tarbiyachining ota-onalarga beradigan tavsiya va maslahatlari ishonarli bo'lishi uchun ota-onalar yoki oilaning boshqa a'zolari maktabgacha ta'lim muassasasiga taklif qilinadi. Bunda ota-onalar bolaning navbatchilik vazifasini qanday bajarayotganini yoki sayrga chiqishdan avval u qanday kiyinayotganini ko'radilar va bolalarining uquv va imkoniyatlariga ishonch hosil qiladilar.

Oilaga borishning maqsad va mazmuni tarbiyachining rejasi va hisobotida, kundalik daftarida aks ettirilishi kerak. Tarbiyachi har bir bolaning oilasiga yiligi kamida 2 marta borishi kerak.

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni rang-barang bo'lib, unda ayrim masalalar birgalikda muhokama qilinishi taqozo etadi. Masalan:

- bolalarni tarbiyalashda oilaning roli, ota-onalarning vazifasi to'g'risidagi qonunlar, bolalarni maktabga tayyorlash haqida;
- maktabgacha tarbiya muassasalarining yillik ish rejasi to'g'risida;
- ota-onalar jamoatchiligining ishi haqidagi masalalar shular jumlasidandir.

Bu masalalarni jamoa bo'lib muhokama qilish uchun ota-onalarning guruhi va umumiy majlislari, maslahatlar, konferensiyalar, ota-onalar kechalari kabi ish shakllari jamoa ish shakllariga kiradi.

Ota-onalar majlisi. Ota-onalar majlisiga bog'chadagi hamma guruh bolalarining ota-onalari, parallel guruhlar ota-onalari va bitta guruh bolalarining ota-onalari taklif etilishi mumkin.

Umumiy majlisda ota-onalarni maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish va tarbiyalash vazifalari, shu yilgi rejalar, ota-onalar qo'mitasining faoliyati, oila tarbiyasidagi ilg'or tajribalar bilan tanishtiriladi. Bunda majlisda mudira yoki uslubist-tarbiyachi ma'ro'za qiladi, ota-onalar so'zga chiqishadi, bolalar gapirishadi. Bular ta'lim-tarbiya ishidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlab olishga imkon beradi, oila va jamoatchilik aloqasini mustahkamlaydi, ota-onalarning

o'z bolasining tarbiyasi uchun javobgarligini oshiradi, ularda bog'chaga qiziqish uyg'onadi.

Guruhdagi ota-onalar majlisida mazkur guruhdagi bolalarning ota-onalari uchun dolzarb bo'lgan masalalar muhokama qilinadi.

Masalan, umumiy majlis mavzusi «Bolalarga axloqiy tarbiya berishda oilaning roli» bo'lsa, o'rta guruhda o'tkaziladigan majlisda bu mavzu murakkablashtirilib, «Bolalarda mehnatsevarlikni tarbiyalashda bog'cha va oilaning birgalikdagi ishlari», «Bolalarda kattalarga hurmatni tarbiyalash» va hokazo bo'lishi mumkin.

Ota-onalar uchun tayyorlangan ma'ruzani, tegishli mavzudagi kinofilm, diapozitivlar ko'rish bilan qo'shib olib borish mumkin. Bolalar hayoti, faoliyati to'g'risidagi misollardan foydalanganda ijobiy materiallar ko'proq bo'lishi kerak. salbiy faktlarni gapirishda ehtiyotkorlik va odob doirasidan chetga chiqmaslik, tanqid qilinuvchilarning nomlari ko'rsatilmasligi lozim. Tanqidiy mulohazalar majlisdan keyin yakka tartibdagi suhbat orqali ota-onalarga yetkazilishi, bola tarbiyasidagi xato va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha aniq tavsiyalar taklif etilishi mumkin.

Yilning oxirida o'tkaziladigan guruh majlisida ota-onalarga bir yil mobaynida amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya ishlari va kelgusi yilning rejalari, haqida gapirib beriladi. Bu majlisda faol ota-onalar ham hisob beradilar va faollarning yangi tarkibi saylanadi.

Ota-onalar burchagi va ko'rgazma tashkil etish. Ota-onalar burchagi ularni tarbiyaga oid yangiliklar va pedagogik masalalar bilan tanishtirish maqsadida tashkil etiladi. Ularga kitoblar, jurnallar, rasmlar, bolalarning ishlari, bolalar ovqatining xillari, bolaning uyidagi va oiladagi kun tartibi, ota-onalar uchun eslatmalar, e'lonlar joylashtiriladi. Burchak vaqti-vaqti bilan tarbiya vazifasiga qarab o'zgartirib turiladi.

Pedagogik bilimlarni targ'ib qilish bo'yicha tashkil etiladigan ko'rgazmalar ko'pincha ota-onalar konferensiyalari, majlislari, konsultatsiyalar oldidan tashkil etiladi. Unda xalq ta'limiga oid to'g'risidagi qonun va qarorlar, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmoqlari va undagi tarbiyalanuvchilar sonining o'sishini ko'rsatuvchi diagrammalar, bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonlari, bolalar hayotini aks ettiruvchi tasvirlar, kitob va o'yinchoqlar, bolalarning ishlari o'rin oladi. Ota-onalar burchagi oila bilan olib boriladigan ishning ko'rgazmali usuli, uning did bilan bezatilishiga alohida e'tibor berilishi kerak. Bundan tashqari,

ota-onalarga tarbiya to'g'risidagi filmlar namoyish etiladi, bular ko'pincha ota-onalarni qiziqtiradigan bahslar boshlanishiga sababchi bo'ladi.

Ota-onalar uchun ochiq kunlar tashkil etilishi ham maktabgacha ta'lim muassasalari ishida muhim o'rin egallaydi. Bunday kunlarda ota-onalarga bolalarning mashg'ulotlari, mehnat, o'yin faoliyatlari, sayrlar va bolalarning jamoada o'zlarining qanday tutushlari va shunga o'xshashlar ko'rsatiladi.

Ota-onalar qo'mitasi. Ota-onalar qo'mitasi «Maktabgacha ta'lim muassasasining Ustavi»ga binoan mudiraga yordam berish uchun tuziladi. U ota-onalarning umumiy majlisida bir yil muddatga saylanadi. Bu qo'mitaga har bir yosh guruh ota-onalaridan 1–2 vakil saylanadi. Qo'mitaning asosiy vazifasi mudiraga maktabgacha ta'lim muassasasining xo'jalik va ta'lim-tarbiya ishlarida yordam berish, qo'mita a'zolari, ota-onalar majlisi va kechalarni tayyorlash, o'tkazish va boshqa ishlarda tarbiyachilarga ko'maklashishdir.

Ota-onalar qo'mitasi bolalarning ota-onalari bilan tanishadi, bolalarni tayyorlash bo'yicha ular bilan ish olib boradi. Qo'mita a'zolari har ikki oyda bir marta yig'ilish o'tkazadi. Ota-onalar qo'mitasi mudiraning ish rejalari va ishning ahvoli to'g'risidagi ota-onalarni qiziqtiruvchi ba'zi masalalar haqidagi ma'ruza va hisobotni eshitishga haqlidir.

Ota-onalar qo'mitasining faoliyati haqidagi hujjatlar maktabgacha ta'lim muassasasida saqlanadi.

Aholi o'rtasida pedagogik bilimlarni targ'ib qilish. Pedagogik bilimlarni targ'ib etish natijasida millionlab kishilar bolalarini maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyalash prinsiplarini ongli ravishda anglab oladilar.

Korxonalarda, xo'jaliklarda, jamoa joylarida, mahallalarda oilada bola tarbiyasi to'g'risida ma'ruzalar bilan chiqish, televideniya va radio eshittirishlar, pedagogik targ'ibot ishining keng vositalaridandir. Shuningdek, bu targ'ibot vaqtli matbuot: «Maktabgacha ta'lim», «Xalq ta'limi», «Pedagogik ta'lim» jurnallari, ko'p sonli badiiy pedagogik, ilmiy ommabop va uslubik adabiyotlarni chiqarish orqali ham amalga oshiriladi.

Ota-onalar uchun maxsus pedagogika va ruhshunoslik, anatomiya va fiziologiya, oila tarbiyasi nazariyasi va amaliyoti to'g'risida ma'ruzalar o'qish, bolalar tarbiyasi to'g'risida kinofilm va spektakllar namoyish qilish.

Bu mashg'ulotlarni har xil sohalar bo'yicha yuqori malakali tarbiyachi, aktyor, ruhshunos mutaxassislar olib boradilar.

Pedagogik targ'ibot ishida quyidagilarga amal qilish kerak:

1. Pedagogik targ'ib hayot, jamiyat qurilishi amaliyoti bilan bog'lab olib borilishi lozim. Pedagogik targ'ibot orqali keng jamoatchilikka bolalarni har tomonlama tarbiyalash masalalari va ularni amalga oshirish yo'llari, ilmiy asoslangan usullari bo'yicha tushuntirish ishlari olib boriladi.

2. Oila tajribasidagi ijobiy tajribalar, oiladagi bola tarbiyasida yo'l qo'yilgan xatolar va ularning oldini olish, bartaraf etish yo'llari to'g'risida targ'ibot ishlari olib boriladi.

3. Pedagogik targ'ibotga tayyorlashda ota-onalar xar xil saviyada ekanliklari hisobga olib, ular uchun tayyorlangan axborot materiallari ishonarli, ko'rgazmali va ularning xis-tuyg'usiga ta'sir ko'rsatadigan bo'lishi kerak.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim muassasasi va ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini muntazam ravishda olib borgandagina oila tarbiyasi va ijtimoiy tarbiya o'rtasida birlik o'rnatilishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim muassasasida ota-onalar uchun kechalar va to'garaklar uyushtirishning ahamiyati

Maktabgacha ta'lim muassasasida ota-onalar bilan ishlashning eng samarali shakllaridan biri ochiq eshiklar kunidir. Maktabgacha ta'lim muassasasi ishining butun murakkabligi, ko'p qirraliligini va uning bolalar tarbiyasidagi ahamiyatini tushunish uchun hamma ota-onalar maktabgacha ta'lim muassasasida bo'lib turishlari kerak.

Ochiq eshiklar kuni jamoaning o'z kalendar yillik rejasi bo'yicha, har bir yoshdagi guruhning ma'lum rejimi bo'yicha odatdagi mehnat kunidir. Bunday kunlarni yiliga 1-2 marta o'tkazish tavsiya qilinadi.

Ochiq eshiklar kunini o'tkazish mo'ljallanganda avval tayyorgarlik ishini o'tkazish zarur, ya'ni ota-onalarga bolalarni jismoniy chiniqtirish, ovqatlantirish, mashg'ulotlarning borshi, sayr qilish va boshqa ko'pgina narsalarni ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishlari haqida ma'lum qilinadi. Ota-onalarga esa quyidagilarni eslatiladi: bolalar bilan oddiy munosabatda bo'lish, ularning faoliyatida imkoni boricha ishtirok etish, tarbiyachi mashg'ulot o'tkazayotganda bolalar diqqatini chetga tortmaslik, o'zining farzandiga hatto u diqqat qilmayotgan yoki biror narsani noto'g'ri

qilayotgan bo'lsa ham tanbeh bermaslik, o'z taassurotlarini, fikrlarini ko'rik tugagandan so'ng bolalar ishtirokisiz aytish mumkinligi kabi odob qoidalariga rioya qilishni iltimos qilinadi.

Ochiq eshiklar kunini o'tkazishga tayyorlanayotganda fotosuratchini taklif etish, keyinchalik esa «Ota-onalar bizning mehmonimiz» yoki «Bizda ochiq eshiklar kuni» mavzuida fotoko'rgazma tashkil etish mumkin. Bu ko'rgazma maktabgacha ta'lim muassasasiga shu kun tashrif buyurmagan ota va onalarda ancha qiziqish uyg'otadi.

Bolalarni tarbiyalash san'ati haqida ma'ruza va suhbatlar siklini tashkil etish mumkin. Masalan, respublikamiz, viloyatlar, tumanlar va mahalladagi namunali oilalardan tanlab olib, oilalarda ota-onalar qarashidagi birlik, o'zaro munosabatda rostgo'ylik, samimiylik va mehnatsevarlik yuqori axloqiy g'oyalarni shakllantiradi mazmunidagi suhbat va ma'ruzalarni o'tkazib turish samara beradi.

Ota-onalar bilan maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlarining birgalikdagi faoliyatini tashkil etish va uning mazmuni maktabgacha tarbiya muassasasi ishlayotgan sharoitlarga bog'liqdir. Birgalikdagi faoliyat kerakli darajada amalga oshiriladigan joyda o'zaro yordam, bir-birini tushunish, topshirilgan ishga javobgarlik holati vujudga keladi.

Maktabgacha tarbiya muassasalarida ota-onalar va boshqa oila a'zolari uchun o'tkaziladigan kechalar mavzuli xarakterga ega bo'lib. «Musiqqa va hayot», «Bola hayotida kitob», «Bola va tabiat» kabi mavzularni tanlash mumkin. Hamkorlikning bu shaklining o'ziga xosligi shundaki, unda qisqacha axborotdan so'ng yig'ilganlarga bolalarning, maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlarining, ota-onalarning badiiy chiqishlarini ko'rish tavsiya qilinadi. Masalan, musiqiy rahbarning chiqishidan so'ng bolalar o'zlari o'rgangan ashula, o'yinlarni bajarishadi, sahnalar ko'rsatishadi yoki biror ertak sahnalashtiriladi.

Bunday kechalar uchun «Bolani qanday sevish kerak?», «Bolalar tarbiyasida otaning roli», «Biz o'z bolalarimizni bilamizmi?», «Savol va javoblar kechasi» va hokazo mavzularni tanlash mumkin.

Ota-onalarning bolalar yozuvchilari, shoirlari, bastakorlari bilan uchrashuvlari foydalidir. Oila bilan ishlashning og'zaki jurnal. yumaloq stol atrofida uchrashuv kabi shakllari yaxshi natija beradi, bunda pedagog, shifokor, huquqshunos va hokazolar ishtirok etadilar. Bolalar tarbiyasida zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishda ota-onalarga yordam berish maqsadida ular uchun qisqa muddatli to'garaklar tashkil etilib,

undagi mashg'ulotlarda bolalar kiyimini bichish va tikishni, to'qishni, turli xil ovqatlar tayyorlashni o'rganishadi. Ular bilan bolalar ashulalari o'rganiladi, yasama o'yinchoqlar tayyorlash san'ati o'rgatiladi va hokazo.

Ota-onalar bilan o'tkaziladigan savol va javob kechalari, ochiq eshiklar kunlari diqqatga sazovordir. Ota-onalarni tanlov xarakteridagi tashkiliy-pedagogik ishlarga jalb qilish, masalan, yumshoq o'yinchoq tayyorlash, suv va qum bilan o'ynash uchun o'yinchoqlar yasash, syujetli-rolli o'yinlar, maydonchalarni ko'kalamzorlashtirish uchun jihozlar tayyorlash muhim tadbirlardir.

Bunday tanlovlar yillik rejada o'z ifodasini topgan bo'lishi kerak. Tanlov shartlarini umumiy ota-onalar majlisida muhokama qilish va ma'qullatib olish kerak.

Faol ishtirokchi ota-onalarga tashakkurnoma e'lon qilib, ish joylariga ma'lum qilish kerak, bundan ular ma'naviy qoniqish oladilar.

Bunday ishlarni o'tkazishda katta yoshdagilarni ham yoddan chiqar-maslik kerak. Buvi va buvalarning amaliy maslahatlari, ularning boy hayotiy tajribalari yosh ota-onalar uchun ham, tarbiyachilar uchun ham qimmatlidir.

? NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Oila tushunchasiga ta'rif bering.
2. Oilaning psixologik, ijtimoiy va iqtisodiy talqinini bayon eting.
3. Qanday asoslarga ko'ra oilaning vazifalarini tasnif etish mumkin?
4. Jamiyatga munosabati bo'yicha oilaning vazifalarini aytib bering.
5. Insonlarga munosabati bo'yicha oilaning vazifalariga nimalar kiradi?
6. Pedagogik-psixologik adabiyotlarda hozirgi zamon oilasining qanday vazifalari ajratib ko'rsatilgan?
7. Oilaning tarbiyaviy funksiyasining mohiyatini tushuntiring.
8. Oila bilan aloqalarni yo'lga qo'yish qoidalarini bayon eting.
9. Maktabgacha ta'lim muassasasining oila bilan olib boradigan ishlarining nechta shaklini ajratib ko'rsatish mumkin?
10. Maktabgacha ta'lim muassasasining oila bilan olib boradigan ishlarining jamoaviy shakllariga nimalar kiradi?
11. Maktabgacha ta'lim muassasasining oila bilan olib boradigan ishlarining individual shakllariga nimalar kiradi?

1. Oilada bolaga qanday tarbiya turlari o'rgatilib boriladi?

- A) Ma'naviy-axloqiy tarbiya
- B) Estetik tarbiya
- C) Jismoniy va mehnat tarbiyasi
- D) Barcha javoblar to'g'ri

2. Maktabgacha ta'lim muassasi oila bilan olib boradigan ishlar qanday shakllarda yo'lga qo'yilgan?

- A) Jamoaviy, individul
- B) Guruh, yakka
- C) Tarbiyachi va ota-ona
- D) Mudira va uslubchi

3. Maktabgacha ta'lim muassasasining oila bilan olib boradigan ishlarning jamoaviy shakllari to'g'ri berilgan javobni aniqlang?

- A) Pedagogik ma'ruza, pedagogik majburiy o'qish
- B) Oilaga tashrif buyurish
- C) Pedagogik topshiriq
- D) Pedagogik maslahat

4. Ota – onalar bilan ishlashda pedagogik maslahat berish shaklining asosi nimadan iborat?

- A) Ota-onalar majlisini o'tkazish
- B) Uyga tashrif
- C) Ota-onalar savollariga javob berish
- D) Ko'rgazmalar uyushtirish

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi /Tuzuvchilar Sh.Qurbonov, H.Saidov, R.Ahliddinov. Nashr uchun mas'ul: T.Risqiev. – T.: «Sharq» NMK Bosh tahririyati, 1999. – 182 b.
2. Karimov. I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: «O'zbekiston», 1997. – 62 b.
3. Karimov. I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: «O'zbekiston», 2009. – 56 b.
4. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili. – T.: «O'zbekiston», 1995. – 24 b.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma'naviyat», 2008. – 173 b.
6. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. – T.: «O'zbekiston», 1997. – 138 b.
7. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi / Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: «Sharq» nashriyot-matbaa konserni. 1997. – 20-29-b.
8. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni / Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: «O'zbekiston», 1997. – B. 31-61.
9. O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2011. – 40 b.
10. «Bolajon» tayanch dasturi. – T.: «Sano-standart», 2010. –229-b.
11. Abdurahimova D. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarni axloqiy ruhda tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish: Ped.fan.nom. ... diss. avtoref. – T.: 1998. – 18 b.
12. Azizova Z. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda qo'g'irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish. – T., 2010. – 90 b.
13. Boboyeva D.R. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o'stirish jarayonida ertaklar asosida atrof-muhit bilan tanishtirish //Ilmiy to'plam. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2000. – 103–105-b.
14. Boboeva D.R. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining asosiy mezonlari // Pedagogik ta'lim j. – T.: 2001. 2-son. 65-66-b.

15. Boboyeva D.R. Tevarak-atrofni o'rganishda maktabgacha katta yoshdagi bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirish: Ped.fan.nomz. ... diss. avtoref. – T.: 2001. – 25 b.

16. Bolalar bog'chasida tarbiyaning mazmuni //Maktabgacha pedagogika. Ikki qismli. 1-qism /V.I.Loginova va P.R.Samorukova tahr. ostida. – T.: «Tarbiyachi», 1991. – 256 b.

17. Гарбузов В. Практическая психотерапия, или как вернуть ребёнку уверенность в себе, истинное достоинство и здоровье. – СПб.: Питер, 1994. – 160 с.

18. Global ta'lim /Tarbiyachilar uchun qo'llanma. – UNISEF, 2003. – 116 b.

19. Дошкольная педагогика /Учебное пособие. Под ред. В.И.Ядэшко, Ф.А.Сохина. – М.: «Просвеёние», 1996. – 413 с.

20. Жумашева Г.Х. Формирование основ культуры обуюение дошкольников на каракалпакском языке (групп с русским языком обучения) средствами театрализованных игр: Дисс. ... канд.пед.наук. – T.: 1996. – 140 с.

21. Касымова Х.И. Использование национальных традиций в нравственном воспитании детей старшего дошкольного возраста в семье.: Автореф. дисс. ... канд.пед.наук. – T.: 2001. – 27 с.

22. Козлова С.А., Куликова Т.А. Дошкольная педагогика. – М.: «АКАДЕМА», 2000. – 416 с.

23. Komilova G.O. Maktabgacha yoshdagi (5–6 yosh) bolalarga ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari / Ped. fan. nomz. ... dis. avtoreferati. – T., O'zPFITI, 2005. – 22 b.

24. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari. – T.: O'zPFITI, 1999. – 23 b.

25. Maktabgacha pedagogika. – T.: «Tarbiyachi», 1991. – 256 b.

26. Maktabgacha ta'limning davlat standarti. – T.: O'zPFITI, 1995. – 39 b.

27. Mahkamova M. Yu. Bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish: Ped.fan.nomz. ... diss. avtoref. – T.: 2002. – 22 b.

28. Mahmudova D.Y. Maxsus ta'lim muassasalari tarbiya-lanuvchilariga psixologik xizmat ko'rsatishning amaliy jihatlari (Uslubik tavsiyanoma). – T.: T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI, 2007. – 9-21-b.

29. Николаева С.Н., Комарова И. Сюжетные игры в экологическом воспитании дошкольников игровые обучающ. ситуации с игрушками разного типа и литератур. Персонаж. Пособ. для пед. дошкольных учреж. – М.: Изд-во «ГНОМИД», 2003. 127 с.

30. Oila pedagogikasi /O.Hasanboyevaning umumiy tahriri ostida. – T.: Aloqachi, 2007. – 384 b.

31. Ochilov.M. Muallim – qalb me'mori. – T.: «Tarbiyachi», 2001. – 429 b.

32. Ochilov M., Ochilova N. Tarbiyachi odobi. – T.: «Tarbiyachi», 1997. – 132 b.

33. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Pedagogika nazariyasi. 1-qism/ Oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. M.X.Toxtaxodjaeva va boshq. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2007. – 379 b.

34. Подготовка детей к школе в детском саду /Под ред. Ф.А.Сохина, Т.В.Тарунтаевой. – М.: «Педагогика», 1997. – 159 с.

35. Rasulova M.SH. Bolalarni maktabga tayyorlash va tayyorligini aniqlash mezonlari. – T.: O'zPFITI, 1994. – 24 b.

36. Тешабоева К.Ф. Подготовка будущ. дошкольных работников к использованию материалов киргизской народной педагогики: Автореф. дисс. ... канд.пед.наук. – Т.: 1994. – 26 с.

37. Tug'ilgan kundan boshlab bir yoshgacha bo'lgan farzandlar tarbiyasi /Ota-onalar uchun uslubiy qo'llanma. M.Solihova va boshq. – T.: TMU, 2003. – 64 b.

38. Туленова Х.Б. Совершенствование физического воспитания детей до школьных учреждений в возрасте 5-7 лет: Автореф. дисс. ... канд.пед. наук. – Т.: 2000. – 26 с.

39. Umarova M. Bolalarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish (Uslubik qo'llanma). – T., TDPU, 2007. – 95 b.

40. Xalilova M.R. Maktabgacha ta'lim muassasalari katta guruh yoshidagi bolalarda ekologik tushunchalarni shakllan-tirishning pedagogik asoslari / Ped. fan. nomz. ... dis. avtoreferati. – T.: O'zPFITI, 2006. – 20 b.

41. Yusupova P. Maktabgacha pedagogika. – T.: «Tarbiyachi», 1993. – 264 b.

42. Yusupova P. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish. – T.: «O'zbekiston», 1995. – 224 b.

43. G'oziyev E. Tafakkur psixologiyasi / Dorilfununlar talabalari uchun qo'llanma. – T.: «Tarbiyachi», 1990. – 184 b.

44. Hasanboev J., Turopova M., Hasanboyeva O. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. – T.: «G'. G'ulom nomidagi Adabiyot nashriyoti». 2000. – 110 b.

45. Hoshimov K., Inomova M., Nishonova S., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: «Tarbiyachi», 1996. – 447 b.

TAYANCH SO‘ZLAR LUG‘ATI

№	O‘zbek tilida	Рус тилида	Ingliz tilida
1	Maktabgacha	Дошкольный	Preschool
2	Ta‘lim	Образование	Formation
	Pedagogika	Педагогика	Pedagogical
3	An‘analar	Традиция	Tradition
4	Axloq	Нравственность	Morality
5	Oila	Семья	Family
6	Madaniyat	Культура	Culture
7	Qadriyatlar	Ценности	Value
8	O‘quvchi	Учащийся	Student
9	Sinf	Класс	Class
10	Pedagogika	Педагогика	Pedagogika
11	Oila	Семья	Family
12	Shakllantirish	Формирование	Shaping
13	Mafkura	Идеология	Ideology
14	Avaylash	Беречь	Keep
15	Istiqlol	Независимость	Independence
16	Maqsad	Цель	Purpose
17	Ma‘naviyat	Духовность	Duhovnosti
18	Meros	Наследство	Inheritance
19	Uslub	Стиль	Style
20	Mohiyat	Сущность	Essence
21	Dunyoqarash	Мировоззрение	Worldoutlook
22	Xususiyyat	Особенность	Particularity
23	Samarador	Плодотворный	Seminal
24	Ong	Сознание	Consciousness
25	Kamol	Совершенство	Perfection
26	Tuyg‘u	Чувство	Feeling
27	Madaniyat	Культура	Culture
28	Bunyodkorlik	Созидательная деятельность	Creative activity
29	Kelajak	Будущее	Future
30	Porloq	Сияющий	Shining
31	Faxr	Гордость	Pride
32	O‘tmish	Прошедший	Passed
33	Milliy	Национальный	National
34	Anglash	Осознавать	Realize
35	Odamlarcha	По человечески	On humanly
36	Qadriyatlar	Ценности	Value

37	Boylik	Богатство	Wealth
38	Asos	Основа	Base
39	Urf-odat	Обычай и привычки	Custom and habits
40	An'ana	Традиция	Tradition
41	Xullas	Одним словом	One word
42	Daxldor	Касающийся	Concerning
43	Barcha	Весь	Whole
44	G'oya	Идея	Idea
45	Namuna	Образец	Sample
46	Tanishish	Знакомиться	Get acquainted
47	Kuzatuv	Наблюдать	Observe
48	Ajoyib	Удивительный	Amazing
49	Qobiliyat	Способность	Ability
50	Orzu	Мечта	Daydream
51	Umid	Надежда	Hope
52	Kelajak	Будущее	Future
53	Intilish	Стремиться	Strive
54	Qalb	Душа	Soul
55	Ezgulik	Благодетельное	Good deed
56	Xulq	Поведение	Behaviour
57	Yo'naltirish	Направлять	Direct
58	Ayniqsa	Особенно	Particularly
59	Xolis	Беспристрастный	Impartial
60	Talqin	Интерпретация	Interpretation
61	Tushunish	Понимать	Understand
62	O'zlashtiriish	Осваиваться	It Be Masterred
63	Ta'sir	Влияние	Influence
64	Muruvvat	Человечность	Humanity
65	Tasavvur	Представление	Presentation
66	Ijtimoiy	Общественный	Public
67	Siyosiy	Политический	Political
68	Sadoqat	Преданность	Devotion
69	Nazariya	Теория	Theory
70	Asosiy	Основной	Main
71	Tamoyil	Склонность	Sklonnost'
72	Obyektiv	Объектив	Lens
73	Yondashuv	Подход	Approach
74	Baholash	Оценить	Value
75	Tadqiqot	Исследование	Study
76	Jarayon	Процесс	Process

ASOSIY TUSHUNCHALARNING IZOHLI LUG'ATI

Axloq (lotincha “moralis” – xulq-atvor ma’nosini bildiradi) - ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo’lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig’indisi.

Axloqiy ong – shaxsga axloqiy me’yorlar va xulq-atvor qoidalari to’g’risidagi nazariy bilimlarni berish asosida hosil qilinuvchi ong shakli.

Aqliy tarbiya – shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to’g’risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishga yo’naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Bilim – bolaning ongida tushunchalar, sxemalar, ma’lum obrazlar ko’rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma’lumotlar majmuyi.

Vatanparvarlik (lotincha “patriotes” – vatandosh, “patris” – vatan, yurt) – shaxsning o’zi mansub bo’lgan millat, tug’ilib o’sgan vatani tarixidan g’ururlanishi, buguni to’g’risida qayg’urishi hamda uning porloq istiqboliga bo’lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat.

Verbal – bilim (ma’lumot, axborot)larni so’z yordamida (og’zaki) yetkazib berish, ifoda etish.

Didaktika (ta’lim nazariyasi) – (yunoncha “didaktikos” “o’rgatuvchi”, “didasko” – “o’rganuvchi”) – ta’limning nazariy jihat-lari (ta’lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, tarbiyachi va bola faoliyati mazmuni, ta’lim maqsadi, shakl, uslub, vositalari, natijasi, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo’llari va hokazo muammolari)ni o’rganuvchi fan.

Didaktik tashxis maqsadi – o’quv jarayonining samaradorligini aniqlash, baholash va tahlil qilish.

Didaktik tizim (yunoncha “systema” – yaxlit, qismlarda tashkil topgan, birlashtirish) – ma’lum mezonlari asosida ta’lim jarayonining yaxlit holatini belgilash, ajratib ko’rsatish.

Jamoa (lotincha “kollektivus” so’zining tarjimasini bo’lib, yig’ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh kabi ma’nolarni anglatadi) – bir necha a’zo (kishi)lardan iborat bo’lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh.

Idrok – aniq maqsadga yo’naltirilgan anglash jarayoni.

Ijtimoiy adaptatsiya (yunoncha adapto – moslashish) – anomal bolalar individual yoki guruhli xulqlarining ijtimoiy qadriyatlar va xulq-atvor qoidalari tizimiga mos kelishi.

Individ (lotincha “individium” bo‘linmas, yagona, alohida degan ma’nolarni anglatadi) – xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudot.

Individuallik – shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari.

Iqtisodiy ta’lim – bolalarga xo‘jalik yuritish tizimi (oila byudjetini shakllantirish, xo‘jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko‘paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to‘g‘ri tashkil etish va hokazolar) to‘g‘risidagi nazariy bilimlarni berishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.

Yosh xususiyatlari – muayyan bir yosh davriga xos bo‘lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar.

Ko‘nikma – olingan bilimlarga asosanib qo‘yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig‘indisi.

Maktabgacha pedagogika – maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o‘rganadi.

Malaka – ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi.

Materialni og‘zaki bayon qilish uslublari – o‘quv materialini mohiyatini ozg‘aki (hikoya, tushuntirish, maktab ma’ruzasi kabi shakllarda) yoritishda qo‘llaniluvchi usullar.

Mashq va o‘rgatish (faoliyatda mashqlantirish) uslublari – muayyan mashq yordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me‘yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirish usullari.

Uslub – yunoncha tarjimasida “tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo‘li” kabi ma’nolarni anglatadi.

Uslubika (fan sifatida) – xususiy fanlarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadi.

Mehnat tarbiyasi – shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni; ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

Pedagogika (yunoncha “paidagogike” bo‘lib, “paidagogos” – bola, yetaklayman) – ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan

jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot uslublari – shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, obyektiv va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullari.

Pedagogik mahorat – bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini o'rganadi.

Pedagogik talab – turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida bola tomonidan amal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Tamoyil (yunoncha “principium”) – biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang'ich qoidasi; boshqaruvchi g'oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab.

Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Tarbiya jarayoni – pedagog va bola (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni.

Tarbiya mazmuni – shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyati.

Tarbiya uslubi (yunoncha “uslubos” – yo'l) – tarbiya maqsadiga erishish yo'li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullari.

Tarbiya nazariyasi – pedagogikaning muhim tarkibiy qismi; tarbiyaviy jarayon mazmuni, shakl, uslub, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o'rganadi.

Tafakkur – ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to'laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli.

Tashxis – didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash.

MUNDARIJA

Soʻz boshi.....	3
-----------------	---

I BOʻLIM. MAKTABGACHA PEDAGOGIKANING UMUMIY ASOSLARI

I bob. Kadrlar tayyorlash milliy modeli. Maktabgacha taʼlimga kirish.....	6
II bob. Maktabgacha pedagogika oʻquv fani sifatida.....	24
II bob. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsining shakllanishi va rivojlanishi.....	41

II BOʻLIM. MAKTABGACHA TAʼLIM YOSHIDAGI BOLALARNI TARBIYALASH MAZMUNI VA USLUBIKASI

IV bob. Tarbiya jarayoni: mazmuni va mohiyati. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari.....	51
V bob. Jismoniy tarbiya.....	63
VI bob. Aqliy tarbiya.....	84
VII bob. Ahloqiy tarbiya.....	103
VIII bob. Mehnat tarbiyasi.....	126
IX bob. Estetik tarbiya.....	136
X bob. Iqtisodiy tarbiya.....	154
XI bob. Huquqiy tarbiya.....	168
XII bob. Ekologik tarbiya.....	182

III BOʻLIM. MAKTABGACHA TAʼLIM YOSHIDAGI BOLALARNI OʻQITISH MAZMUNI VA USLUBIKASI

XIII bob. Taʼlim jarayonining umumiy asoslari.....	193
XIV bob. Taʼlimni tashkil etish shakllari.....	201
XV bob. Maktabgacha taʼlim yoshidagi bolalarni oʻqitish uslublari.....	212

XVI bob. O‘yin maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar faoliyatining asosiy turi sifatida.....	222
---	-----

IV BO‘LIM. MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASASI MENEJMENTI

XVII bob. Maktabgacha ta’lim muassasasini boshqarishning nazariy asoslari.....	230
XVIII bob. Maktabgacha ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonni boshqarish.....	247
XIX bob. Maktabgacha ta’lim muassasasi va oila.....	260
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	277
Tayanch so‘zlar lug‘ati.....	281
Asosiy tushunchalarning izohli lug‘ati.....	283

SHOISTA SODIQOVA

**MAKTABGACHA PEDAGOGIKA
(darslik)**

«Tafakkur Bo‘stoni»

Toshkent–2013

Muharrir: *Z.Mirzahakimova*

Musahhih: *S.Abdualiyev*

Sahifalovchi: *U.Voxidov*

Dizayner: *D.O‘rinova*

Litsenziya AI № 190, 10.05.2011y

Bosishga 2013 yil 13-noyabrda ruxsat etildi. Bichimi 60x84^{1/16}. Ofset qog‘ozi.
Times New Roman garniturasida. Shartli bosma tabog‘i. 18. Nashr tabog‘i 18,2
Shartnoma № 45–2013. Adadi 500 nusxa. Buyurtma № 45–1

«Tafakkur Bo‘stoni» nashriyoti. Toshkent sh., Yunusobod, 9-mavze, 13-uy
Telefon: (+99894) 941-60-06. E-mail: tafakkur0880@mail.ru

«Tafakkur Bo‘stoni» nashriyoti bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent sh., Chilonzor ko‘chasi, 1 uy.



«TAFAKKUR BOSTONI»
NASHRIYOTI

978-9943-362-96-3



9 789943 362963